O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

M.X.GANIEVA
N.M.LATIPOVA
A.N.ALIKARIEVA
S.M.KALANOVA

IJTIMOIY ISH NAZARIYASI

O‘quv qo‘llanma

Ta'lim yo‘nalishi: **5520100 – Ijtimoiy ish (Oilalar va bolalar bilan ishlash)**

Toshkent – 2018

UO’K (UDK) KVK (BBK)

Mas'ul muharrir: **N.S.Aliqoriev**, iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: **D.G.Muxamedova,** psixologiya fanlari doktori,
dotsent**M.Mahmudova,** psixologiya fanlari nomzodi

Ganieva Marifat Xabibovna – Toshkent Davlat universitetini (hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetini) tamomlagan, ixtisosligi bo‘yicha sotsiologiya nazariyasi, uslubiyoti va tarixi. Sotsiologiya fanlari doktori,professor. Jami 150 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, jumladan, 20 dan ortiq kitob, o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek, Xalqaro va Respublika konferensiyalarida, ilmiy jurnallarida ko‘plab maqolalari nashr etilgan.Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yangi ta'lim yo‘nalishi – «Ijtimoiy ish» bo‘yicha barcha me'yoriy hujjatlar – Davlat ta'lim standarti, o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishga mas'ul bo‘lgan.

Latipova Nodira Muxtarjanovna – Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) tarix fakultetining tarixchi jamiyatshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan, ixtisosligi bo‘yicha ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi. Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent. Jami 100 ga yaqin ilmiy ishlar muallifi, jumladan: 1ta darslik (hammualiflikda), 4 ta uslubiy qo‘llanma (yakka mualliflikda), 11 uslubiy qo‘llanma (hammualiflikda), 20 ga yaqin ilmiy maqola, shuningdek, Xalqaro va Respublika konferensiyalarida, ilmiy to‘plamlarda nashr qildirgan.

Alikarieva A'loxon Nuriddinovna – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutining (hozirgi Toshkent Melioratsiya instituti) iqtisod fakultetini imtiyozli tugatib, iqtisodchi mutaxassisligi berilgan. Ixtisosligi bo‘yicha ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi. Sotsiologiya fanlari nomzodi. Jami 100 ga yaqin ilmiy ishlar muallifi, jumladan: 1ta darslik (hammualiflikda), 2 ta uslubiy qo‘llanma (yakka mualliflikda), 15 ta ilmiy jurnallarda, shuningdek, Xalqaro va Respublika konferensiyalarida, ilmiy to‘plamlarda tezis va ilmiy maqolalar bilan ishtirok etgan.

Kalanova Saboxat – Abdulla Qodiriy nominadagiToshkent Davlat Madaniyat instituti (hozirgi Toshkent Davlat San’at instituti) magistraturamadaqniyat sotsiologiyasi mutaxasisligini bo‘yicha tamomlagan,ixtisosligi ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi. KIXI insttituni O’ZMUda 2017-yil tugatgan. O’ZMU, Itimoiy fanlar fakultet, Sotsiologiya kafedrasi o’qituvchisi. Jami 60 ga yaqin ilmiy ishlar muallifi, jumladan: 1ta uslubiy qo‘llanma (hammualiflikda), monografiya (yakka mualliflikda), 16 ta ilmiy jurnallarda, shuningdek, Xalqaro va Respublika konferensiyalarida, ilmiy to‘plamlarda tezis va ilmiy maqolalar bilan ishtirok etgan.

Jami 100 ga yaqin ilmiy ishlar muallifi, jumladan: 1ta darslik (hammualiflikda), 2 ta uslubiy qo‘llanma (yakka mualliflikda), 15 ta ilmiy jurnallarda, shuningdek, Xalqaro va Respublika konferensiyalarida, ilmiy to‘plamlarda tezis va ilmiy maqolalar bilan ishtirok etgan.

O‘quv qo‘llanmada ijtimoiy ishning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, yevropa va AKSh mamlakatlari aholisini ijtimoiy ta'minlash modellari, O‘zbekistonda ijtimoiy ish institutlashuvining asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida qo‘llaniladigan asosiy nazariy yo‘nalishlar, ijtimoiy ish xodimlari kasbiy mahoratini shakllantirish usullari, ijtimoiy ish va ijtimoiy siyosatning o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Oilalar, bolalar, keksalar va nogironligi bor insonlar muammolariga alohida e'tibor qaratilgan. Qo‘llanma asosiy tushunchalar va atamalarning qiska lug‘ati bilan ta'minlangan. Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy ta'lim muassasalarining “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zaro bog‘liq mutaxassisliklar talabalari hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari bilan shug‘ullanuvchilar jamoasi foydalanishi mumkin.

В учебном пособии освещается история становления и развития социальной работы, модели социального обеспечения населения стран Европы и США, основные тенденции институциализации социальной работы в Узбекистане. Рассматриваются основные теоретические направления, используемые на современном этапе развития общества, анализируются пути формирования профессионализма социальных работников, показана взаимосвязь социальной работы и социальной политики. Особое внимание обращено на проблемам социальной работы с семьями, детьми, пожилыми и людьми с инвалидностью. Пособие снабжено кратким словарём основных понятий и терминов.Предназначено для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению «Социальная работа». Может быть использовано студентами смежных специальностей и всеми, кто интересуется и занимается вопросами социальной защиты населения.

The training manual covers the history of the formation and development of social work, the model of social security of the population of Europe and the United States, the main trends in the institutionalization of social work in Uzbekistan.The main theoretical directions used at the present stage of society development are analyzed, ways of forming professionalism of social workers are analyzed, the interrelation of social work and social policy is shown. Particular attention is paid to the problems of social work with families, children, the elderly and people with disabilities.The manual is provided with a short dictionary of basic concepts and terms. It is intended for students of higher educational institutions studying in the direction of "Social Work". It can be used by students of related specialties and everyone who is interested in and deals with issues of social protection of the population.

MUNDARIJA

	KIRISh	6
1-BO‘LIM	**IJTIMOIY ISh TARIXI**	10
1-Mavzu	Ijtimoiy ishlar tarixi o‘quv fani sifatida	10
2-Mavzu	Xayr-saxovat va diniy e'tiqodlar	22
3-Mavzu	Xorijda ijtimoiy ish asoslari	35
4-Mavzu	Ijtimoiy ishchi kasbi: zamonaviy talablar	49
5-Mavzu	Hozirda jahon aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash modellari	66
6-Mavzu	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi davlat va nodavlat tashkilotlari	83
7-Mavzu	Teng huquqlar va teng imkoniyatlar siyosati	93
8-Mavzu	Ijtimoiy ishning xalqaro infratuzilmasi	100
9-Mavzu	Inson hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy ish	107
10Mavzu	Keksalarga va nogiron shaxslarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	113
11-Mavzu	G‘arbiy yevropada aholini ijtimoiy muhofaza qilish	132
12-Mavzu	AQSh da aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi	148
13-Mavzu	O‘zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanishi	159
2-BO‘LIM	**IJTIMOIY ISh NAZARIYaSI**	171
1-Mavzu	Ijtimoiy ish nazariyasi fan va o‘quv fani sifatida	171
2-Mavzu	Falsafiy, psixologik va sotsiologik nazariyalar. Ijtimoiy ishda fenomenologik yo‘nalishlar	187
3-Mavzu	Ijtimoiy ish tamoyillari va usullari	204
4-Mavzu	Jamiyat hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy ish	214
5-Mavzu	Ijtimoiy ish tizimi	221
6-Mavzu	Ijtimoiy ish tizimining zamonaviy holati:turlari va modellari	232
7-Mavzu	Ijtimoiy ishda texnologiyalar	250

8-Mavzu	Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotida kasbiy bilimdonlik	260
9-Mavzu	Ijtimoiy ishning ahloqiy-insonparvar manbalari. Ijtimoiy ishchilarga ma'naviy-axloqiy talablar	267
10-Mavzu	Ijtimoiy ishda sog‘lom turmush tarzi	279
11-Mavzu	Deviant hulq-atvor va ijtimoiy ish	292
12-Mavzu	Zamonaviy oila va uning ijtimoiy muhofazasi zaruriyati	310
13-Mavzu	Nogironlar bilan ijtimoiy ish olib borish xususiyatlari	319
14-Mavzu	Jamiyatdagi bandlik muammolari va ishsizlarga ijtimoiy yordam	335
	ReFeRATLAR MAVZULARI	344
	ASOSIY TUShUNChALAR LUG‘ATI	348
	TAVSIYa ETILADIGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI	355

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	6
РАЗДЕЛ 1.	**ИСТОРИЯ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ**	10
Тема 1	История социальной работы как учебная дисциплина	10
Тема 2	Благотворительность и религиозные верования	22
Тема 3	Основы социальной работы за рубежом	35
Тема 4	Профессия социального работника: современные требования	49
Тема 5	Модели социальной поддержки населения в современном мире	66
Тема 6	Государственные и негосударственные организации в системе социальной защиты населения	83
Тема 7	Политика равных прав и равных возможностей	93
Тема 8	Международная инфраструктура социальной работы	100
Тема 9	Социальная работа в разных сферах жизнедеятельности людей	107

Тема 10	Социальное обслуживание пожилых людей и людей с инвалидностью	113
Тема 11	Социальная защита населения в Западной Европе	132
Тема 12	Система социальной защиты населения в США	148
Тема 13	Развитие Социальной Работы в Узбекистане	159
РАЗДЕЛ 2.	**ТЕОРИЯ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ**	171
Тема 1	Теория социальной работы как наука и учебная дисциплины	171
Тема 2	Философские, психологические и социологические теории. Феноменологическое направление в социальной работе	187
Тема 3	Принципы и методы социальной работы	204
Тема 4	Социальная работа в различных сферах жизнедеятельности общества	214
Тема 5	Система социальной работы	221
Тема 6	Современное состояние системы социальной работы: типы и модели.	232
Тема 7	Технологии в социальной работе	250
Тема 8	Профессиональная компетентность в теории и практикесоциальной работы	260
Тема 9	Нравственно-гуманистические истоки социальной работы. Духовно-нравственные требования к социальному работнику.	267
Тема 10	Здоровый образ жизни в социальной работе	279
Тема 11	Девиантное поведение и социальная работа	292
Тема 12	Современная семья и необходимость ее социальной защиты	310
Тема 13	Особенности социальной работы с людьми с инвалидностью	319

Тема 14	Проблемы занятости в обществе и социальная помощь безработным	335
	ТЕМАТИКА РЕФЕРАТОВ	344
	СЛОВАРЬ ОСНОВНЫХ ТЕРМИНОВ	348
	СПИСОК РЕКОМЕНДУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	355
	Introduction	6
Section 1.	**History of social work**	10
Theme 1	The history of social work as a discipline	10
Theme 2	Charity and religious beliefs	22
Theme 3	Fundamentals of Social Work Abroad	35
Theme 4	The profession of a social worker: modern requirements	49
Theme 5	Models of social support of the population in the modern world	66
Theme 6	State and non-governmental organizations in the system of social protection of the population	83
Theme 7	The policy of equal rights and equal opportunities	93
Theme 8	International Social Work Infrastructure	100
Theme 9	Social work in various spheres of human life	107
Theme 10	Social services for the elderly and people with disabilities	113
Theme 11	Social protection of the population in Western Europe	132
Theme 12	System of social protection of the population in the USA	148
Theme 13	Development of Social Work in Uzbekistan	159
Section 2.	**Theory of social work**	171
Theme 1	Theory of social work as a science and educational discipline	171
Theme 2	Philosophical, psychological and sociological theories. Phenomenological direction in social work	187
Theme 3	Principles and methods of social work	204
Theme 4	Social work in various spheres of society	214

Theme 5	System of social work	221
Theme6	The current state of the system of social work: types and models.	232
Theme 7	Technology in Social Work	250
Theme 8	Professional competence in theory and practice of social work	260
Theme 9	Moral and humanistic sources of social work. Spiritual and moral demands on the social worker.	267
Theme 10	Healthy way of life in social work	279
Theme 11	Deviant behavior and social work	292
Theme 12	Modern family and the need for its social protection	310
Theme 13	Features of social work with people with disabilities	319
Theme 14	Problems of employment in society and social assistance to the unemployed	335
	SUBJECTS OF ABSTRACTS	344
	DICTIONARY OF MAIN TERMS	348
	LIST OF RECOMMENDED LITERATURE	355

KIRISh

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, ijtimoiy ishni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit tug‘ildi. Ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy ish mustaqil faoliyat sifatida o‘tgan asrning boshlarida paydo bo‘ldi va uning oxiriga kelib, bir qator natijalarga erishdi. Uning rivojlanishi amaliyotdan nazariyaga, turli mamlakatlarda saxovat, ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash hodisalarining paydo bo‘lishidan nazariya va amaliyotning hamda ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keldi.

Ijtimoiy ish – jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamdigan zarur kasbiy faoliyat bo‘lib, u hozirda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga va aholining zaif guruhlari bilan bog‘liq ijtimoiy ish sifati hamda qulayligini oshirishga qaratilgan.

Odatda davlat yordamga muhtoj aholiga ko‘maklashishda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va boshqa institutlar orqali, ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiradi. Lekin, faoliyatning alohida turi mavjud bo‘lib, bu ijtimoiy ishdir.

Ijtimoiy ish bir vaqtning o‘zida ijtimoiy institut, kasbiy faoliyat shakli, ijtimoiy amaliyot, nazariy bilimlar sintezi va mustaqil o‘quv fani bo‘la oladi. Ijtimoiy ish nazariyasining diqqat markazida ijtimoiy ishchilar faoliyati turadi. Ushbu faoliyat samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy ishchi insonlarga xos muammolar bilan to‘qnashganda, ularni hal qilish usullarini bilishi kerak. Ijtimoiy ishchi ijtimoiy ish nazariyasining asoslarini chuqur egallagan bo‘lib, uning predmeti va ob'ekti, tamoyillari va usullarini aniq farqlay oladi. Unga maxsus, kasbiy va ma'naviy-axloqiy, ya'ni ilmiy bilim hamda amaliy ko‘nikmalar, rahmdillik, hamdardlik, mas'uliyatlilik, bag‘rikenglik va insonparvarlik, fuqarolik va ijtimoiy adolat tuyg‘usi kabi sifatlar xosdir.

Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi rivojlangan demokratik, farovon

davlatlar qatoridan o‘rin egallash, xalqning hayoti uchun maqbul sharoitlarni ta'minlash vazifalarini qo‘yadi[1].

Bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatida dolzarb va muhim ahamiyatga ega muammolardan biri samarali ijtimoiy himoya va aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash masalasidir. Buni muvaffaqiyatli hal etish uchun faoliyatning turli sohalaridagi mutaxasislar, jumladan ijtimoiy masalalarning turli nazariyalari hamda hal qilish usullarini egallagan professional ijtimoiy ishchilar kuchlarini birlashtirish zarur.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifalaridan biri jahon sivilizatsiya makonida ishlab chiqilgan aholi zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishning tarixiy amaliyotiga bir butun, maqsadli, tanqidiy va muhim munosabatlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, O‘zbekistonnning tarixiy xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy muammolarni hal qilishda o‘z yo‘nalishini ishlab chiqish uchun ijtimoiy masalalarni hal qilishning xorij nazariyasi va amaliyotini o‘rganib chiqishdir.

Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi bilan tanishish faqatgina uning paydo bo‘lishining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish, amaliy ijtimoiy ishning ilmiy maktablari va nazariy modellari to‘g‘risida bilish imkonini beribgina qolmay, talablar, oila va bolalarni ijtimoiy himoyalash tizmi xodimlarining bu faoliyat sohasidagi tasavvurlarini kengaytirish, ijtimoiy ishning mahalliy amaliyoti kelgusi rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini ham beradi. Qo‘llanma ikkita bo‘limdan iborat: «Ijtimoiy ish tarixi» va «Ijtimoiy ish nazariyasi».

Birinchi bo‘limda ijtimoiy ishning kasb sifatida paydo bo‘lishining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ijtimoiy ish ilmiy maktablari va nazariy modellarining rivojlanishi, ijtimoiy soha xodimlarini tayyorlash xususiyatlari, turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish modellari ko‘rib chiqiladi.

---

[1] Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish – rivojlanishimizning hal qiluvchi omili. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanalai marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2010 // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati rasmiy sayti: http:/www..press-service..uz. 12. 12. 2010.

Ikkinchi bo‘limda ijtimoiy ish nazariyasi va usullari tahlil qilinib, aholi qatlamlari bilan bog‘liq ijtimoiy ish tajribasi ko‘rsatilib, oila va bolalar, yoshi katta va nogiron shaxslarga xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalalar batafsil ko‘rib o‘tilgan. Asosiy diqqat ijtimoiy xodimlarning kasbiy layoqatliligini shakllantirish, uning axloqiga etik me'yorlar masalalariga qaratilgan.

Jahonda ijtimoiy ishda ulkan tajriba to‘plangan. Mahalliy tajriba ham juda kattadir. Ammo mamlakatdagi bugungi kundagi ijtimoiy holatning o‘zgarishi ijtimoiy ish konsepsiyasini asoslash va uni amaliyotga joriy qilishni talab etmoqda. Hayotning o‘zi ijtimoiy texnologiyalarni, ijtimoiy ishni tashkil etish va amalga oshirishda tushunarli va aniq usullarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar faoliyatini hisobga olmasdan ijtimoiy taraqqiyot dasturlari, davlatning ijtimoiy siyosatini qabul qilinmaydi. Ko‘pgina odamlar ularning o‘zlari, oila a'zolari, do‘stlari hal qila olmaydigan muammolar bilan to‘qnash keladilar. Buning uchun maxsus ijtimoiy xodimlar talab qilinadi.

Ijtimoiy xizmat psixologlar, shifokorlar, sotsiologlar, pedagoglar, huquqshunoslar, faylasuflar, shuningdek boshqa soha vakillarining kuchlarini birlashtirishni talab qiladi. Shunday qilib ruhshunoslar bu tadqiqotlarda inson shaxsi muammosi, pedagoglar- ularni tarbiyalash masalasi, sotsiologlar- ijtimoiy tuzilmalar muammolari, huquqshunoslar – kasbiy yordamning huquqiy bazasi, faylasuflar- uning eng umumiy muammolaridan manfaatdordirlar[2]. Boshqacha aytganda u kompleks muammolarni hal qilishda turli fan vakillarining hamkorligini nazarda tutuvchi fanlararo tadqiqot natijasi bo‘ladi.

Mazkur kitob “Ijtimoiy ish” (Oila va bolalar bilan ishlash) ta'lim yo‘nalishi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun “Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi” o‘quv fani bo‘yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq keladi. Talabalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy ish xodimlarining amaliy faoliyatida foydalanishga mo‘ljallangan.

[2] Агапов Е.П. Ижтимоий хизмат маданий ҳодиса сифатида. – Ростов-на-Дону: нашриёт Ростов давлат педагогика университети, 1999. – С. 104.

1-Bo‘lim. Ijtimoiy ish tarixi

1-MAVZU. Ijtimoiy ish tarixi o‘quv fani sifatida

1. «Ijtimoiy ish tarixi» kursining predmeti va vazifalari.
2. Ijtimoiy yordamning asosiy shakllari.
3. O‘zbekistonda ijtimoiy yordamning asosiy shakllari.
4. O‘zbekiston va xorijda ijtimoiy fanlar tarixini davrlashtirish.

1. Ijtimoiy ish – butun dunyoda qabul qilingan, ma'nosiga ko‘ra shaxsga insoniy munosabatni namoyon qilishni anglatadi. U qadimgi vaqtlarda saxovat, insonning diniy burchi, insonga zarur bo‘lgan gumanitar xizmatlar tizimi sifatida paydo bo‘lgan. Ammo faqatgina o‘tgan asrga kelib, ijtimoiy ish maxsus tayyorgarlikni talab qiluvchi mustaqil faoliyat sifatida tan olindi.

Ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning dastlabki maktablari 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida G‘arbiy yevropa mamlakatlari hamda AQSh da paydo bo‘ldi. Bugungi kunda hyech bir davlat o‘zini ijtimoiy xodimlarsiz tasavvur qila olmaydi. Ijtimoiy sohada xorijda to‘plangan tajriba 100 yildan ko‘proq vaqtni o‘z ichiga olib, turli shaklda va katta miqdordadir.

Ijtimoiy xodim tushunchasi muomalaga 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida kiritildi. Ammo, mustaqil kasb va akademik fan sifatida ijtimoiy xizmat ikkinchi jahon urushidan so‘ng ko‘rib chiqildi.

Ijtimoiy ish tarixi bo‘limining asosiy vazifalari quyidagilar :aholi qatlamlariga yordam berish va qo‘llab-quvvatlash modellari, institutlarini rivojlantirishning evolyusion yo‘li to‘g‘risida talabalarda tizimli tasavvur shakllantirish, O‘zbekistonning tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy masalalarni hal qilishga o‘z yondashuvlarini rivojlantirish uchun xorijiy nazariya va amaliyotni o‘rganish.

2.Ijtimoiy g‘amxo‘rlik o‘zining tarixiy rivojlanishida xayr-ehsondan jamiyat va xususiy yordamni aks ettirgan davlat tashkiliy tizimigacha bo‘lgan turli shakllarni bosib o‘tdi.

Hayr-ehson – muhtoj shaxsga pul yoki boshqa moddiy vosita shaklida sadaqa berishdir. Bu insonning tabiiy-insonparvarlik sifatlarining dastlabki ko‘rinishlaridan bo‘lib, bizning kunimizgacha diniy e'tiqodidan qatiy nazar ko‘mak berish shakli sifatida saqlanib qolgan. U uzatilgan qo‘lga berilib, shaxsning shaxsiy xususiyatlari, uning sub'ektiv tuyg‘ularini belgilab beradi. Qo‘ldan kelgancha yordam berish xayr-ehsonning asosiy maqsadi sanaladi.

Rahm-shafqat – boshqa insonga rahmdillik, oliyjanoblik, g‘amxshr munosabatda bo‘lish[3]. Rahm-shafqat – bu boshqa insonga amaliy yordamga nisbatan ruhiy-hissiy xayrixoxlikdir. Rahm-shafqat faqatgina moddiy shaklda emas, balki ma'naviy ko‘mak shaklida ham bo‘ladi.

Rahm-shafqat sub'ektning yordam berish maqsadini anglatib, uning yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini aks ettiradi, muhtojlarga yordam ko‘rsatish esa bu yordamni ko‘rsatishga ma'lum jamoaviy va xususiy kuchlarni amalga oshirish bo‘yicha ijtimoiy harakatlarni aks ettiruvchi tushuncha sanaladi.

Xayriya moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan xayriya faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, muhtojlarga ixtiyoriy va beg‘araz pul, mulk va xizmatlarni berishdir. Bu so‘zning sinonimi filantropiya deb ataladi. G‘arb mamlakatlarida u odatda karitativ faoliyat deb nomalanadi (lotincha aritas – yaqinlarga muhabbat). Bu tushunchalar ma'nosi bir-biriga yaqin ammo bir xil emas. Bu tushunchalarni cheklashga urinish tadqiqot ob'ektini almashtirishga sabab bo‘lmaydi.

Muhtojlarga yordam berish kasbiy ijtimoiy ishdan farqlanadi. Ammo u boshqa tashkiliy asoslarda tuzilgan. Ijtimoiy xizmat me'yoriy-huquqiy asos, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, maxsus yaratilgan muassasa va tashkilotlar bilan aniq tartibga solingan.

Bugungi kunda muhtojlarga yordam berish faoliyatiga juda qattiq talablar qo‘yilmagan, bu paydo bo‘ladigan ijtimoiy muammolarga oson moslashish imkonini beradi. Davlat ijtimoiy yordami albatta shart bo‘lib, barcha fuqarolar davlat va uning ijtimoiy institutlari himoyasida bo‘lish huquqiga egadirlar.

[3] Фалсафий атамалар луғати. В.Г. Кузнецова нинг илмий таҳрири остида - М., ИНФРА-М, 2007.- С. 328-329.

Muhtojlarga yordam berish majburiy emas va qatiy talablar bilan tartibga solinmagan, bu ixtiyoriy yordamdir.

Muhtojlarga yordam berish ijtimoiy xizmat shakli sifatida turli xayriya tashkilotlari orqali muhtojlarga bevosita ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Xayriya ijtimoiy ish amalga oshiradigan turli ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishning qo‘shimcha manbasi bo‘ladi. Muhtojlarga yorjam berish madaniyatini tarbiyalashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bo‘ladi.

Ijtimoiy ko‘mak – turli hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishga insonning yordami bo‘ladi. U ma'lum haq evaziga yoki tekinga ko‘rsatilishi mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy ko‘mak zarurligiga olib keluvchi hayotiy qiyinchiliklar ko‘lami xayriyaga nisbatan ancha kengdir. Ijtimoiy ko‘mak faqatgina moddiy emas, balki, jismoniy, ijtimoiy-maishiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqacha bo‘lishi mumkin. Shunday qilib xayriya faoliyati ijtimoiy ko‘makka kirib, ammo barcha ijtimoiy ko‘mak ham xayriya bo‘lmaydi. Xayriya ijtimoiy yordamning o‘ziga xos shakli bo‘lib, muhtojlarga moddiy yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Homiylik o‘z g‘oyasi bo‘yicha sovg‘a berish yoki ehson qilishga mos keladi, ammo umuman turlicha ma'noni anglatadi. Homiylik deganda yuridik yoki jismoniy shaxsning boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsning faoliyatiga uning tovarlari homiyligi to‘g‘risida homiylik yordami oluvchining ma'lum qilish tushuniladi. Homiylik yordami shartnoma tuzishni aks ettirib, bunda homiy qaysi xizmatlarni ko‘rsatish orqali yordamni taqdim etishi ko‘rsatiladi.

Xayriyaning homiylikdan farqi shartnoma va oluvchining majburiy javob harakati talab etilmasligidir. **Filantropiya** – (grekchadan insonlarga muhabbat) dastlab xayrixoxlik, insonlarga xayrixoxlik bilan munosabatda bo‘lish bilan belgilanib, bugungi kunda filantropiya deganda individual xayriya tushuniladi. Ijtimoiy adabiyotlarda filantropiya muhtojlarga yordam sifatida tushuntiriladi.[4]. Juda ko‘p tadqiqotchilar xayriya va filantropiya tushunchalari o‘rtasida farq yo‘q deb hisoblaydilar, ularni to‘liq bir xil deb fikr bildiradilar.

[4] Катта изоҳли ижтимоий луғат. 2- том. – М.: АСТ, Вече, 1999; Т.2.

Xayriya faoliyatining tarkibiy qismi homiylik bo‘lib, birinchi navbatda tashkiliy ko‘mak jamiyatda ta'sirga va ma'lum mablag‘ga ega shaxslar tomonidan ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy yordam ob'ekti va sub'ektini farqlash kerak. Yordam ob'ektiga unga muhtoj uning oluvchisi, sub'ektda esa yordam manbasi kiradi. Ijtimoiy yordam sub'ektining xususiyatiga ko‘ra asosiy turlari quyidagilar: xususiy (individual), guruh, jamoa, davlat.

Umumiy ta'minot –rus tilida ijtimoiy yordam munosabatlarida paydo bo‘lgan maxsus atama bo‘lib, o‘z panohiga olish so‘zi kimgadir g‘amxo‘rlik qilish, unga qayg‘uriy ma'nolarini anglatadi. Kimnidir o‘z otalig‘iga olish bu unga boshpana va oziq-ovqat berishdir. Bu oddiy insoniy ehtiyojlarni qondirishdagi ijtimoiy yordamning oddiy shaklidir. Umumiy ta'minot kasallikyu keksalik va boshqa sabablarga ko‘ra o‘zini ta'minlash imkoniga ega bo‘lmagan shaxslarga qaratilgan xayriya tashkilotlari va tadbirlari majmuidir.[5].

Tarixda ikkita asosiy g‘amxo‘rlik qilish tizimi mavjud: ochiq va yopiq. Ochiq tizim muhtojlarga yordam berishning tartibga solinmagan, xaotik shakli bo‘lib, shaxsiy ishtirok va xoxish asosida bo‘ladi. (masalan, sadaqa). Yopiq tizim-ixtisoslashgan xayriya tashkilotlari, qonun bilan tartibga solingan faoliyat va ish tartibi, maqsadli va doimiy yordam ko‘rsatishdir. (bolalar uylari, kasalxonalar, nogironlik uylari, ishxonalar.). Vaqt davomida g‘amxo‘rlik qilishning ikkita tizimi paydo bo‘lishining aniq mazmuni va shakllari rivojlanishning umumiy darajasiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda nochorlar va yordamga muhtoj kasallar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik parlament va keluvchilar asosida bo‘ladi. Angliyada 17-asrdan boshlab bu maqsadlar uchun keluvchi a'zolardan nochorlar uchun alohida soliq undirilgan. Umumiy qoidaga ko‘ra G‘arbiy yevropada har bir parlament o‘zining mehnatga qobiliyatsiz a'zolarini boqishi va davolashi kerak bo‘lgan,

[5]См. https://slovari.yandex.ru/ Малый энциклопедический словарь Брокгауза ва Ефрона кичик энциклопедик луғати/ Замонавий орфографияда. - Петербург: Ф.А. Брокгауз - И.А. Ефрон, 1907-1909.

ularga g‘amxo‘rlik qilish qonun bilan belgilangan. (tug‘ilgan joyi va kelish muddati).

17-18-asrlarda uy xodimlari vositasida g‘amxo‘rlik qilish keng qo‘llanilib, ular majburiy ishlarni bajarish uchun shasxlarga yordam berishgan. 19-asrning ikkinchi yarmida bu tizim o‘z maqsadlariga erishmagan deb topilib, mehnat yordami tushunchasi chiqarib tashlangan. Rossiyada xususiy g‘amxo‘rlik qilish alohida xayriya tashkilotlari, shaxslar va muassasalar tomonidan amalga oshirilgan.

*3. O‘zbekistonda ijtimoiy yordamning asosiy shakllari..*Insonni himoya qilishning amaliyoti yordam va o‘zaro yordamning ma'lum shakllarida o‘z aksini topgan bo‘lib, uning asosiylari quyidagilar: turli diniy tushunchalar bilan bog‘liq ibodatlar; oila, keluvchilar, xo‘jalik doirasidagi.

Ijtimoiy yordamning dastlabki namoyon bo‘lishi tabiiyki yordamga muhtoj shaxsga g‘amxo‘rlik qilish istagining paydo bo‘lishidir. Uning asosiy shakllari umumiy, shuningdek xo‘jalik yordami, jins, oila, jamiyat doirasidagi o‘zaro yordam va himoyadir. Bunday tashkilotlarda turli an'analar doirasidagi a'zolarning o‘zaro aloqasi namoyon bo‘ladi.

Muhtojlarga moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan xayriya an'analari ularga ixtiyoriy va beg‘araz pul, mulk, xizmatlar berishda aks etadi. Asosiy motiv ham diniy. Ham ruhiy sabablarga ko‘ra xayriya faoliyatini takomillshatirish bo‘lib, insonparvarlik g‘oyalaridan boshqa shaxslarning farovonligi ta'minlanishiga olib keldi. Shuni qayd etish kerakki, bu tashqi majburlash emas, balki ixtiyoriy va ongli harakat sanaladi.

Ijtimoiy tadbirlar tizimi to‘g‘risda muhokama qilish imkonini beruvchi dastlabki yozma manbalar zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestodir. Unda davlat ijtimoiy siyosati va tuzilishi to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan. Xayriya manzilli yordam ko‘rsatish usuli sifatida oddiy fuqarolar uchun an'anaviy axloq qoidasi bo‘lgan, ruhoniylar va diniy tashkilotlar vakillari xayriya faoliyatini amalga oshirish, yordam, ko‘mak ko‘rsatish kabi ijtimoiy ish vazifalarini bajarganlar. Hukumat, badavlat shaxslar, ibodatxonalar xayriya tushliklarini tashkil

qilishgan va muhtoj va kambag‘allarga tarqatishgan. Jamoada muhtoj oilalarga moddiy yordam umumiy jamoa fondi hisobidan ko‘rsatilgan.

Jamiyatdagi ijtimoiy yordam mexanizmining xususiyati har bir inson himoya ostida bo‘lishi kerakligiga asoslangandir. Bu tuzilma o‘z ichiga oila va jamiyat tarkibiga kiruvchi a'zolarni qo‘llab-quvvatlashni oladi. O‘zyuekiston hududidagi qadimgi jamiyatlar bunday muammolarning katta qismini tarbiya, ishga joylashtirish bilan hal qilishgan va shaxs. Oila, guruh darajasidagi ijtimoiy yordam ko‘rsatish jamoa diqqat markazida bo‘lgan.

Qadimda jamiyat a'zolariga yordam va ko‘mak ko‘rsatishning shakllaridan biri hashar- beg‘araz va ixtiyoriy yordam bo‘lib, uy, ko‘prik, to‘g‘on, kanal qurilishida ishtirok etish sanalgan. Bunday ko‘ngilli yordam odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, katta hajmdagi ishlarni bajarishda qo‘shimcha ish kuchini talab qilgan hollarda amalga oshirilgan. Qayd etish kerakki, bu qadimiy odat hozirgacha saqlanib qolgan.

O‘rta Osiyo tarixining islom davri ijtimoiy hayotda diniy tashkilotlar ishtiroki bilan davom etdi va o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat boshqaruvi shakli bunda yetakchi bo‘lsada, islom ibodatxonalari ahamiyati ham katta edi. Bu davlat darajasida muhtoj fuqarolarga ijtimoiy ko‘makni amalga oshirishda islom ta'sirini belgilab berdi.

Muhtoj insonlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari kengayib, jamiyat ham yangi turdagi madaniy qadriyatlarga ehtiyoj sezdi. Ijtimoiy yordam va ko‘mak vazifalari masjidlarda, shuningdek umumiy-diniy hamjamiyatlarda amalga oshirildi. Ijtimoiy yordam shakllari individual va kollektiv shakllarda bo‘ladi. Yordamning eng keng tarqalgan individual shakli har bir musulmon uchun asosiy islom arkonlaridan sanalgan ehson (zakot) berishdir.

Zakot so‘zi sadaqa ma'nosini anglatib, ixtiyoriy tarzda kambag‘allarga beriladigan yordamni anglatadi. Zakot aholining kambag‘al qatlami ehtiyojlari uchun berilishi kerak. Zakotdan tashqari fitr sadaqasi ham bo‘lib, ro‘za oyida yoki u tugaganidan so‘ng beriladi. Fitr sadaqasi o‘z mulkiga ega, qarzi mavjud

bo‘lmagan har bir musulmon uchun farzdir. Bunda kam ta'minlangan fuqarolarning manzilli ijtimoiy himoyasi namoyon bo‘ladi.

Mamlakat ijtimoiy madaniy tizimida yana savob va himmat tushunchalari ham bo‘lib, u ijtimoiy yordamning o‘ziga xos vositasidir.Uning mohiyati shundan iboratki, u odatda sirli tarzda beg‘araz yordam berishni anglatadi. Umumiy yordamning jamoaviy shakllariga qurbonlik qilish, tibbiy yordam, maxsus bepul kasalxonalarni tashkil qilish kiradi.

Mazkur bosqichda jamiyat sub'ektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi paydo bo‘lib, turli holatlar natijasida shaxslar hayot faoliyati uchun teng imkoniyatlar bo‘lmasligi mumkin. Ammo individual yordam amaliyoti bilan birgalikda o‘zaro yordamning shakllari ham paydo bo‘ldi. Ular faqatgina individual himoya shakllari bilan emas, balki oila, qo‘shnilarga ko‘rsatiladigan jamoaviy xususiyatga ham ega edi.

Ijtimoiy himoyaning jumoat institutlarining a'zolari ba'zan juda manfaatli tomon sanalishgan. Bu shakl takomillashib xayriya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga aylangan. Masalan bolalar o‘z ota-onalarini keksaygan paytida hurmat qilishlari va ta'minlashlari kerak, ota-onalar qizlarini vaqtida turmushga berishlari kerak. A'zolar baxtsiz hodisa yoki tartibsizliklar natijasida undan moddiy yordam olishlari mumkin.

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmat o‘zida uzoq tarixga, madaniy-tarixiy o‘zgarishlarga ega jarayonni aks ettiradi. Ijtimoiy xizmat filantropiya, xayriya va shunga o‘xshash faoliyatlardan faqatgina muammolarni hal qilishda yordam berish bilan emas, balki qiyinchiliklarni bartaraf qilish va o‘z-o‘ziga yordam berish ko‘nikmalarini rivojlantirishi bilan ham farq qiladi. Bu aytish mumkinki, turli hayotiy muammoli holatlarda insonning o‘z muammolarini faol yechishga o‘rgatishdir.

Sharq taraqqiyot o‘choqlaridan biri bo‘lib, doimo o‘ziga xos, takrorlanmas madaniyatga ega bo‘lgan. Bunday asosiy madaniyat dominatlariga ko‘pgina sharq mamlakatlari va xalqlari uchun xos bo‘lgan an'analar va fikrlashning qonuniy

uslublari, kirib, sotsiologiyada an'anaviy jamiyat deb ataladi. Bunda avloddan avlodga o‘tib keluvchi odatlar,me'yorlarga qattiq rioya qilinadi.

Turli darajadagi individual va ommaviy bilimlarning muhim xususiyatlaridan biri kattalarni hurmat qilishdir. Sharqdagi mazkur xususiyat O‘zbekistonda ham saqlangan va ma'naviy-axloqiy darajaga ega. Oilada va jamoada katta kishi gapirganda barcha quloq solib, undan baland ovozda gapirmaydi. Jamoaviylik doimo sharq madaniyatining barcha darajalari uchun xos bo‘lgan: maishiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy. Qadimgi vaqtlardan tarbiya umumiy psixologiya asosida amalga oshirilib, har bir shaxs biz tushunchasining bir bo‘lagi sifatida ko‘rilgan.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng demokratik huquq va erkinliklar asrlar osha yig‘ilgan axloqiy, ruhiy va ma'naviy qadriyatlar bilan rivojlanmoqd.

O‘zbekistonda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organiga mahalla-qo‘shnilar jamoasi kiradi. O‘zbek mahallalari ming yillik tarixga ega va muhtojlarga ijtimoiy yordam berishning tayanchi sanaladi. Bu yerda oilaviy-maishiy odat va an'analar saqlanadi va avloddan avlodga o‘tadi, bevalar va ularning farzandlariga ma'naviy va moddiy ko‘mak beriladi, yetim bolalar tarbiyasiga katta e'tibor qaratiladi.

4. **O‘zbekiston va xorijda ijtimoiy ish tarixini davrlashtirish.** Ijtimoiy ish tarixini davrlashtirishning asosiy muammolari umumiy yordam amaliyoti, tushunchalarning o‘zgarish dinamikasi, tarixiy makon xususiyatlari, tarixiy bilimning xususiyati belgilash bilan bog‘liq. Jamiyatning bir qatlamining boshqa qatlamga yordam va ko‘mak berishining turli modellari asosidagi jarayoni –bu madaniy tarixiy jamiyatdagi o‘zaro yordam jarayonini aks ettiradi. Yordam va o‘zaro ko‘makning har bir bosqichi sub'ekt va ob'ekt, qo‘llab-quvvatlash institutlari, yordam g‘oyasi o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotchilar xorijda ijtimoiy ish tarixini besh davrga ajratishadi[6]:

I. Muhtojlarga yordam berishning arxaik davri (miloddan avvvalgi 3-ming yillik oxiri- 2-ming yillik boshlarigacha.).

[6]Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. Хориж ва Россияда ижтимоий хизматлар тарихи (қадимги асрлардан 20-аср бошигача) – М., 2002, - с. 15.

II. Filantropik davr (taxminan milodning 5-asrigacha.).

III. Jamoaviy xayriya davri (jamoaviy, cherkov) (16-asr boshigacha.).

IV. Davlat yordami davri (X1X-XX asrlar.).

V. Ijtimoiy ish davri (hozirgi kunda davom etyapti).

O‘zbekistonda ijtimoiy ish tarixini davrlashtirish o‘ziga xso xususiyatga ega va quyidagicha bo‘ladi:

(islomgacha bo‘lgan davr VIII asrgacha)

Umumiy xayriya davri (jamoaviy, diniy) (VIII asrgacha.). O‘rta Osiyo hududida yordam va o‘zaro ko‘makning qabilaviy va jamoa shakli zardushtiylik davrida vujudga keldi. Ijtimoiy yordam qadimgi Muvorounnahrda mavjud edi.

Diniy-davlat xayriya davri (XIV-XX asr.). Diniy xayriyana ega aholiga ijtimoiy yordam berishning davlat tizimi bilan xarakterlanadi. Yordamning eng keng tarqalgan shakli xayr-ehsondir. Xayriyaning davlat tizimi Timur boshqaruvi yillarida shakllandi.

Ijtimoiy rejalashtirish davri (1917-1991). Ijtimoiy ta'minot tizimining isloh qilinishi. Xususiy va umumiy xayriya shakllarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ta'minot vazirligi pensiya ta'minoti, nogironlar, yolg‘iz va ko‘p bolali oilalar, ota-onasiz bolalarni qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Bu davrda mamlakatda na tekinxo‘r, na tilanchilar bo‘lmagan.

Ijtimoiy ish institutining shakllanish davri (1990- yy dan.). Ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning o‘zgarishi, narxlarning erkinlashtirilishi, ishsizlik ijtimoiy muammolarga olib keldi. Qisqa muddatli dasturlar paydo bo‘ldi: kam ta'minlarga pul, ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha. Muhtojlarga yordam berish tizimi shakllanyapti. Shuning uchun bu muammo bizda va xorijda qanday hal qilinayotganini o‘rganish muhimdir.

Ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishini uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich ijtimoiy ishning kasb sifatida paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchisi 20-asrda shimoliy Amerika va yevropada ijtimoiy ishning ijtimoiy institut sifatida o‘zgarishidir. Uchinchi bosqich ijtimoiy ishning butun dunyoda qo‘llanilish bilan bog‘liq.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Ijtimoiy ishning maqsadi va vazifalari.
2. Ijtimoiy yordam ob'ekti va sub'ekti.
3. Xayriya va g‘amxo‘rlik qilish.

2-Mavzu. Muhtojlarga yordam berish va diniy e'tiqodlar

1. Dastlabki sivilizatsiyalarda xayriya g‘oyalarining paydo bo‘lishi
2. Xristian xayriya amaliyoti
3. Islom dinida xayriya burchlari
4. Pravoslav xristianlik va uning xayriyaning rivojlanishidagi ahamiyati.
5. Iudaizm va xayriya faoliyati

1.Qadimgi misrliklarda muhtojlarga ko‘mak berish va beg‘araz shakldagi saxovat to‘g‘risida tushunchalar mavjud bo‘lgan. Qadimgi Misr bo‘yicha yozma manbalar bizgacha Piopinaxt so‘zlarida yetib kelgan bo‘lib unda shunday deyiladi: «Men qorni ochga non berdim, kiyimsizni kiyintirdim», «Ptaxotep o‘gitlarida» shunday deydi: «O‘z yaqinlaring bilan munosabatlarda ochko‘z bo‘lma, iltijo qilish buyuk kuchdir». Qadimgi Misrliklarda saxovat - o‘zaro yordam va beg‘arazlik to‘g‘risida tasavvurlar mavjud edi.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasida yaqinlarni sevish, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash muhim axloqiy vazifalardan biri sanalgan. Bu qadimgi xitoyliklarning insonparvarlik, adolatlilik va burch tushunchalariga kirgan. Ular Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan xitoy axloq tizimining “besh doimiysi” bo‘lib, yaqinlar bilan munosabatlarni anglatgan: «otaga hurmat, o‘g‘ilga izzat, katta akaning kichigiga do‘stona munosabati, kichik ukaning akasiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, er-xotin o‘rtasidagi kelishuv».

Konfutsiy fikricha, adolatli tartibni saqlab turishning vositasi qonun emas, balki ideal axloq namunasi mustahkamlangan an'ana va axloqiy asoslarga rioya qilish, bir-biriga yon berish va o‘zaro voz kechishga shaxsni majbur qiluvchi

tadbirlarga amal qilishdir. Insonparvarlik va saxovat tuyg‘ulari Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan «syao» – o‘g‘ilga xos hurmat to‘g‘risidagi asarida o‘z isbotini topgan. Odobli o‘g‘il butun hayoti davomida o‘z ota-onasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi, har qanday holatda ularga xizmat qilishi va ularning ko‘ngligi yo‘l topishi kerak. «Agar rahm-shafqat bo‘lmasa qanday qilib olijanob erkak bo‘lish mumkin.?!Oliyjanob erkak hattoki ovqatlanish vaqtida ham rahmdillik to‘g‘risida unutmaydi».

Rahmdillik an'analari, yaqinlarga insoniy munosabat qadimgi Hindiston axloqiy madaniyatida o‘ziga xos bo‘lgan. «Rigveda» madhiyasida shunday so‘zlar bo‘lgan: «Beruvchining boyligi kamaymaydi... Kimda ovqat bo‘lsa kuchsizlar uchun bersin, kim faqat o‘zi uchun harakat qilsa bu inson yordam beruvchi bo‘lmaydi. Yaxshi fazilat-bu xudoning qonunlariga itoat etish, shu jumladan odamlarni sevishdir. Qadimgi hind diniy kitoblarida shunday jumlalarni uchratish mumkin: «Barcha tirik narsalarga xayrixoxlik bilan munosabatda bo‘l, himmat shaklida xursand bo‘l, nochorlarga rahmdil bo‘l va achin».

Ijtimoiy o‘zaro faoliyatni tartibga soluvchi keyinchalik paydo bo‘lgan huquqiy hujjatlar Manu qonunlari, deb atalgan. Unda nikoh shakllari, farzandlikka olish mexanizmi, mulkni meros qilib qoldirish xususiyatlari tasvirlangan

Xayriya g‘oyalari, o‘zaro ko‘mak, saxovat faoliyati antik dunyo axloqiy madaniyatida o‘z rivojiga ega bo‘ldi. Qadimgi Gretsiyada kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash burch sanalib, chunki bu muhtojlar qarindoshlik holatida bo‘lishgan va qabilaning mijozlari deb atalgan. Aynan qadimgi shahar polislarda xayriya va ta'minotni davlat tomonidan tartibga solish asoslari paydo bo‘lgan.

Chet ellik yoki tilanchilar Zevs xudosining qaramog‘ida deb hisoblangan. Bundan tashqari o‘z xudolari inson ko‘rinishida yerda kezib yuradi deb hisoblashgan. Shuning uchun kelgan mehmon xursandchilik bilan kutib olinib, qo‘l va oyoqlarini yuvishi uchun suv quyilgan, keyinchalik undan kimligi, qayerdanligi va nima uchun kelganligi so‘ralgan. Ketayotgan vaqtda unga yaxshi sovg‘alar berilgan. Gadoylarga ham achinish bilan munosabatda bo‘linib. Sadaqa, ba'zan oyoq kiyim va ust-boshlar berilgan, tantanalarga qatnashishga takliq etilgan.

Nochorlarga yordam berish grek shahar polislarida muhim g‘amxo‘rliklardan biri sanalgan. Tez-tez mulksizlarga jihozlar va pul berilgan.

Qadimgi Gretsiyada kasallarni parvarishlash alohida ehtiborga jihat bo‘lgan.Shu davrda harbiy nogironlar oilasi bilan davlat hisobidan ta'minlash tadbirlari qabul qilingan. .

Demokratik tuzilmalar kambag‘allarga vasiylik asosidagi xayriya faoiyatining yangi, zaruriy, majburiy tizimini talab qildi. Shahar davlatlar murakkablashib, xayriya faoliyati va bu faoliyatning ob'ektini o‘zgartirdi.

Ijtimoiy yordamni tashkil etish muammosi qadimgi Rim davlat rahbarlari oldida turgan. Filantropik yo‘l bilan davlatda tartibni ta'minlashda Davlatda filantropik yo‘l bilan tartibni saqlashga uringan Avgust ijtimoiy lavozimdagi xodimlarni tashkil qilish, ularning vazifasi xalq o‘rtasida nonni taqsimlashda umumiy ishlarni tashkil qilish uchun javob berish edi. ; Klavdiy davrida yetimlarga vasiylik uchun javob beruvchi xodimlar paydo bo‘ldi. Shunday qilib, davlat filantropiyasi boshqarish, bo‘ysunish va nazorat qilish tizimi bilan dastlabki ijtimoiy tashkiliy xususiyatga ega bo‘ldi. O‘zaro yordam shakllari davlat ishtirokisiz paydo bo‘ldi. Masalan dafn qiluvchi o‘rtoqlar deb nomlangan jamiyatda, uning asosiy maqsadi o‘z a'zolarini tartibli dafn qilishdir.

Siyosiy arbob va yozuvchi Sitseron fikricha xariyaga nisbatan inson tabiatidagi boshqa yaxshi narsa yo‘qdir. Shunday qilib insonlar ongida fuqarolar va davlatga yo‘naltirilgan umumiy javobgarlik paydo bo‘ldi.

Qadimgi Rimda xayriya yordam, yetim va tashlab ketilgan bolalarga qarashga katta e'tibor berilgan. Bu yordam davlat darajasida amalga oshirilgan. Nerv va Trayan imperatorligi davrida yer ijarasi evaziga ssuda berish mavjud bo‘lgan. Olingan foyda bolalar, ayniqsa yetimlar tarbiyasiga yo‘naltirilgan.

Davlat xayriyasi bilan bir vaqtda munitsipal xayriya ham mavjud bo‘lgan. Mulkiy tengsizlikning o‘sishi, ozod hunarmand va yer eagalarining paydo bo‘lishi bilan faqatgina kambag‘al fuqarolar g‘azna hisobidan yashashiga olib keldi. Tit Liviya shundan dalolat beradiki, Rimning kambag‘al fuqarolari g‘azna hisobidan

yashashlari mumkin bo‘lgan. Rimlik harbiy nogirolarga yer maydonlari berilgan va ishlab chiqarilgan mahsulot ularning foydasi deb belgilangan.

Eramizgacha bo‘lgan 2-asrdan milodning 2-asrigacha bo‘lgan davrda rim xuquqi deb nomlangan qadimgi Rimning xuquqiy tizimi shakllandi. Bunda bir qator moddalar mavjud bo‘lib, bevosita va bilvosita ta'minot muammosiga tegishli edi:

- Farzandlikka olish-ikki shaklda –: o‘z bolasi bo‘lmaganda merosxo‘r olish uchun va oilaga qo‘shicha ish kuchi olish uchun farzandlikka olish.
- Vasiylik va vasiylik qilish –vasiylikka olinuvchi shaxs to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni aks ettirib, rim huquqi bo‘yicha ular hyech qanday mulkka va ularni mustaqil taqsimlash bo‘yicha imkoniyatga ega bo‘lmaganlar.
- Vasiylik va homiylik shakllari vasiylik ob'ektiga bog‘liq holda ajratilgan :

- voyaga yetmaganlar to‘g‘risida vasiylik qilish;
- ayollarga vasiylik qilish;
- aqli zaiflarga vasiylik qilish;
- isrofgarlarga vasiylik qilish.

Shunday qilib qadimgi Gretsiya va Rimda filantropik faoliyatning rivojlanishi ham davlat, ham xususiy shaxslar tomonidan amalga oshirilib, har qanday xayrli ishlarning boshlanishini anglatgan, bunda pul va non berish, shuningdek bayram va tomoshalar o‘tkazish mumkin edi.

2. Xayriya faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda xristianlik bilan xayriyaning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi aloqalar o‘rganilgan.

Pastki qatlamga rahmdillik qilish va ularni qiynaydiganlarni muhokama qilish ma'lum darajada cherkovlarning ijtimoiy olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu munosabatlardagi cherkov dasturi kambag‘allar foydasiga xayriya qilish talablaridan iborat edi. Nochorlikni yo‘qotish usullari to‘g‘risida o‘ylab ko‘rilmagan. Bu vaqtda kambag‘allarga boylar tomonidan ularni hayotini yengillashtirish zaruriyati ko‘rib chiqilgan. Shu tarzd sadaqa berishning ma'lum qoidalari shakllangan.:

1) ahamiyat faqatgina qo‘ldan qo‘lga o‘tadigan bevosita xayriya;

2) saxovat sir saqlanishi kerak;

3) tilanchilik sababi va holatisiz xayriya muhimdir;

4) tilanchi unga yordam bergan shaxsning ismini bilishi va cherkovda uning uchun ibodat qilishi kerak bo‘lib, unga yordam qaytarishi majburiy emas.

Yomon ovqatlanish va tibbiy holatning achinarli ahvoldaligi, epidemiyalar jismoniy holatning buzilishi va aholining o‘lim darajasi yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘rtacha hayot davri juda past va o‘ttiz yildan oshmaydi.

Moxov kasalligining tarqalishi natijasida kasallar uchun maxsus ajartilgan joylar, katolik cherkovi tomonidan yaratilgan joylar paydo bo‘ldi. 14-asr o‘rtalarida yevropaga yanada xavfli yuqumli kasalliklar kirib kelib, g‘arb dunyosi hayotini tahlikaga soldi. O‘lat epidemiyasi sanitar qonunchilik va shahar sanitariyasi paydo bo‘lishiga olib keldi.

Katolik xayriya amaliyoti mos diniy asoslarni tuzib, o‘z ichiga umumiy xristianlik tamoyillari, katolik postulatlarni oladi. U qutqarish konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, kambag‘al, mulksizlar foydasiga turli ixtiyoriy yordamlarni takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Katolik adabiyotlarda odatda ikki yo‘nalishdagi moddiy va axloqiy xususiyatdagi xayriya faoliyati ajratiladi.

Tana uchun xayriya ishlari deb nomlangan an'anaviy ro‘yxat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ochlarni to‘ydirish, chanqaganlarga suv berish, kiyimsizlarni kiyintirish, begonalarni o‘z uyiga qabul qilish, kasallarni ko‘rish. Bu ro‘yxat ruh uchun xayriya ishlarining yettitasi bilan to‘ldiriladi: gunohkorlarga e'tibor berish, marifatsizlarni o‘qitish, shubhalanganlarga maslahat berish, qiynalganlarni yupatish, qiyinchiliklarga chidash, chin yurakdan kechirim so‘rash, tirklar va o‘lganlar uchun duo qilish. Katolizmda xayriya nochorlarga rahmdillik va achinish, muhtojlarga moddiy va ma'naviy ko‘mak berishda namoyon bo‘ladi.

Xristianlik eng avvalo yetimlarga g‘amxo‘rlikni tavsiflaydi. Bu davrda yetimlar, nochorlar to‘g‘risida qayg‘urish katolik monastirlarida paydo bo‘ldi. Kim yordamga muhtoj bo‘lsa va uni so‘rab kelsa yordam ko‘rsatilgan. Ko‘pgina joylarda kambag‘al va bechoralar uchun kasalxonalar qurilgan.

Protestantizm va xayriya.Protestantlikning paydo bo‘lishi bilan xayriya tushunchasi va xayriya faoliyati ma'lum ma'noda o‘zgardi. Xayriya va sadaqa berishga yondashuv katoliklardan farqlanadi.

Qutqarish to‘g‘risida katolik olimlari birinchi navbatda xudoga ishonishni aytib o‘tishgan. Protestantlar nochorlikning katolik g‘oyasiga qarshi chiqishgan. Bu ayniqsa kalvinizmda namoyon bo‘lib, olimlar fikricha har bir odam dunyo yaralgunga qadar qutqurilgan.

Masalan, M.Veber nochorlik va'dasi to‘g‘risida masala bo‘yicha gersog Kristofa Vyurteleberg fikrini keltiradi : «kim muhtojlikda bo‘lsa bu o‘z xulqidan kelib chiqqan, boshqa hyech narsa emas. Amma agar u muhtojlikda doimiy qolish to‘g‘risida aytgan bo‘lsa, doimiy kasal yoki doimo axmoqona fikrlardan foydalanadi»[7].

Muhtoj insonga sadaqa berish asosiy maqsad emas, balki uning ruhini qutqarish, uni axloqiy yangilash, nomaqbul holatlarni bartaraf etishda ichki kuchni uyg‘otish bosh masaladir.

Protestantlik diniy shaklda dastlab ijtimoiy-sog‘lomlashtirish muammosi va xayriya va ijtimoiy xizmat qilishning psixoterapevtik vazifasini qo‘ydi.

Protestantlik xayriya faoliyatining institutsionallashuvining boshlanishi bo‘lib, u o‘z yo‘nalishini yangi me'yoriy tuzilmalarga qaratib, ijtimoiy ish shakli vujudga keldi.

G‘arbda hozirda ham ko‘pgina xayriya tashkilotlari o‘z faoliyatini muhtojlarga tuzoq taklif qilish tamoyili asosida quradilar. Agar inson och bo‘lsa unga baliq berish juda oddiy, tuzoq berish va undan foydalanishga o‘rgatish o‘zini kelajakda ta'minlash imkonini beradi.

3. Islom, boshqa xalqaro dinlar kabi yuqori darajadagi axloqiy shaxsni shakllantirishga katta e'tibor beradi. Kuron va sunnatlarda insonning tug‘ilganidan vafot etgunga qadar bo‘lgan hayotini qamrab oluvchi turli axloqiy me'yorlar keltirilgan.

---

[7]Вебер М. Протестант этикаси ва капитализм руҳи.//Танланган асарлар. – М., 1990. – С. 257.

Doimiy axloqiy takomillashuv har bir insonning majburiyatidir. Olloxga ishonish kabi bag‘rikeng va saxovatli bo‘lish har bir musulmondan shanuday sifatlarni talab qiladi. Bu haqda Quronda gap faqat murakkab vaziyatlarda qayg‘urish haqida emas, balki uni qo‘llab-quvvatlash va beg‘araz yordam berish haqida boradi. Payg‘ambar hikmatlarida musulmonning insoniy munosabatlardagi majburiti to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilib, qiyin holatda bo‘lgan insonga yordam berish vazifasi qo‘yiladi.

Islom ta'limotlarida yetimlar to‘g‘risida qayg‘urilib, zakot uchun mo‘ljallangan mablag‘lardan ularga sarflash ko‘rsatiladi. (yordamga muhtoj musulmon foydasiga majburiy sadaqa yoki soliq). yetimning mulki dahlsiz bo‘ladi. Ularning mulkini olganlar Quron bo‘yicha do‘zax olovida kuyadilar. Bundan tashqari Quron bu vaqtgacha amalda bo‘lgan ortiqcha bolalarni o‘ldirishni ta'qiqlaydi.. «Bolalaringizni kambag‘allshishdan qo‘rqib o‘ldirmanglar.Biz siz va ular uchun harakat qilamai. Ularni o‘ldirish katta gunoh».

Barcha katta yoshli mehnatga qobiliyatli musulmonlar Quronga ko‘ra zakot to‘lashlari shart bo‘lib, dastlab bu xayriya, keyinchalik muhtoj musulmonlar foydasiga soliqqa o‘zgardi. Bu boyliklardan isrof bilan foydalanishni oldini oladi. Zakot ma'lum minimumdan o‘tgan mulkdan to‘lanib, yerdan olingan mahsulotlardan 2.5%, oltin, kumush, qimmatbaho toshlar qazib olishdan 10%, dengiz mahsulotlaridan 20% to‘lanadi. Mazkur jamg‘armadan yordam olish huquqiga kambag‘allar, to‘lay olmaydigan qarzdorlar, urush

Zakot – har yillik o‘z mulkining ma'lum qismini muhtojlar foydasiga ixtiyoriy-majburiy berishdir. Qurbon hayiti kunida mulk yoki mablag‘ga ega har bir erkin musulmon qurbonlik keltirishi kerak (bir kishi uchun –bir qo‘y, 17 kishi uchun bir tuya yoki bitta yirik shoxli qoramol. Qurbonlik qilingan hayvonning barcha go‘shtlari muhtojlarga tarqatiladi.

Murakkab amaliyot shu yerda: go‘shtning uchdan bir qismi oila va mehmonlar uchun bayramga sarflanadi, qolganlari darhol muhtojlarga tarqatiladi. Teridan foydalanishda islomda shunday yozilgan: yoki uy xo‘jaligida foydalanish mumkin, kimgadir bepul berish mumkin, agar hyech kim olmasa sotib pulini

sadaqa qilish kerak. Agar qurbonlik qilishi shart bo‘lgan inson qandaydir sabab bilan uni bajarmasa u hayvon qiymatidagi pulni sadaqa qilish kerak.

Muhammad ta'limotlari muhtojlikni bartaraf etishga qaratilgan. U shunday deydi, agar muhtoj inson ish o‘rganishi zarur va hayotida o‘zi daromad qilib, muhtoj bo‘lmaydi. Sadaqa so‘rash gunoh hisoblanib, uni faqat olov bilan yuvish mumkin.

Islom arkonlaridan tashqari sadaqani yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari qarz so‘raganlarga berish, aybsizlarni ozod qilish, kasal va vafot etayotgan shaxslarni ko‘rish, dafn marosimida yordam berish, mehmonlarga mehmondo‘stlik ko‘rsatish, musofirlarga yo‘lni ko‘rsatish ham zarurdir. Bularning barchasi axloqiy ehtiyojni takomillashtirib, xech qanday hisob-kitobsiz xayriyani rag‘batlantiradi. Xayriyani tarqatish uch shaklda bo‘ladi:

a)xayriyaning yagonaviylik akti ;

b) aybni yuvadigan harakat ko‘rsatmalarni o‘ngli buzganligi uchun jarima,;

v) o‘z daromadlarining ma'lum qismini mulksizlarga berish.

Sadaqani qabul qilish uni berishga imkoniyati bo‘lmagan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

4. Yordamning cherkov shakli xristianlikning dastlabki yillaridan Rusi davlatchiligi paydo bo‘lgunga qadar ikkita asosiy yo‘nalishda rivojlandi: monastirlar orqali yordam berish- yordamning monastrlik tizimi, qavm orqali yordam-yordamning daromad tizimi.

Monastrlar xayriya faoliyatining markaziy o‘rnini egallaganlar. Monastrlar qandaydir bir yordam shakliga ixtisoslashmagan. Ular asosan to‘rtta vazifani bajargan: davolash; moddiy mahsulotlarni bir marta berish orqali mulksizlarga yordam ko‘rsatish, muhtojlarni hunarmandchilikka o‘qitish, nazorat qilish.

Boshqa yordam tizimi qavmlarda kuzatilgan. Monastr yordamidan farqi u yanada ochiqroq bo‘lgan. Unda butun jamoa, fuqarolar va cherkov hayoti aks etgan. Mazkur faoliyat faqatgina muhtojlarga yordam berish bilan cheklanib qolmasdan, ular turli xildagi ko‘mak moddiy yordamdan tarbiyalash va qayta tarbiyalashgacha bo‘lgan. Qavm shuningdek hududiy. Ma'muriy va soliq

birliklariga ega bo‘lgan. Deyarli har bir qavmda kambag‘allar uylari bo‘lgan. Qavmga xos xayriyaning muhim shakllariga cherkov g‘aznasidan ssuda, pul, non, urug‘ berishni keltirish mumkin. Qavmga xos xayriya monastirlik va fuqaroviy yordam tizimlari oralig‘idagi bo‘g‘in sanalgan. Monastrlardan farqli tarzda qavmlar ochiq tashkiliy tizimga ega edi. Xizmatchilar mustaqil tanlangan. Bundan tashqari jamoada oqsoqol saylanib, u iqtisodiydan ijtimoiygacha bo‘lgan vazifalarni bajargan..[8]

5. Bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalari va xayriya amaliyoti qadimgi yahudiylarda ham mavjud bo‘lib, ularning diniy va tarixiy-madaniy yodgorligi bo‘lgan Vetha vasiyatlarida o‘z aksini topgan.

Qadimgi yahudiylarda yaqinlarga manaviy va moddiy yordam ko‘rsatish zaruriyati to‘g‘risidagi axloqiy me'yorlar mavjud bo‘lgan. Qisqacha yahudiy ensiklopediyasi mualliflarining tasdiqlashicha xayriya iudaizmning asosiy ko‘rsatmalaridan biri bo‘lgan. Vetxa vasiyatlari kambag‘allar foydasiga soliqqa tortishni nazarda tutuvchi bir qancha qonunlardan iborat.

Talmudda xayriya sdaka so‘zi bilan tushuntiriladi (so‘zma-so‘z tarjima qilinganda to‘g‘rilik yoki adolatlilik) . Kambag‘al yordam olish huquqiga, o‘ziga to‘q odam esa berish huquqiga ega bo‘lgan. Xayriya majburiyatidan hyech kim ozod qilinmagan: na eng boy, na eng qashshoq. Talmudda hattoki sadaqa olgan nochor ham sadaqa berishi kerak deb qayd etilgan. Bunda xayriya qoidalari batafsil keltirilgan : u bilan kim va qanday shaklda shug‘ullanishi kerak, kim undan foydalanish huquqiga ega, xayriya maqsadlaridagi yordamning qanday o‘lchovlari bor ko‘rsatilgan. Xayriyadan foydalanishda ayollar erkaklarga nisbatan ustunlikka ega. Qashshoq yaqinlarga begonalardan oldin yordam ko‘rsatilishi kerak. O‘z shahridagi kambag‘allarga boshqa shaharlardagidan oldini yordam berish kerak.

Iudaizm davomchilari maxsus xayriya kassasini tuzishgan. Kambag‘al holatlar mazkur kassada hisobga olingan. Kassa asirlarni chiqarish va nochor yosh oilalarni ta'minlash uchun xizmat qilgan. Shuningdek kambag‘allar uchun maxsus oshxonalar yaratilgan. Iudaizmda ijtimoiy yordamning quyidagi ko‘rinishlari

[8] Костина Е.Ю. Ижтимоий хизматлар тарихи. – Владивосток: Узоқ Шарқ университети наш, 2003.

tasdiqlangan: pul chiqarish xayriya kassasi orqali amalga oshirilgan; oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimlar berilgan, dafn qilishda ko‘maklashilgan.

Xayriya maqsadlaridagi mablag‘lar turli manbalardan kelib tushgan: jamoa a'zolarining soliqlari, qurbonlik qilish, meros qoldirish, xayriya maqsadlarida berish, jarimalar, jamoa mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlari.

Qadimgi yahudiylarda xayriyaning namoyon bo‘lish shakllaridan biri qarz majburiyatlarini bekor qilish amaliyotidir. Bu har buyuk yubiley yillarida takrorlangan (50 yilda bir marta). Yahudiy hukumatlari xalq o‘rtasida sadaqalarni to‘plash va taqsimlash uchun maxsus tadbirlarni qabul qilganlar.

Tadqiqotchilar insonning xayriya faoliyatini takomillashtiradigan asosiy motivlarni ajratadilar. Ijtimoiy faoliyatning axloqiy tomonini izlashga yo‘naltirilgan ilmiy ishlar xayriyaning diniy, vatanparvarlik va madaniy-estetik sabablarini ko‘rsatadi. Ular axloqlilik diniy e'tiqodda bo‘lishi mumkin deb hisoblaydilar. Mashhur rus faylasufi Bulgakov S.N. yozadi: «…axloqlilik dinga asoslanadi. Insondagi ichki kuch yaxshilik va yomonlikni ajratishni takomillashtiradi.».

Nimaga inson o‘z vaqti, o‘z mablag‘ini qurbon qilishi, o‘z hayotini boshqalar xursandchiligiga sarflashi kerak.? Boshqalarga yordam berish asosida rahmdillik va altruzm turadi.

Altruizm – bu boshqa shaxslarga beg‘araz xizmat qilish, ular uchun shaxsiy manfaatlarini qurbon qilishga tayyorlik, axloqiy tamoyil, xudbinlikning aksidir. Altruizm –o‘ziga nisbatan boshqalarning farovonligidan manfaatdorlikdir. Altruizm – (fr. altruisme ot lat. alter — boshqa) — beharaz harakatni tavsiflaydigan axloqiy tamoyildir.[9].

Altruzm atamasi O.Kont tomonidan kiritilgan (fr. «vivre pour autrui» – «boshqalar uchun yashamoq»), jamiyat ijobiy ta'siri ostida insonparvar qadriyatlar rivojlanadi. Bu axloqiy tamoyil o‘z farovonligiga nisbatan boshqalar farovonligi uchun xizmat qilishni anglatadi. Altruzm tamoyili beg‘araz yordamning universal

[9]Фалсафа: Энциклопедик луғат. – М.: Гардарики. А.А. Ивин таҳрири остида. 2004.

shaklidir. Altruist hyech narsa evaziga ixtiryoy yordam beradi va uning uchun hyech nima kutmaydi.

O.Kont individ va urug‘ni birlashtiruvchi hayvonlarga xos instint altruizmini ajratib ko‘rsatadi. Haqiqatdan ham ma'lum altrustik axloqning namoyon bo‘lishini hayvonlarda ham kuzatishimiz mumkin. Kalamushda o‘tkazilgan tajriba shuni ko‘rsatdiki, ehtiyojlarni qondirish uchun ulardan bittasi yoki navbat bilan birlashtirish mumkin.

Ikkinchidan Kant barcha insonlarni birlashtiruvchi, yakunda spontan xususiyatga o‘zgaruvchi alturizmni ajratadi. Alturizm muammosiga biologik yondashuv G.Spenser asarlarida o‘z aksini topib, alturizm tabiiy evolyusiya jarayonida paydo bo‘luvchi adaptiv xususiyat sifatida alturizm ko‘rib chiqiladi.; Z.Freydning psixotahliliy konsepsiyasida altruistik xoxish qarama-qarshi yo‘nalgan birlamchi egoizm asabiy tovoni bo‘ladi deb hisoblangan.; F.G.Dobrjansk genetikasida altrustik hissiyot individda genetik dasturlashtirilgan bo‘lib, borliq uchun kurash shakllarida aks etadi.;

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Turli madaniyatlarda xayriya ijtimoiy hodisa sifatida.
2. Xayriyaning kasbiy ijtimoiy xizmatdan farqi .
3. Diniy xayriya.
4. Ijtimoiy ishning axloqiy va insonparvar xususiyati.

3-Mavzu . Xorijda ijtimoiy ish asoslari

1. Ijtimoiy ish institutsiallashuvining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy zamini. Tashkiliy saxovat.
2. Settlmentlar harakati.
3. Ijtimoiy xodimlar tayyorlash maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
4. Ijtimoiy ish xususiyati. 20-asrda ijtimoiy ish rivojlanishi.

1. *Ma'lumki,* kasb o‘zida aholining ma'lum bir qatlami ehtiyojlariga mo‘ljallangan va ixtisoslashgan bilimlar majmuasi bilan muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan mashg‘ulot sanaladi.

Adabiyotlarda ijtimoiy ishning kasb sifatida paydo bo‘lishi 19-asr oxiri va 20-asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda bir qator sanaoti rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislar guruhi paydo bo‘lib, ular ijtimoiy ish bilan professionala shug‘ullanishni boshladilar, o‘quv muassasalari yaratib, ijtimoiy xodimlarni o‘qitdilar. Muhim faoliyat turi sifatida ijtimoiy ish ancha oldin Buyuk Britaniya va AQShda shakllandi va keyinchalik u kasbiy asosda qo‘yildi.

Ilmiy va o‘quv fani sifatida ijtimoiy ishning rivojlanishi va ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj nima bilan asoslanadi. Tadqiqotchilar fikricha uning asosiy sabablari quyidagilar:

1. Borliqning umumiy tamoyillari va me'yorlari bilan bog‘liq yagona jamiyatning buzilishi.

2. Urbanizatsiya va sanoatlashish .

3. Ijtimoiy aloqalar va insoniy munosabatlarning kuchayishi.

yevropa va AQSh da sanoat rivoji, urbanizatsiya jarayonining tezlashishi, jamiyatda yuqori daromadga ega qatlamning ko‘payishi, shahar hayotiga moslashishning osonligi, insonlar o‘rtasida, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda an'anaviy ijtimoiy aloqalarning buzilishi, shunday ijtimoiy muammolar paydo bo‘lishiga olib keldiki, an'anaviy jamiyatda sinovdan o‘tgan usullar bilan ularni hal qilish mumkin bo‘lmay qoldi.

Jamiyatda munosabatlarning tezlik bilan kuchayishi sharoitida yanala ko‘proq ziyoli insonlar shakllanib, saxovatlik va bag‘rikenglik uslubiyoti bilan jamiyatni sog‘lomlashtirishga qaratildi.

Ammo qachonki qashshoqlik darajasi keng miqyosda bo‘lsa, jamiyatga o‘tish- bu tabiiy jarayon sanaladi. Bu insonlar kasal hisoblanadi va ularni davolash zarur bo‘lib, u mavjud faoliyat sifatida o‘sib borayotgan jamiyat muammosi bilan birgalikda ko‘rildi. Shuningdek ijtimoiy ish doirasida parallel ravishda ikkita yo‘nalish rivojlanib, ijtimoiy muammolarni tushunishda bir-biriga qarama-qarshi

turadi. Mazkur jarayon mualliflar ko‘rsatishicha AQSh va bir qator yevropa mamlakatlari ayniqsa, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya uchun xosdir. Ijtimoiy ishning rivojlanishi ikkala mintaqada bir-birini rag‘batlantirdi.

Professional faoliyat sifatida ijtimoiy ish AQSh da tezkorlik bilan rivojlandi. Shahar atrofidagi qishloqlarning shaharga aylanishi, boshqa joydan keluvchilar, tayinsiz va omadsiz odamlarning ko‘payishi g‘aribxona va qamoqxonalarning ko‘payishiga olib keldi. Bu toifa shtatlar organlari himoyasi ostida bo‘lib, keyinchalik shtatlr o‘zgarish va xayriya kengashlariga o‘tkazilgan. Umumiy sektorda bolalarga qarash bo‘yicha ko‘ngilli tashkilot va agentliklar paydo bo‘ldi.

Shtatlar xayriya va o‘zgarish kengashlari 19-asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi. Ular turli tuzilma va majburiyatlarga ega bo‘lib, ammo ularning asosiy vazifasi turli tashkilotlarni boshqarish sohasida qonunchilik maslahat yordamini ko‘rsatish edi. Kengashlarga mashhur filantroplar, ko‘ngillilar, ziyolilar kirishgan.

1865-yilda turli shtatlardagi kengash a'zolari ijtimoiy fanlar Amerika Assotsiatsiyasiga birlashdilar. Ammo odamlarga yordam ko‘rsatish kabi bir xil ish bilan shug‘ullanadigan insonlarning turli guruhlari turli qarashlar va turlicha manfaatlarga ko‘ra ajratildi.

Ko‘pchilik fikricha amaliy ijtimoiy muammolarni hal qilish inson to‘g‘risidagi ilmiy bilimlar asosida bo‘lishi kerak. Yordamga muhtoj shaxslarga qarovchi va nochorlarga yordam berishni nazoratini amalga oshiruvchi amaliy xodimlar amaliyotda qo‘llay oladigan oddiy usullarni ishlab chiqishdan manfaatdorlar. Manfaatlarning to‘qnashuvi tezkor shaklda bo‘ldi. 1874-yilda amaliy xodimlar Assotsiatsiyadan chiqishdi va o‘zlarining xususiy tashkilotlari-xayriya va o‘zgartirish milliy konferensiyasini tashkil etishdi. (u bir qator manbalarda xayriya va tuzatilgan faoliyat konferensiyasi deb ham nomlangan.).

Xayriya va o‘zgartirish milliy konferensiyasining yaratilishi professional ijtimoiy ishning ibtidosi bo‘ldi. Aynan shu vaqtdan boshlab, olimlar fikricha, tashkiliy ijtimoiy ish rivojlandi.

Amerika adabiyotlarida uning rivojlanishining dastlabki bosqichi dastlabki ishonchsiz qadamlardan rasmiy uslublarga o‘tish bosqichi sifatida xarakterlanadi.

G‘arbda qo‘llangan ijtimoiy ish asosi har bir alohida holat bilan ishlashning qayta ishlangan va boyitilgan uslubi bo‘lib, bu bir tomondan ilmiy fanlar shu jumladan psixoterapiyaning turli elementlari, boshqa tomondan individ va shaxsga inqiroz holatida yordam ko‘rsatish tajribasini uyg‘unlashtiradi. AQSh da 19-asrning 80-yillarida ijtimoiy ishning ikkita yo‘nalishiga ega ikkita kasbif tashkilotlar paydo bo‘ldi. Ulardan biri tashkiliy xayriya London jamiyati shaklidagi muassasa bo‘lib, 1887-yilda Baffaloda tuzildi. Ikkinchisi qo‘shnilar (birga yashovchilar) Gildiyasi bo‘lib Nyu-Yorkda 1886-yilda tashkil etildi. Ikkila tashkilot o‘z g‘oyalarini Angliya viktorian an'analaridan olib, tezlik bilan rivojlandi. 1892-yilga kelib AQSh va Kanadaning yirik shaharlarida 92 ta xayriya tashkilotlari tuzilgan edi.

Settlmentlar deb ataluvchi emigrant, ko‘chib keluvchilar shaharchalari 1986-yilga kelib 44 tani tashkil qildi va bu miqdor doimiy o‘sib bordi. Qayd etish kerakki, bunday manzilgog‘lar faqatgina AQSh da emas, balki Angliya, Germaniya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarda ham paydo bo‘ldi.

Ikkala tashkilot va harakat kambag‘al va omadsiz insonlarning manfaatlarini himoya qilish uchun paydo bo‘ldi. Ular o‘ziga oliy va o‘rta ma'lumotga ega insonlarni jalb qildi. Ularning faoliyati asosan yosh ayollar uchun jozibali bo‘lib, ular ijtimoiy ishda o‘zining ijtimoiy maqomini oshirish va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatini ko‘rishdi. Ikkala harakat cherkovga yaqin edi.

Saxovat harakatiga Meri Richmond boshchilik qildi va ular bevosita ijtimoiy islohotlar uchun kurashmadilar. Bu harakatning g‘oyaviy asosi insonning kambag‘alligi va ijtimoiy muammolari edi. Aloqa o‘rnatish maqsadida ko‘ngillilarning tashrifi kambag‘allar bilan ishlashning eng ma'qul shakli bo‘lgan.

Xayriya jamiyatlari a'zolari yaqin vaqtgacha asosiy yordam manbasi bo‘lgan ta'minotni borib ko‘rishga almashtirish zarur deb hisoblaganlar.

AQSh da ko‘ngillilar deb atalgan do‘stona mehmonlar kelgan vaqtda kerakli yordamni aniqlash uchun o‘qitish, ro‘yxatga olish amalga oshirilgan, hamkorlik va muvofiqlashtiruvchi ishlar bajarilgan. Kambag‘al oilalarga boruvchi jamiyat a'zolari uchun konferensiyalar o‘tkazilgan, bunda ular boshqa xodimlar bilan

uchrashib, tajriba va fikr almashganlar. Ular uchun asosiy axloq qoidalari keltirilgan kam sonli qo‘llanmalar ham bo‘lgan. Amerikalik olimlarning fikricha bu tashkilotlar kam ta'minlangan oilalar hayotini o‘rganish va ularga yordam ko‘rsatish bo‘yicha bugungi tizimning ibtidosi edi.

Umid beruvchi muhim maslahat eng maqbul ish uslubi bo‘lgan. Moddiy yordam faqatgina favqulodda holatlarda berilgan. Odatda birlamchi ehtiyoj buyumlari kam miqdorda berilib, ular eng zarur ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan edi. Nafaqalar mustaqil yashaydigan, mulkka ega bo‘lmaganlarga berilgan. Uyga tashrif buyuruvchilar odatda yosh va boy ayollar bo‘lib, ular o‘z mijozlarining holatini, ularning yashash tarzini o‘rganib keyin yordam berishgan.

2. **Ko‘chib** kelganlar (settlmentlar) harakati ijtimoiy islohotlar uchun qatnashgan. Bu harakatning asosiy g‘oyasi atrofdagi nosog‘lom muhit va uni o‘zgartirish zaruriyati, kambag‘al va nochor insonlarni bu holatdan chiqarish uchun harakatdir. Ish amerika dahalarida amalga oshirilib, bu harakat asoschilari Djeyn Adams va Elen Star g‘oyalari asosida ko‘ngillilar kambag‘allar dahalariga kelishgan va yordamga muhtoj insonlar bilan qo‘shni yashashgan. Agar xayriya tashkilotlari ularga yordam so‘rab murojaat qilgan insonlar hayotini o‘rganish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, settlmentlar harakati vakillari asosan ta'lim faoliyati, kasbga yo‘naltirish bilan band bo‘lishgan. Ulardan eng mashhuri 1899-yilda tuzilgan Chikagodagi Xall-Xaus emigrantlar uyi edi. U 19 millat vakillariga xizmat qilib, ishlovchi qizlarga turar-joy bergan, bolalar uchun kunduzgi yaslilar, muzey, klub, kichik teatr bor edi. Amerikalik olimlarning fikricha settlmentlar harakati guruhli ijtimoiy ishning boshlanishiga xizmat qildi.

Nochorlarga va omadsiz shaxslarga yordam ko‘rsatish kabi bir xil ish bilan shug‘ullangan xayriya tashkilotlari va settlmentlar turli ishlash uslublaridan foydalanishdi. Ammo faoliyatning turlichaligiga qaramasdan xayriya tashkilolari a'zolari va ko‘chib keluvchilar harakati vakillari ma'lum doirada hamkorlik qilishdi. Masalan settlment xodimlari xayriya tashkilotlari dasturlarida do‘stona mehmon vazifasini bajarishgan.

Ijtimoiy ishning kasb sifatida boshlanishi xayriya tashkilotlari o‘z vasiylari bilan tizimli ishlash modelini izlay boshlagan vaqtda sodir bo‘ldi.

Emigrantlar, uchun uylar, xayriya tashkilotlari, pansionatlar ijtimoiy o‘zgarishlarni ta'minlovchi shaxslarni tayyorlash maktabi bo‘lib. So‘nggi o‘n yilda ijtimoiy islohotlar va ijtimoiy ish sohasidagi birinchi navbatdagi vazifa bo‘ldi.

O‘zining nomiga qaramasdan xayriya tashkilotlari katta ko‘lamda yordam ko‘rsatish foydadan ko‘ra zarar olib keladi deb hisoblaganlar. Shuning uchun ular nochrlikning sababini bartaraf etish uchun vosita topishga harakat qilganlar. Ular ilmiy uslublar jamiyatdagi nochorlik kabi kasallikni davolaydi deb hisoblashgan. Xayriya jamiyati a'zolarining dalil va nazariyalar bo‘yicha bilimlarining katta qismi ishchi uchun og‘ir va qiyin bo‘lmagan hayotni ta'minlashda adolatga erishish bo‘yicha kuchli istakning borligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ular insonning yashashi va qadr-qimmati, dam olish va qariganda ijtimoiy ta'minot huquqlarini ko‘rsatib o‘tadilar. Bu ilmiy xayriya yoki ilmiy filantropiya deb nomlanuvchi g‘oyalar xayriya yetakchilarining o‘z konsepsiyalari hisoblanadi.

Ilmiy xayriya AQSh mustaqillik deklaratsiyasida shakllangan liberalizm siyosiy falsafasidan kelib chiqqan. Ko‘pgina olimlar fikricha “ilmiy” tushunchasi so‘nggi standartlar bo‘yicha tahlil qilinganda ancha oddiy darajada. Saxovat faoliyati yetakchilari qayd etadilarki ko‘rsatilayotgan yordam aniq vaziyatga mos bo‘lishi va yordam aniq maqsad va kutilayotgan natija bilan muvofiq kelishi kerak.

Kasbiy ijtimoiy xizmat- tadqiqotchilar fikricha 19-asr oxirida ilmiy xayriya va ilmiy filantropiya targ‘ibotchilari harakatidan boshlandi. Xayriya faoliyatining yetakchilari turli tashkilot va dasturlar siyosatini, shuningdek ularni boshqarish tizimi, mahalliy jamoat va xususiy agentliklar, shtatlar tashkilotlarini tanqidiy tahlil qilishdi. Ilmiy filantropiya konsepsiyasining ko‘pgina himoyachilari ma'lumotga ega va halol mutaxassislar bo‘lib, saxovat tushunchasining mohiyati va natijalari ham shunga monanad bo‘ldi.

19-asrdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va xayriya faoliyatining ustunligi professional ta'lim tizimini tashkil qilish, shifokor, o‘qituvchi, ruhoniy tayyorlash kabi mazkur soha xodimlarini tayyorlashning boshlanishiga olib keldi. Ixtiyoriy

faoliyat sifatidagi yordam berish g‘oyasi muhtojlarga yordam berish tizimi sifatidagi ijtimoiy ish g‘oyasiga o‘zgardi.

Asr boshiga kelib bu yangi xizmatning mohiyati ixtiyoriy ko‘mak berishdan ilmiy filantropiyaga almashdi, kafolatlangan ish haqi va mos tayyorgarlik olish uchun ko‘ngilli xodim bo‘lishga kurash boshlandi. yevropada professional sohada yangi rivojlanayotgan faoliyat ijtimoiy tibbiyot sifatida tushuntirildi. Shimoliy Amerikada asr boshida ijtimoiy xizmat atamasi mavjud edi.

3. *Turli* agentliklarda ishlaydigan do‘stona mehmonlar tajribasining almashuvi bosqichma-bosqich o‘qitiladigan kurs shakliga o‘tdi. 1898-yilda M.Richmond g‘oyasi bo‘yicha amaliy filantropiyaning dastlabki milliy maktabi o‘z faoliyatini boshladi. (oldingi Kolumbiya universitetidagi ijtimoiy ish fakulteti).

Ko‘chib kelganlarning harakati o‘z faoliyatini ta'lim muassasalari bilan birga bo‘lishini taqozo qildi. Jeyn Adam va uning ijtimoiy fanlar sohasidagi ko‘pgina olimlardan iborat jamoasi o‘rtasida doimiy aloqalar mavjud bo‘lgan. Bu aloqalar va intilishlar dastlab tajriba almashish bo‘yicha kurs sifatida keyinchalik Chikago fuqarolik va filantropiya maktabi yaratishga xizmat qildi. Keyinchalik u Chikago universiteti qoshidagi ijtimoiy boshqaruv maktabiga o‘zgartirildi.

Ijtimoiy xizmat yevropada jadal rivojlandi. Londonda xayriya jamiyati bo‘lgan ijtimoiy xodimlarni tayyorlash uchun birinchi maxsus o‘quv muassasasi 1903-yilda ochildi va bu “Sotsiologiya maktabi” nomini oldi. 1912-yilda bu maktab London iqtisodiyot maktabining ijtimoiy xizmat fakultetiga o‘zgartirildi.

1908-yilda yevropada ayollar harakati asoschisi Alisa Solomon rahbarligida Germaniyada ijtimoiy xodimlar uchun ayollar maktabi ochildi. 1910-yilga kelib yevropa mamlakatlarida va AQSh da ijtimoiy ishning 14 ta maktabi bor edi. Dastlabki ijtimoiy xodimlar maktablari qoidaga ko‘ra bir yillik tayyorgarlikka ega bo‘lgan.

Ammo ijtimoiy xodimlar uchun birinchi haqiqiy o‘quv muassasasi Gollandiyada ochilgan. 1899-yil Amsterdamda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo‘yicha institut ochildi. Bu yerda o‘qitish ikki yillik va kunduzgi shaklda bo‘lgan.

Ham ayollar, ham erkaklar o‘qitilib, ular nazariy va amaliy tayyorlanganlar.

Birinchi jahon urushi uni yo‘qotmadi, ammo uning ishtirokchilari ichki muammolarini qiyinlashtirdi. Bu muammolarning kuchayishi ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga qatnashuvchi mamlakatlar miqdorining o‘sishi bilan kuzatildi.Agar urushdan oldin 7 ta mamlakatda ular tayyorlangan bo‘lsa, urush oxirida maktablar soni o‘sdi.

1920-yillarda dastlabki ijtimoiy xizmat maktablari Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya, Italiyada ochildi. Ijtimoiy xodimlarni o‘qitish bo‘yicha maktablar hattoki Chilida ham ochilib, uning asoschisi mashhur jamoat arbobi Rene Sandra bo‘ldi.

O‘tgan asrning 30-yillarida ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi mamlakatlar o‘sishi davom etdi.: Ispaniya, Isroil, Irlandiya, Lyuksemburg, Gretsiya, Portugaliya, Daniya, Hindiston, Misr. Ko‘rib turibmizki, ijtimoiy xizmat kasb sifatida uchinchi dunyo mamlakatlarida allaqachon ma'lum.

Ijtimoiy xodimlarni tayyorlash faqatgina tashkiliy emas, balki uslubiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ishga tushirilgan o‘quv muassasalari hali malakali o‘qituvchilarga ega emas edi. O‘quv qo‘llanmalari deyarli yo‘q edi. AQSh da bu sohadagi dastlabki kitoblar A.Uornerning «Amerikaga xos xayriya» va M.Richmondning «Nochorlarga do‘stona tashrif: xayriya tashkilotlarida ishlovchilar uchun amaliy qo‘llanma» asarlari bo‘ldi. Amerikada ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash xayriya tashkilotlari imkoniyatiga katta darajada bog‘liq edi. Dastlabki o‘qituvchilar katta ish tajribasiga ega xayriya tashkilotlari a'zolari bo‘lib, ularda pedagogik ta'lim yo‘q edi. Talabalar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda shug‘ullanib, o‘quv dasturlari turli sohalardagi amaliy ijtimoiy ish uchun maxsus mavzularni ham o‘z ichiga olgan edi. O‘sha vaqtda amaliy ijtimoiy ish sohasi quyidagilar bo‘lgan:

- Farovon bo‘lmagan oilalar hayot sharoitlarini o‘rganish
- Tibbiyotdagi ijtimoiy ish
- Maktablardagi ijtimoiy ish
- Ijtimoiy psixoterapiya

Amaliy ijtimoiy ishning ko‘rsatilgan sohalari mustaqil o‘quv dasturlari bo‘lib, bir amaliy ishdan boshqasiga o‘tishda qiyinchiliklar tug‘dirgan. Qayd etish kerakki, barcha dasturlar mijoz bilan individual ishlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lgan. Guruhli xizmat ijtimoiy ishning mustaqil va nazariy asoslangan uslubi sifatida ijtimoiy xodimlarni o‘qitish dasturlariga faqatgina 40-yillarda kiritildi.

5. Ijtimoiy ishning o‘ziga xosligi nimada? U hamshira, shifokor, o‘qituvchi kasbidan nima bilan farqlanadi? Bu masala ham boshlovchi mutaxassis ham maktab o‘qituvchilarini o‘ylantirgan. Maktablarda ko‘pincha bazaviy ta'lim va uning amaliyot bilan aloqasi, kasbiy ta'lim darajasining zarurligi, umumiy tayyorgarlik va yuqori murakkablikdagi ixtisoslashuv to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bir qator mutaxassislar ijtimoiy xodimlar uchun universitet ta'limi amaliyotiga qarshi chiqishgan. Jumladan, M.Richmond, katta miqdordagi universitet fanlari va ilmiy maktablarni o‘rganish zarurligi bilan bog‘liq universitet tayyorgarligi ijtimoiy ishning xayriyaga asoslangan ahamiyatiga, talabalarning xolisligiga putur yetkazadi deb hisoblagan.

Ijtimoiy ishning amerika ensiklopediyasida J.Leybi qiziqarli faktni keltiradi. 1915-yilda Xayriya milliy konferensiyasi AQSh da kasb ta'limi sohasidagi yetakchi mutaxassis A.Fleksnerni ijtimoiy xizmat kasb yoki kasb emasligi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirishga taklif qiladi. U aytadiki, uning mezoni bo‘yicha ijtimoiy xizmat-bu kasb emas. Ammo uning so‘zi ijtimoiy xizmat bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlarga hyech qanday ta'sir ko‘rsatmadi va ijtimoiy ish maktablariga arizalar oqimini kamaytirmadi. Bundan tashqari bu mutaxassislarni yanada muvofiq va shakllantirilgan dasturlarni yaratish uchun rag‘bat bo‘ldi.

Maktablar o‘rtasidagi aloqalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 1919-yilda tuzilgan Amerikadagi ijtimoiy ish maktablari assotsiatsiyasi o‘quv ishlari me'yorlarini ishlab chiqish uchun forumga o‘zgartirildi. 1924-yilda Assotsiatsiya ijtimoiy xizmat sohasidagi mas'ul xodimlarni tayyorlash uchun, ularni o‘qitish kurslari uchun va universitetlardagi kurslar uchun me'yorlar (o‘quv rejalari) ishlab chiqdi.

Minimal yillik dastruda sinfda va amaliyotda o‘rgatiladigan o‘quv kurslari to‘plami nazarda tutildi. Mazku o‘quv kurslari ijtimoiy ishni o‘rgatish uchun me'yoriy kurs sifatida tan olindi. Universitet ta'limida ijtimoiy ish o‘quv dasturlarining kiritilishi 30-yillarning oxirida sodir bo‘ldi, bu Assotsiatsiyada oliy o‘quv yurtlari doirasida faoliyat yurituvchi maktab sifatida qabul qilingandan so‘ng amalga oshdi. Bu maktablarda o‘qitish ikki yilga mo‘ljallangan va magistr darajasini olish huquqini beruvchi dastur bo‘yicha amalga oshirildi. Assotsiatsiyaga faqatgina bunday dasturlarga ega maktablar qabul qilindi. 1974-yilgacha ikki yillik aspirantura bo‘yicha o‘qitish yagona shaklda bo‘lib, ijtimoiy xodim attestatsiyasi sifatida qabul qilindi. Boshqacha aytganda professionallik mezoni magistr darajasining mavjudligi bo‘ldi.

20-asrning birinchi yarmi ijtimoiy ishning institutsiyalashuvi, davlat ahamiyatining kuchayishi, davlat yalpi farovonligi nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy xodim kasb faoliyatining boshlanishi odatda uning asosiy huquq va majburiyatlarini shakllantirish, rasmiy mehnatga haq to‘lashni kiritish, o‘quv muassasalari, kasbiy tashkilotlarni yaratish deb hisoblanadi. Ijtimoiy xodim kasbining ijtimoiy maqomi dastlab AQSh da keyinchalik G‘arbiy yevropa mamlakatlarida joriy qilindi, ammo dastlabki ixtisoslashgan o‘quv muassasalari, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning boshlanishi to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, ular dastlab Gollandiya, keyinchalik AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada tashkil qilindi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig‘idagi davrda ijtimoiy xizmat maktablari ko‘pgina Osiyo mamlakatlari, yaqin va o‘rta sharq, G‘arbiy yevropa mamlakatlari va keyinchalik Afrika davlatlarida ochildi.

1910-yilda yangi harakat yevropa va Amerikada 14 ta ijtimoiy xizmat maktablari shakllanishiga olib keldi. 1920-yilda birinchi Lotin Amerikasidagi ijtimoiy xizmat maktabi Chilida ochildi.[10].

30-yillarda ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi mamlakatlar soni o‘sishda davom etdi. Uchinchi dunyo mamlakatlarini bosqichma-bosqich

[10] Ижтимоий хизмат касб сифатида (таҳлилий тўплам) //Ж. Ижтимоий тадқиқот. – М., 1993. №3. – С. 91.

vujudga kelishi, ularning an'anaviy iqtisodiyot asoslarini yemirilishi natijasida ijtimoiy ish sharq mamlakatlarida ham ma'lum bo‘ldi. 1936-yilda Hindistonda Ijtimoiy fanlar instituti, Misrda ijtimoiy ishning dastlabki kurslari ochildi. Shunday qilib muhtojlarga yordam ko‘rsatuvchi maxsus tayyorgarlik va moddiy rag‘batlantirishga mo‘ljallangan kasbga aylandi.

Dastlabki ijtimoiy xodimlar keng turdagi muammolar- immigrantlarni ingliz tiliga o‘qitishdan tortib, industrial jamiyatda ish topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashga yordam ko‘rsatishgan. Ular ijtimoiy adolatsizliklarga barham berib, insonlarga o‘z muammolarini samarali hal qilishga ko‘mak berishgan.

Ijtimoiy xodimlarning kasbiy manfaatlarini aks ettiruvchi birinchi tashkilot Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘ldi. Bu 1917-yilda tuzilgan Ijtimoiy xodimlar milliy birjasidir. Keyinchalik ijtimoiy xodimlarning boshqa kasbiy tashkilotlari paydo bo‘ldi (shifokorlar, o‘qituvchilar). 1921-yilda ular dastlabki rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan ijtimoiy ish Amerika assotsiatsiyasiga birlashdilar.

Ijtimoiy ish tashkiliy tuzilmasini yaratish jarayoni G‘arbning boshqa mamlakatlaridan ham keng tarqaldi. 1928-yilda Parijda yettita yevropa mamlakatlari milliy assotsiatsiyalarini birlashtirgan ijtimoiy farovonlik bo‘yicha Halqaro kengash tuzildi.

Bugungi ijtimoiy xodimlarning o‘tmishdoshlarining kuchi muhtojlarga yordam ko‘rsatishga qaratilgan edi. Faqatgina 20-asrga kelib, ijtimoiy ta'minot uslublari, tahlili va tavsiflash yo‘llariga jiddiy e'tibor qaratildi, xayriya va jamoat tashkilotlari o‘z istaklarini jamiyatning pragmatik maqsadlariga moslashtirdilar. Dastlab M.Richmond AQSh da buni o‘rgandi. U xayriyani individ va uning oilasiga e'tibor qaratish uslublari bilan birlashtirdi.

20-30- yillarda Z.Freyd va uning izdoshlarining psixo tahliliy g‘oyalari natijasida ijtimoiy hizmatning psixodinamik nazariyasi oldinga o‘ringa chiqdi. V.Robinson o‘zining «Ijtimoiy holatda o‘zgaruvchi psixologiya» asarida ijtimoiy hizmat uslublarida yangi psixologik tushunchani ko‘rsatib berdi.

20-asrning dastlabki choragi psixiatrik uslub va psixo tahlilga asoslangan davr bo‘ldi. Ijtimoiy xizmat biologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, psixiatriya, sotsiologiya, antropologiya, statistika, pedagogika, ijtimoiy psixologiyaga tayanaishi kerak deb hisoblangan.

20-asrning ikkinchi yarmida tizimli, majmuaviy yondashuv asosiy o‘rinni egalladi. Endi ijtimoiy xodimdan faqatgina bir sohaga ixtisoslashgan tor mutaxassislik emas, universallik, turli uslub va sohalarni o‘zlashtirish talab qilindi. Shu bilan bir vaqtda uslubiy madaniyat, ishonchli empirik ma'lumotlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Ijtimoiy ish institutsiyalashishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlari.
2. Ijtimoiy ish xodimlarini o‘qitish.
3. Ijtimoiy xodimlarning dastlabki kasbiy tashkilotlari.
4. Yangi sifatdagi ijtimoiy siyosatni topishda ijtimoiy ish.
5. Xorijda ijtimoiy xodimlar amaliy faoliyat sohasi.

4-Mavzu. Ijtimoiy xodim kasbi: zamonaviy talablar

1.Xorijda ijtimoiy xodimlarni o‘qitish tizimi

2. Ijtimoiy xodimlarning faoliyat sohasi va bandligi.

3. Ijtimoiy hizmatlar mijozlari.

4.Ijtimoiy xodim kasb muomalasiga etik standartlar.

5.Ijtimoiy ishda axloqiy tamoyillar va dilemmalar.

6.Ijtimoiy hizmat inson huquqini amalga oshirish shakli sifatida .

*1.*Jahonda professionala ijtimoiy xodimlarni tayyorlaydigan minglab ijtimoiy xizmat oliy maktablari va universitetlarning ixtisoslashtirilgan fakultetlari tashkil etilgan. Faqatgina yevropaning o‘zida ijtimoiy ish sohasida ta'lim beruvchi 500 dan

ortiq ta'lim muassasalari mavjud. Ko‘pgina mamlakatlarda bunday ta'lim davlat tomonidan moliyalashtiriladi, amma Italiya, Fransiyada anchagina xususiy ta'lim muassasalari ham mavjud. Bir qator mamlakatlarda xususiy maktablar ma'lum diniy konfessiyaga tegishliligiga asoslangan.

Eng ko‘p o‘quv muassasalari ijtimoiy ish jadal rivojlangan 60-yillarda ochilgan. Bu vaqtda ko‘pgina ijtimoiy xodimlarning milliy va xalqaro assotsiatsiyalari yaratilib, kasbiy jurnallar, ixtisoslashgan nashrlar chiqarish boshlandi, ijtimoiy xodimning xalqaro axloq kodeksi ishlab chiqildi.

Ko‘pchilik olimlar fikricha, ijtimoiy xizmat mustaqil kasb va akademik fan sifatida aynan o‘tgan asrning 60-70-yillarida tasdiqlandi. Ijtimoiy xodimlarni o‘qitish ta'limning milliy tizimi xususiyatini aks ettiradi. Biror mamlakat doirasida yagona namuna yo‘q. Jahondagi turli modellar bir-birini to‘ldiradi.

Yaponiyada dasturning yetarlicha keng tanlovi mavjud: mahalliy kollejda ikki yil, kollej yoki universitetda 4 yil (eng keng tarqalgan variant), magistr darajasi olingandan so‘ng ikki yil aspirantura. Ikkita universitetda doktarantura taklif qilinadi. Ijtimoiy xizmat maktablari oliy ta'lim doirasida mavjud va qabulga shunday talablar qo‘yilgan bo‘lsada, ularni tenglashtirish mumkin emas. O‘qitish davomiyligi 3-4 yilni tashkil qilib, tor texnik ixtisoslashgan tayyorgarlik sifatida qaraladi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishni o‘qitish universitet, politexnikum, kollejlarda amalga oshiriladi. Dasturlar turlicha: bakalavr darajasiga 4 yil ta'lim, aspiranturada 1 yil, boshqa fakultetni tamomlagan bitiruvchilar uchun 2 yil, universitetni tugatmaganlar uchun ikki yoki uch yil. Bitiruvchilar malaka darajasi, diplom va sertifikatlar oladilar.

AQSh da kasbiy attestatsiya uch darajada amalga oshadi. Bakalavr darajasi birinchi kasbiy bosqichdir. U to‘rt yillik o‘qitish yakunida beriladi. Magistratura ixtisoslashgan ijtimoiy xizmat maktablarida yana ikki yil davom etadi, ammo ijtimoiy xizmat sohasida bakalavr darajasiga ega talabalar uchun qisqa o‘qish kurslari ham mavjud. Doktorlik darajasiga magistraturadan so‘ng yana ikki yil tayyorgarlik talab qilinadi. Bunda turli mutaxassisliklar bo‘yicha kurslar mavjud va

magistr darajasiga ega shaxslar uchun dastur bo‘yicha ta'lim davom ettiriladi. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga guvohnoma beriladi. Bundan tashqari mahalliy kollejlarda ijtimoiy xizmat sohasida texnik (yordamchi) xodimlarni tayyorlashning 2 yillik dasturi mavjud.

AQSh da 5 ta o‘quv dasturlari bo‘yicha kasbiy tayyorlash tizimi mavjud:inson xulqi va ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'minot siyosati va ijtimoiy yordam xizmatlari, ijtimoiy xizmat amaliyoti, ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy faoliyat.

Turli mamlakatlar ijtimoiy xodimlar ta'limi sohasida o‘tgan asrning 20-yillarida tashkil etilgan Ijtimoiy xizmat maktablari xalqaro assotsiatsiyasi muhim o‘rin egallaydi. (IASSW). Uning vazifadaridan biri ijtimoiy ishni o‘qitishning milliy dasturini ekspert baholashdir. Ijtimoiy xizmat maktablari xalqaro assotsiatsiyasi qoshida tashkil etilgan va BMT hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan samarali hamkorlik qiluvchi ijtimoiy xodimlarni o‘qitishga tegishli barcha hujjatlarni saqlovchi Jeneva axborot-ma'lumot markazi mavjud.

2. Ijtimoiy ishning xorij tajribasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda u umumiy va ixtisoslashgan xizmatlarga bo‘lingan.

Umumiy ijtimoiy ish uch sohada ko‘zda tutiladi:

1.atrof muhitga individning ijtimoiy moslashuvi va uni sog‘lomlashtirish maqsadida individual va oila darajasida ijtimoiy davolash ;

2. yosh (bolalar, yoshlar, keksalar), jins, manfaatlar yoki o‘xshash muammolar bo‘yicha (ichkilikboz, giyohvand guruhlar) tasniflanuvchi guruhli ijtimoiy ish.;

3. yashash o‘rni bo‘yicha jamiyatdagi ijtimoiy ish, xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish, jamiyat aloqalarini mustahkamlash, odamlar istiqomat qiluvchi joylarda qulay psixologik muhitni yaratish, shuningdek lokal g‘oyalarni amalga oshirish, o‘zaro yordamni tashkil etish va boshqalar.

Ixtisoslashtirilgan ijtimoiy ish rivojlangan barcha mamlakatlarda mutaxassislar mehnat va bandlik sohasida, sog‘liqni saqlash, tibbiy-sog‘lomlashtirish xizmati, ta'lim muassasalarida, qariyalar uylari, penitensiar muassasalar, qurolli kuchlarda faoliyat yuritishadi.

Ijtimoiy siyosat ijtimoiy ish foliyatining ustuvor sohalarini belgilaydi. Bu muhim yo‘nalishlar u yoki bu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum sharoitiga ko‘ra o‘zgaradi. 1957-yilda AQSh da ijtimoiy ish sohasidagi ta'lim bo‘yicha kengash mutaxassislar faoliyatining quyidagi sohalarini belgilab berdi: davlat ijtimoiy xizmatlari; oila bilan ishlar; bolalarni ijtimoiy himoya qilish; tuzatish ishlari; psixiatrik ijtimoiy yordam ; ijtimoiy tibbiy xizmat, shu jumladan sog‘liqni saqlash; maktablar, guruhli muammolar bilan shug‘ullanuvchi muassasalardagi ijtimoiy xizmat; ijtimoiy rejalashtirish sohasidagi xizmatlar.

Iqtisodiy inqirozdan keyin 80-yillarda ustuvor yo‘nalishlar oila farovonligi, jamiyatdagi xizmatlar, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish organlari tizimi (sud penitensiar muassasalar) bo‘ldi. Ustuvorliklarning o‘zgarishi boshqa sohalarni bekor qilmadi, ammo ularning konseptual tuzilish o‘zgardi. Masalan mehnat va bandlik sohasida deviant xulqli insonlar bilan ishlash ham kiritildi. Tibbiy-ijtimoiy xizmat o‘zida jismoniy va ruhiy kasallar, nogironlar, shuningdek muammoga ega bolalarni ta'lim tizimi bilan ishlashni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda AQSh da ijtimoiy xodimlar orasida klinitsist atamasi paydo bo‘ldi. U bir qator ma'nolarda qo‘llaniladi. Klinitsistlar amaliy xodimlar sanalib, individ, oila, guruh bilan bevosita ish olib boradi. Shuning uchun ularni tahliliy izlanish, ma'muriy faoliyat yoki tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi shaxslardan farqlash lozim. Tor ma'noda klinitsistlar psixoterapiya bilan shug‘ullanuvchi kishilar sanaladi. Nihoyat u xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi shaxslar munosabatlarida qo‘llaniladi.

Amerikalik mualliflar qayd etishlaricha ijtimoiy xodimlarning katta miqdori xususiy amaliyotga o‘tgan. Bu ijtimoiy ishning tez o‘suvchi sohasi sanaladi. (23%). U bilan ishlash amaliyotchilar fikricha kasbiy qanoatlanishga olib keladi va moliyaviy holatni yaxshilash uchun imkoniyat taqdim qiladi. Shu bilan birga ko‘pchilik ijtimoiy xodimlar xususiy amaliyotga salbiy munosabatda bo‘lib, u nochor va xizmatlar uchun pul to‘lay olmaydigan shaxslar bilan munosabatlarda kamchilik sifatida ko‘radilar. Ularning fikricha xususiy amaliyotga borganlarda ijtimoiy adolatdan ko‘ra shaxsiy maqsadlar birinchi o‘rinda turadi.

Ijtimoiy xodim ko‘pgina kasbiy xatarlarga duch kelib, tez-tez stress holatlariga tushadi. Ijtimoiy ishdagi stress omillari ruhiy zo‘riqish, oldindan aytib bo‘lmaydigan holatlarda harakat qilish zarurligi, o‘z qaoliyatining yakuniy natijasiga ishonchsizlik, mijoz muammosini hal qilish imkoni yo‘qligidan ruhiy tushkunlik tuyg‘usi.

Bunday ob'ektiv omillarga o‘zi va boshqalar uchun javobgarlik tuyg‘usini his qilish, juda kuchli qayg‘urish kabi sub'ektiv omillarni ham qo‘shish mumkin. Stress holati uzoq vaqt davom etishi hamda mutaxassis xulqi va uning sog‘ligiga namoyon bo‘luvchi buzilishlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatdagi mutaxassis ishga qiyinchilik bilan boradi, tez charchaydi, odatiy ishlardan chetlashadi, vasiylik ishlariga ahamiyatsiz bo‘ladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha bunday turdagi muamolarni hal qilish uchun muhim mutaxassis- supervizor kerak bo‘ladi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda bu so‘z “nazorat” “rahbar” degan ma'nolarni bildiradi. Ijtimoiy ishda supervizorlik zaruriyati bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan asoslanadi. Ma'lumki ijtimoiy xizmat yuqori darajadagi ruhiy yuklamaga ega faoliyatning maxsus shakllaridan biri sanaladi.

Xorij amaliyotida supervizorlik ijtimoiy xodim kasbining jamoaviy yoki birgalikdagi o‘zgarmas qismi, kasb va ish samaradorligining vositasi sanaladi.

Xorijda supervizorning asosiy lavozim majburiyatlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy xodim malakasini oshirishga yo‘naltirilgan ta'lim, ijtimoiy xodimni qo‘llab-quvvatlash, ishdagi tanglikni yumshatish, ma'muriy xususiyatga ega nazorat.

Xorijda supervizorlik instituti rivojlangan hamda ijtimoiy ish sohasidagi oliy va o‘rta maxsus ta'limga ega. Ma'lumki mutaxassislar tayyorlashning katta qismi amaliy ishlarda bo‘lib, amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Amaliyotchi o‘qituvchilar supervizor sifatida kasb o‘qituvchisi vazifalarini bajaradilar. Albatta ularning asosiy vazifasi pedagogika, ammo ular amaliy ijtimoiy ishda professionallar sanalishadi. Ularning faoliyati talabalar bilan

hamkorlikka qaratilgan bo‘lib, ularda kasbga muhabbat, jamoad ishlash ehtiyojini shakllantirishdan iboratdir.

3. Ijtimoiy ishda muhim tushunchalardan biri mijoz tushunchasidir. Ijtimoiy xodim xizmat ko‘rsatadigan mijozlar guruhi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.:

- oilalar, shu jumladan to‘liq bo‘lmagan, huquq buzarlik, zo‘ravonlik yoki boshqa sabablar bilan uydan ketish natijasidagi jiddiy nizolar mavjud oilalar.;
- turmush o‘rtog‘i yoki bolalar bilan ota-onalarning yaxshi bo‘lmagan munosabatlari mavjud oila va juftliklar.;
- jiddiy nikoh ziddiyatlari mavjud juftliklar ;
- ishsizlik, boquvchining yo‘qligi, jismoniy layoqatsilik, ta'lim olmaganlik, boshqa omillar natijasida yetarli daromadga ega bo‘lmagan individ va oilalar.;
- qonunni buzgani uchun oldin jazo olgan shaxslar va ularning oilalari;
- turmushga chiqmagan homilador o‘smir qizlar;
- jismoniy yoki ruhiy kasallik, nogironlik qiynaydigan individ va oilalar.;
- muntazam ravishda alkogol mahsulotlari va narkotiklar iste'mol qiluvchi shaxslar va ularning oilalari;
- ota-onasi tashlab ketgan, yoki bolalarga salbiy munosabatda bo‘lgani uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslarning bolalari va ularning vasiylari;
- immigrantlar, qochoqlar, imkoniyat va resurslari kam bo‘lgan ozchilik vakillari, kamsitish va irqchilik qurbonlari;
- ishsizlar va ularning oila a'zolari;
- rivojlanishida jismoniy va ruhiy muammosi bo‘lgan bolalar va kattalar hamda ularning oilalari.;
- doimiy parvarishga muhtoj keksalar;
- o‘z muammolarini mustaqil halq qila olmaydigan migrantlar va ko‘chib kelgan shaxslar;
- maktabda muammoga ega bolalar va ularning oilalari;

- jarohat yoki hayotidagi muhim hodisa (pensiyaga chiqish, yaqinining o‘limi) bilan bog‘liq kuchli stressga uchragan shaxslar, uyidan qochib ketgan bolalar va boshqalar.

Shuning uchun ijtimoiy ishda mijoz tushunchasini aniqlash ikkta semantik darajada bo‘ladi: birinchi darajasi jamiyat va uning institutlaridagi tushunchani o‘z ichiga olsa, ikkinchisi ijtimoiy-psixologik holatlar dinamikasini ochib beradi. Mijoz bir tomondan ijtimoiy xodim xizmatlariga buyurtma bergan va yordam ko‘rsatiladigan individ, oila, insonlar guruhi, boshqa tomondan mijoz deb ataluvchi shaxsga yordam ko‘rsatiluvchi ijtimoiy-ruhiy holat.

Insonning marginal holatini aniqlovchi bunday qoida kasbiy yordam ko‘rsatishni belgilab, qoidagi ko‘ra murakkab vaziyatdagi bola, katta yoshli shaxs, oila. Guruh, jamiyatga ko‘rsatiladi. Yordam olishga insonning huquqini tasdiqlaydigan bunday holat “Men” obrazining ambivalentligini xarakterlab, ba'zan ijtimoiy xodim bilan mijozning shartnomasi ham to‘xtatish mumkin, inson yordam va xizmalarni qabul qiluvchiga aylanib qolganda va muammoni mustaqil hal qilishga o‘zining layoqatsizligini muntazam ko‘rsatib kelgan holatlarda bunday qilinadi.

Mijoz tushunchasini aniqlashda dastlab uning paydo bo‘lishini ijtimoiy xususiyatini qayd etish kerak. Bir tomonda sovet jamiyatidan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi global inqiroz, ko‘pgina an'anaviy tayanchlarning qisqarishiga, ishsizlar, uysizlar, qochoqlarning ko‘payishiga, ruhiy va somatik sog‘likning buzilishiga, oila va boshqa ijtimoiy institutlar barqarorligiga ta'sir ko‘rsatdi. Boshqa tomondan ijtimoiy qadr-qimmatning insonparlashuvi har bir insonning turli ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan jamiyat xizmatlarining rivojlanishiga olib keldi

4. Ijtimoiy xodimning qanday axloqiy standartlari mavjud? Ijtimoiy xodim:

- Yolg‘on, aldov, firib bilan bog‘liq ishlarda qatnashmasligi kerak ;
- Shaxs va ijtimoiy xodim sifatida o‘zining holati va faoliyatini aniq belgilab olishi kerak.;

- O‘z kasbiy va amaliy tajribasini takomillashtirib borishi, xizmat burchini doimi yuqori tutishi kerak;
- O‘z kuchini bir inson yoki insonlar guruhiga qarshi yo‘naltirilgan noinsoniy va kamsituvchi harakatlarning oldini olishga yo‘naltirishi kerak.;
- Kasbiy munosabatlardan o‘z shaxsiy maqsadlari yo‘lida foydalanmasligi kerak.
- Ilmiy yoki tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanib, insonlar uchun ularni tahlil qilishi va oqibatlarini nazarda tutishi kerak, ularda ixtiyoriy ishtirok etishi;
- O‘z vasiyligidagi shaxsni ko‘ngilsizlik, tajovuz, yomonlik, qandaydir huquqdan mahrum etilishdan himoya qilishi kerak.;
- Turli holatlarni faqatgina kasbiy maqsadi bilan o‘z amaliyotidan kelib chiqib muhokama qilish va insonlar bilan faqat ish yuzasidan bog‘liq bo‘lish.

Tadqiqot ishlari jarayonida olingan axborot maxfiy saqlanishi kerak. Mijoz oldidagi ijtimoiy xodimning bevosita axloqiy majburiyatlari quyidagilardan iborat.:

1. mijoz manffati doimo birinchi o‘rinda bo‘lishi kerak;
2. ijtimoiy xodim mijoz bilan samimiy, to‘g‘ri, kasbiy malakasidan maksimal foydalangan holda ishlashi kerak;
3. xech qachon shaxsiy manfaatga erishish uchun mijoz bilan o‘zaro munosabatlardan foydalanmaslik.;
4. irqiy taassub asosidagi yoki yosh, jins, diniy e'tiqodi, millati, oilaviy holati, siyosiy qarashlari, aqliy yoki jismoniy kamchiliklari, qanadydir shaxsiy belgilari yoki shaxsiy xususiyatiga ko‘ra kamsitishning har qanday shaklini namoyon qilmaslik, unda ishtirok etmaslik.;
5. ijtimoiy xodim mijozni unga taqdim etilayotgan huquq, imkoniyat va majubriyatlarning ehtimoliy xatari to‘g‘risida xabardor qilishi kerak. Agar bu mijoz uchun foydali bo‘lsa jamoa, rahbarlar bilan maslahatlashishi kerak.;
6. ijtimoiy xodim mijoz bilan ishni faqatgina alohida hollarda, mijozga kam zarar yetkazgan holda to‘xtatishi mumkin;

7. ijtimoiy xodim mijozga o‘z muammolarini hal qilishga qatnashishga maksimal imkoniyat berishi kerak.;

8. ijtimoiy xodim mijozning fuqarolik yoki yuridik huquqlarini buzishga olib keladigan mijoz nomidan qatnashishni amalga oshirmasligi kerak.

1. *Ijtimoiy ishda axloqiy tamoyillar va dilemmalar* Ijtimoiy ish samaradorligi ko‘p jihatdan ijtimoiy xodimga, uning tajribasi, shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Ammo mutaxassisning kasbiy javobgarligi ijtimoiy xodimlar assotsiatsiyasi kasbiy tashkiloti qabul qilgan axloqiy tamoyillarni belgilamaydi. Ijtimoiy ish qiymati va axloqiy tamoyillari kasbning axloq kodeksida aks etgan bo‘lib, amaliy faoliyatga xizmat qiladi.

Kodeks kasb vakillari axloqiy qoidalarini keltirib, unga mos shaxslar kasbiy tashkilot a'zoligida qoladilar. Ko‘pgina kasblarning axloq kodekslari umumiy qoida va tamoyillarga ega, ammo har bir kasbda maxsus qoidalar keltirilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy xodimning axloq kodeksi o‘zida nimalarni aks ettiradi? Buni AQSh ijtimoiy xodimlari kodeksi misolida ko‘rib chiqamiz.

AQSh ijtimoiy xodimlarining axloq kodeksi 1979-yilda AQSh ijtimoiy xodimlar milliy assotsiatsiyasi (IHMA) delegatlarining assableyasida qabul qilingan. Bu shu yillarda qabul qilingan so‘nggi kasb kodeksidan sanaladi. Kodeksda keltirilgan tamoyillar ruxsat beruvchi va ta'qiqlovchi bo‘ladi. Ular kodeksning oltita asosiy qismida keltirilgan bo‘lib, ijtimoiy xodimlar javobgarligi va majburiyatlarini belgilaydi.

Kodeksning birinchi qismida ijtimoiy xodimning axloqi, uning kasbiy majubriyatlari, shu jumladan, kasbiy halollik, layoqatlilik, tadqiqot ishlarida qatnashish kabi umumiy masalalar ko‘rib chiqilgan.

Ikkinchi qism ijtimoiy xodimning mijoz oldidagi axloqiy javobgarligiga bag‘ishlangan, yanada batafsil tushuntirilgan. Unda mijoz manfaatlarining muammolari, ajratish, mijoz bilan jinsiy munosabatlar, mijoz to‘g‘risida uchinchi shaxsga axborot berish, o‘zini anglashga mijozning huquqi kabi masalalar ko‘rsatilgan.

Kodeksning uchinchi qismi ijtimoiy xodimning jamoa oldidagi majburiyatlariga bag‘ishlangan. Unda boshqa hamkasblar bilan paydo bo‘ladigan masalalar ko‘tarilgan. Bu qismda hamkorlik, jamoaga hurmat, shaxsiy xulosa chiqarish uchun jamoadan foydalanish, ziddiyatlarni bartaraf etish, kuzatish va jamoani baholash, jamoa mijozlariga xizmatlarni vaqtinchalik taqdim etish ko‘rsatiladi.

To‘rtinchi qism ijtimoiy xodimlarning ish beruvchi shaxslar va tashkilotlar oldidagi etik javobgarligiga bag‘ishlangan. Unda mos ijtimoiy ish agentliklari oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishga tegishli bo‘lib, muassasa manfaatlariga rioya qilish, uning samaradorligini oshirish, resusrlardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq amallarga tegishli bo‘ladi.

Kodeksning beshinchi qismi ijtimoiy xodimlarning o‘z kasbi oldidagi etik javobgarligi masalalariga tegishli. Unda kasbning qimmati va ahamiyatini saqlash, ijtimoiy ish bilimlaridan foydalanish va rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi. Mazkur qismda o‘z kasbiy obro‘si va e'tiborini himoya qilishda xodimning javobgarlik chegarasi belgilandi, Noetik axloqda noqonuniy yoki kvalifikatsiya qilinmagan ish amaliyotini o‘z ichiga oladi.

Kodeksning oltinchi qismi jamiyat bilan munosabatlarda ijtimoiy xodimlar majburiyatlarini tavsiflaydi. Unda yozilishicha ijtimoiy xodim quyidagilarga majbur: istalgan shaxs yoki guruhlarning ajratilishini oldini olish va bartaraf etish, zarur resurslarga barcha shaxslarning kira olishni kafolatlash, umumiy ko‘lamda fapvqulodda vaziyatlarda xizmatlar taqdim qilish, siyosatdagi va qonunchilikdagi o‘zgarishlardan himoyalash, ijtimoiy siyosat va muassasalarni shakllantirishda malakali ishtirkchilarni qatnashishi.

Kodeksda keltirilgan ko‘p bo‘lmagan mazkur tamoyillardan ko‘rinadiki. Ulardan eng ko‘p mavhum, idealistik bo‘lganlari ijtimoiy adolat va jamiyat farovonligiga tegishlidir. Ular ijtimoiy xodimlarga nimaga intilish kerakligini ko‘rsatadi. Boshqa tamoyil ijtimoiy xodim yordami bilan maxsus qoidalarni belgilab, rasmiy e'tiroz berish uchun bu qoidalarning buzilishi asos sanaladi. Bundan tashqari kodeks ijtimoiy xodimlarni shunday etik tamoyillar bilan

qurollantiradiki, ular amaliyotda duch keladigan etik munozaralarni hal qilishga imkon beradi. So‘nggi yillarda mazkur muammolar ijtimoiy xodimlardan jiddiy e'tiborni talab qilmoqda.

Dilemma so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, ikkita bir biriga zid holatdan eng zarur bittasini tanlashni anglatadi. Bizning holatda mazkur atama ikkita imkoniyatdan birini tanlash zaruriyatini anglatadi.

Ijtimoiy xodimlar ularning ishiga xalaqit beruvchi turli etik dilemmalar bilan to‘qnash keladilar. Ko‘pgina qiyinchiliklar ikki yoki undan ortiq ziddiyatli majburiyat va burchlardan keraklisini tanlash bilan bilan bog‘liq. Masalan IHMA axloq kodeksida ijtimoiy xodimning mijoz fuqarolik yoki yuridik huquqlarini buzadigan yoki kamaytiradigan qandaydir harakatlarda ishtirok etmasligi belgilangan. Ammo kodeksda shuningdek ijtimoiy xodim ish beruvchi tashkilot oldidagi o‘z majburiyatlariga rioya qilishi kerak deb ko‘rsatilgan. Qoidaning o‘zida ikkita tamoyil bir-biriga zidligini ko‘rishimiz mumkin, agar tashkilot siyosati huquq bersa mijozning fuqarolik huquqi buzilishiga olib keladi.

Boshqa axloqiy ziddiyat maxfiylik va ma'lumotlarning shaxsiy xususiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq.; haqiqatni aytish zarurligi; paternalizm va o‘zini anglash; tashkilot qonun va qoidalarini bajarishga majburlik, chaqimchilik; cheklangan resurslarni taqsimlash, shaxsiy va kasbiy ahamiyat orasidagi munosabat. Bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.

Maxfiylik va jamoa manfaati. Ijtimoiy xodim mijozga tegishli bo‘lgan ma'lumotlarni maxfiy saqlashi lozim. Ammo alohida hollarda masalan mijoz uchinchi shaxsga zarar yetkazishi mumkin bo‘lganda ularni oshkor qilish mumkin.

Haqiqatni gapirish va mijoz manfaati zaruriyati. Ijtimoiy ishda mijozning holati va farovonligi bilan bog‘liq ishlar to‘g‘risida ishonchli axborot olishda mijozning huquqi bilan bog‘liq tamoyillar mavjud. Ammo bir qator ijtimoiy xodimlar ba'zi hollarda haqiqatni yashirish va yolg‘on axborot berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Masalan, zararlardan mijozni himoya qilish zarur. Ayniqsa ko‘pchilik ijtimoiy xodimlar rost ma'luXMTni mijozga ko‘rsatish mumkin emasligi xulosasi shakllangan.

Paternalizm va o‘zini aniqlash Paternalizm muammosi jiddiy etik ijtimoiy xizmat sanaladi. Paternalizm –mijoz xoxishiga aralashuv va uning erkinligini cheklash; uning harakatini cheklash, uning xoxishisiz xizmatlarni qabul qilish talabi. Bularning barchasi mijoz manfaatini himoya qilish uchun paternalizm namunalaridir. Kollegiallik va chaqimchilik. Ijtimoiy xodimlardan biri muassasa qonun yoki qoidalarini buzgan hollarda bu haqda jamoa bilishi uchun jiddiy muammo bilan to‘qnashadi. O‘z jamoasi qoida buzilishi to‘g‘risida bilsa, ijtimoiy xodim etik munozara bilan to‘qnash keladi va o‘z harakatini sinchiklab o‘ylab ko‘radi. Do‘stona hissiyotlar, kasbiy javobgarlik va reputatsiyaning buzilish ehtimoli uni hal qilishga sabab bo‘ladi.

Cheklangan resurslarning teng va noteng taqsimlanishi tamoyili. Mazkur muammo bugungi kunda ham dolzarb sanaladi. Resurslar cheklanganligi yoki tanqisligiga oziq-ovqat, turar joy, dasturni amalga oshirish uchun pul mablag‘lari yetishmovchiligi kiradi. Mazkur resusrlarni taqsimlanishi tenglik tamoyilini hisobga olib yoki mijozga teng imkoniyatlar taqdim etish bilan amalga oshadi. Taqsimlashda u yoki bu yordamga ehtiyoj hisobga olinadi, dastlab adolatsizlik yoki ajratishdan katta zarar ko‘rgan shasxlarga beriladi.

Shaxsiy va kasbiy qimmat.Amaliy faoliyatda ijtimoiy xodimlar shaxsiy va kasbiy qimmatlikning ichki ziddiyatlari bilan to‘qnash keladilar. Masalan, abortga qarshi ijtimoiy xodimlar buni homilador yosh qizlar bilan mazkur muammoni muhokama qilishda murakkablik duch keladilar. Boshqa misol. Bemor diniy sabablarga ko‘ra tibbiy preparatlarni qabul qilishdan bosh tortdi. Ijtimoiy xodim tibbiy preparatlar bemor sog‘ligini yaxshilashiga ishonchi komil. Bunda mijoz huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi tushuncha qanday qo‘yilgani to‘g‘risida o‘ylash kerak.

Keltirilgan misollar ijtimoiy xodimlar holatining murakkabligi hamda turli ma'noga egaligini ko‘rsatadi. Mutaxassislar bilishadiki, murakkab etik masalalarda to‘liq va aniq javobni kasbiy kodekslardan topish murakkab bo‘lib, u umumiy atamalarda va yuqori darajadagi mavhumlikda tuzilgan. Bundan tashqari ular tamoyillar bir qator holatlarda o‘zaro bir-biriga zid ekanligini ham ko‘rsatadilar.

6 .Konsepsiya bilan bir qatorda inson huquqi g‘oyasi SR tushunchalar tuzilmasida paydo bo‘ldi. Inson huquqi tushunchasi yaqinda paydo bo‘lgan. Dastlab u ikki asr oldin G‘arbiy yevropa va AQSh da yaratilgan. Ammo inson huquqi g‘oyasining ildizlari Qadimgi Gretsiya va Rimga borib taqaladi. Haqiqatdan ham aynan grek shahar-polislarida to‘g‘ri demokratiya tamoyillari bilan bog‘liq fuqarolik to‘g‘risida tushunchalar paydo bo‘lgan. Barcha insonlarning prinsipial tengligi to‘g‘risida fikrlar dastlab rim faylasuflari tomonidan keltirilgan. Ammo umumiy fuqarolik huquqi yakuniy shaklda 17-18 asrda shakllanib, amerika va fransuz inqilobidan so‘ng diqqat markazda turgan.

Dastlab G‘arbiy yevropa va AQShda bundan ikki asr oldin paydo bo‘lgan mazkur tushuncha keyinchalik jamoa ongida mustahkam o‘rnashdi.Mutloq va ilmiy asosli mazkur g‘oyalar asosida urinishlar kuzatilib, shu jumladan utilitarizm maktabi vakillari bunda qatnashishdi. Inson huquqi g‘oyasi aynan falsafada qolib, mavhum tamoyillar, katgoriya va qimmatliklar bilan mantiqiy bog‘liq tizimda mavjud bo‘ldi. Ba'zan u alohida guruh uchun yoki targ‘ibot usuli sifatida foydalanildi.

17-18 –asr fuqarolik huquqi falsafasida diqqat markazda qonun oldida insonlarning tengligi masalasi turgan. Ammo dasturning amaliyoti kuchsiz bo‘ldi. Masalan Amerika va Fransiyadagi siyosiy va yuridik huquqlarni kafolotlovchi boshqaruvning respublika shakli shuni ko‘rsatdiki, uning o‘zi amalda fuqarolar tengligiga olib kelmaydi. O‘zaro aloqalarning eski tizimining yo‘qolishi ijtimoiy himoyaning an'anaviy shakllaridan ko‘pgina odamlarni mahrim qildi va kambag‘allikni ko‘paytirdi. Mulkiy belgilar bo‘yicha jamiyatni polyarizatsiyalash kuchaydi. Bolee togo, razrushenie staroy sistemы vzaimosvyazey lishalo mnogix lyudey prejnix. Sanoat inqilobi, ishchilar sinfining shakllanishi, moddiy sharoitlarning yomonlashishi, xarob joylar, ichkilikbozlik, kambag‘allik va fohishalikning paydo bo‘lishi eng salohiyatli vakillarni jalb qilish imkonini bermadi.

Keyinchalik inson huquqi to‘g‘risidagi tasavvurlar fuqarolik va ijtimoiy jihatlardan tashqari kengayib bordi. Sivilizatsiyalashgan jamiyat sanoatlashish va

urbanizatsiyaning o‘sib borishi sharoitida o‘zining barcha a'zolarini minimum farovonlik va barqarorlik bilan ta'minlashga majburdir. Bu pensiya ta'minoti tizimini rivojlanishi, ishsizlar uchun nafaqalar to‘lash, uy-joy ta'minoti, sog‘liqni saqlash va ta'limning barcha uchun bo‘lishini ta'minlashni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Fuqarolik huquqiga o‘xshash tushuncha Shvetsiya va Angliyada ikkinchi jahon urushi oxirida paydo bo‘lib, keyinchalik boshqa G‘arbiy yevropa mamlakatlarida qo‘llanildi. Buyuk Britaniyada bunday tizim ijtimoiy davlat yoki umumiy osoyishta davlat nomini oldi. Mualliflar fikricha (Buyuk Britaniyada Beverij) tizim ijtimoiy yomon holatlarning barcha shakllari: kasalliklar, ishsizlik, kambag‘allik, savodsizlik, maishiy tartibsizlikning bartaraf bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shu yillarda AQSh da prezident Ruzvelt tomonidan iqtisodiy huquqlar to‘g‘risida qonun qabul qilinib, bunda qo‘rqinchdan ozod bo‘lish bilan bog‘liq kambag‘allikdan chiqish to‘g‘risida so‘z boradi.

Demografik o‘zgarishlar va xronik ishsizlik ijtimoiy davlatning byurokratik tizimi bilan yanada ko‘p mablag‘ talab etiladigan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirib, resusrlarning cheklanmagan zaxiralariga ishonch o‘zini oqlamadi. Davlat velferizmi va davlat sotsializmi yutuqlaridan foydalangan avlod tajribasi shuni ko‘rsatdiki, katta mehnat va mablag‘ga qaramasdan ko‘pgina muhim ijtimoiy muammolar tugatilmadi.

Ijtimoiy xizmat o‘zida zamonaviy timsol sifatida inson huquqi va professionalizm g‘oyasini aks ettiradi. Boshqa kasblar kabi u umum insoniy qadr-qimmatga mo‘ljallangan va shuning uchun narsalarning mos tartibiga shubha tug‘ilganda tanqidiy tarzda yondashadi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Ijtimoiy ishda professionalizm konsepsiyasi.
2. Mijoz bilan ijtimoiy xodimning muloqot ko‘nikmalari.
3. Ijtimoiy xodimlarning kasbiy sifatlari.
4. AQSh va G‘arbiy yevropada ijtimoiy xodimlarni o‘qitish tizimi.

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ijtimoiy ish (Esse)

5-Mavzu. Zamonaviy dunyoda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash modellari

1- .Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: tushunchasi, maqsadi va vazifalari. Ijtimoiy himoya modellari.

2. AQSh va G‘arbiy yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining paydo bo‘lish xususiyatlari.

3. Xalqaro tajribadagi ijtimoiy himoya institutlari

4. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining evolyusiyasi va xususiyatlari

Ijtimoiy himoya insonning hayotiy ta'minoti va faoliyatini saqlab turish, kafolatlangan minimal yetarli hayot sharoitini ta'minlash bo‘yicha jamiyat va uning turli tuzilmalari amalga oshiruvchi tadbirlar tizimidir.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot tushunchalari o‘xshash bo‘lib, ammo bir narsa emas. Ijtimoiy himoya ilmiy tushuncha sifatida foydalanilganda o‘z ichiga tarkibiy qism sifatida ijtimoiy ta'minotni oladi, bundan tashqari mehant muhofazasi, sog‘lik va atrof-muhit, minimal ish haqi va insonning hayot faoliyatini me'yoriy sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlarni ham qamrab oladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish institutlaridan biri bo‘lib, maqsadi ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Bu maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy xatarlardan mehnatga qobiliyatli aholini himoya qilishning samarali mexanizmi zarur. Ijtimoiy xatarlar quyidagilar: kasallik. Nogironlik, boquvchisini yo‘qotish, ishsizlik, shikastlanish, ishsizlik, migratsiya, turar joyni yo‘qotish, qarilik, kambag‘allik va inson hayoti davomida duch keladigan boshqa holatlar.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish deganda, yordamga muhtoj fuqarolar to‘g‘risida davlat, jamiyat g‘amxo‘rligi tushunilib, ular yoshi,

sog‘ligining holati, ijtimoiy ahvoli, moddiy boyliklar bilan yetarlicha ta'minlanmaganligida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy yordam (ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot) pensiya, nafaqa, moddiy yordam berish, kasal va keksalarga xizmat ko‘rsatish, bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilishda namoyon bo‘ladi. Mehnatga layoqatsizlarning moddiy yordamining kafolatlangan tizimi turli ijtimoiy qatlam va aholi guruhlarining ijtimoiy sug‘urtasi deb nomlanadi[11].

Ijtimoiy himoya tizimi quyidagilarni kafolatlashi kerak::

- Insonning munosib ijtimoiy ta'minoti, uning obro‘ va e'tiborini hurmat qilish;
- Ijtimoiy bo‘shliqni maksimal to‘liq qamrab olish,;
- Barcha ijtimoiy tizim doirasida xizmatlar, to‘lov va imtiyozlarni teng va mos ravishda taqsimlash;
- Ijtimoiy himoya muassasalarining ishlash samaradorligi.

Ijtimoiy himoya ob'ekti- axolining barcha guruhlaridir. Ammo bunda muhim yo‘nalishlar quyidagi qatlamlarda bo‘ladi: kam daromadli oilalar, nogironlar, keksalar, yetim bolalar, yolg‘iz yoki ko‘p bolali oilalar, ekologik yomon holatda yashovchilar.

Jahon amaliyotida aholini ijtimoiy himoya qilish ikki avtiv va passiv ijtimoiy himoyaga bo‘linadi. Faol ijtimoiy himoya jamiyatning mehnatga qobiliyatli a'zolariga mo‘ljallangan va birinchi navbatda mehnat bozorida faol hamda ijtimoiy sug‘urtalashda qatnashuvchi odamlarning himoyasi uchun sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Passiv ijtimoiy himoya mehnatga qobiliyatsiz va aholining ijtimoiy zaif qatlamiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda bevosita moddiy qo‘llab-quvvatlashda aks etadi.

Shu sababli ijtimoiy himoya mohiyatini tushunishda ikkita asosiy yondashuv mavjud:

- Ijtimoiy himoya – bu yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga o‘tuvchi fuqarolar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy ta'minotidir.:

[11] Архипов А.и др... Иқтисодий луғут. 2-нашр. – М.: Проспект. 2015.

• Aholining ijtimoiy himoyasi –bu manzilli xususiyatga ega aholining ma'lum qatlamiga ko‘rsatiluvchi ijtimoiy to‘lovlar, moddiy yordam va ijtimoiy ishdir.

Xalqaro mehnat tashkilot (XMT) ijtimoiy himoyaga ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordamni kiritadi. XMT konvensiyalarida aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy tamoyillari shakllantirilgan bo‘lib, unda qo‘llaniladigan ijtimoiy himoyaning turli shakllarining minimal darajasi va aholi toifalari ko‘rsatilgan. Ijtimoiy himoyaning milliy tizimi XMT konvensiyalari asosida, ma'lum bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va professional ijtimoiy xizmat o‘zaro bog‘liq va aloqadordir. Ijtimoiy xizmat professional faoliyat shakli sifatida zarur qonuniy va me'yoriy asos, rivojlangan infratuzilma, kadrlar tayyorlash, umuman olganda ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy himoyaga tegishli vositalar mavjudligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoya tizimi mikro darajada ijtimoiy ish uchun tashkiliy-huquqiy maydon bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy ish mablag‘lari yordamida ijtimoiy himoya amalga oshadi. Tayyorlangan mutaxassislarning ijtimoiy ishga kirishi ijtimoiy himoya bo‘yicha tadbirlar samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilishning turli xil tashkiliy-huquqiy shakllaridan foydalaniladi. Yuqorida ko‘rsatilganlardan bugungi kunda muhimlari o‘z ichiga turli to‘lov va xizmatlarni olgan ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordamdir. Turli mamlakatlarda bu ko‘rsatilgan shakllar tarixiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, shuning uchun vazifaning bir xilligiga qaramasdan yondashuv va uslublarda farqlar mavjud.

Ijtimoiy himoya shakllari quyidagilarga bo‘linadi:

Davlat shakllari:

- Sog‘liqni saqlashning barcha uchun ochiqligi
- imtiyozlar
- Ta'limning barcha uchun ochiqligi
- Pensiya ta'minoti (Pensiya)

- Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy ish taqdim etish tizimi
- Nafaqa va kompensatsiya ta'minti

Nodavlat shakllari:

- Ixtiyoriy ijtimoiy sug‘urta
- Hayriya faoliyati
- Sog‘liqni saqlashning xususiy tizimi.

Ijtimoiy himoyaga yondashuvlardagi farqlar to‘g‘risida tasavvurlar .G.Esping-Andersen tasnifi bo‘yicha olish imkonini beradi. Unda uchta asosiy ijtimoiy davlat modellari ajratilgan: **liberal, konservativ (korporativ) va ijtimoiy demokratik.**

Liberal model AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda shakllanib, xususiy mudk ustunligi ostida va bozor munosabatlari hamda liberal mehnat etikasi ta'sirida sodir bo‘ldi. Mazkur model ishlashining asosiy shartlari bozor munosabatlarida davlatning minimal ishtiroki va makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish doirasiga kirmagan davlat boshqaruv tadbirlarini qo‘llashning cheklanishi; yalpi ichki mahsulotda iqtisodiyotning davlat sektori katta bo‘lmagan ulushga ega bo‘lishi.

Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sug‘artalashning rivojlangan tizimi va davlatning minimal aralashuvi hisobidan amalga oshiriladi. Sug‘urta to‘lovlari miqdori qoidaga ko‘ra katta bo‘lmaydi. Moddiy yordam manzilli yo‘naltirilgan hamda ehtiyoj tekshirilgan asosda taqdim qilinadi.

Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun maksimal sharoitlar yaratildi. Mazkur model iqtisodiy barqarorlik yoki o‘sish sharoitida o‘zining asosiy vazifalarini to‘liq qanoatlantirib, ammo pasayish va ishlab chiqarishning qisqarishida ko‘pgina ijtimoiy guruhlar ayniqsa yoshlar, ayollar, keksalarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy dasturlarni kamayishiga olib keladi

Konservativ (korporativ)model bozor iqtisodiyoti ijtimoiy yo‘naltirilgan mamlakatlar uchun xosdir. Ularga kontinental yevropa mamlakatlari sanalgan Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya davlatlari kiradi. Bunda davlatning o‘rni sezilarli darajad kuchli bo‘ladi: ijtimoiy tadbirlarga byudjet ajratmalari hoimdalr va

ish beruvchilarning sug‘urta badallariga deyarli teng bo‘lib, qayta taqsimlashning asosiy kanali davlat qo‘lida yoki uning nazoratida bo‘ladi. Shu bilan birga davlat sug‘arta himoyasi tizimida fuqarolarni moddiy qo‘llab-quvvatlashda qatnashadi. Bunda maqbul ijtimoiy nafaqalar miqdori mehnat daromadlari va shunga mos sug‘urta to‘lovlariga ajratmalarga bog‘liq bo‘ladi. O‘ziga xos xususiyati korxona egalari va kasaba uyushmalari birgalikda yurituvchi sug‘urta kassalarining o‘zini boshqarishidir. Ishsizlik holatida kafolatlangan to‘lov miqdori ish stajiga, to‘lov muddati- sug‘urta badallarini to‘lash davomiyligiga, ularning miqdori va ishchining yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy-demokratik model (ba'zan solidar deb yuritiladi) aholini himoya qilishda davlatning yetakchilik rolini ko‘zda tutadi. Davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari aholi daromadlari darajasi va umumiy bandlikdir. Mazkur model shimoliy yevropa mamlakatlari Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya, shuningdek Niderlandiya va Shveytsariyada amaliy ifodasini topgan. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish asosi iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori tomonidan xizmat ko‘rsatishga asoslanib, soliqqa tortishning juda yuqori darajasiga xos bo‘ladi.

Mazkur modelning boshqa farqli xususiyati ishlab chiqarish demokratiyasining rivojlangan tizimi, alohida korxona yoki tarmoq emas balki umummilliy darajada mehnat munosabatlarini tartibga solish, ishsizlik darajasini kamaytirish imkonini beruvchi fositalardan foydalanishdir.

Ba'zan egalitar deb nomlanuvchi ijtimoiy davlatning shved doktrinasi mashhurdir. U davlatning milliy darajada o‘z fuqarolari to‘g‘risida qayg‘urishi, og‘ir sharoitlarda ularning xavfsizligi, ishonchli himoyasini ta'minlashi, shuningdek himoyani tashkil qilish va boshqarishga asoslangan. Shvedlar ular vafot etgunga qadar davlat g‘amxo‘rlik qilishi kerak deb hisoblaydilar. »[12].

[12] Церкасевич Л. В. Европа иттифоқи мамлакатларида ижтимоий сиёсатнинг замонавий тенденциялари. - СПб., 2002. - С. 27.

Keltirilgan uchta model sof holda umuman uchramaydi, har birining o‘z ustunligi va kamchiliklari bor. Amaliyotda odatda liberal, korporativ va sotsial-demokratik usullarining biror xususiyatlari birgalikda bo‘lishi kuzatiladi.

Ulardan ko‘pchiligi besh federal vazirlik (sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ish, qishloq xo‘jaligi, mehnat, uy-joy qurilishi va shahar rivojlanishi, ichki ishlar) shuningdek iqtisoliy imkoniyatlar bo‘yicha qo‘mita, keksalar ishlari bo‘yicha boshqarma, temir yo‘lchilar pensiya ta'minoti bo‘yicha kengash va fuqarolik xizmati komissiyasi doirasida bo‘ladi. Muvozanatli va tashkiliy tizim bilan tuzilmagan ko‘pgina dasturlar moddiy yordamga muhtoj ko‘pgina guruhlarni qamrab olmasdan, nafaqa va kompensatsiyalarning miqdori kam darajada bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga bunday dasturlar afro-osiyo va lotin amerikasidan kelgan aholi o‘rtasida qaysidir darajada ijtimoiy boqimandalikni keltirib chiqaradiBoshqa mavjud kamchilik sifatida oilaviy munosabtlarga salbiy ta'sir ko‘rsatishini keltirish mumkin: ular ba'zan ajrashishni, ota-onalarning alohida yashashini, oilaviy holatga bog‘liq holda moddiy yordam olishni targ‘ib qiladi.[13]

3. *Jahon* tajribasining tahlili ijtimoiy himoyaning asosiy to‘rt instituti mavjudligini ko‘rsatadi.:

1. Mehnat qobiliyati, ish joyi, daromad manbasi yo‘qligi sababli o‘zini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydigan shaxslarga ijtimoiy yordam. Ijtimoiy yordam qoida bo‘yicha oldingi daromad miqdori yoki aholining o‘rtacha yashash darajasiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Ijtimoiy himoyaning mazkur institutining xususiyati – aholi guruhlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlatning shartnomadan tashqari ijtimoiy munosabatlaridir. Qoidaga ko‘ra mazkur tizimdagi to‘lovlar muhtojlikni tekshirgandan so‘ng mavjud daromadga qo‘shimcha shakl sifatida qabul qilinadi, bosh asos- minimal hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun mablag‘larning yo‘qligi yoki yetishmasligidir. Ijtimoiy yordamning moliyaviy manbalari davlat yoki mahalliy byudjet, xayriya fondlari mablag‘lari bo‘ladi.

[13]Лебедев О. Т., Язвенко С. А. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш. – СПб., 1999. – С. 91–92.

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalash shaklida amalga oshiriladigan davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti iqtisodiy faol aholini daromadni yo‘qotish yoki mehnat qobiliyatini (shu jumladan pensiya yoshiga yetish) va ish joyini yo‘qotish xavfidan ijtimoiy himoya qilish instituti sanaladi. Moliyaviy manbalari ish beruvchilar va jismoniy shaxslar (xodimlar) badallari hamda alohida toifa uchun davlat byudjeti mablag‘lari sanaladi.

Ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha pensiya va nafaqalar mazkur tizimni moliyalashtirishda sug‘urtalangan shaxs va ish beruvchi ishtirokiga asoslanib, sug‘urtalanganlik huquqi bo‘yicha taqdim etiladi.

Tizimdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni belgilovchi xususiyati yo‘qotilgan daromadni o‘rnini egallash sanalib, pensiya va nafaqalar miqdori oldingi ish haqi va badallarga bog‘liq bo‘lib, bu tizim muhtojlikni aniqlashdan mustaqil ravishda ish olib boradi.

Fuqarolarning alohida toifalari uchun (harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari va xodimlarning boshqa toifalari) ijtimoiy va pensiya ta'minoti sug‘urtalash tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi, ammo bu holatda sug‘urtalovchi va o‘zini sug‘urtalaydigan shaxs davlat bo‘ladi.

3. Ixtiyoriy qo‘shimcha (kasbiy) sug‘urtalash uzoq muddatli jamoa kelishuvlari asosida alohida tarmoq yoki kompaniyalar doirasida amalga oshiriladi. So‘nggi o‘n yillikda Markaziy, Sharqiy yevropa mamlakatlari va MDH da nodavlat pensiya fondlari keng qo‘llanila boshlandi.

4. Fuqaroni ixtiyoriy shaxsiy sug‘urtalash shartnoma asosida tashkil qilinib, uning doirasi va ma'lum vaqt davomida amalda bo‘lishi, sug‘urta xatarlarining mavjud turlari, sug‘urtalangan shaxsning moliyaviy imkoniyatlari belgilanadi.

Bazaviy va aniqlovchi (moliyalashtirish hajmi, qamrab olish ko‘lami va ijtimoiy ishning turli shakllari) majburiy ijtimoiy sug‘urtalash instituti bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish va aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish institutlariga sarflanadigan mablag‘ 60% gacha, ijtimoiy himoyaga yo‘naltiriladigan mablag‘lar jami mablag‘larning 20-30% ini tashkil etadi.

Ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishning jahon tajribasi tahlilidan kelib chiqib, ijtimoiy himoyaning umumiy tamoyillariga quyidagilar kiradi*:*

- Aholiga qulay sharoitlarni ta'minlashda davlat va jamiyatning ijtimoiy javobgarligi
- Jamiyatning barcha qatlamlari;
- Zarur hollarda tibbiy va ijtimoiy yordamni ta'minlash;
- Ijtimoiy va kasb xatarlaridan ishlovchilarni himoya qilishning umumiy xususiyati;
- Jamiyatning barcha qismiga ijtimoiy himoyani qo‘llashni kengaytirish.

Yuqorida keltirilgan tamoyillardan kelib chiqib, zamonaviy jahon amaliyotida quyidagilar ishlab chiqilgan:

- Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:
- Bir-birini o‘rnini bosuvchi yuqori darajada manzilli yo‘naltirilgan yagona naqaqalarni kiritish
- Aholining muhtoj qatlamlariga katta bo‘lmagan miqdordagi nafaqalar;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini belgilash talablarini kuchaytirish, ularning muhtojlik darajasini tekshirish;
- Ijtimoiy soha (sog‘liqni saqlash, ta'lim, uy-joy kommunal xo‘jaligi) yetakchi tarmoqlarida umumiy sektorni rivojlantirish, bu sohani moliyalashtirishda qatnashish mehanizmini kengaytirish;
- Markaziy va mahalliy byudjetlar o‘rtasida ijtimoiy himoya qilish tizimi tarkibi bo‘yicha moliyaviy vazifalarni qayta taqsimlash ;
- Ijtimoiy soha tarmoqlarida xususiy shakldagi xo‘jalik va notijorat tashkilotlarni rivojlantirish;
- Ijtimoiy sohani dasturiy moliyalashtirishga o‘tish, moliyaviy mablag‘larni sarflashda ijtimoiy me'arlar va jamoat nazoratidan foydalanish;
- Ijtimoiy buyurtmalarni shakllantirish va uni bajarishga xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarni jalb qilish.

4. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng boshida qo‘yilgan strategik maqsad- aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan jamiyatda qulay ijtimoiy muhit va sharoitni yaratishdir. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan choralarning barcha mantig‘i va bosqichlari aynan shu maqsadga erishishga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi 1994-yilgacha bo‘lib, iqtisodiy pasayish sharoitida davlat ijtimoiy siyosati aholining hayot darajasi va daromadlarini tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich (1995-1997 yy.), mamlakatning iqtisodiy barqarorlikka erishishi va iqtisodiy pasayishdan chiqish davri bo‘lib, bunda davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi daromadlarni barqarorlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishni oshirish bo‘ldi. Bu bosqichda aholining hayot darajasini oshirishning muhim iqtisodiy mexanizmlari va asoslari ishlab chiqildi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishilgan bugungi bosqichda ijtimoiy siyosatning maqsadi daromadlarni uzluksiz oshirish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy himoyaning samaradorligini yuksaltirish asosida hayot darajasi va farovonligini o‘stirish uchun sharoit yaratishdir.

Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘zida aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamini hayot darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, shuningdek davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar, ish beruvchilar va jismoniy shaxslarning alohida e'tiborini talab qiluvchi aholi toifalariga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bu tadbirlar ijtimoiy va tibbiy-ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, mehnat, kasbiy sog‘lomlashtirish, aholining alohida toifalariga imtiyozlar taqdim etish va boshqalardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy-qo‘llab-quvvatlash tizimi birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining farovonlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, ularga quyidagilar kiradi :

• Nogironlik sababidan qat'iy nazar qonunchilikka muvofiq nogironlik guruhi belgilangan shaxslar, shuningdek 18 yoshga to‘lmagan nogiron bolalar;

• Texnogen va tabiiy ofatlar, tartibsizliklar, shuningdek harbiy va millatlararo nizolar natijasida shikastlangan shaxslar;

• Yolg‘iz keksalar 65 yoshga to‘lgan (erkaklar) va 60 yoshga to‘lgan (ayollar), yoshga doir pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan va boshqa shaxslar tomonidan moddiy ko‘makka ega bo‘lmagan shaxslar, shuningdek doimiy parvarishga muhtoj yolg‘iz keksalar ;

• Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan belgilangan darajadan kam daromadga ega kam ta'minlangan oilalar va alohida shaxslar;

• Kam ta'minlangan ko‘p bolali oilalar;

• yetim va ota-ona g‘amxo‘rligisiz qolgan bolalar;

• Ijtimoiy ahamiyatli kasallikka chalingan shaxslar

• Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalashda mashg‘ul bo‘lgan kam ta'minlangan oilalardagi onalar yoki u yo‘q bo‘lganda o‘rnini bosuvchi shaxslar;

• Boquvchisini yo‘qotgan oilalar, voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalovchi bevalar;

• Ishsiz sifatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar.

Aholining ko‘rsatib o‘tilgan toifalaridan tashqari ijtimoiy yordam davlat va jamiyat tomonidan yuqori e'tiborni talab qiluvchi alohida shaxslarga, shu jumladan bolalar, yosh oilalar, urush faxriylari va fuqarolarning bir qator boshqa toifalariga ko‘rsatiladi.

O‘ziga xizmat qilishga imkoniyati mavjud bo‘lmagan yoki qiyinchilikka egaligi sababli doimiy parvarishni talab qiluvchi nogiron, kasal fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

• Bepul-tibbiy ijtimoiy yordam ko‘rsatish, shu jumladan, profilaktik, davolash-tashxislash, sog‘lomlashtirish, sanatoriya-kurort va boshqa turdagi yordam.;

• Ixtisoslashatirilgan ijtimoiy himoya tashkilotlarida doimiy yoki vaqtinchalik bepul qarash;

- Yolg‘iz keksalarga uyda ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish;
- Tibbiy ko‘rsatmalardan kelib chiqib, protez-ortopediya buyumlari, harakat va sog‘lomlashtirish vositalari bilan nogironlarni bepul ta'minlash;
- Aholining alohida toifalarini sanatori-kurort muassasalarida, profilaktoriya va dam olish uylarida bepul yoki qisman pul to‘lash orqali sog‘lomlashtirishni tashkil qilish.

Ijtimoiy yordam fuqaro va oillarga mustaqil ob'ektiv imkoniyat bo‘lmagan sharoitda xususiy mablag‘lar, mulk yoki moddiy resurslar hisobidan aholining belgilangan ijtimoiy farovonlik minimumi darajasida o‘z ehtiyojlarini ta'minlaydilar.

Ijtimoiy yordam quyidagi shakllarda taqdim qilinadi:

- Voyaga yetmagan bolalar mavjud kam ta'minlangan oilalarga har oylik pul nafaqasi va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, shuningdek Mehribonlik bolalar uylari hamda oila turidagi bolalar uylari bitiruvchilariga bir martalik nafaqalar;
- Ishlamaydigan onalarga(yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsga) bola ikki yoshga yetguncha uni parvarishlash bo‘yicha har oylik nafaqalar;
- Kam ta'minlangan va ko‘p bolali oila farzandlarini qishki kiyim-bosh, darsliklar va o‘quv anjomlari bilan ta'minlash;
- Belgilangan me'yorlarga muvofiq doimiy parvarishga muhtoj yolg‘iz keksalarni oziq ovqat mahsulotlari va dori vositalari (ehtiyojga ko‘ra) bilan ta'minlash;
- Yosh bo‘yicha yoki nogironlik bo‘yicha pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo‘lmagan yolg‘iz keksalarga har oylik nafaqalar, shuningdek bolalikdan nogironlarga ular 18 yoshga to‘lguncha nafaqalar;
- Ishsizlik bo‘yicha har oylik nafaqalar va ularning oilalariga bir martalik moddiy yordam;
- Shaxsiy yordamchi xo‘jalikni yuritish uchun kam ta'minlangan va ko‘p bolali oilalarga yirik shoxli qoramol berish.

Ijtimoiy yordam aholining alohida toifalariga beg‘araz tarzda tovarlar (mulk) berish yoki bepul xizmatlar ko‘rsatish shaklida agar ular jismoniy imkoniyati cheklanganligi yoki daromadlari yetarli emasligi natijasida ularni olishga ob'ektiv imkoniyati mavjud bo‘lmasa taqdim etiladi. Ijtimoiy yordam miqdori, mezonlari va muddati qonunchilik bilan belgilanadi.

Kasbiy, mehnat va ijtimoiy sog‘lomlashtirish doimiy kasallikka ega, nogiron, sud qarori asosida jazoni ozod etish muassasasidan ozod qilingan va kasbiy, mehnat va ijtimoiy sog‘lomlashtirishga muhtoj boshqa shasxlarga ijtimoiy himoyaning ixtisoslashtirilgan tashkilotlarida ularni to‘laqonli hayot faoliyatini ta'minlash va odamlarga qo‘shilishi maqsadida amalga oshiriladi.

U o‘z ichiga quyidagi tadbirlarni oladi:

- Belgilangan me'yorlarga muvofiq protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari, sog‘lomlashtiruvchi texnik vositalar bilan bepul ta'minlash .;
- Sog‘ligining holati va mavjud ish malakasi va kasbini hisobga olgan holda kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan statsionar sog‘lomlashtirish muassasalarida;
- Mehnat va kasb ko‘nikmalarini tiklash, zarur bo‘lganda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitish uslublarini qo‘llab o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirish;
- Korxona, muassasa va tashkilotlarda ixtisoslashgan ish joylarini yaratish va zaxiraga olish, bu ish o‘rinlariga kasbiy. Mehnat va ijtimoiy sog‘lomlashtirishga muhtoj shasxlarni joylashtirish.

Aholining alohida toifalariga taqdim etiladigan ijtimoiy imtiyozlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy infratuzilma muassasalari xizmatlaridan birinchi navbatda foydalanish huquqini berish; transport, uy-joy va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa muassasalari xizmatlaridan bepul yoki qisman to‘lab foydalanish ; dorilar va tibbiy anjomlarni bepul yoki qisman to‘lab xarid qilish; statsionar davolash muassasalarida bepul ovqatlanish; sanatori-kurort muassasalarida bepul sog‘lomlashtirish; jismoniy shaxslar daromad solig‘i, mulk

va yer soliqlaridan qisman yoki to‘liq ozod qilish. Ijtimoiy imtiyozlar taqdim etiladigan aholining alohida toifalari, taqdim etilayotgan imtiyoz ro‘yxati, tartibi va hajmi qonunchilik bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ijtimoiy yordam, xizmat va imtiyozlarni u yoki bu darajada oluvchilar mamlakat aholisining taxminan 40% ini qamrab oladi Yuqorida ko‘rsatilgan ijtimoiy yordam tadbirlari davlat yoki mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy yordam ko‘rsatishdagi barcha xarajatlarning ozroq qismi (5% dan kam) ijtimoiy byudjetdan tashqari va xayriya fondlari tomonidan moliyalashtiriladi.

Pensiya ta'minoti. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ikkita majburiy pensiya tizimi mavjud:

- *asosiy* – aholining solidarlik tamoyiliga asoslangan davlat pensiya ta'minoti tizimi;
- *qo‘shimcha* – majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi (005 y dan kiritilgan.).

Asosiy pensiya tizimi,”Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinib, uch turdagi pensiyalar nazarda tutilgan : yoshga doir (erkaklar 60 yosh, ayollar – 55 yoshga yetganda), nogironlik (sud-tibbiy ekspertiza xizmati nogironlikni tan) va boquvchisni yo‘qotganlik (qoida bo‘yicha yetimlarga to‘lanadi).

Pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari ish beruvchi va xodimlarning badallari sanaladi. Bu badallarning miqdori va farqlanishi daromadlar va davlat byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining pensiyaga xarajatlarini doimiy tengligini ta'minlashi kerak.

Qo‘shimcha pensiya tizimi. Pensiya tizimidagi eng yirik institutsional o‘zgarish 2005-yildan kiritilib, pensiya ta'minotining qo‘shimcha darajasi-majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bo‘ldi.

“Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq har bir xodim uchun ish beruvchi individual jamg‘arib boriluvchi pensiya schetini ochib, ish beruvchi va xodimning majburiy

ajratmalaridan uni shakllantiradi. Bu schetda deponentlangan mablag‘lar iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlariga investitsiya qilinadi va foyda bilan fuqarolarga qaytariladi. Pensiya yoshiga yetganda pensioner istalgan vaqtda bu schetdagi mablag‘lardan o‘z xoxishiga ko‘ra foydalanishi mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida 20 yil mobaynida qatnashganda qo‘shimcha pensiya miqdori asosiy pensiyaning deyarli65% ini tashkil qiladi.

Mehnat sohasidagi ietimoiy himoya. Mehnat sohasidagi xodimlarning ijtimoiy himoya tizimi o‘z ichiga quyidagi tarkibiy qism va segmentlarni oladi:

- mehnat va fuqarolik huquqining qonunchilik me'yorlari, xodimni ishga qabul qilish va bo‘shatish, ish vaqti va dam olish tartibi, mehnatga haq to‘lash, ayollar va bolalar mehnatini himoya qilishning umumiy tartibi va xususiyatini belgilaydi.;
- ijtimoiy himoya mexanizmi, bu o‘z ichiga iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy tizimlarni, xodimlarni ijtimoiy hiomya qilish vazifalari va shakllarini ta'minlashni, shuningdek ish beruvchi va xodimlar manfaatlarini muvofqilashiruvchi vositalar- jamoa va mehnat shartnomalari, kelishuvlarni oladi.
- yuridik maqom va iqtisodiy imkoniyatlar (masalan alohida xatarlardan sug‘urtalash) ga ega aniq maqsad va vazifalarni belgilagan ijtimoiy yordam institutlari

Jahon tajribasining tahlili ijtimoiy yordamning to‘rtta asosiy institutini ajratish imkonini beradi:

- Mehnat qobiliyati, ish doyi, daromad manbasi, o‘zini moddiy ta'minlash imkoniyati yo‘q shaxslarga ijtimoiy yordam;
- Majburiy ijtimoiy sug‘urtalash shaklida amalga oshiriladigan davlat ijtimoiy va pensi ta'minoti ijtimoiy faol aholini mehnat qobiliyati yoki ish joyini yo‘qotishi, pensiya yoshiga yetishi natijasidagi daromadining yo‘qotilishidan himoya qiladi.;
- Uzoq muddatli jamoa kelishuvlari doirasida alohida tarmoq va kompaniyada amalga oshiriladigan ixtiyoriy qo‘shimcha sug‘urtalash.

• Fuqarolarni ixtiyoriy shaxsiy sug‘urtalash shartnoma asosida tashkil qilinib, uning doirasi va vaqti, sug‘urta xatarlarining turlari, sug‘urtalangan shaxsning moliyaviy imkoniyatlari belgilanadi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish: tushunchasi, shakllari, maqsad va vazifalari.
2. Ijtimoiy ta'minotning yevropa tizimi.
3. Yalpi farovon davlat konsepsiyasi.
4. AQSh da ijtimoiy ishning paydo bo‘lish tarixi.
5. Aholini ijtimoiy himoya qilishning Amerika tizimi.
6. Ijtimoiy sug‘urtalash tizimi.

6-Mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida davlat va nodavlat tashkilotlari

1. Aholini ijtimoiy himoya qiluvchi davlat tashkilotlari
2. Xususiy ijtimoiy tashkilotlar. Ko‘ngilli tashkilotlar
3. Ijtimoiy ish o‘zaro munosabatlarining shartnomaviy tizimi.
4. Xalqaro Qizil Xoch Tashkiloti

1. Davlat va nodavlat tashkilotlar homiyligi federal hukumat, shtat, okrugga kiradi. Ular umumdavlat soliqlari hisobidan moliyalashtirilib, xodimlar davlat byudjetidan ish haqi oladilar.

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari umumiy davlat ijtimoiy siyosatini ishlab chiqish va uni mamlakat, mintaqa va mahalliy darajada o‘tkazishga javobgar bo‘ladilar.

Ular aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni boshqa rasmiy tashkilotlar, shuningdek notijorat va tijorat tashkilotlari bilan muvofiqlashtiradilar. Har bir davlat byudjet imkoniyatlari doirasida mazkur

tashkilotlar mamlakat aholisni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli shakldagi dasturlarni amalga oshiradilar.

Finlyandiyada ijtimoiy ta'minot va sog‘liqni saqlash vazirligi bosh ijtimoiy boshqarma bilan birgalikda ijtimoiy ta'minot sohasida markaziy organlar sanaladi. Gubernatorlik boshqarmalari mintaqaviy rahbarlikni amalga oshiradi. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tashkilotlarni mahalliy miqyosda boshqarish va amaliy ishlari munissipaletlar tomonidan amalga oshiriladi.

AQSh da ijtimoiy soha bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari tuzilmasi Finlyandiya va boshqa yevropa mamlakatlaridagi kabi uyg‘unlashmagan. Davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy hukumat organlariga ijtimoiy ta'minot bo‘yicha boshqarma, qishloq xo‘jaligi vazirligi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ish vazirligi, u yoki bu ijtimoiy dasturlarni amalga oshiruvchi boshqa federal idoralar kiradi.

Ijtimoiy siyosat va alohida ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish aqliy markazlar (universitet, hukumat va nohukumat assotsiatsiya fondlari) shuningdek yetakchi siyosiy partiyalar, boshqa tashkilotlar shu jumladan biznes sohasidagi tashkilotlar bilan amalga oshiriladi. Bu sohadagi ularning tavsiyalari ma'muriyat asosida bo‘ladi va federal idoralar, shuningdek ijtimoiy ta'minot bo‘yicha boshqarma ijtimoiy ishni boshqa xizmatlar kiradi. Ijtimoiy ta'minot bo‘yicha boshqarish bo‘yicha AQSh da AKT ishlab chiqilgan bo‘lib, butun mamlakat bo‘ylab 1200 ta bo‘limga ega. Qishloq xo‘jaligi vazirligi davlat ijtimoiy ta'minot davlat bo‘limlari orqali federal iste'mol dasturlarini amalga oshiradi. Bu maqsadlarda mahsulot xarid qilishda pul bilan birga foydalanilgan, ammo tamaki va spirtli mahsulotlar emas.

1912-yilda asos solingan bolalar byurosi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ish vazirligini boshqaruv qismi bo‘lib, bu o‘z navbatida bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi. Bolalar himoyasi xizmati bolalarga ijtimoiy, tibbiy, yuridik va vasiylik xizmatlarini ko‘rsatadi. Ular bolalarga kuch bilan munosabatda bo‘lish holatlarini o‘rganadi, ijtimoiy ta'minot xizmatlari va yuridik organlarga tavsiyalar beradi.

Federal hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan keksalar uchun agentlik keksalar huquqlarini himoya qilish va xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Davlat ijtimoiy ishida band bo‘lgan ijtimoiy xodimlar tashkilotning faoliyat yo‘nalishi va ko‘lamidan kelib chiqib turli vazifalarni bajaradilar. Masalan, AQShdagi davlat ijtimoiy ish shtatlarida quyidagi lavozimlar nazarda tutilgan: boshqaruvchi, dasturni baholovchi maslahatchi, mijozlarga muqobil yordam manbalarini taklif qiluvchi maslahatchi; agentlik va mijoz o‘rtasidagi vositachi; mijoz manfaatlarini himoya qiluvchi advokat; psixoterapevtik yordam ko‘rsatuvchi mutaxassis; yordamga muhtoj insonlarni topish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis; yordam dasturlarini rejalashtiruvchi mutaxassis, ijtimoiy o‘zgarishlarda qatnashuvchi faol ;.

Davlat agentlikalari asosan moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan, ijtimoiy xizmatchilar o‘qitishda olingan bilimlardan foydalanish, faoliyatning keng turi mavjud ko‘ngilli tashkilotlarda qatnanish vazifalarini bajaradilar.

2. Xususiy ijtimoiy tashkilotlar, ko‘ngilli tashkilotlar yana tadbirkorlik yoki tijorat tashkilotlari deb yuritiladi. Ular aralash shaklda moliyalashtiriladi:xayriya mablag‘lari, jismoniy shaxslar sovg‘alari, xizmatlar ko‘rsatilayotgan shaxslar to‘lovlari, hukumat ajratgan mablag‘lar hisobidan. Xususiy ijtimoiy tashkilotlar va ko‘ngilli tashkilotlar faqatgina o‘z faoliyat xususiyati, taqdim qilinayotgan xizmatlari bo‘yicha emas, balki jamoa, mintaqa va mamlakat doirasidagi faoliyat ko‘lamiga qarab ham ajratiladi.

Bu tuzilmadagi asosiy bo‘g‘in ijtimoiy agentliklardir. Bu tashkiliy shakl aholiga yordam ko‘rsatadi. Bu tashkilotga direktorlar kengashi rahbarlik qiladi. Agentliklar odatda professional ijtimoiy xodimlar, boshqa soha vakillari, texnik xodimlardan iborat bo‘ladi. Bu tashkilotlar o‘zlarining aniq ustav qoidalariga ega bo‘lib, unda mijozlarga qanday xizmat ko‘rsatish, qanday muammolarni qaysi usullardan foydalanib hal qilishni aks ettiradi.

Amerikadagi bunday tashkilotlarga Amerika oila xizmatini misol qilib keltirish mumkin. Bu milliy tashkilot oila xizmati mahalliy agentliklarini qamrab olib, shuningdek uning rivojlanishidan manffatdor alohida shasxlardan tashkil topadi. Milliy tashkilot agentlik tarkibiga kiruvchi dasturlarni ishlab chiqadi, umumiy aloqalar va ta'lim dasturlarini ta'minlaydi, oilaga ijtimoiy xizmat

ko‘rsatish sohasida tadqiqotlarning va nashrlarning homiysi bo‘ladi. Tashkilot kengashi siyosatni shakllantirishga yordam beradi va oilalar ehtiyojlari to‘g‘risida qonunchilik organlariga tavsiyalar beradi. Mahalliy agentliklar oila va nikoh , o‘qitish va rahbarlik bo‘yicha dasturlar, jamiyat uchun ijtimoiy ishni ta'minlaydilar.

Amerika xizmati (Family Service Organization), asosan yoshlar va ko‘p bolali oilalarga turli shakldagi xizmatlarni ko‘rsatadilar.

Lyuteren ijtimoiy ish- lyuteren cherkov bilan bog‘liq agentliklar tarmog‘ini o‘zida aks ettiradi. U yirik amerika jamiyatlarining barchasida agentlikka ega bo‘lib, asosan bolalar va keksalarni ijtimoiy ta'minlash bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatadi. Bunday tashkilotlarning namunaviy misoli- Amerika Qizil xoch tashkiloti sanaladi. Xayriya tashkilotlari daromadi soliqqa tortilmaydi.

Notijorat tashkilotlar aqliy bilimlarni almashish ijtimoiy ishini ko‘rsatadilar, ular kapital qo‘yilmalar uchun foydalanadigan xususiy aksioner bo‘lmaydi. Bu tashkilotdagi xodimlar mehnatiga eng past stavkalarda haq to‘lanib, chunki mazkur tashkilot xayriyaga bog‘liq sanaladi.

Ko‘ngilli tashkilotlarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Asosiy vazifasi o‘z a'zolariga yordam ko‘rsatish bo‘lgan tashkilotlar masalan,
- Kasbiy assotsiatsiyalar va jamoat klublari;
- Cherkovlar, sinagog, masjid va boshqa diniy tashkilotlar;
- Xayriya tashkilotlari, shu jumladan nafaqat o‘z a'zolari balki boshqalarga ham yordam ko‘rsatuvchi turli fondlar, diniy federatsiyalar (Umumiy yo‘l, katoliklar xayriyasi, ijtimoiy ta'minot Yahudiylar federatsiyasi, anonim alkogoliklar va boshqalar.).

Ko‘ngilli tashkilotlarda ishlaydigan mutaxassislar faoliyati shakli bo‘yicha turlicha bo‘ladi, ularni guruhlarga birlashtirish mumkin:

- xizmat ko‘rsatish (mahsulotlarni uyga yetkazib berish, xarid qilishda yordam berish, do‘stona bordi-keldi, tajriba almashish va boshqalar) ;

• fuqarolik huquqi o‘zgarishlari va himoyasi uchun kurash, fuqarolik faoliyati (qo‘mita va komissiyalarda ishlash, dasturni baholash);

•ko‘ngillilarga rahbarlik faoliyati, direktorlar kengashi a'zosi va bu sohadagi boshqa organlar a'zosi bo‘lish, o‘z-o‘ziga yordam ;

• xayriya faoliyati uchun mablag‘lar va ehsonlar to‘plash.

Qayd etish kerakki, ko‘ngillilar faoliyatida markaziy o‘rinni pul to‘plovchilar egallab, AQSh va boshqa bir qator mamlakatlarda fanddrayver deb yuritiladi. Tajribali pul to‘plovchi hyech qachon yolg‘iz ishlamaydi. Guruh bilan birga xayriya g‘oyalarini tuzib, salohiyatli donorlar ro‘yxatini shakllantiradi, o‘z jamoasining pul to‘plash usullarini hisobga oladi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Turli xayriya ziyofatlari tashkil qilib, mashhur olimlar, artistlar, yozuvchilarni ko‘p miqdordagi insonlar va mablag‘ni jalb qilish uchun taklif qiladi.

Ko‘ngilli tashkilotlar o‘z faoliyatlarini mahalliy, shtat, umummilliy miqyosda amalga oshirishlari mumkin.

3.60-yillarda AQSh da aholini ijtimoiy himoyalash to‘g‘risidagi qonunda davlat yordamlarini kelgusida taqdim qilish tizimining kelgusi rivojiga ta'sir qiluvchi to‘ldirish kiritilgan. Tuzatishda davlat va nodavlat yordam xizmatlarining vazifalarini ajratish masalasi ko‘rib chiqilgan. Davlat xizmati boshqa agentliklardan xizmatlar olishga ruxsat bergan va bu xususiy hamda ko‘ngilli tashkilotlar bilan xizmatlarni ta'minlash uchun shartnoma tuzish imkonini berdi. Ko‘pgina hollarda shartnoma bo‘yicha xarajatlar davlat xizmatidagi katta miqdordagi xodimlar tarkibiga nisbatan ancha kam bo‘lgan. Bundan tashqari ko‘ngilli soha xodimlari davlat xizmatchilarida bo‘lmagan tajriba mavjud edi. Bugungi kunda shartnoma asosidagi xizmatlarni xarid qilish AQSh ijtimoiy xizmatlar ish amaliyoti sanaladi.

Shartnoma bo‘yicha ijtimoiy ishni taqdim qilish ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning tezlik bilan o‘sishi va yordam dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha davlat xizmatining o‘z majburiyatlarini bajara olmasligi sababli vujudga keldi.

Amerikalik olimlarning fikricha xizmatlarning shartnomaviy tizimini kirishi ham maqsadli ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, markazlashtirmaslik, bozor mexanizmlari va deinstitutsionalizatsiyaning so‘nggi o‘n yillikdagi tendensiyasiga xosdir.

Maqsadli ijtimoiy ish aholining alohida guruhlari, asosan unga muhtojlarga yo‘naltirilgan dasturlarni yaratish bilan bog‘liqdir. Masalan “Qashshoqlikka qarshi kurash” dasturi qabul qilinib, bu ma'lum irqiy, etnik guruhlarga moslashgan kichik tumanlar miqyosida qo‘shimcha agentliklar yaratishga olib keldi.

Shartnomaviy tizim aniq muammo va ehtiyojlarni hal qiluvchi ijtimoiy ishning plyuralistik tizimidan foydalanish imkonini berdi.

To‘liq mehnat bandliga va kasbiy tayyorgarlik to‘g‘risidagi qonun mahalliy darajadagi homiylarni uyg‘otib, qora tanli aholidan ishsizlarni kasbiy o‘qitish dasturlarini tuzish uchun umumiy tuzilmadan foydalanish imkonini berdi. Ijtimoiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonunning bir qator bo‘limlari (1975) shtat hukumatlarini ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim qilishni emas, balki ijtimoiy ishni sotib olishiga sabab bo‘ldi. Shtatlar va mahalliy boshqaruv organlariga ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlarida keng vakolatlar berildi:nafaqalar miqdorini belgilash, xizmatlarni aniqlash standartlari va yordam ko‘rsatish shakllari shular jumlasidindir. Bunday yondashuvning natijalaridan biri shartnomaviy tizimning saqlanishi va kengayishi bo‘ldi.

Xususiy bozorlarning kengayishi shartnomalar tuzishdagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Bepul tibbiy yordam va davlat tibbiy xizmati tizimi keksalar va muhtojlar uchun bu turdagi xizmatlarning keng tarmog‘ini yaratish maqsadida xususiy tuzilmalar tomonidan moliyalashtirildi. Kafolatlangan davlat fondlari bo‘lganda ham ko‘ngilli ham tijorat tashkilotlari kundalik parvarish, uzoq muddatli parvarish, statsionar xizmat ko‘rsatish va bolalar uylarini ta'minlash kabi sohalarda hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘ladilar.

Deinstitutsionalizatsiya – statsionarda joylashgan va ularni parvarishlashni tashkil etishdagi shaxslar miqdorini qisqartirishga, turar-joyi bo‘yicha davolashni

amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayon, shuningdek shartnomaviy tizimning rivojlanishi.

Bunday yondashuvning asosiy tamoyili insonga cheklanmagan sharoitda odatda statsionar muassasalardae foydalanish huquqini taqdim qilish, qancha mumkin bo‘lsa shuncha odatiy hayot tarzi va erkin yashashni ta'minlashdan iborat.

Bugungi kun mutaxassislarining yashash joyi bo‘yicha odatiy hayotdan chetlashgan shaxslarning qayta moslashuvi va qo‘shilishi bo‘yicha qarashlari turlicha. Ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy ishdan jamoat tuzilmalariga o‘zgardi. Mahalliy darajada reintegratsiyaning ko‘pgina dasturlari amalga oshirilmoqda va ular orasida ay-joy ta'minoti, ruhiy davolash, uyda yordam berish, voyaga yetmagan huquqbuzar shaxslarni qayta tarbiyalash dasturlari mavjud. Bunday dasturlarni amalga oshirish davlat, xususiy va ko‘ngilli ijtimoiy xizmat xodimlarining birgalikdagi ishtirokini talab qiladi.

Xalqaro diniy-filantropik tashkilot Qutqaruv Armiyasi 1865-yilda Angliyada tuzildi. 13 yil o‘tib u angliyalik targ‘ibotchi Uilyam But tomonidan qayta tashkil etilib, u buning birinchi generali bo‘ldi. Tez orada qutqaruv armiyasi o‘z faoliyatini boshqa mamlakatlarda ham boshladi. Hyech narsasi yo‘q shaxslarga moddiy va ma'naviy yordam ko‘rsatilib. Qutqaruv armiyasi askarlari xristianlik dinini targ‘ib qilishgan.

Qutqaruv armiyasi faoliyati bugungi kunda yer yuzining barcha qit'alaridagi 96 mamlakatni qamrab olgan. Qutqaruv armiyasi o‘z faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda olib boradi : uysizlarga turar joy berish, ochlarga oziq-ovqat taqdim qilish, keksalar to‘g‘risida qayg‘urish, bolalar bilan ishlash, nogironlarga yordam. Yaqinlarini izlashda yordam berish va boshqalar.

Qutqaruv armiyasining ijtimoiy ishi asosida quyidagi g‘oyalar yotadi: umidsiz shahidlar va halok bo‘lganlarni qaytarish imkoni yo‘q, inson yordam olish huquqiga ega, bunda kam harakatlilikni yaxshilash eng oddiy yo‘l, agar insonning ma'naviy qiyofasida bular bo‘lmasa diniy-axloqiy tarbiya vositasida ularni bartaraf etib bo‘lmaydi.

Har qanday xayriya tashkiloti professional ijtimoiy xodimlarsiz ish yurita olmaydi. Faqat ulargina ulardan yordam so‘ragan shaxslarga ko‘mak berishi, tadbirlarni amalga oshirishi mumkin. Axir qutqaruv armiyasi kabi katta tashkilotdagi ishlar faqatgina xudoga ishonish va insonlarga samimiy munosabat bilan asoslanmasdan. Bu tashkilot insonlarga yordam ko‘rsatish uchun katta ishlarni amalga oshiradilar. Ammo kimga qanday yordam berishda qutqaruv armiyasi professionallarni yordamga jalb qiladilar. Aynan shuning uchun bu tashkilot uchun ijtimoiy xizmat katta ahamiyatga ega sanaladi.

“Anonim Alkogoliklar” harakati 1935-yilda Akron (Ogayo shtati) da paydo bo‘lib, 12 qadam dasturi asosida shakllangan. AA ning oldingi variantidagi asosiy tamoyillar asosan xristianlik bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga AA faoliyatining muvaffaqiyati jamiyat a'zolarining xulqi va ehtiyojlari uchun kuzatuvga asoslanganligidir.

Bunday tamoyillar “12 qadam dasturi” asosini tashkil etadi:

1. Biz o‘zimizni alkogol oldida ojiz deb tan oldik va bizning hayotimizni boshqarib bo‘lmaydi.
2. Shunga ishonamizki, bizning o‘z kuchimizdan qudratli kuch mavjud va bizga sog‘lom fikrlashni qaytarishi mumkin.
3. Xudo bizning hayotimizga unga qanday ishonsak qaror qabul qiladi.
4. O‘z xulqimizni chuqur va dadillik bilan tadqiq qildik.
5. Xudo, o‘zimiz va boshqa insonlar oldida o‘z aybimizni tan oldik.
6. Xudo bizning xarakterimizdani barcha salbiy xususiyatlarni yo‘qotishi uchun to‘liq tayyorlandik.
7. Undan bizning kamchiliklarimizni tuzatishini o‘tindik.
8. Biz yomonlik qilgan barchani esladik va ularga zararni qoplashga tayyorlandik b.
9. Imkonimiz bo‘lganda barcha shaxslarga shaxsan ziyonlarni qopladik.
10. O‘z xulqimizni tanqidiy kuzatishni davom ettirdik va qachon xato qilsak uni o‘z vaqtida tan oldik.
11. Ibodat va anglash yo‘li bilan xudo bilan lngli aloqani tushundik.

12.Bu qadamlarni bajarish natijasida ruhiy uyg‘onishga erishib, boshqa alkogoloklar bilan tajriba almashib, bizning barcha ishlarimizda bu tamoyillarni qo‘lladik.

«Anonim Alkogoliklar» harakati hozirda butun dunyoda keng qo‘llanilmoqda. Bu harakat guruhlari miqdori doimiy o‘smoqda, masalan har yili AQSh va Kanadada yillik o‘sish taxminan 4 ming guruhlarni tashkil qilmoqda.

12 qadam dasturidan tashqari 60-yillardan boshlab giyohvandlar o‘rtasida o‘xshash jamiyat Anonim giyohvandlar jamiyati tashkil qilindi.

Xalqaro Qizil Xoch –bu ijtimoiy harakat bo‘lib. barcha irq va dinlarga, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga taqdim etiladi, millionlab a'zolarga ega.

Mazkur faoliyatning maqsadi- hyech qanday ajratishsiz kim og‘ir ahvolda bo‘lsa unga yordam berishdir. Bu maqsad ko‘p sonli va turli shakldagi vazifalar orqali amalga oshadi : urush vaqtida jarohatlanganlarga g‘amxo‘rlik, aqliy va jismoniy nuqsonli insonlarga yordam, zilzila qurbonlariga yordam, donorlikni tashkil qilish, bosib olingan hududlardagi aholi himoyasi, ayrilgan oilalarni birlashtirish

Shu kabi vazifalar qizil xoch tashkiloti oldida 100 yildan ortiq vaqt davomida turibdi.

Qizil Xoch jamiyatini yaratish tashabbuskori shveytsariyalik jamoat arbobi Anri Dyunandir (1828-1920). O‘tgan vatq davomida harakat keng doirada rivojlanib, uning me'yoriy va yuridik asosi, uning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar va organlarni yaratish zarurligini ko‘rsatdi. Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyatlari faoliyatining asosiy 7 ta tamoyillari quyidagilar: insonparvarlik; xolislik; neytrallik; mustaqillik;ixtiyoriylik, yagonalik, universallik.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Aholini ijtimoiy himoya qiluvchi davlat tashkilotlari.
2. Xususiy ijtimoiy tashkilotlar.
3. Ko‘ngilli tashkilotlar Dobrovolcheskie organizatsii.
4. Xalqaro xayriya tashkilotlari («Qutqaruv armiyasi», “Anonim alkogoliklar harakati, “Xalqaro Qizil Xoch tashkiloti).

7- Mavzu . Teng huquq va teng imkoniyatlar siyosati

1. Ijtimoiy ishda inson huquqiga rioya qilish.
2. Ijtimoiy ishning asosiy intervensiyasi
3. AQSh da gender tengligi siyosati mexanizmi

1. Hukumat va boshqa tashkilotlar yordamisiz u yoki bu siyosatni amalga oshirishda inson huquqlarini ta'minlash va kunadlik hayotdagi amaliy masalalarni amalga oshirishda o‘sishga erishish mumkin emas. Ammo o‘z amaliy faoliyatida inson huquqlarini amalga oshirish uchun ijtimoiy xodim shuni tushunishi kerakki. Bilimning o‘zi inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlamaydi va uning vositasi bo‘lmaydi. Inson huquqlarida qo‘llaniladigan atama va tushunchalarni o‘zlashtirishdan tashqari ijtimoiy xodim bu tushunchalarni inson huquqining amaliy faoliyatida qanday aks etishini bilishi kerak. Bu uchun hukumat faoliyati ishini, mijozlarni va ijtimoiy ish konsepsiyasini tushunishi kerak.

AQSh ijtimoiy xodimlar milliy assoyoiatsiyasi o‘z siyosatini amalga oshirishda inson huquqiga asosiy tamoyil sifatida qaraydi, ijtimoiy xizmatning butun nazariyasi va amaliyoti shunday quriladi: «insonning fuqarolik, siyosiy, madaniy. Iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlashda jamiyatning javobgarligi masalasi ko‘rilganda ijtimoiy xodim ularni amalga oshirishga ishonchi komil bo‘lishi kerak.» (NASW 2000:181). Ijtimoiy xodim insonlar bilan noinsoniy munosabatlarga doimo qarshi turishi kerak.»[14].

Ijtimoiyxodimlarbolalarmehnatidanfoydalanish, bolalarnikamsitish, bolalarniazoblashbilanbog‘liqboshqajinoyatlarmuammolaribilanmunosabatdafaolb o‘lishikerak. Ularjamiyate'tiborinibundaymuammolargaqaratishlarikerak.

Ijtimoiyxodimlaraholiningkamta'minlanganguruhlarihuquqlarinihimoyaqilis hlarivafanatizm, insonhuquqlarigarioyaqilishniyomonlashtirradigansabrsizlikvayomonlikdanhimoya qilishlarikerak. Insonhuquqlariningbundayturdagibuzilishlarigairqiy, etnik,

[14]Элизабет Райкерт. Ижтимоий хизмат ва инсон ҳуқуқи. Сиёсат асослари ва амалий фаолият. Колумбия университети нашриёти, Нью-Йорк.

jinsbelgilaribo‘yicha, jinsikkamchilikbo‘yichaajratish, keksalar, nogironlar, emigrantlarniajratishkiradi.

Tarixiyijtimoiyxizmatinsonlarvainsonlarguruhio‘rtasidagiadolatsizlikbilanbog‘liqishedi. Ijtimoiyxizmatinsonparvarvademokratikg‘oyalarasosidao‘sdi, ajratishvaresurslarniadolatsiztaqsimlashgaqarshikurashdi. Buasosiylahzaadolatsizliknivademokratikg‘oyalarnio‘zgarishigaolibkeladi – bugungikundabuijtimoiyxodimaxloqkodeksiningtarkibiyqismidir. (NASW 1996).

Ijtimoiy xizmat ham inson, ham uning tashqi muhiti bilan o‘zgaradi. Atrof muhit inson ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. (Compton i Galaway 1994; Kirst-Ashman i Hull 1993; Germain i Gitterman 1996). Ijtimoiy xodimlar faqatgina alohida shaxslarga yordam beribgina qolmasdan, global miqyosdagi o‘zgarishlarga olib keladilar. (Goldstein 1992).Bu ikkita fokus tibbiyot va psixologiya kabi boshqa yordam beruvchi kasblardan farqlaydi.

Shunday qilib ijtimoiy xizmat axolining yordamga muhtoj guruhlari va boshqalarga yordam berish bo‘lib, unda intervensiyalar ishlab chiqilgan. Bu intervensiyalar inson huquqi bilan chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy ishda mazkur kasbning ikkita yo‘nalishini saqlashga yordam beruvchi turli intervensiyalar ishlab chiqilgan: alohida insonlarga yordam va global o‘zgarishlarni aralashtirishga urinish. Bu intervensiyalar zulm, imkoniyatlarni bo‘lish, kuchli tomon istiqbollariga qarshidir. Bu intervensiyalarni tushunish orqali ijtimoiy xodim sho‘ kasbi bilan inson huquqining aloqasini oson aniqlaydi.

Zulmga qarshi chaqiruv. Ijtimoiy xodimlar an'anaviy tarzda zulm ko‘rgan va ajratilgan insonlarni o‘z mijozlari sifatida ko‘rishgan. Zulm qilish alohida inson yoki guruhlarga munosabat bo‘yicha vakolat va hukmronlikdan adolatsiz foydalanish bilan bog‘liq. Zulm qilishning turlicha shakllari mavjud bo‘lib, o‘z ichiga irqiy, etnik, sinf va jins bo‘yicha, yosh va jinsiy qobiliyati bo‘yicha ajratishga asoslangan. Uning har bir shakli adolatsiz munosabat va kuchlarning noteng joylashishini yaratib, jabr ko‘rsatishning davom etishiga sabab bo‘ladi.

Zulmga qarshi chaqirish inson huquqlarini bajarish bilan bog‘liq. Umum insoniy va demokratik ideallar zulmni lanatlanishni ko‘rsatib, kuchlarni noto‘g‘ri

taqsimlashdan kelib chiqadi. Uni kamayrish uchun kurashda ijtimoiy xodim inson huquqlarini rivojlanishi uchun ishtirok etadi.

Imkoniyatlarni taqsimlash. Ijtimoiy xodim qo‘llaydigan va inson huquqlari bilan bog‘liq intervensiyaning boshqa shakli bu imkoniyatlarni taqsimlashdir. Intervensiyaning bu shakli irqiy, etnik, sinf va jins bo‘yicha, yosh va jinsiy qobiliyati bo‘yicha ajratiilgan munosabatga ta'sir qiluvchi holatlarni tadqiq qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy sohada imkoniyatlarni taqsimlash ikkita o‘zaro bog‘liq jarayondan iborat. Qachonki inson shaxsiy rejada ma'lum darajaga erishganda, u ijtimoiy rejada ham qandaydir darajaga erishadi. Insonlarni o‘qitish ular bilan adolatsiz munosabatlarni bartaraf etishga yordam berib, ijtimoiy xodimlar ishining muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Kuchli tomonlarning istiqboli. Kuchli tomonlarning istiqboli bilan ishlar inson huquqi bilan bog‘liq ijtimoiy ishdagi intervensiyaning boshqa shakli sanaladi. Bu holatda inson yoki guruhning kuchli tomonlari mijoz bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida markaziy o‘rinda bo‘ladi. Intervensiyaning mazkur shakli tuzilmaviy adolatsiz va noteng munosabatda ko‘pgina odamlar va guruhlarning zarur resurslardan ajratadi. Bu xizmat inson barqarorligi va usullarda aks etib, ko‘pgina to‘siqlarga qaramasdan o‘z muammolarini hal qiladi. Kuchli tomon istiqboli bilan bog‘liq bunday ishlarsiz ijtimoiy xodim mijoz va guruhlarga o‘ziga xos munosabatda oson umidsizlikka tushadi, u ularni patologik me'yoriy bo‘lmagan holat sifatida ko‘rib chiqishni boshlaydi.

Bandlik sohasidagi teng huquqlilik. 1963-yilda qabul qilingan teng mehnat uchun bir xilda to‘lash to‘g‘risidagi qonun amerika tarixida ish beruvchi tomonidan jinsiy belgilari bo‘yicha ajratishni cheklashga qaratilgan birinchi huquqiy hujjat bo‘ldi. Unga ko‘ra ishga yollovchi bir xil malaka, tajriba, kuch talab qiluvchi, teng mehnat sharoitlarida bajarilgan ish uchun erkak va ayollarga bir xilda haq to‘lashi kerak bo‘ldi.

Kasbiy ta'lim olishda erkaklar bilan bir xil huquqqa ega bo‘lish fenimizmda ayollar emansipatsiyasining asosiy sharti sifatida ko‘rildi. Tashkil qilingan ayollar harakatining to‘lqini saylov huquqi bilan bir qatorda ustuvor vazifa sifatida oliy

ma'lumot olishga huquqni talab qildi. Amerikalik feministlar ajratilgan ammo teng munosabat legitim kursi doirasida bu huquqqa to‘xtaldilar. feministkam prixodilos otstaivat eto pravo v ramkax legitimnogo diskursa «razdelnogo, no ravnogo обращeniya». AQSh da yuz yildan ortiq vaqt davomida ayollarni nima uchun o‘qitish kerak degan mavzuda ommaviy debatlar o‘tkazildi.

yevropa mamlakatlarida gender-hissiy siyosat farqlarni hisobga olgan holdagi tenglik umumiy xotirjam davlat kursida keltirilgan. Bu kurs doirasida gender tengligi muhokama qilinib, ayol va erkak o‘rtasidagi farqlar ularning ijtimoiy-iqtisodiy maqomida bir xilga keltirilishi mumkin emas. Shuning uchun teng imkoniyatlar siyosati ayollar maqomini yaxshilash va ularning o‘ziga xos talablarini qondirish bo‘yicha maxsus davlat dasturlari bilan to‘ldirilishi kerak.

Nazorat uchun savollar

1. Inson huquqi bo‘yicha xalqaro hujjatlarning asosiy qoidalari.
2. Adolatsizlikni chaqirish va demokratik g‘oyalarning o‘zgarishi ijtimoiy xodim axloq kodeksining tarkibiy qismi (NASW).

8-Mavzu. Ijtimoiy ishning xalqaro infratuzilmasi

1. Ijtimoiy ishda professionalizm:mohiyati, shakllanish omillari.
2. Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi.
3. Ijtimoiy xizmat maktablari xalqaro assotsiatsiyasi (IXMXA).
4. AQSh ijtimoiy xodimlari professional assotsiatsiyasi .

Ijtimoiy ishda professionalizm tushunchasi ilmiy muomalaga darhol kiritilmagan va u AQSh va G‘arbiy yevropa mamlakatlarida qo‘llanilgan. 20-asr boshlarida ham ijtimoiy xizmat kasb hisoblanmas, ijtimoiy xodimlar

ikkinchi darajali lavozim sanalgan. Ammo bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat va ijtimoiy xodimlarning maqomi o‘zgarib borgan. Bu kasbning obro‘si sezilarli ravishda ko‘tarilib, davlat, munisipal va xususiy sektorda aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy amaliyot va qonunchilikda o‘z aksini topdi.

Ijtimoiy xodim kasbiy faoliyatining tarkibi aholini ijtimoiy qilish sohasidagi qonunlar,qonunosti hujjatlari, bu sohadagi mehnat taqsiXMTiga binoan bajariladigan vazifalarni belgilaydi. Ijtimoiy xodimning kasbiy mehnati bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi shaxsiy, funksional va moddiy komponentlardan iborat.

Ijtimoiy xodimning ixtisoslashuvi nuqtai nazaridan (bugungi kunda ijtimoiy xodimlar 20 dan ortiq yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashgan) mehnatni boshqarishda band bo‘lgan (ijtimoiy xizmat va ijtimoiy himoya organlari menejerlari) , ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning asosiy shakllari doirasidagi ijtimoiy ishda band bo‘lgan (ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy-maishiy xizmatlar) , profilaktika va oldini olish ishlarida band bo‘lgan xodimlarga bo‘linadi.

Keltirilganlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy ishda professionalizm- hayotiy muammolarni hal qilishda malakali faoliyatni ta'minlaydigan, mehnat sifati va natijalarning yuqori bo‘lishiga olib keluvchi mutaxassisning yuqori darajadagi bilim, mahorat va malakasini doimiy saqlab turishdir.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xodimlarini kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan mutaxassislar va mutaxassis bo‘lmaganlarga ajratiladi. Ijtimoiy ish mutaxassislari profil yoki noprofil oliy hamda o‘rta ma'luXMTga ega bo‘ladilar. Mutaxassis bo‘lmaganlar shuningdek yordamchi xizmat ko‘rsatish xodimlari uch guruhga bo‘linadi: malakali, yarim malakali va malakaga ega bo‘lmagan xodimlar. Amaliyotda ko‘rinadiki, ular turli kasbiy malaka, tayyorgarlik va mahoratga ega bo‘ladilar. Shuni tan olish kerakki, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis lavozimi egallagan hamma xodimlar ham lavozim

majburiyatlarini bajarish uchun, ijtimoiy ish mijozlari muammolarini samarali hal qilish uchun yetarli kasbiy mahoratga ega emas.

Kasbiy-shaxsiy sifatlar shakllanishi va ijtimoiy hizmat xodimi sifatida rivojlanish kasbiy qiziqish shakllanishini, mos ta'lim olishni, kasbiy mahoratni shakllantirish hamda axloqiy-ruhiy sifatlar, shuningdek o‘zini boshqarish va o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

2. Ijtimoiy ish xalqaro federatsiyasi *(International Federation of Social Workers)*– ijtimoiy xodimlar xalqaro doimiy kotibiyatining davomchisi bo‘lib, unga 1928-yilda Parijda asos solingan. Ikkinchi jahon urushi davrida xalqaro hamkorlik bo‘yicha barcha harakatlar bekor bo‘lgan. Ammo 1950-yilda 7 mamlakatdagi kasbiy assotsiatsiyalardagi ijtimoiy xodimlar ixtiyoriy asosda ijtimoiy xodimlar xalqaro assotsiatsiyasini tiklashga qaror qildilar. 1956-yil 5-10 avgust kunlari Myunhyenda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy xodimlar xalqaro konferensiyasi alohida voqyelik bo‘lib, natijada 1956-yil 9-avgustda mazkur 7 ta assotsiatsiya Ijtimoiy Xodimlar Xalqaro Federatsiyasini tuzdilar (IHXF).

Tashkilotning ta'sischilari quyidagi mamlakat assotsiatsiyalari bo‘lishdi: Avstriya, Belgiya, Kanada, Daniya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Niderlandiya, Shveytsariya va AQSh.

Bugungi kunda IHXF butun dunyo bo‘ylab ijtimoiy xizmat assotsiatsiyalarining 80 dan ortiq a'zosini qamrab olgan. U tashkil qilingandan buyon xalqaro konferensiya muntazam ravishda ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Toq yillarda konferensiya har bir mintaqada o‘tkaziladi.

«Ijtimoiy xodimning axloq kodeksi» ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi va ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasiyaning a'zosi bo‘lgan Ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy xodimlar uyushmasi umumrossiya jamoat tashkilotining tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. Kodeks o‘zida ijtimoiy soha mutaxassislarining o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq ijtimoiy ishning asosiy tamoyillari va ahamiyati keltirilgan hujjatdir.

«Ijtimoiy xodimning axloq kodeksi» ning bosh maqsadi insonning axloqiy tamoyillari va ma'naviy o‘rnini belgilash, mijozning ijtimoiy ehtiyojlarini

qondirishda mutaxassisi(ijtimoiy xodim) va jamiyat (turli institutlar) o‘zaro munosabatlarini belgilashdan iboratdir.

Kodeks 6 banddan iborat kirish, IX tushunchalaridan tashkil topgan:

«Ijtimoiy xizmat- insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha (kasbiy va nokasbiy, majburiy va ixtiyoriy) faoliyat shakllarining yig‘indisidir. Kimdir yordam so‘rab ijtimoiy xodimga murojaat qilsa yoki kimgadir bunday yordam taklif qilinsa u ijtimoiy xizmat mijozi sifatida belgilanadi. Mijoz shaxs. Oila, qandaydir guruh yoki jamiyat bo‘lishi mumkin.».

Etika masalalarida xabardorlik –bu ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyatining asosiy qismidir. Ularning qobiliyati va majburiyatlari ijtimoiy ishdan foydalanadigan shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatning sifat jihatidir. IHXF ning etika sohasidagi xizmatlarining maqsadi tashkilot a'zolari, shuningdek ijtimoiy xizmat institutlari va ularning ijtimoiy ishni o‘rganuvchi talabalari , o‘rtasida debatlar va muhokamalar o‘tkazishdir Bir qator etik dilemmalar va ijtimoiy xodim duch keladigan muammolar faqat ma'lum mamlakatlar uchun xso bo‘lib, boshqalari barcha uchun umumiy bo‘ladi. Umumiy tamoyillarga asoslangan IXXF ijtimoiy ish maktabi xalqaro assotsiatsiyasi IXMXA qo‘shma deklaratsiyasining maqsadi ijtimoiy xodimlarni butun dunyoda kengaytirish, ular duch keladigan murakkab vazifalar va dilemmalarni hal qilish, etika masalalarida har bir holatda qanday harakat qilishni aniqlashdir.

Bu hujjatlarning boshlang‘ich nuqtasi ijtimoiy ishni belgilash bo‘lib, IHXF va IXMXA 2000-yil iyulda Kanadaning Monreal shahridagi ularning bosh konferensiyasida mustaqil ravishda qabul qilinib, keyinchalik 2001-yil mayda Kopengagenda birgalikda kelishildi. Bu ta'riflar inson huquqi va ijtimoiy adolatlilik tamoyillarini qayd etadi. Keyingi bo‘lim (3) inson huquqi to‘g‘risidagi turli deklaratsiyalar va konvensiyalarni yodda tutib, ijtimoiy ishda dolzarb bo‘ladi. Keyinchalik ikki sarlavhaga ega umumiy axloqiy tamoyillar to‘g‘risida deklaratsiya keladi: insonning huquqlari va qadri hamda ijtimoiy adolatlilik. (bo‘lim 4). Oxirgi bo‘lim ijtimoiy ishda kasbiy etika bo‘yicha bir qator asosiy tavsiyalarni ko‘rsatadi. Bu tavsiyalar axloq bo‘yicha dasturlarda batafsil ishlab

chiqilgan va IHXF va IXMXA tashkilotlari a'zolarining turli erkinliklari me'yori va qoidalarini aks ettiradi.

3.Buyuk Britaniya ijtimoiy xodimlari Milliy assotsiatsiyasi Britan ijtimoiy xodimlar assotsiatsiyasi (BASW) – Buyuk Britaniyada ijtimoiy xizmat va ijtimoiy xodimlarni taqdim qiluvchi eng yirik assotsiatsyailardan biridir.

Britan Assotsiatsiyasi 30 yildan buyue mavjud. Bu yillarda u murakkab ylni bosib o‘tib, amaliy tajriba to‘pladi. Assotsiatsiyada 8500 dan ortiq a'zo bo‘lib, ko‘pchiligi Fngliyada yashaydi va amaliy ijtimoiy xodim sanaladi.

Britan Assotsiatsiyasi ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi.Bunday shartnomalar ijtimoiy xususiy agentliklar manfaatlarini saqlab, Assotsiatsiya a'zolariga jamoat ishlari bilan shug‘ullanish va assotsiatsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini targ‘ib qilish imkonini beradi. Britan Assotsiatsiyasi o‘z ustaviga ega. Bunda assotsiatsiya a'zolarining majburiyatlari, asosiy axloqiy tamoyillari keltirilgan. Assotsiatsiya a'zoligi ish sohasida kengayib, ijtimoiy xodimlar ularni bajarishlari mumkin. Litsenziyaga ega va kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori ijtimoiy xodim assotsiatsiya a'zolariga tegishli barcha talablarga javob berishi kerak..

Assotsiatsiyaning asosiy vazifasi himoya qilishdir. Bunda mijozlarning huquqi kabi turli darajadagi ijtimoiy xodimlarning huquqlari himoya qilinadi. Vazifa shundan iboratki, barcha tomonlar: ish iste'molchilari, ish beruvchilar, ijrochilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdir.

Assotsiatsiya ijtimoiy qonunchilikni ishlab chiqish, ijtimoiy xodimlar mehnat sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy sohaga xodimlarni jalb qilish bilan shug‘ullanadi. Assotsiatsiya a'zolari ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish va jamiyat fikrini shakllantirishda ishtirok etish huquqiga ega.

Ijtimoiy xodim amaliy ishlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ta'lim olgandan so‘ng har bir ijtimoiy xodim davlat mustaqil kengashida ro‘yxatdan o‘tib, litsenziya oladi. Amaliy faoliyatni davom ettirish uchun har yili ish beruvchi va mustaqil kengash oldida o‘z faoliyatining yuqori axloqiy ekanligini isbotlab berish kerak.

Assotsiatsii ahamiyati shundan iboratki, ish beruvchi va mustaqil kengash oldida ijtimoiy xodimning manfaatlarini aks ettirib, muammoli masalalar paydo bo‘lganda maslahat berib, ijtimoiy xodim tayyorgarligiga zamonaviy talablar to‘g‘risida axborot beradi.

Assotsiatsiya boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi: ijtimoiy ish maktablari assotsiatsiyasi, direktorlar assotsiatsiyasi, kasaba uyushma tashkilotlari. Bu kuchlarni birlashtirish, o‘zaro faoliyatning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ijtimoiy xodim faoliyatida siyosiy nuqtai nazardan o‘zgartirishga yorjam beradi.

Assotsiatsiya a'zolari quyidagi imtiyozlarga ega: bepul maslahat olish, sug‘urtalashda, mebellar, buyumlar xarid qilishda chegirmalar, seminar va konferensiyalarda qatnashishda imtiyozlar.

4.Qo‘shma Shtatlardagi ijtimoiy xodimlar milliy assotsiatsiyasi (NASW) ijtimoiy xodimlar kasbiy tashkiloti. NASW o‘z a'zolari va umuman ijtimoiy xodimlar uchun so‘nggi axborot va boshqa resurslarni olish, tadqiq qilishni ta'minlaydi.

AQSh ijtimoiy xodimlar milliy assotsiatsiyasi o‘z siyosatini amalga oshirishda asosiy tamoyil sifatida inson huquqlarini olib, ijtimoiy xizmat nazariyasi va amaliyoti shunday tuziladi: «insonlarning fuqarolik, madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlashda jamiyatning javobgarligi to‘g‘risida masala ko‘tarilganda ijtimoiy xodimlar ularni bajara olishlariga ishonchi komil bo‘lishi kerak.» (NASW 2000:181). Ijtimoiy xodim insonlar bilan noinsoniy munosabatlarning har qanday shakliga qarshi turishi lozim»[15].

Mavzu 9. Inson hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy xizmat

1. Jamoada ijtimoiy xizmat

[15]Элизабет Райкерт. Ижтимоий хизмат ва инсон ҳуқуқи. Сиёсат асослари ва амалий фаолият Колумбия университети нашриёти, Нью-Йорк.

2. Sog‘liqni saqlash muassasalarida ijtimoiy xizmat
3. Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ijtimoiy xizmat
4. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy xizmat

1.Jamoa nima? Bu tushunchaga qaysi mutaxassislar undan foydalanishiga ko‘ra turlicha qarashlar mavjud.Jamoag eng oddiy yondashuv geografik nuqtai nazardan bo‘ladi : ma'lum hudud va ma'lum makon doirasidagi insonlarning aralashuvi (kichik tuman, shahar, munitsipalitet). Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan jamoa bu umumiy manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, faoliyatga asoslangan insonlarning birlashuvidir.

Olimlar fikricha ijtimoiy xodim tizimli modeldan foydalanishi zarur bo‘lib, jamoa doimo o‘zida ma'lum ijtimoiy tizimni aks ettiradi. Tizim shu jumladan ijtimoiy- bu ma'lum elementlarning doimiy yig‘indisidir.

Har qanday ijtimoiy tizim kabi jamoa barqarorlikka asoslanib, mahalliy hokimiyat xatosi oqibatida mustahkam bo‘lmasligi mumkin, mavjud resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida jamoaviy aloqalarning yomon ishlashi, axborot yetishmasligi kuzatiladi.

Aholining ishtiroki- jamoa faoliyatining shakli va asosiy maqsadidir. Bu ishtirok ijtimoiy, psixologik, ma'muriy, siyosiy ahamiyatga ega. Ko‘pgina mamlakatlarda bunday ishtirok qonunchilik bilan rasmiylashtirilgan, masalan AQSh da federal va shtatlar darajasidagi qonunchilik barcha fuqarolarga davlat faoliyatining ko‘pgina sohalarida qatnashish huquqini beradi bu-rasmiy ishtirokdan ma'muriy organlar a'zoligi va siyosatni birgalikda ishlab chiqishgacha. Organlar vaagentliklar alohida dasturlarni ishlab chiqish va nazorat qilish uchun jalb qilishlari mumkin.

Yevropa mamlakatlarida masalan Daniyada jamoa boshqaruvning muhim organi bo‘lib. ular a'anaviy katta mustaqillikka ega bo‘ladilir. Jamolar soliqlarni kiritishlari va aholi saylagan kengashni boshqarishlari mumkin.

Shahar jamoasidagi ijtimoiy ishga misol qilib-bo‘sh vaqtni tashkil qilish, shu jumladan ommaviy-sport tadbirlari kiradi. Ijtimoiy xodimning qishloqdagi faoliyati

an'analar, norasmiy yordam turlari, masalan umumiy asoslardagi bolalar bog‘chalari yoki o‘zro yordamni tashkil qilisha asoslanadi.

Jamoada ishlaganda ijtimoiy xodim ko‘p vazifalarni bajaradi. Masalan qiziqishlar bo‘yicha sport va madaniy tadbirlar yoki klublarni tashkil qilib ijtimoiy xodim fasilitator sifatida qatnashadi, uning maqsadi jamoa hayotiga insonlarning ijtimoiy ishtirokini faollashtirish, asotsial axloqni o‘smirlar va kattalarda oldini olishdir.

Shuningdek bundan maqsadlar o‘zaro yordam guruhlarini tashkillashtiruvchi ijtimoiy xodimlarda ham bo‘ladi. Bunday holatda u lider tashkilotchi emas, balki jamiyatdagi insonlarning ijtimoiy hayoti to‘g‘risidagi kasbiy bilim, ijtimoiy resurs manbasi bo‘ladi.

Jamoadagi faoliyat mutaxassisdan inson, gurug‘li axloq, jamoa tuzilishi, uning ichki aloqalari to‘g‘risidagi bilim, ishga ijodiy yondashuv bo‘lishini talab qiladi.

Jamoada ijtimoiy xodim faoliyatining juda muhim yo‘nalishii o‘z-o‘ziga yordam guruhlarini tashkil qilishdir. Ijtimoiy xodim zarur inshoot, uskunani olishga sho‘iga yordam beruvchi guruhlarga ko‘mak berib, ma'muriy organlarda ular manfaatlarini himoya qiladi, kasbiy xizmatlarni taqdim qilib, yangi guruhlarni yaratish ijodkori bo‘ladi. O‘ziga yordam beruvchi guruhlar bilan aloqa qilib, ijtimoiy xodim fuqarolik jamiyatining me'yorda ishlashi uchun norasmiy yordam tizimi rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Jamoadagi ishlarda qatnashish xorijiy mamlakatlarda professional ijtimoiy xodimlar uchun an'anaviy sanaladi.

2.Sog‘liqni saqlash- xorijda ijtimoiy ish mutaxassislari faoliyatining an'anaviy sohasi sanaladi. Birinchi ijtimoiy xodimlar 20-asr boshlarida tibbiy tashkilotlarda faoliyat yuritishgan. Urushdan keyingi yillarda ko‘pgina mamlakatlarda bemorlar muammolarini to‘laqonli tushunish va hal qilish uchun ishga tibbiy ijtimoiy xodimlar qabul qilingan. Ijtimoiy xodimning ba'zifalariga odatda mijozlar huquqlarini himoya qilish, statsionarlan tashqaridagi kasallarni ijtimoiy moslashtirish, intensiv terapiya kursidan so‘ng kasallarni parvarishlash va uyda xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, nogironlarning mehnat terapiyasi kiradi.

Masalan Shvetsiyada kasalxonalardagi ijtimoiy xodimlar shifokr va bemorning yaqinlari munosabatlarini uyg‘unlashtirish, statsionar sharoitlarga kasalni moslashtirishga yordam berish, og‘ir kasallarning yaqinlari, vafot etgan bolaning ota-onalari bilan ishlash,oila ahvoli to‘g‘risida shifokorga xabar berish, bemorning psixologik holatini uzluksiz nazoratini amalga oshirish vazifalarini bajarishgan.

Germaniyadagi ko‘pgina klinikalarda ijtimoiy ish mavjud bo‘lib, ijtimoiy xodimlar kasalxonalardagi markaziy ijtimoiy hizmatlar orqali mehnat qilishgan. Asosiy e'tiborda kasalxonaga kelgan bemorlarning moliyaviy muammolarini hal qilish turib, chunki Germaniyada bepul tibbiy xizmat yo‘q va moliyalashtirish faqat sug‘urta tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Bu mamlakatda tibbiy ijtimoiy xodimlar davolash va sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazshi to‘g‘risida ham qayg‘urib, shu jumladan klinikada bo‘lgandan so‘ng nogironlar uyiga joylashtirish zaruriyati, davolanish vaqtida uy va ish joyining saqlanishi haqida qayg‘urish, bemor uchun turli qo‘shimcha ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf qilish (yaqinlari yo‘q bo‘lsa bolalari to‘g‘risida qayg‘urish) bilan ham shug‘ullanishgan. Ijtimoiy xodimning majburiyatlariga vafot etayotgan shaxs bilan suhbatlar o‘tkazish ham kiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda tibbiy ijtimoiy xodimlar aholini sog‘lomlashtirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqishda qatnashib, mahalliy ijtimoiy orgalari va tibbiy muassasalar o‘rtasida aloqa bo‘g‘ini vazifasini bajarib, ijtimoiy masalalar bo‘yicha tibbiy xodimlarga maslahat beradilar, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazib, o‘z tibbiy muassasalaridagi ijtimoiy ishga rahabarlik qiladilar.

Bugungi kunda ijtimoiy ish sohasida mazkur xodimlarning muhim ahamiyati psixiatrik yordam xizmatida ko‘rinadi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar (AQSh,Shvetsiya, Buyuk Britaniya) psixik sog‘lomlashtirish markazlari rahbarlarining uchdan bir qismidan ziyodi ijtimoiy ish sohasida oliy ma'lumotga ega

Ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlardagi psixik sog‘lomlashtirish xorijiy markazlari ijtimoiy xodimlari shifokor-psixiatr, ruhshunos va boshqa kasb bilan

birga jamoa a'zosi sanaladi. Boshqa mutaxassislardan farqi mualliflar fikricha faqatgina ijtimoiy xodim bemorni saqlash va uni odatiy hayotga qaytarish uchun zarur ijtimoiy resurslarni topa oladi. Ijtimoiy xodim faoliyatining samaradorligi psixiatriya sohasida bilimlarga, ruhiy sog‘liqni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik bilimlariga, psixik sog‘liqqa atrof muhitning ta'siri, boshqa mutaxassislar bilan birga ishlash ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘ladi.

1. Huquqni muhofaza qilish organlaridagi ijtimoiy ish ijtimoiy xodimlar e'tiborini jalb qiladi. Qoidagi ko‘ra ko‘pgina rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy xodimlar penitetsiar tashkilotlarning shtatli xodimlari bo‘lib, asosan maslahat berish, shuningdek jamiyatdan uzilgan shaxslarni hayotga moslashtirish bilan shug‘ullanadilar. Bir qator mutaxassislar psixitriya bilan shag‘ullanib, turmalardagi tibbiy xizmatlarda tibbiy xodim majburiyatlarini bajaradilar. AQSh, Buyuk Britaniya va Shvetsiyada ijtimoiy xizmatlar sohasida ta'lim olgan mutaxassislar penititsiar tashkilotlarda ma'muriy rahbarlik bilan shug‘ullanadilar.

Ijtimoiy xodimlarning katta 'tibori erkinlikka tezda chiqishga qaratilib, ular yaqinlar bilan muloqot qilib, insonni jamiyat hayotiga oson moslashishiga yordam berish uchun boshqa ijtimoiy resurslardan foydalanadilar.

Penititsiar muassasalarda ko‘pgina ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ishning tizimli modelidan foydalanib, bu munosabatlarda maqsadli yo‘naltirilgan faoliyatni nazarda tutadi.

Bir qator mamlakatlarda ma'lum bir holatlarda ijtimoiy xodimning sud muhokamalarida ishtiroki nazarda tutilgan. Sudda ijtimoiy xodim mijozning advokati yoki manfaatlari himoyachisi sifatida qatnashib, asosan voyaga yetmaganlar, nogironlar va keksalarning huquqlarini himoya qiladi. Sud organlarida ijtimoiy xodim faoliyatining o‘ziga xso xususiyati u sud faoliyatini muhokama qilish huquqiga ega emasligi bo‘lib, sud instansiyasi va sud tizimining adolatligiga ishonishi kerak. Qarama-qarshi hollarda u o‘z kasbining axloq kodeksiga zid bo‘ladi.

Germaniyada yoshlarga sud yordamlarini ko‘rsatuvchi xizmatlar bo‘lib, unda ijtimoiy xodimlar faoliyat olib boradi. Unda ikkita masala mavjud:

huquqbuzar yoshlarga jinoyat aniqlangandan so‘ng yordam berish va o‘smirlarni sog‘lomlashtirishni tashkil qilish.

Huquqni muhofaza qilish organlarida ijtimoiy ish ijtimoiy xodimlar faoliyatining yangi sohasi bo‘lib, tez-tez bu sohadagi ishlar axloq kodeksiga muvofiqligi bo‘yicha mutaxassislar orasida bahslar paydo bo‘ladi.

4.Xorijiy mamlakatlarda maktablardagi ijtimoiy ish 60-yillarda keng qo‘llanildi. Ijtimoiy ishning bu sohasiga ikkita yondashuv ajratiladi : ijtimoiy xodim yoki maktab xodimlari tarkibiga kirishi, yoki ta'limni ta'minlovchi maxsus xizmatlarga birlashishi kerak. Birinchi yondashuv Germaniyada, ikkinchisi Yuuyuk Britianiyaga xos.

Maktabda ijtimoiy xodim bir qancha vazifalarni bajaradi: turli masalalar bo‘yicha bolalar va ota-onalarga maslahat beradi, o‘qituvchilar, yordamchi xodimlar va maktab ma'muriyatiga maslahat beradi, maktab va mahalliy jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchi sanaladi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy xodimlar alohida maktablarga biriktirilib, muntazam ravishda u yerga borib, zqituvchilar bilan ishlaydilar, keluvchilar muammolar, axloqi, shuningdek moddiy muammolarini hal qilishga yordam beradilar. Ijtimoiy xodimlar qattiq munosabatdan qiynalgan bolalar, nogiron bolalarga alohida e'tibor beradilar. Ularga barcha yordamni ko‘rsatib, zarur hollarda ruhshunos. Huquqshunos, shifokor, militsiyani jalb qiladilar.

BuyukBritaniyada ko‘rsatilgan xizmatning vazifalariga vaqtinchalik va doimiy maktabdan ajralib qolgan bolalarga yordam ko‘rsatish ham kiradi. Bunday hollarda ijtimoiy xodim bolani boshqa o‘quv-muassasiga joylashtirish, bo‘yicha ota-onalarga yordam beradilar, bola va ota-ona munosabatlarini yaxshilaydilar. Bu sohadagi mutaxassislar shuningdek bolalar mehnatining huquqiy me'yorlari bajarilishini nazorat qilib, bola uzoq vaqt maktabda bo‘lmagani sababini aniqlab, moddiy yordamni amalga oshiradilar.

Maktabdagi ijtimoiy xodimlar shuningdek reja va dasturlarni ishlab chiqishlari, umumiy ta'limda o‘qiy olmaydigan bolalar uchun turli muqobil ta'lim muassasalari va tayyorlov maktablari topishga rahbarlik qiladilar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar oliy o‘quv yurtlarida ham mavjud. Ular u yerda talabalarga o‘z huquqlarini himoya qilish, yotoqxonada yashashni tashkil qilish, chet ellik, almashuv bo‘yicha kelgan, nogiron talabalarga yordam beradilar. Tez-tez ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ishni o‘rganuvchi talabalar amaliy fanlarini o‘rgatadilar.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Jamoadagi ijtimoiy xizmat.
2. Jamoadagi ishlarda aholining ishtiroki.
3. Sog‘liqni saqlash muassasalarida ijtimoiy ish.
4. Aholining etnik guruhlari bilan ijtimoiy ishning xususiyatlari. Oilani ijtimoiy himoyalash.
5. Zamonaviy dunyoda bolalarni ijtimoiy himoya qilish.
6. Bolalarni tarbiyalash va parvarishlashda oilaga yordam ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar. yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar.

10-Mavzu. Keksa insonlar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1. Aholining qarish muammosi.
2. Keksa insonlarga xizmat ko‘rsatish.
3. Keksa insonlar bilan ijtimoiy ishning mazmuni.
4. O‘zbekistonda keksalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va ta'minlash.
5. Nogiron insonlar bilan ijtimoiy ish.

1. Aholining qarish muammosi o‘zida yangi ijtimoiy hodisani aks ettiradi. Tibbiy bilimlar, davolash usullarining takomillashuvi va kasalliklarni oldini olish, o‘limni kamayishi, hayot sifatining yuksalishi va boshqa bir qator omillar insonlarning o‘rtacha yashash davomiyligining o‘sishiga olib keldi. Bu ko‘pgina mamlakatlarda aholining tarkibida keksalar ulushining o‘sishiga sabab bo‘ldi. Keksa yoshdagi shaxslar jahon amaliyotida ijtimoiy ishning asosiy oluvchilaridan

biri va ijtimoiy yordam hamda ijtimoiy ishlar ko‘rsatiladigan qatlam sanaladi. Biologik va ijtimoiy xususiyatlarga bog‘liq ravishda insonlar yoshini baholash uchun ko‘pgina tasnifiy sxemalar mavjud. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tasnifiga ko‘ra katta yoshli aholiga 60 dan 74 yoshgacha, keksa yoshliga 75 dan 89 yoshgacha, uzoq umr ko‘ruvchilarga 90 va undan katta yoshlilar kiradi. Fanda keksalar yoshi to‘g‘risida umum qabul qilingan tushuncha yo‘q, mazkur maqolada keksa yoshli deganda 60 va undan katta aholi guruhlari tushuniladi.

JSST ma'lumotlariga ko‘ra 1980-yildan buyon jahonda 60 yoshdan kattalar soni ikki marta oshdi va 2050-yilga kelib 2 milliardga yetadi. Bunda 80 va undan katta yoshlilar 400 millionni tashkil qiladi.[16]

Rivojlangan mamlakatlarda keksalar va uzoq umr ko‘ruvchilarning ko‘payishi hayot sifatining yaxshilanishi natijasi bo‘lib, shuningdek sanoat inqilobilan keyin tashxsilash va davolash uslublari,yangi va samarali dori vositalari paydo bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlaktlarda aholining qarishi tug‘ilishning pasayishi va o‘lim vaqtidagi o‘rtacha yoshning o‘sishi bilan birga sodir bo‘lmoqda. Qayd etish kerakki, rivojlangan mamlkatlarda keksalar ulushning oshishi kambag‘allik muammosini keltirib chiqarmoqda. Tabiiyki, yoshi katta va keksa insonlarda tibbiy, psixologik va ijtimoiy tartibdagi muammolar paydo bo‘lib,[17] ularni o‘rganish bilan fundamental va ijtimoiy gerontologiya, keksalik ijtimoiy psixologiyasi, ijtimoiy ish shug‘ullanadi.

Ko‘rsatilgan insonlar guruhidagi asosiy muammo ularning sog‘ligi, moddiy holati, bandligi va turar joyi bilan bog‘liq. Tabiiyki keksa va yoshi katta insonlar miqdorining oshishi bilan ularning tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishi ham muhim bo‘ladi. Bu yalpi farovon davlat uchun jiddiy muammolarni tug‘diradi. Bir qator ekspertlar tasdiqlashicha keksalar to‘g‘risida hamxo‘rlik qilishga xarajatlar axoli orasida mazkur guruhning o‘sishi natijasi emas, balki aholi jon boshiga umumiy tibbiy va ijtimoiy xizmat darajasining ta'siridir.

---

16 10 фактов о старении и жизненном цикле//Сайт Всемирной организации здравоохранения: http://www.who.int/features/factfiles/ageing/ru. Датаобращениякресурсу: 02.07.15.

[17] Так как в науке нет общепринятого определения пожилого возраста, то во избежание терминологической нагрузки текста будет использоваться термин «пожилые» для обозначения группы людей, которым 60 лет и старше.

Keksalar bilan ijtimoiy ishni gender jihatdan tushunish ham muhimdir. Ijtimoiy xodimning gender hissiyotliligi keksalarning intim muammolarini tushunishda, ularning gender xususiyatlarini bilishda aks etadi.[18].

Keksalar bilan ishlash ijtimoiy ish etikasining muhim tarkibiy qismi katta yoshlilar va keksalarda negativ tarbiya stereotiplarida aks etadigan eyjizmni bartaraf etishdir. Keksalik jarayonidagi munosabatlarda bilmasdan turib xato qilish ham ijtimoiy xodim, ham keksa insonlarga xosdir. Ijtimoiy xodimlar bir tomondan keksalardagi salbiy hayotiy hodisalar oqibatlarini bartarf etishlari, boshqa tomonda ularning hayot faoliyatlarini rag‘batlantirishi, o‘z hayoti uchun javobgarlikni oshirishlari kerak.[19].

Keksalarga ijtimoiy ko‘mak va amaliy yordam beruvchi ijtimoiy xodim ruhiy kuyish sindromi nomini olgan bir qator emotsional tartilarni sinovdan o‘tkazishlari kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma'lum sharoitlarni yaratish jmotsional kuyish sindromini oldini olish uchun zarurdir.[20]

Masalan ijtimoiy xodim orqali superviziya ruhiy va moddiy ko‘mak oladi.

2. Qariyalar va keksalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha asosiy tizim rasmiy va norasmiy bo‘ladi. Rasmiy xizmatlarga davlat, xayriya, xususiy tashkilot va agentliklar, norasmiylariga oila a'zolari, do‘stlar, qo‘shnilar kiradi. G‘arb mamlakatlari va AQSh da rasmiy yordam ko‘rsatishning o‘ziga xosligi ular keksalarga yashash joyi bo‘yicha yordam beradilar.

1992-yilda Shvetsiya parlamenti keksalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qildi, statsionar va yarim statsionar xizmat ko‘rsatish, maxsus turar joyni taqdim qilish bo‘yicha barcha xarajatlar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatildi. Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy xodimlar bugungi kunda keksalarga ularning yashash joyi bo‘yicha turli xizmatlarni joriy etadilar. AQSh da 70-yillarda keksalarni parvarishlash bo‘yicha kundalik markazlarni tashkil qilishni o‘z ichiga olgan tadqiqot dasturlarini amalga

---

[18] См. Ярская-Смирнова Е., Романов П. Аҳолининг турли гуруҳлари билан ижтимоий хизматларнинг гендер жиҳатлари . В.: Ижтимоий сиёсат ва ижтимоий хизмат: гендер ёндашув / . Е. Ярской-Смирново таҳрири остида. Саратов: СГТУ, 2003.

[19] Краснова О., Лидерс А. Кексаликнинг ижтимоий психологияси. – М.: «Академия» нашриёт маркази, 2002

[20]Poulin, J., Walter, C. (1993) “Burnout in gerontological social work”, *Social work,* 38 (3).

oshirishda dotatsiyalar ajratilgan. Eksperimet maqsadi uyda parvarishlash bo‘yicha yanada arzon muqobil yo‘llarni topishdan iborat.

Buyuk Britaniyada keksalarning kundalik parvarishi 60-yillarda paydo bo‘lib, ularni tashkil etish asosida moddiy tomondan bog‘li bo‘lmagan ishning kutilayotgan natijasi turgan. Ular jamoa doirasida xizmatlar hajmini kengaytirish uchun tashkil qilingan. 1980-yilga kelib 617 ta kundalik parvarishlash markazlari ochilgan bo‘lib, bu keksalar va yolg‘izlarga yordam ko‘rsatishni yengillashtirdi. Odatda bunday markazlarda kafe, sartaroshxona, ustaxonalar bo‘lib, ta'limni davom ettirishga yordam beruvchi xodimlar ishlashgan.

AQSh da kundalik parvarishlash markazlari britan modelidan prinsipial farqlarga ega bo‘lgan. Uzoq vaqt parvarishlash bo‘yicha tibbiyo va ijtimoiy yordamni ajratish taklif qilingan. Bunda statsionar parvarishga emas. Kundalik parvarishga muhtoj keksalarga xizmat ko‘rsatilgan. Bunday xizmatlarga shu bilan birga ovqatlantirish, shaxsiy parvarish, dam olish, o‘qish, jismoniy va kasbiy qobiliyatlarni tiklash, tibbiy xizmat ko‘rsatish kiradi. Amerikada so‘nggi o‘n yilda kundalik parvarishlash markazlarini oshirishga yo‘naltirilgan va jamoa doirasida xizmatlarning yagona tarmog‘ini yaratishga katta e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda kundalik parvarishlash markazlaridan tashqari xorijiy mamlakatlarda faqatgina vaqtinchalik emas, balki doimiy yashashni taklif qiluvchi tashkilotlar ham mavjud.

Masalan Shvetsiyada uyda yashashni xoxlamaydigan shaxslarni parvarishlash va davolash bo‘yicha keng turdagi xizmatlarga ega muassasalar bor. Bu mamlakatda keksalarga xizmat ko‘rsatishning tamoyillaridan biri tanlash erkinligi tamoyili bo‘lib, keksa insonlarda turar joyni erkin tanlash huquqi saqlanib qolgan. Agar inson o‘z uyida yashashni xoxlasa u yordam olishda ehtiyoji o‘sganda ham bunday huquq mavjud bo‘ladi. Parvarishga juda muhtoj, ammo odatiy uy sharoitlarida yashashni istamaydigan shaxslar maxsus sharoitda yashash imkoniyatini tanlash huquqiga ega. Keksalar uchun uylar –bu an'anaviy xizmat shakli bo‘lib, Shvetsiyada ko‘pchilik keksalar ularni afzal ko‘radilar.

Buyuk Britaniyada vaqtinchalik va doimiy yashashga mo‘ljallangan pansionatlar oilasi yo‘q yoki yaqinlari bilan birga yashash imkoniyati mavjud bo‘lmagan shaxslar uchun mo‘ljallangan.

Shvetsiyada 60-yillar oxirida dastlabki servis uylari qurilgan. Ularni tashkil qilganlarning maqsadiga ko‘ra pensionerlarni mehnatga qobiliyatsiz yoshda va yordam ko‘rsatish va davolash zarur bo‘lganda birga yashashlarini taxminlashdir. Ammo uning rivoji boshqacha bo‘ldi. Uyda xizmatlar ko‘rsatish sohasining kengayishi, hayot sharoitlarining yaxshilanishi katta miqdordagi insonlarning uyda uzoq vaqt qolishni afzal ko‘rishlariga olib keldi. Shuning uchun parvarishlashga ehtiyoj oshganda servis uylariga murojaat qilib kelishmoqda.

Servis uylari o‘zida keksa insonlar yaqinlaridan ajralgan holda yashovchi kvartiralarni o‘zida aks ettiradi. Bu xonadonlarda yoki ularga yaqin joyda doimiy yordam ko‘rsatuvchi xodimlar turishgan. Guruh bo‘lib birga yashash ruhiy kasalliklari, harakat a'zolari buzilishi kuzatilgan shaxslar, shuningdek qarilik tushkunligida bo‘lgan insonlarni parvarishlash va davolashning rivojlangan shaklini paydo qildi.

Bu xonadonlarni tashkil qilish shakllari davolanishda bo‘lganlarning ehtiyojlariga bog‘liq holda turlichadir. Ba'zi holatlarda guruh bo‘lib yashash vaqtinchalik yechim bo‘lib. mustaqil yashashga tayyorlash bosqichsi sanaladi. Boshqa holatlarda bunday xonadonlar doimiy yashash joyi bo‘ladi.

Keksalarni parvarishlashning bunday shakli Buyuk Britaniyada mavjud. Ular yashashning yengillashtirilgan shakli deb yuritiladi. Insonlar yashaydigan bu guruhdagi katta bo‘lmagan uylar, xonadonlar yoki kottejlarda yashovchilar mustaqil bo‘ladi. Bunday holatlarda vasiylik zarur. Bunday vasiy sifatida oilalar va keksalar o‘rtasida vositachilar, yordamchilar sifatida qatnashuvchi patronaj xodimlari bo‘lishi mumkin.

AQShda oiladan tashqari yashaydigan qariyalar va kesalar uchun oila tipidagi turar joylar qurishga katta e'tibor berilmoqda. Ular turli shakllarda bo‘lishi mumkin, ammo ularning asosiy xususiyati quyidagicha: yordam xususiy shaxslarga, o‘z uylarida taqdim qilinadi ; yashovchi shaxsga ma'lum to‘lov

evaziga xona taqdim etilib, qiyinchiliklarni bartaraf etish, himoyalash, dorilar bilan ta'minlash amalga oshiriladi; turar joylar quoay oilaviy muhi yaratish uchun katta bo‘lmasligi kerak; vasiylikka olingan shaxsni kuzatish va nazorat qilish agentlik shtatidagi xodimlar tomonidan amalga oshirilib, bu keksalarga xizmat qilishning mazkur dasturiga rahbarlik qiladilar.

Sanab o‘tilgan elementlardan birinchisi o‘zgarmas bo‘lib, qolganlari o‘zshhgaradi. Masalan bir turar joyda ikkita keksa shaxs, boshqasida 10 ta shaxs yashashi mumkin. Yordam ko‘rsatiladigan shaxsni tanlashga qat'iy mezonlar yo‘q. Ayrim shtatlarda xodimlar tayyorlash uchun yuqori talablar mavjud emas, aksincha ularni o‘qitishga katta e'tibor beriladi.

Shtat xodimlarining nazorat tashriflari turlicha bo‘ladi. Bir dastur har haftalik nazoratni, boshqasi oylik nazoratni talab qiladi.

Kesalar uchun oilaviy turdagi uylar aholining uch toifasiga xizmat ko‘rsatadi: ruhiy kasal, aqlan orqada qolgan, keksa va kasal insonlar uchun. Bunday muassasalar davlat uylari va oilalar o‘rtasidagi tashkilotlardir. Ular mustaqil yashay olmaydiganlar uchun mo‘ljallangan. Davlat turar joylariga nisbatan ularning afzalligi ularda oilaviy muhit yaratilib, individual parvarishlash, oila kabi munosabatda bo‘lish va uni saqlash imkoniyatlariga ega. Bulardagi xizmatlar qiymati ixtisoslashgan davlat muassasalariga nisbatan arzon bo‘ladi.

Oila turidagi turar joylar 1979-yilda AQSh da sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat vazirligi tashabbusi bilan tuzilgan. O‘shandan beri ko‘pgina davlat organlari bu dastur bo‘yicha ishlaydilar.

Odatda bunday tashkilotlarda oliy ma'lumotga ega o‘rta yoshli ayollar ishlab, ularning faoliyat motivlari quyidagilar: altruizm, kimgadir g‘amxo‘rlik qilish istagi, yolg‘izlikdan qochish. Pul ham motiv bo‘lishi mumkin,ammo bunday insonlar bunday qiyin ishda uzoq ishlamaydilar. Ishlayotgan ayollarga mijoz mablag‘laridan to‘lanadi (pensiya. Nafaqa). Ammo agarda mijozning doimiy daromadi bo‘lmasa to‘lashning boshqa shakllari masalan homiylik badallari mavjud. So‘nggi yillarda AQSh da oila turidagi turar joylarda xizmat ko‘rsatiladigan aholi toifalari kengayib, mijozlari bo‘yicha ular ajratilmoqda.

3. Keksalar va katta yoshli shaxslarga uyda yordam ko‘rsatishning ijtimoiy tizimi Bu tizim davolash va parvarishlashdan iborat. Masalan Shvetsiyada keksa insonning rdamga muhtojligi tekshirilgandan so‘ng xona tozalash, ovqat tayyorlash, shaxsiy parvarishlash, mahsulotlar xarid qilishda yordam ko‘rsatiladi. Uyda davolash mijoz berkitilgan ma'lum kasalxona va poliklinika hamshiralari, enagalar, shifokorlari tmonidan amalga oshiriladi.

Parvarishlash va davolash bo‘yicha keksalar ehtiyojlarining katta qismi ularning yaqinlari tomonidan ta'minlanib, norasmiy asosda yordam ko‘rsatiladi. Ba'zi holatlarda mahalliy hokimiyat organlaridan yaqinlarga kompensasiya to‘lanadi.

Keksalar bilan ijtimoiy ishning amaliyoti BMT Bosh Assableyasida 1991-yil 16-dekabrda qabul qilingan tamoyillarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan[21].

18 ta tamoyil 5 ta guruhga birlashtirilgan:

1. Mustaqillik tamoyillari guruhi shundan iboratki, oila va jamiyat tomonidan ularning daromadlarini ta'minlash orqali asosiy boyliklarga (ovqat, suv, uy, kiyim, tibbiy xizmat) keksalarning foydalanish huquqi.

2. Ishtirok etish tamoyillari guruhi keksa insonlarning jamiyat hayotiga qo‘shilishi va jalb qilinishini, ularning farovonligiga tegishli siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtiroki , yosh avlodga o‘z bilimi va tajribasini yetkazishni xarakterlaydi.

3. Parvarishlash tamoyillari guruhi keksa insonlar parvarishini a oila va jamiyat tomonidan himoyasini, optimal holatini saqlab turish va tiklash, kasalliklar rivojlanishining oldini olish maqsadida tibbiy xizmat ko‘rsatishdan iborat. Bu guruh tamoyillari shuningdek ijtimoiy va huquqiy xizmatlardan foydalanish, har qanday ijtimoiy tashkilotda asosiy huquq va erkinliklardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

4. Ichki salohiyatni namoyon qilish tamoyillari guruhi shundan iboratki, keksa insonlarda ularning ichki salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun

[21]United Nations Principles for Older Persons http://www.un.org/esa/socdev/iyop/iyoppop.htm

imkoniyatlar mavjudligi, shuningdek ta'lim, fan, ruhiy dam olish sohasidagi jamiyat resurslariga kirishni anglatadi.

5. Qadr-qimmat tamoyillari guruhi shuni ko‘zda tutadiki, keksa insonlar uchun qulay va xavfsiz hayot, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlar yo‘qligi, ularning yoshi, irqi, jinsi, etnik tegishliligi, nogironligi, iqtisodiy holatidan qat'iy nazar adolatli munosabatni aks ettiradi.

Ijtimoiy xodimlar keksalik harakati bo‘yicha 2002-yilda Madrid xalqaro rejasida qabul qilingan keksalarning ijtimoiy himoyasi va yordami bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun kuchlarni birlashtirgan holda harakat qilishlari mumkin. Bunda keksalar bilan ijtimoiy ish g‘oyalari faol va initsiativ insonlar bilan bo‘lgan teng hamkorik kabi bo‘ladi. Masalan 2002-yil noyabrda Umum Rossiya ijtimoiy xodimlar sezdida “keksalar uchun ijtimoiy ish: professionallik, hamkorlik, javobgarlik” rezolyusiyasi qabul qilinib, bu Rossiya Federatsiyasida keksalar bilan munosabatda ijtimoiy xodimlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini anglatadi.[22].

2. O‘zbekistonda azaldan kattalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish an'anasi shakllangan bo‘lib, buni yoshi katta erkak va ayollar bilan muloqotlarda ko‘rishimiz mumkin. 2015-yilda keksalarga g‘amxo‘rlik va e'tiborni kuchaytirish, ularning ijtimoiy himoyasini takomillashtirish, davlat va jamiyat tmonidan moddiy va ma'naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni e'zozlash yili davlat dasturi to‘g‘risidagi” qarori qabul qilindi.[23].

O‘zbekistonda katta yoshli shaxslar miqdori va aholining hayot davomiyligi oshishi kuzatilmoqda:: «Bugungi kunda mamlakatda 60 yoshdan oshgan 2 million 873 ming kishi yashamoqda. Mustaqillik yillarida aholining o‘rtacha yashash davri 1990-yildagi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarda 75.8 yoshgacha ko‘tarildi»[24]

---

[22] Ижтимоий хизмат: профессионаллик, ҳамкорлик. Жавобгарлик ,. http://www.mintrud.ru

[23] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012-йил 18-февралдаги №ПҚ-2302 сонли “КЕксаларни эъзозлаш йили давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисидаги” қарори

[24] Каримов И.А.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 22-йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси 05.12.2014//Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизматининг расмий сайти: http://www.press-service.uz.: 2.июл 2015 й.

. Shunday qilib bugungi kunda respublikada 80 yoshdan oshgan 225 ming, 90 yoshdan oshgan -44000, 100 yoshdan oshgan 8700 kishi istiqomat qilmoqda. O‘zbekistnda keksalarga ijtimoiy yordam bir qator me'yoriy xuquqiy hujjatlar shu jumladan «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi», «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risidagi », «Fuqarolar sog‘ligini himoya qilish to‘g‘risidagi », «Vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi » qonunlar bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari «Aholining ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish va mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, «2011-2015-yillarda yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining davolash-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ijtimoiy ko‘makka muhtoj keksalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan.

Keksalar va ularning oilalariga tibbiy-ijtimoiy yordam o‘z ichiga keksalarga amaliy yordam ko‘rsatish (masalan uyda parvarishlash, uyga zarur mahsulotlar va boshqa narsalarni yetkazib berish, uyni tozalash), dori voistalari, maishiy qulayliklar, protezlar bilan ta'minlash, oila a'zolarini keksalarni parvarishlash bo‘yicha o‘qitish va boshqalardan iborat.

MisoltariqasidaO‘zbekistondaqo‘shimchamanzillitibbiy-ijtimoiyyordam «Yolg‘izkeksalar, pensionerlarva nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tartibi» (2000 y.), «Uyda ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam to‘g‘risida nizom» (2011 y.), «Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» (2015 y.) me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan amalga oshiriladi.

Keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam O‘zbekistonda ijtimoiy infratuzilma va ijtimoiy soha xizmatlari asosida ko‘rsatiladi. Ijtimoiy infratuzilma ichiga aholiga bevosita yordam ko‘rsatuvchi turli muassasa va tashkilotlarni olib, ularga bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy himoya qilish markazlari, yolg‘iz

fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi xizmatlar, nogironlarni sog‘lomlashtirish markazlari, urush va mehnat faxriylari respublika pansionati, kesksalar va nogironlar uchun Saxovat internatlari, keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun mo‘ljallangan sanatoriyalar kiradi.

5. BMT ma'luXMTlariga ko‘ra yer yuzi aholisining 10-12% i nogiron. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan nogironlar soni 850 ming. Imkoniyati cheklangan insonlarning huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik siyosatini tahlil qilib, aytish mumkinki, so‘nggi yillarda bir qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiyalash va amalga oshirish bo‘yicha davlat darajasida tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi tamoyillari va maqsadlariga muvofiq” Biror-bir nogironlik turi mavjud shaxs faqatgina mazkur hujjatlarda keltirilgan fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, madaniy huquqlardan foydalanibgina qolmasdan, boshqa insonlar bilan teng sharoitlarda ularni amalga oshiradi.». Modda-.25. Umumjahon deklaratsiyasi har bir inson uchun shunday hayot darajasini ko‘zda tutadiki, bunda uning o‘zi va oila a'zolari sog‘ligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo‘lib, bundan tashqari ishsizlik, kasallik, nogironlik holatlarida ta'minot olish huquqini keltirib o‘tadi.

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya, BMT bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo‘lib, shuni qayd etadiki, ular boshqa insonlar kabi fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Deklaratsiya shuni ko‘rsatadiki, nogironlar maxsus xizmatlarni olishda o‘ziga xos huquqlardan foydalanishlari kerak, bu ularning o‘z qobiliyatlarini maksimal namoyon qilish va ularning jamiyatga integratsiyalashishini tezlashtirish imkonini berishi kerak.

Yuqorida keltirilgan barcha hujjatlarda huquqiy tenglik tamoyili imkoniyati cheklangan insonlar va nogironlarga boshqa insonlar kabi huquqlar taqdim etishni ko‘zda tutadi.

Nogironlar va imkoniyati cheklangan shaxslar o‘ziga xos huquqqa ega shaxslar ham bo‘ladilar. (sud majlislarida eshitmaydigan shaxslar tarjimon, ko‘rmaydigan shaxslar kotib xizmatlaridan foydalanish huquqi).

Nogironlar sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati “O‘zR da nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida “ qonun (1991) bilan belgilanib, unda aholining mazkur qatlamini boshqa fuqarolar bilan tengligini ta'minlash, to‘laqonli hayot kechirish, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek o‘z fuqarolik majburiyatlarini bajarish maqsadida ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘zda tutilgan.

Shaxsning hayot faoliyatini cheklash uning o‘ziga xizmat qiluvchi, muloqot, o‘z xulqini nazorat qilish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishni amalga oshiradigan qobiliyat va imkoniyatlarining to‘liq yoki qisman yo‘qotilishini aks ettiradi.

Ko‘rinib turibdiki, bunda urg‘u nogironning kasalligiga qaratilgan bo‘lib, uning barcha ijtimoiy va kasbiy qiyinchiliklari bo‘ladi. Kasallik davolansa barcha muammolar hal bo‘ladi, shuning uchun aynan shunga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, barcha muammolar insonning o‘zida, uning kasalligi yoki nuqsonida ko‘riladi. Bunday qarash nogironlikning tibbiy modeli uchun xosdir.

Muqobil tibbiy model ijtimoiy model bo‘lib, unda “nogironlik- bu jamiyat hayotida qatnashishning imkoniyatini yo‘qotuvchi yoki cheklovchi jismoniy yoki ijtimoiy to‘siqdir”.»[25]. Bunda qiyinchilik sababi faqatgina kasallik bo‘lmasdan, me'yoriy hayot faoliyati uchun sharoitlarni nogironlar uchun ta'minlanmaganli ham bo‘ladi.

Ijtimoiy modelga yaqin bo‘lgani siyosiy-huquqiy modeldir. Unga muvofiq ijtimoiy kamchilik sifatida ko‘riluvchi nogironligi mavjud insonlar huquq va erkinliklari tashqi cheklovlar vositasida cheklab qo‘yilgan bo‘ladi: arxitektura muhitiga kira olmaslik, jamiyat hayoti, madaniyatiga qatnashishga cheklovlar.

[25] Цит. по: Э. Наберушкина. Ижтимоий сиёсат ва ижтимоий хизматлар кўзгусида ногиронлик./ Лекция курса «Ижтимоий сиёсат ва ижтимоий хизматларни ўргатишга янгича ёндашувлар»

Qanday to‘siqlar sog‘ligi bilan muammo bo‘lgan shaxsning jamiyatda o‘zini namoyon qilishiga to‘sqinlik qiladi?

1) Narsa-makon muhiti yaratgan jimoniy cheklovlar. Bu garchi eng yangil bartaraf etilsada nogiron inson bilan eng katta qiyinchilikni paydo qiladigan to‘siq sanaladi. Bu muammoni hal qilish ikkita jihatga ega: a) ehtiyoji bor insonlarni maxsus maishiy asboblar, harakatlanish vositalari, uskunalar bilan ta'minlash (kreslo-aravacha, sanchqi va qoshiq ushlagich, sun'iy nafas berish asboblarieshitish apparatlari, ko‘zi ojizlar uchun hassa.); b) arxitektura-sanoat muhiti moslamalari (shahar binolari zinapoyalarida panduslar mavjudligi, rangli, akustik asosda mo‘ljalni ko‘rsatuvchi guruhli foydalanish joylari bilan jihozlanganligi .).

2. Axborot cheklovlari axborotni maxsus tashuvchilari kamligi bilan bog‘liq (brayl alifbosidagi kitoblar, surdo tarjimonlar, maxsus dasturlar)

3. Kommunikatsion to‘siq – axborot bilan chambarchas bog‘liq. Axborotni qabul qilishdagi cheklovlardan tashqari nogironlar muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu ruhiy va fiziologik omillar bilan bog‘liq.

Muloqotdagi qiyinchiliklar nutqning rivojlanish muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, ba'zan ruhiy muammolar borligi bilan asoslanadi. Ruhiy muammolar nogironning asosiy kasalligi natijasi bo‘lib, atrofdagi qiziqish, qo‘rqish, ustidan kulish, noqulaylik natijasida kuchayishi mumkin.

4.Nogironning o‘zini cheklashi. Imkoniyati cheklangan odam tez-tez jamiyatdagi to‘liq bo‘lmagan ahamiyatiga ko‘nikadi va unga rozi bo‘lib yashay boshlaydi. Unda boqimandalik, birovdan najot kutish shakllanadi.

Ta'limdagi cheklovlar. Garchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim olishning barcha uchun tengligi mustahkamlab qo‘yilganiga qaramasdan, yuqorida ko‘rsatilgan to‘siqlar umumta'lim maktablari, ayniqsa OO‘Yu da nogironlarning ta'lim olishiga xalaqit beradi.

Nogironlar sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘ladilar. Imkoniyati cheklangan insonni sog‘lomlashtirish jarayonida ikkita bosqichni ko‘rish mumkin::

1) barcha ijtimoiy soha xizmatlari uchun rahbarlik vazifasini bajaruvchi sog‘lomlashtirishning kompleks dasturi.;

2) nogironni sog‘lomlashtirishning individual dasturi.

Nogironlarni sog‘lomlashtirishning komplekst dasturi quyidagilarni nazarda tutishi kerak: sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazish uchun moddiy-texnik bazani rivojlantirish, sog‘lomlashtirishning individual dasturlarini bajarishga yagona va qulay uslubiy yondashuvlarni belgilovchi me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish; hayotiy ta'minotning barcha vositalari bo‘yicha nogironlarning hayot faoliyati to‘siqsiz muhitini yaratishga doir tadbirlarni ishlab chiqish (umumiy bino va inshootlardan erkin foydalanish, jamoat transportlariga chiqish, aloqa. Axborot vositalaridan foydalanish, sport va ijodning turli sohalari bilan shug‘ullanish); nogironlarni sog‘lomlashtirish xizmati uchun mutaxassislar tayyorlash.

Nogironlarni sog‘lomlashtirishning individual dasturi uning ruhiy, jismoniy va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilib, nogironlarni sog‘lomlashtirishning umumiy tizimi asosida ishlab chiqiladi. Tibbiy sog‘lomlashtirish, kasallik, jarohat, nuqsonlar natijasida nogiron organizmida harakatni tiklash yoki yo‘qotilgan qism uchun kompensatsiyani nazarda tutadi.

Ijtimoiy sog‘lomlashtirish ham nogironni moddiy texnik vositalar bilan ta'minlash (nogironlar aravachasi, maxsus maishiy texnika, surdo texnika) ham ulardan foydalanishga o‘rgatishni nazarda tutadi. Yana bir muhim masala kvartirani qayta jihozlash sanaladi (panduslar, tutqichlar, yuk ko‘targichlar, kengaytirilgan eshik dastulari).

Kasbiy sog‘lomlashtirish nogironning sog‘ligining holati, shaxsiy ishtiyoqi va qiziqishini hisobga olib uni umumiy-foydali mehnatga qaytarish yoki jalb qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Ahamiyati bo‘yicha ijtimoiy xodim vazifalari nogironni huquqiy o‘qitish va huquqiy himoyasini ta'minlash, nogironlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha hujjatlarni topish va tahlil qilish.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ijtimoiy ishning uslubiy asoslari Bronfenbrennerning inson rivojlanishining ekologik nazariyasiga tegishlidir. Bu nazariyaga ko‘ra insoniy rivojlanish- faol rivojlanuvchi shaxs va uning o‘zgarib

boruvchi atrofi o‘rtasidagi o‘zaro moslashuvi, shuningdek bu va ekologik muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardir.

Har bir shaxsiy o‘zgarish yirik ijtimoiy va madaniy tizimlar doirasida ko‘rib chiqilishi mumkin. Masalan bolaning o‘qishga layoqati yo‘qligi rivojlanishning organik patologiyasi va maktabda foydalaniladigan o‘qitish uslublari, maktab va bolaning oilasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek umuman ta'lim tizimi imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali tahlil qilinishi mumkin.

Nogironlarni sog‘lomlashtirish bo‘yicha O‘ZR davlat dasturining yo‘nalishlaridan biri yangi turdagi idoralararo muassasalar- sog‘lomlashtirish markazlarini yaratish va ularning samarali faoliyatini ta'minlashdir.Xorijda abilitatsiya (insonning ilgari mavjud bo‘lmagan imkoniyatlarini shakllantirish va boshqalarini unga moslashtirish) hamda sog‘lomlashtirish (yo‘qolganlarini tiklashga yo‘naltirilgan) markazlar ajratiladi.O‘zbekistonda sog‘lmlashtirish markazlari birinchi va ikkinchi turdagi faoliyatni amalga oshiradi. Sog‘lomlashtirish markazlari o‘z oldiga bolalar, imkoniyati cheklangan shasxlar va ularning oilalariga tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish vazifalarini qo‘yadilar. Aynan mazkur tuzilmalarda nodavlat sektori yetakchi o‘rinni egallaydi: xususiy tijorat va notijorat xayriya tashkilotlari, shuningdek jamoat birlashmalari. Bu mazkur tashkilotlarning ishida ko‘pgina uslubiy yondashuvlar va innovatsiyalar mavjudlishi bilan bog‘liqdir. Bu ularning mijozlariga tanlash imkonityaini yaratadi. Sog‘lomlashtirish markazining ijtimoiy xodimi vositachilik faoliyati va patronaj orqali bolalarga abilitatsion va reabilitatsion yordam ko‘rsatishning uzluksizligini ta'minlashi kerak.

Xospis – bu tuzalmaydigan kasalga hayotining so‘nggi oylari davomida yordam ko‘rsatishni nazarda tutuvchi ko‘p qirrali dastur. Xospisning maqsadi bemor uchun sharoit yaratish va uning oilasini qo‘llab-quvvatlash.

Xospislar AQSh da 1979-yildan boshlab tashkil etila boshlandi. Ularda xizmat ko‘rsatish quyidagi tamoyillarga asoslangan.

1. Xizmat ko‘rsatish bemor bilan birga uning oilasini ham qamroab oladi. Yordamga muhtoj oila a'zolari judolikka tayyorlanib boriladi va yordam beriladi.

2. Xospis davolashga qaraganda vaqtinchalik yengillikni olib keladi. Bunda davolash shakli jarrohlik aralashuvi yoki boshqa tibbiy muolajalar emas, balki kasallik va boshqa belgilarni nazorat qilish bo‘ladi. Mazkur tibbiy yordam kasallik belgilarini boshqarishda zamonaviy bilimlarni va mayda narsalarga ham diqqat bilan qarashni talab qiladi. Turli belgilar nazorat qilingandagina kasal ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy ko‘makni qabul qila oladi.

3. Xospis xizmat ko‘rsatish ko‘p profilli mutaxassislarni ta'minlaydi: shifokorlar, hamshiralar, uyda tibbiy yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, xizmatchilar va ko‘ngillilar. Barcha mutaxassislarning faoliyati hamshira yoki ijtimoiy xodimlardan biri tomonidan muvofiqlashtiriladi. Davolash ishlari bo‘yicha xospis direktori bosh davolovchi shifokor shifatida qatnashadi.

4. Xospis bemorga qarovchi uy, statsionar va tibbiy muassasalardan ko‘ngillilar mehnatidan keng foydalanishi bilan farqlanadi. Vafot etayotgan inson hayot sifatini oshirish uchun ma'lum majburiyatga ega bo‘lmagan ko‘ngilli shaxs, oila ichidagi ko‘pgina masalalar masalan yuridik maslahatga eg‘tiyoj yoki oddiy do‘stona tashriflarni hal qilishi mumkin.

5. Xospis doirasida xizmat ko‘rsatish sutka davomida va haftada yetti marta amalga oshiriladi. Agar oila a'zosi tungi yordam uchun hyech qachon murojaat qilmasa ham hamshira yoki ijtimoiy xodimlar doimo paydo bo‘ladigan muammolarni muhokama qilish va kerakli yordamni olishga berishga tayyor bo‘ladilar.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Yoshi katta va keksa odamlar uchun ijtimoiy ish.
2. Keksalar bilan munosabatlarda Birlashgan Millatlar Tashkilot tamoyillari.
3. Keksalarni xizmat ko‘rsatish.
4. Keksa odamlar bilan ijtimoiy ishning mazmuni. O‘zbekistonda keksalarning ijtimoiy ta'minoti.
5. Yoshi katta nogironlar bilan ijtimoiy ish.

11-Mavzu. G‘arbiy yevropada aholini ijtimoiy muhofaza qilish

1. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tamoyillari hamda vazifalari.
2. Ijtimoiy ta'minotning yevropa tizimi.
3. Umumiy farovon davlat konsepsiyasi.
4. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida keksalarni ijtimoiy himoyalash. Shvetsiyada ijtimoiy ta'minot.

1.Amalda G‘arbiy yevropaning barcha mamlakatlari ijtimoiy xatarlar holatlarida ijtimoiy sug‘urtalashdan foydalanadi va kam ta'minlangan odamlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishadi.

Ammo bu mamlakatlarda ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordam turlicha amalga oshiriladi hamda shu sababli ularni to‘rtta guruhga ajratish mumkin:

- Individual sug‘urta badallari bilan bog‘liq sug‘urtalash tamoyillari, to‘lovlar va nafaqalar miqdori badallarga bog‘liq bo‘lgan mamlakatlar;
- Sug‘urtalash tamoyillari kam aks ettirilgan, nafaqa va to‘lovlar miqdorlari individual ehtiyojga bog‘liq bo‘lgan, moliyalashtirish esa asosan soliq fondlaridan amalga oshiriladigan mamlakatlar.;
- Dastlabki ikkita guruh o‘rtasida oraliq o‘rinni egallagan mamlakatlar.;
- Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hozircha mavjud bo‘lmagan ammo endi shakllanayotgan mamlakatlar.

Birinchi guruhga Germaniya, Fransiya, Belgiya va Lyuksemburg kiradi. Bu mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi shartnomaviy sug‘urta tamoyillariga asoslanadi. Yollanma ishchilar o‘z daromadlarining ma'lum bir qismini sug‘urta fondiga to‘laydilar, bu ularga yordamga muhtoj bo‘lganlarida jamg‘arilgan sug‘urta fondiga mos miqdorda fond xizmatlaridan foydalanish huquqini beradi. Bir vaqtning o‘zida xodimlari nomidan ish beruvchi ham ma'lum bir summani mazkur sug‘urta fondiga to‘laydi.

Ko‘pgina holatlarda sug‘urta fondidan olinadigan to‘lovlar miqdori ish haqi miqdori va xodim hamda ish beruvchi badallari hisobidan jamg‘arilgan summaga bog‘liq bo‘ladi. Istisno holatlar tibbiy xizmat ko‘rsatish va oiaviy nafaqaga tegishli bo‘ladi. Bu tizimning asosiy maqsadi inson kasal bo‘lganda, nogironligida va ishini yo‘qotganda hayot darajasini saqlab turishdir. Bunday tizimi insonning daromadlarining uning hayoti mobaynida qayta taqsimlash imkonini beradi. Barcha yevropa mamlakatlarida sug‘urta yig‘imlari ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning asosiy manbasi sanaladi. Bir qator holatlarda fond soliq to‘lovlari hisobidan, milliy byudjet umumiy xarajatlarining ko‘p yoki kam yig‘imlari hisobidan kengayishi mumkin.

Ammo bu guruhdagi barcha mamlakatlarda davlat fuqaro oldida shunday majburiyat oladiki, har qanday fuqaroning daromadi u oldin qancha daromad olgani yoki sug‘urta fondiga qancha kiritganidan qat'iy nazar kafolatlangan minimumdan kam bo‘lmasligi kerak. Bu shakldagi to‘lovlar umummilliy byudjetdan amalga oshiriladi.

Sog‘liqni saqlash asosan sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi, ammo minimum tibbiy xizmat ko‘rsatish byudjet tomonidan kafolatlangan. Tibbiy xizmat ko‘rsatish asosan davlat tomonidan fuqarolarga tovon sarflari orqali xususiy sektorga to‘g‘ri kelmoqda.

Ikkinchi guruhdagi mamlakatlarga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kirib, birinchi guruhdan sug‘urta jamg‘armalari bilan kam darajada bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy himoyada farqlanadi. Bu mamlakatlarda ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy rolni o‘ynaydi. Ijtimoiy to‘lovlar va nafaqalar yanada teng miqdorda taqsimlanadi. Bunday taqsimlash asosida fuqarolarning teng ehtiyojlari g‘oyasi yotib, shuning uchun, ijtimoiy yordam uning daromadiga qarab emas, balki insonning ehtiyojidan kelib chiqib ko‘rsatiladi. To‘lovlar va nafaqalar orasidagi farq shundan iboratki, ijtimoiy to‘lovlarni qonun bo‘yicha bunday huquqqa ega bo‘lgan har bir fuqaro olishi mumkin, nafaqalar esa ehtiyojdan va ijtimoiy xatar xususiyatidan kelib chiqib beriladi. Bu mamlakatlarda tibbiy xizmat ko‘rsatish asosan umumiy sohada bo‘ladi.

Uchinchi guruh mamlakatlariga Niderlandiya va Italiya kirib, bu mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning aralash tizimi taqdim etiladi. Ammo bu tizim birinchi guruh mamlakatlari tizimiga yaqinroqdir. Ammo ma'lum bir farqlar ham bor. Masalan Italiyada davlat kafolatlangan ijtimoiy minimum daromadlarni to‘lash bo‘yicha o‘ziga majburiyatni olmaydi. Bunday kafolat alohida mintaqalardagi bir qator mahalliy organlarga berilgan. Niderlandiyada aksincha, ijtimoiy ta'minot juda yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, tizim mamlakatning har bir fuqarosini qamrab oladi.

To‘rtinchi guruhga Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya kiradi. Bu mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi hozircha boshlang‘ich holatdi. Bu mamlakatlarda kafolatlangan minimal daromad mavjud emas va barcha fuqarolarga ham ijtimoiy xizmat ko‘rsatilmaydi.

Ko‘pgina yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya ko‘p funksiyali sanaladi. Qoidaga binoan u inson hayoti mobaynida duch keladigan 11 ta funksiyani bajaradi.

Kasallanish xatari: mehnat qilish imkoniyati yo‘qligi sababli to‘liq yoki qisman daromadlarga mos to‘lovlar, umumiy yoki xususiy sektorda to‘liq yoki qisman tibbiy xizmat ko‘rsatishni qoplaydi.

Nogironlik xatari: jamiyatda me'yoriy hayot kechirish va mehnat qobiliyatini to‘liq yo‘qotgan shaxslarga pensiya va nafaqalar to‘lash; nogironlik bilan bog‘liq tibbiy xizmat ko‘rsatish; sog‘lomlashtirish bo‘yicha xarajatlar.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasb kasalliklari xatari: pensiya va nafaqalar, kompensatsiya va boshqa shakldagi to‘lovlar to‘lash, maxsus tibbiy yordam, ishlab chiqarish reabilitatsiyasi bilan bog‘liq xarajatlar va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning boshqa shakllari.

Boquvchisini yo‘qotish xatari*:* boquvchisini yo‘qotganda pensiya va nafaqalar, o‘lim nafaqalari, dafn etish xizmatlari.

Ishsizlik xatari: to‘liq yoki qisman ishsizlik bilan bog‘liq nafaqalar, nafaqa o‘rnini bosmaydigan hokimiyat tomonidan tashkillashtirilgan vaqtinchalik yoki bir martalik ishlar.

Migratsiya xatari: mehnat resurslarining ko‘chishi, o‘qitish, qayta tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar, oldingi ishsiz fuqarolarning yangi joyga kelishi bilan bog‘liq nafaqalar.

Turar joyni yo‘qotish xatari*:* bir qator aholi toifalariga turar joy va kommunal xizmatlar to‘lovi uchun subsidiyalar.

Homiladorlik xatari: homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar to‘lash xarajatlari, ona va bolaga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar, homiladorlar va yaqinda farzandli bo‘lganlarning boshqa shakldagi ta'minoti .

Oilaviy nafaqalar*:* birovning qaramog‘idagi bolalarga nafaqalar, oziq-ovqat tovarlari shaklidagi moddiy yordam, yo‘l to‘lovlari, uyda yordam ko‘rsatish.

Ijtimoiy yordamning boshqa shakllari: kam ta'minlanganlarga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish, voyaga yetmaganlar huquq buzarligini oldini olish bo‘yicha xarajatlar, harbiy harakat va tartibsizlik qurbonlariga nafaqalar.

Ko‘rinib turibdiki bunday xarajatlar turli mamlakatlarda turlicha shaklda bo‘ladi.

Ko‘pgina mamlakatlar tug‘ilishning kamayishidan xavotirdalar. Shu sababli bir qaor davlatlarda oilaga ijtimoiy yordam ko‘rsatish siyosatiga sezilarli o‘zgartirishlar kiritildi. Fransiyada 80-yillarning boshida ko‘p bolali oilalar foydasiga qonun qabul qilindi. Masalan uch va undan ortiq farzandli oilalar o‘rtacha ish haqining uch baravari miqdorida nafaqa oladilar.

Ko‘pgina mamlakatlarda bolalarga nafaqalar har bir yangi chaqaloq uchun oshib boradi. Ikkinchi va uchinchi bolalar uchun nafaqalar miqdori oshmaydigan mamlakatlarga esa Irlandiya, Niderlandya, Portugaliya va Buyuk Britaniya kiradi. Belgiya, Germaniya, Italiya va ayniqsa Fransiyada ikkinchi farzanddan boshlab to‘lovlar miqdori sezilarli ravishda ko‘payadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar oshirildi. Bunday siyosat uy va oila to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikni ish va karera bilan birgalikda olib borish uchun qulay sharoit yaratishga mo‘ljallangan. Shu sababli so‘nggi besh yil davomida ko‘pgina mamlakatlarda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta'til davomiyligi ko‘paydi. Hozirda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha eng

katta ta'til Daniyada (28 hafta) va Fransiyada (26 hafta) ni tashkil qiladi. Qolgan mamlakatlarda u 13 dan 20 haftagcha o‘zgaradi.

2.Turli mamlakatlardagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi hal qilinadigan vazifalarning o‘xshash va bir xilligiga qaramasdan, tarixiy sharoitni, shunigdek muammoni hal qilish yondashuvlari va usullaridagi farqlarga ega bo‘ladi. yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy ta'minot tizimi amerikadan ijtimoiy siyosat yo‘nalishlarini belgilash, moliyalashtirish va hayotga tatbiq etishda davlatning yuqori darajadagi ishtiroki bilan farqlanadi. Bunda ijtimoiy ishni taqdim etishda mahalliy boshqaruv organlari muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy himoyaning yevropa modelining farqli jihati turli ijtimoiy xizmat va yordam shakllari bilan aholining katta miqdori qamrab olinishidir.

Ijtimoiy himoyaning yevropa modeli umumiy farovon davlat nazariyasiga asoslanib unda insonning tabiiy huquqlari konsepsiyasi yotadi. Bu nazariyaning asosiy qoidalari barcha fuqarolar uchun hayotiy rejalarni amalga oshirishda bir xil teng sharoitlarni yaratish, ularning farovon hayot darajasini ta'minlash, ijtimoiy tenglik va adolatni qaror toptirishdir. Umumiy farovon davlat barcha fuqarolarning ijtimoiy yordamning rivojlangan tizimini shakllantirib, tibbiy, yuridik, ta'lim, ruhiy va boshqa hayot uchun zarur bo‘lgan xizmatlar bilan ta'minlaydi.

Umumiy farovon davlat tushunchasi muomalaga ikkinchi jahon urushidan keyin kiritildi. Ammo 70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshida mazkur nazariya tanqidga uchradi. Buning sabablari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va insonlar, ijtimoiy guruhlarning talablari o‘zgarganligidir. Rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ekspertlari fikricha 80-yillar o‘rtalarida g‘arb mamlakatlaridagi ijtimoiy ta'minot tizimi turli shakldagi ijtimoiy to‘lovlar bilan aholini qamrab olish vazifasini bajardi. 90-yillarda iqtisodiy rivojlanish, resurslar cheklovining o‘sishi, ishsizlikning yuqori darajasi sharoitida bu tizimga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha dastlabki reja kiritildi.

yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy ta'minot tizimining ma'lum yo‘nalishlarini o‘zgartirish omillari tug‘ilish pasayishi va umr ko‘rish davomiyligining oshishi natijasida aholining keksayish jarayonining tezlashishidir.

Davlat ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishda g‘arbiy yevropa mamlakatlarida sodir bo‘lgan iqtisodiy qiyinchiliklar va ularning oqibatlari kam kuchli ta'sir ko‘rsatdi. Iqtisodiy pasayish, byudjet defitsitining oshishi, ishsizlar va qashshoqlarning ko‘payishi, aholining qarishi, to‘liq bo‘lmagan oilalar miqdorining oshishi va boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Shu bilan birga g‘arbiy yevropaning birorta mamlakati to‘liq farovon davlatga o‘tmadi. Bu holat odamlar ongida davlat ular uchun g‘amxshrlik qilish zarur degan tushuncha mavjudligi bilan asoslanadi. Turli yo‘nalishdagi siyosat g‘arb mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimida islohotlarni davom ettirish zarurligini ko‘rsatdi.

G‘arbiy yevropa mamlakatlari hukumatlari tomonidan farovon davlat islohoti bo‘yicha qabul qilingan choralar ijtimoiy ta'minotga davlat mablag‘lari sarflanishini yanada kuchli nazoratini o‘rnatish, korrupsiya va byurokratiya bilan bog‘liq bu sohadagi moliyaviy yo‘qotishlarni qisqartirishga qaratilgan. Nodavlat pensiya fondlarini shakllantirish uchun soliq imtiyozlari taqdim etilmoqda. Nafaqalar tayinlashda, ularni oluvchilarning ahvoli o‘rganilib, oldin bepul bo‘lgan ko‘pgina xizmatlar pullik qilinib, davlat stipendiyalari qarzga almashtirilmoqda. Bir qator mamlakatlarda pensiya yoshini ko‘tarish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.[26].

GFR konstitutsiyasida ijtimoiy davlat atamasi mavjud bo‘lib, ijtimoiy yordam- bu mamlakatdagi ijtimoiy kafolatlash tizimining asosiy qismi bo‘lib, alohida shaxslarga qiyin holatdan chiqish hamda muassasa va xizmatlarga shu maqsadlar uchun taqdim etiladi. Ijtimoiy yordam shuningdek ijtimoiy ta'minot tizimidan tashqarida ko‘rsatiladigan ijtimoiy ish deb ham nomlanadi. Bu xizmatlar umumiy xususiyatga ega: turar joyga davlat dotatsiyasi sifatida pul berish, ko‘p bolali oilalarda bolalar uchun ta'lim xizmatlari ko‘rsatish.

GFR da ijtimoiy ish deganda fuqarolarning hayot darajasini ko‘tarishga yo‘naltirilgan, aholining ijtimoiy kam himoyalangan qatlamiga ko‘rsatiladigan

---

Ижтимоий хизмат. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 37-38.

xizmatlar tushuniladi. Ijtimoiy ishning kafolatgan tizimi fuqaro tug‘ilganidan boshlab paydo bo‘ladi, shuningdek GFR da yashaydigan xorijliklar uchun ham mavjud.

Qayd etish kerakki, GFR da ijtimoiy ish faqatgina notijorat tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilib, taqsimlovchi federal fonddan moliyalashtiriladi. Germaniyada ijtimoiy sohaga xarajatlar ijtimoiy ehtiyojlardagi byudjetning o‘ndan bir qismini tashkil qiladi. Ijtimoiy ish tarkibi bo‘yicha quyidagicha bo‘ladi: maslahat, tibbiy. Axborot, huquqiy, umumiy parvarishlash bo‘yicha, tashkiliy.

Hozirda Germaniyada ijtimoiy yordam tizimini isloh qilish amalga oshirilmoqda, bu zarur moliyaviy yordamlarni cheklamaydi. Davlat ijtimoiy xodimlar oldiga mehnat bozorida hyech qachon ishlamagan shaxslarning ijtimoiy yordamga boqimondaligini bartaraf etish vazifasini qo‘ydi. Ijtimoiy davlatning rivojlanish tamoyillari quyidagilar: ijtimoiy ta'minot sohasining o‘z-o‘zini boshqarishi, keksalikni ta'minlash, ko‘ngillilar yordami tizimini rivojlantirish.

3. Xorijiy mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirishda ommaviy farovon davlat konsepsiyasi katta ta'sir ko‘rsatdi.

Bu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, ommaviy farovon davlat- bu shunday davlatki, barcha fuqarolarga hayotning ma'lum bir darajasini, sog‘liqni muhofaza qilish va ta'lim sohasida ko‘rsatilgan dasturlarni moliyalashtirishda mamlakat aholisining ishtirokida huquqlarni kafolatlaydi.

Mazkur konsepsiya G‘arbiy yevropa mamlakatlarida keng qo‘llanila boshlandi. 60-yillarning boshida Buyuk Britaniyada ommaviy farovon davlat va GFR, Avstriyada ijtimoiy jamiyat loyihalarini amalga oshirishga kirishildi. Qayd etish kerakki, iqtisodiy o‘sish sharoitida milliy daromadni qayta taqsimlash yo‘li bilan daromadlarni tenglashtirish, ishsizlikni bartaraf etishga erishildi.

Tadqiqotchilar fikricha 70-yillarning o‘rtalari ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning rivojlanishida burilish nuqtasi bo‘ldi. Iqtisodiy

inqiroz ko‘pgina g‘arb mamlakatlarini konservativ siyosatga qaytishga sabab bo‘ldi. Ijtimoiy ta'minot tizimi aholining qarishi natijasida o‘sib borayotgan talabni qondirishga qiynalib qoldi. Boshqa tomondan iqtisodiy o‘sish darajasining sekinlashishi byudjet soliq tushumlarini qisqartirib, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatini kamaytirdi. Qayta tuzish talab qilindi.

G‘arb ekspertlari fikricha ommaviy farovon davlat g‘oyasi ma'lum darajada eskirib, uning faoliyati bilan bog‘liq ziddiyatlar paydo bo‘ldi. Buyuk Britaniya aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi ma'ruzasida qayd etilishicha oldingi avlod talablaridan kelib chiqib ishlangan ta'minot tizimi zamonaviy sharoitga mos kelmadi. Yordam strategiyasi shunday qurilishi kerakki, mehnatga layoqatli qashshoqlarni mehnat faoliyatiga jalb qilish imkonini berishi shart. Davlat yordami siyosatidan iqtisodiy mustaqillik siyosatiga o‘tish vazifasi belgilandi.

O‘tgan asrning 90-yillari boshida ko‘pgina mamlakatlar hukumatlari davlat ijtimoiy xarajatlarini qisqartirishga yo‘naltirilgan qarorlarni qabul qildilar. 1993-yilda Fransiya hukumati tibbiy sug‘urtalash davlat dasturi bo‘yicha to‘lovlarni kamaytirdi va tibbiy xizmatlarga pul to‘lovchi bemorlar soni oshdi. Buyuk Britaniyada bu sohadagi raqobatni kuchaytirish maqsadida sog‘liqni saqlash islohoti amalga oshirildi.

Natijada samarasiz kasalxonalar yopilib, tibbiy xodimlar ishdan bo‘shatildi. Shvetsiyada davlat kasalxonalarini xususiy shaxslarga sotish amalga oshirildi. Niderlandiyadagi umumiy farovon davlat inqirozi asosida mehnatga layoqatsiz shaxslarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha dastur xarajatlarining birdan oshishi turadi. Yordam mehnatga qobiliyatsizlik davrigacha olgan ish haqining 70% ini tashkil etadi va yoshga doir pensiya tayinlanadigan 65 yoshgacha to‘lanadi. Nafaqalarni olish tartibini kuchaytirish va ularni olayotgan shaxslar ehtiyojini doimo tekshirish taklif etildi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Turli mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotni davlat mablag‘lari sarflanishining yanada qattiq nazoratini o‘rnatishga, bu sohadagi korrupsiya va byurokratiya bilan bog‘liq moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlar qabul qilindi. Nodavlat pensiya fondlarini yaratishni rag‘batlantirish uchun soliq

imtiyozlari taqdim etilmoqda. Nafaqalar tayinlashda barcha mamlakatlarda ularni oluvchilarning ehtiyoji tekshirilmoqda. Ilgari bepul taqdim etilgan bir qator xizmatlar pulli bo‘ldi. Ko‘pgina mamlakatlarda pensiya yoshini oshirish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Shubhasiz, g‘arbiy yevropa mamlakatlaridan hyech biri umumiy farovon davlat konsepsiyasidan to‘liq voz kechgani yo‘q: insonlarda davlat muhtojlarga yordam ko‘rsatishi shart degan fikr shakllandi. Davlatning ijtimoiy xarajatlarni qisqartirishga bo‘lgan har qanday urinishi aholining katta qarshiligiga uchraydi. Hattoki so‘l oqim siyosatchilari ham G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimidagi islohotlarni davom ettirish zarurligini ko‘rsatdi.

Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘n yilliklarda to‘plangan tajribasi bozor iqtisodiyoti mavjud mamlakatlarda ijtimoiy faoliyatning umumiy va xususiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Qayd etish kerakki, amalda barcha mamlakatlar iqtisodiy xatar holatlaridan ko‘pchilik aholi uchun ijtimoiy sug‘urtalashdan foydalanishadi: qarilik, kasallik, nogironlik, ishsizlik va nochorlikda yashovchilarga ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

4. So‘nggi o‘n yillikda paydo bo‘lgan jiddiy demografik o‘zgarishlar ko‘pgina mamlakatlar oldiga keksalarga yordam berish tizimini ko‘rib chiqish masalasini qo‘ydi. Pensiya xizmati munosabatlarida keksalik bo‘yicha pensionerlarning miqdori oshib ketishi muammosi paydo bo‘ldi. Ko‘pgina mamlakatlardagi holat ishsizlikning yuqori darajasi bilan bog‘liqdir. Bu ko‘pgina mamlakatlar hukumatlari oldiga pensiyaga chiqishda yosh mehnatga qobiliyatli shaxslar uchun ish o‘rinlari yaratishda imkoniyatlarni topish masalasini qo‘ydi.

Muddatidan oldin pensiyaga chiqish dasturi 80-yillar o‘rtalarida ishlab chiqilgan va yevropa Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida qabul qilingan. Turli mamlakatlarda ikkita yechim keltirilgan : 1)ishlash huquqi bilan erta pensiya ; 2)ishlash huquqisiz erta pensiya. Dastur eng katta darajada Belgiya, Fransiya , Germaniyada, eng past darajada Buyuk Britaniya va Daniyada amalga oshirildi.

Masalan Belgiyada 50 yoshda ham pensiyaga chiqish mumkin. Agar firmaning ehtiyoji bilan keksa xodim ishdan bo‘shatilsa, ish haqining 80% ini

pensiya qilib oladi. Mablag‘larning asosiy qismi ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalash hisobidan, ozroq qismi ish beruvchi tomonidan ta'minlanadi. Pensionerlarga cheklangan doirada ishlashga ruxsat beriladi.

Belgiyada pensionerning o‘rniga ishsiz yosh xodimni qabul qili aniq va qat'iy belgilangan bo‘lib, bir yosh guruhidan boshqasiga o‘tishni ta'minlaydi.

Fransiyada keksa xodimlar ishdan bo‘shatilgan taqdirda oldingi oyligining 70% i miqdorida pensiya oladilar, agar ish beruvchi uning o‘rniga ishsiz 26 yoshdan kichik xodimni qabul qilgan taqdirda. Mazkur nafaqalar ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalash fondi va hukumat fondlari tomonidan moliyalashtiriladi.

Germaniyada 60 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan shaxslar xoxishi bo‘yicha ixtiyoriy pensiyaga chiqishi mumkin, agar yetarli mablag‘ jamg‘arilgan bo‘lsa minimal yosh 57 gacha kamaytiriladi.

Shunga o‘xshash ma'lumotlarni boshqa mamlakatlar bo‘yicha ham keltirish mumkin. Ammo qayd etish kerakki, keksalarning muddatidan oldin pensiyaga chiqishi bo‘yicha ziddiyatlar mavjud. Firmalar nuqtai nazaridan ishchi kuchining moslashuvchanligi ko‘tarilib, tanlangan qisqartirish natijasida mehnat unumdorligi oshishi, ortiqcha xodimlarni tezda bo‘shatilishi, ishchi kuchining yosharishi kuzatiladi.

Ammo buning salbiy natijalari ham bor : tajribali, usta xodimlarning yo‘qotilishi. Bu holatni tushunish turlicha: yaxshi kompensatsiya va oilaviy holatning o‘zgarishi natijasida ishlar yaxshi tomonga o‘zgaradi.

Bir qator yevropa mamlakatlari hukumatlari erkaklar va ayollar huquqlarini tenglashtirish maqsadida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida bir qator tadbirlarni qabul qilishdi. Bu yerda gap eng avvalo vafot etgan turmush o‘rtog‘i uchun pensiya olish imkoniyati to‘g‘risida ketmoqda. Germaniyada qonun qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra hayot bo‘lgan rafiqa vafot etgan turmush o‘rtog‘i pensiyasidan 60% ini olish huquqiga ega. Daniyada 1985-yilda vafot etgan turmush o‘rtog‘ining ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha barcha huquqlari bilan birga boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi bekor qilindi.

Pensiya bo‘yicha xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan boshqa tadbirlar sirasiga pensiya miqdorini kamaytirish, uni hisoblash tartibini o‘zgartirish, pensiya olish huquqi uchun sug‘urta fondiga badallar to‘lash muddatini uzaytirish kiradi. Masalan, Buyuk Britaniyada 1986-yilda pensiyalar miqdori 5% ga qisqartirildi va uni hisoblashning yangi tartibi kiritildi. Bu tartib 20 yil davomidagi eng yuqori ish haqini hisoblashdan butun mehnat staji davomidagi o‘rtacha ish haqini hisoblashga o‘tish bilan bog‘liq. Bir vaqtda faqatgina davlat emas, ishlovchidar uchun xususiy kompaniyalardan pensiya olish imkoniyatini kengaytirish ham kiritildi. Lyuksemburgda bu yillarda pensiya olish huquqini berish uchun sug‘urta fondiga badallar to‘lash davri 5 yildan 10 yilga uzaytirildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning Skandinaviy modeli alohida e'tiborni jalb qiladi (Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya). Bu mamlakatdan boshqa yevropa davlatlariga qaraganda ijtimoiy ta'minotga ijtimoiy himoya instituti sifatida qaraladi.

Skandinaviya mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilishning davlat modeli asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mamlakatlarda ijtimoiy himoya tushunchasi ijtimoiy farovonlik tushunchasining o‘zgargan shakli sanaladi. Bu model o‘z ichiga daromadlar darajasini davlat tomonidan boshqariluvchi majburiy ijtimoiy siyosat, teng, umumiy xususiyatga ega ijtimoiy imtiyoz va nafaqalarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, ijtimoiy sug‘urtalash ijtimoiy himoyaning shved modeli asosiy qismi sanaladi. Davlat sug‘urtasini boshqarish sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ishlar vazirligi nazorati ostida bo‘lib, u umumiy sug‘urtalash tizimiga javob beradi. Bugungi kunda Shvetsiyadagi aholini ijtimoiy himoyalash tizimi umumiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun (1962 yil) bilan tartibga solinib, unda sug‘urtalashning uch turi nazarda tutilgan:

- Kasallik bo‘yicha sug‘urtalash va ota-oanlarni sug‘urtalash tizimi;
- Xalq pensiya tizimi;
- Qo‘shimcha pensiya tizimi.

Shvetsiyada doimiy yashaydigan (shved va boshqa millatlar) 16 yosh va undan katta fuqarolar 26 ta ijtimoiy sug‘urtalash mahalliy idoralarining birida ro‘yxatga olinadilar.

Kasallik va ota-onalarni sug‘urtalash tizimi o‘z ichiga quyidagi sug‘urta turlarini oladi: majburiy tibbiy, stomatologik sug‘urta, ota-onalar nafaqasi, kasallik bo‘yicha nafaqa.

Majburiy tibbiy sug‘urta shifokorga, stomatologga ko‘rinish, kasalxonada davolanish bilan bog‘liq turli to‘lovlarni qoplaydi. Qoidaga ko‘ra mazkur xarajatlar bevosita davolanishga mas'ul tibbiy muassasa yoki shaxs ijtimoiy sug‘urta idorasiga to‘lanadi. Odatda bemor maslahat uchungina ozroq pul to‘laydi.

Kasallik yoki farzand ko‘rish bo‘yicha kasalxonada davolanish bo‘yicha xarajatlar bevosita ijtimoiy sug‘urtaning mahalliy bo‘limiga to‘lanadi. Bemor o‘zi yashaydigan shahardagi kasalxonada davolanish uchun pul to‘lamaydi. Kasalxonada davolanishga maksimal to‘lanadigan muddat- 2 yil.

Stomatologik sug‘urta sog‘liqni sug‘urtalashning majburiy tizimining tarkibiy qismi sanaladi. U barcha sug‘urtalangan shaxslarning 20% dan ortig‘ini qamrab oladi. Qonun bo‘yicha stomatologik xizmatlar bolalar va 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlarga ham davlat, ham xususiy tish doktorlari tomonidan bepul ko‘rsatiladi.

Kasallik bo‘yicha nafaqa- kasallik yoki jarohat sababli daromadni yo‘qotishdan kompensatsiya sanaladi. U olinadigan daromadning 90% gacha bo‘lgan qismni tashkil qiladi va soliqqa tortiladi. Nafaqa olish uchun kasallik to‘g‘risida mahalliy ijtimoiy sug‘urta tashkilotiga xabar berish kerak. Kasalxonaga bo‘lish uning miqdorini uchdan bir qismgacha kamaytiradi.

Bola tug‘ilganda ota-onalarni sug‘urtalash tizimi ularni 12 oy davomida nafaqa bilan ta'minlaydi. Ayol homiladorlik davrida bola tug‘ilgunicha 50 kun davomida onalik bo‘yicha nafaqa olishi mumkin. Bola tug‘ilganidan so‘ng uning ota-onasi ulardan qaysi biriga to‘lanadigan ta'til berishni belgilaydilar. Bundan tashqari otalar bola tug‘ilgandan so‘ng 10 kun davomida ishga chiqmaslik huquqiga ega. Ota-onalar 12 oygacha bola parvarishi uchun uyda o‘tirishlari

mumkin, quyidagi hollarda nafaqa oladilar: agar bola kasal bo‘lsa, agar ona kasalhonada yana bir farzand kutayotgan bo‘lsa va uyda bola bilan ota qolsa, agar bola shifokorga ko‘rinsa unga qarovchi ota-onasi nafaqa oladi. Har bir ota-ona har bir bolasi uchun bir yilda 60 kungacha bolaning kasalligi bo‘yicha nafaqa olish huquqiga ega. 8 yoshgacha bo‘lgan farzandi bor ota-onalar ish haqini kamaytirgan holda ish vaqtini 8 soatdan 6 soatgacha qisqartirishlari mumkin.

Milliy pensiya tizimi. Bu tizim o‘z ichiga umumiy (asosiy), qo‘shimcha (mehnat) qisma (to‘liq bo‘lmagan) pensiyalarni oladi. Barcha holatlarda to‘lovlar har yili hukumat tomonidan belgilangan bazaviy summa asosida hisoblanib, inflyasiya bilan ko‘tariladi. 1990-yilda bazaviy summa 29.7 ming kronani tashkil qildi.

Shvetsiyada pensiya yoshi erkak va ayollar uchun bir xil -65 yosh qilib belgilangan. Pensiyaga uning miqdorini o‘zgartirib oldinroq ham chiqish mumkin.

Umumiy va qo‘shimcha pensiya uchta shaklni o‘z ichiga oladi: yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik uchun oilaviy. Bir shaxs bir nechta pensiyani olish mumkin. Shvetsiyada doimiy yashaydigan har bir fuqaro ish muddati tugashi bilan umumiy pensiyani olish huquqiga ega. Yoshga doir umumiy pensiyaning miqdori past (ish haqining 20% i) shuning uchun faqatgina umumiy va qo‘shimcha pensiya oluvchilar bundan tashqari soliqqa tortilmaydigan uy-joy kommunal subsidiyalar va pensiyaga ustamalar oladilar.

Umumiy pensiya tizimida nogironlik pensiyasi yoshga doir pensiya bilan teng miqdorda. Uni 16 va undan katta yoshda bo‘lgan, kasallik sababli mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, nogironlik bo‘yicha esa pensiya yoshiga yetguncha oladilar. Agar shaxs 16 yoshga to‘lmagan farzandi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilsa umumiy pensita tizimida nafaqalar bolalarga to‘lanadi.

Milliy pensiya tizimida oilaviy pensiyalar bevalik (beva erkaklarga to‘lanmaydi) va yetimlik pensiyalaridan iborat. Pensiya beva kamida 36 yoshda bo‘lsa va turmushga chiqqaniga kamida besh yil bo‘lgan bo‘lsa to‘lanadi. To‘liq pensiyalar beva 50 yoshga yetguncha yoki farzandi 16 yoshga to‘guncha to‘lanadi.

To‘liq pensiya yoshga doir pensiyaga o‘xshashdir. Bolalarga pensiyala ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham vafot etgan taqdirda 18 yoshgacha to‘lanadi.

Umumiy qo‘shimcha pensiya tizimi. To‘liq qo‘shimcha pensiyani olish uchun 30 yil ishlagan bo‘lish kerak. To‘liq bo‘lmagan pensiya uchun- kamida 3 yil. Staj kam bo‘lganda pensiya miqdori har bir ishlanmagan yil uchun 3 dan bir qismga kamayadi. O‘rtacha miqdor yuqori daromad olingan 15 yil bo‘yicha hisoblanadi. Qo‘shimcha pensiya umumiy pensiya bilan o‘tgan yillardagi daromadning 70% dan yuqori qismini tashkil qiladi.

Qo‘shimcha pensiya tizimi shuningdek muddatidan oldingi pensiya, nogironlik pensiyasi, beva (agar er qo‘shimcha pensiya huquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa) va yetimlik (19 yoshgacha) pensiyasini olish imkonini beradi.

Ishsizlikdan sug‘urtalash tizimi ijtimoiy sug‘urtaning yuqorida ko‘satilgan tularidan farq qiladi. Ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish uchun kasaba uyushmalari tashkil qilgan ishsizlik bo‘yicha jamg‘arma a'zosi bo‘lish kerak. Ishsizlik bo‘yicha nafaqalar to‘lash bir qator shartlarga ega:mahalliy mehnat birjasida ish izlovchi shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish, ishga yo‘naltirish bo‘yicha taklifni qabul qilishga tayyor bo‘lish, o‘zining aybisiz ish joyini yo‘qotganlik, kamida 12 oy ishsizlik bo‘yicha jamg‘armaga a'zolik. Nafaqalar maksimum 300 ish kuni uchun, keksalarga esa 450 kun uchun to‘lanadi va kunlik to‘lovlardan iborat bo‘ladi. Kunlik nafaqalar ish haqi daromadining 91.7% gacha yetishi mumkin.

Agar inson sug‘utaning biror tizimi bilan qamrab olinmagan bo‘lsa yoki nafaqalar kam bo‘lsa u umumiy yordam olishi mumkin. 1982-yilda qabul qilingan ijtimoiy ish to‘g‘risidagi qonunda fuqaroligidan qat'iy naza shu davlatda yashovchi ha bir fuqaro uchun javobgarlik oxir-oqibatda jamiyatga tushadi deb ko‘rsatilgan.

Keltirilgan ijtimoiy sug‘urtadan tashqari Shvetsiyada boshqa bir qator nafaqalar ham mavjud. Masalan, bolalar uchun nafaqa barcha bolalarga tug‘ilganidan 16 yoshgacha to‘lanadi. Bundan tashqari uch va undan ortiq farzandli ko‘p bolali oilalar har yili bolalar uchun qo‘shimcha nafaqa oladilar.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish: tushunchasi, maqsadi va vazifalari.
2. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya qilish tizimi tamoyillari va vazifalari. Ijtimoiy ta'minotning yevropa tizimi.
3. Umumiy farovon davlat konsepsiyasi.
4. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish .
5. Shvetsiyada ijtimoiy ta'minot.

12- Mavzu . AQSh da aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi

1. Ijtimoiy himoyaning amerika modeli

2.Moddiy yordam dasturi

3. Ijtimoiy sug‘urta tizimi. Davlat ijtimoiy yordami. Xususiy ijtimoiy sug‘urta.

1. Sotsiologlar shuni qayd etishadiki, ijtimoiy qoloq aholi guruhlariga e'tibor iqtisodiy pasayish davrida o‘sadi va barqarorlik davrida kamayadi. AQSh da 30-yillar va keyinchalik 60-70 yillarda inqiroz sharoitida aholining katta qismini ijtimoiy muammolar qiynagan paytda ijtimoiy xodimlar ko‘pchilik insonlarning muammolarini komleks yondashuv orqali bartaraf etishga harakat qilishgan. AQSh Prezidenti F.Ruzvelt siyosatida ishsizlarga birinchi marta milliy muammo sifatida qarash boshlandi. Favqulodda holatlar bo‘yicha vaqtinchalik boshqarmalar tuzildi. Unga davlat dasturlarini ishlab chiqish uchun xususiy xizmatlardan malakali ijtimoiy xodimlar jalb qilinib, zamonaviy Amerikani o‘zgartirgan F.Ruzveltning Yangi kurs asosiy qoidalari mezon qilib olindi. F. Ruzvelt aytadiki, ishsizlarga davlat yordami- sadaqa yoki xayrehson emas, balki ijtimoiy adolat bo‘lib. Har bir fuqaro taraqqiy etgan jamiyatda minimal hayot darajasiga ega bo‘lishi kerak.

1964 y da . Prezident L.Djonson o‘zining “Buyuk jamiyat” dasturi doirasida yangi iqtisodiy va siyosiy holatda sanoat davri bilan bog‘liq muammo va kambag‘allikka yo‘naltirilgan bir qator qonun loyihalarini Senat va Kongressning vakillar palatasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qildi. Nochorlikdagi muammolardan ko‘pchiligi mehnat resurslarini himoya qilish bo‘yicha maxsus

prezident komissiyasining ma'ruzasi «Uch millat: harbiy xizmatga yaroqsiz yoshlar to‘g‘risidagi ma'ruza » da yaqqol ko‘ringan. U bir qator materiallar bilan iqtisodiy imkoniyatlar to‘g‘risidagi qonun uchun asoslarni yaratdi.

Bugungi kunda AQSh dagi ijtimoiy ish mazmuni sezilarli ravishda o‘zgardi. Aqliy rivojlanishida muammo bor mijozlar bilan ishlashga e'tibor kuchaydi va kambag‘allik muammolari bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar soni qisqardi. Taxminan 50% ijtimoiy xodimlar oila a'zolarining individual xulqi va oiladagi o‘zaro munosabatlar masalalari bilan band.

AQSh da so‘nggi o‘n yilda tarmoqlar bo‘yicha ijtimoiy xodimlarning bandlik tuzilmasi sezilarli o‘zgargani kuzatilmoqda. Mamlakat ijtimoiy xodimlari orasida o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra ulardan ko‘pchiligi umumiy tarmoqdan ketishyapti. Oldin ularning 51% i umumiy sohada mehnat qilgan edi (federal, davlat, mintaqaviy, munitsipal).Bugungi manzara xususiy tijorat tarmog‘ida bandlar 3 marta o‘sganini ko‘rsatmoqda. AQSh dagi ijtimoiy servisning katta qismini ko‘ngilli birlashmalar (KB), ammo hukumat bilan shartnoma tuzgan holda ta'minlamoqdalar. Bunday ko‘pgina xususiy amaliyot hukumat ajratgan sug‘urta orqali qoplanmoqda.

Turli birlashmalar, kichik yoki yirik firmalar yolg‘iz yoki ijtimoiy ish o‘tkazish bo‘yicha hukumat shartnomalari bilan faoliyat yuritishmoqda. Xususiy amaliyotda band bo‘lgan ijtimoiy xodimlarning eng katta o‘sishi 1982-1995 yillarda. – 11% dan 20% gacha o‘sdi. Barcha ijtimoiy xodimlarning 45% i amalda to‘liq bo‘lmagan ish kuni bilan qo‘shimcha bandlikda eaknligini qayd etishdi. Xususiy amaliyotda mijoz ijtimoiy xodimni yollab, odatda uning soati uchun haq to‘laydi.[27].

Zamonaviy ijtimoiy xodimga talablar sezilarli ravishda kengaydi va o‘z ichiga ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni osonlashtirish dasturlarini oladi. Ijtimoiy xizmat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy qashshoqlikni oldini olish va yengillashtirish, mos ijtimoiy siyosat va ijtimoiy

[27] Русин Т.АҚШ да ижтимоий ходим касби . – М.: Академия.
С. 510-511.

ta'minotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bugungi kunda Pensilvaniya Universiteti ijtimoiy xizmat maktabi asoschisi E.Smaliy fikricha ijtimoiy xizmat amaliyoti ijtimoiy farovonlikning demokratik tamoyillarini aks ettirib, aholining imtiyozga ega qatlamiga huquq berish sovg‘a berishdan ko‘ra samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy xodimlar o‘rtasida insonlarga yordam berishning an'anaviy tushunchalari, ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etish kengayib boryapti. Insonning boshqa inson va jamiyatga munosabati, shuningdek jamiyatning individ va guruhga munosabati markaziy o‘rindi turadi.[28].

Ijtimoiy himoyaning Amerika tizimi ikkita yo‘nalishni aks ettiradi: ijtimoiy sug‘urtalash tizimi va ijtimoiy yordam berish tizimi. Ijtimoiy sug‘urtalash tizimi yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘lib, barcha fuqarolar mos fondlarga soliqlarni muntazam to‘laydilar. Bu tizim iqtisodyi faol aholini asosiy iqtisodiy-ijtimoiy xatarlardan himoya qiladi: keksalik, boquvchisini yo‘qotish, nogironlik, kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohatlar, ishsizlik.

AQSh dagi ijtimoiy himoya tizimining ikkinchi yo‘nalishi ijtimoiy yordam sanaladi. AQSh da yordam tizimi bir qancha yirik va kichik dasturlarni o‘z ichiga oladi. Bu nochor yashaydigan insonlarga pul mablag‘lari, iste'mol tovarlari, turar-joy, ta'lim uchun yordam, kasbga tayyorlash kabilardan iborat. Qoidaga ko‘ra ijtimoiy yordam olish huquqi rasmiy belgilangan kambag‘allik darajasidan pastda yashaydiganlarga beriladi. AQSh da aholining bunday qatlami umumiy aholining 12-15% ini tashkil qiladi.

Moddiy yordam dasturlari. Moddiy yordam dasturlarining eng mashhurlaridan biri Welfare («Velfer»), bo‘lib, tarjimasi farovonlik deganidir. Dasturning boshqacha nomi: Public Assistance. Dastur federal hukumat va ba'zan shtat va shaharlar byudejetlaridan moliyalashtiriladi. «Vedfer»ni olishning sharti turli holatlarga bog‘liq ma'lum darajada barqaror daromadning yo‘qligidir. (ishni yo‘qotish, ishsizlik nafaqasining yo‘qligi, yosh bolali yolg‘iz ona (ota)

[28] Ruth Elizabeth Smaliey. Theory for social work practice. Columbia University press. New York and London, 1967. Preface, viii.

SSI (Supplemental Security Income) – kam daromadga ega bo‘lgan keksalar (65 yoshdan katta) nogironlar, kasallarga pul yordami beruvchi federal dastur.

Medikeyd (Medicaid) –kam dromadli shaxslar yoki oilalarga tibbiy yordam dasturi . U federal hukumat tomonidan moliyalashtiriladi, ammo shtat qonunlari bilan tartibga solinadi. Medikeyt dorilar, kasalxonada bo‘lish, tez yordam chaqirish, shifokrga ko‘rinish, maxsus oyoq kiyim, tibbiy uskunalar uchun ma'lum miqdorda to‘lov imkonini beradi. Odatda kim «Velfer» va SSI dasturlari bo‘yicha to‘liq hajmda yordam olsa, u dasturi huquqiga ega bo‘ladi.

Mediker – pensionerlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish dasturi. Uning sug‘urtalash shartlari bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha qismlarga bo‘linadi. Asosiy sug‘urtalash ijtimoiy sug‘urta soliqlari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu mablag‘lar statsionarda davolanishga to‘lanadi. Qo‘shimcha sug‘urtalash ixtiyoriy bo‘lib, federal byudjet va qatnashchilar badallari hisobidan moliyalashtiriladi. U ambulator davolanish va shifokorning maslahat xizmatlari uchun to‘lanadi. Tushunarliki ko‘pchilik amarikaliklar sug‘urtaning bu turini afzal biladlar.

Bemor statsionarga kelganda dastlabki badalni to‘laydi. (bir kunlik davolanish qiymatini). Agar u 60 kungacha davolanib ketsa kasalxonaga hyech nima to‘lamaydi. Agar 61 kundan 90 kungacha bo‘lsa davolanish qiymatining 25% ini to‘laydi.3 oylik muddat tugashi bilan zaxira davri deb ataluvchi 60 kunlik muddat kiritilib, undan faqat bir marta foydalanish mumkin. raz (falokatli kasalliklarda) va bemor dastlabki badaldan 50% miqdorida kunlik to‘lovlarni to‘laydi.

3.AQSh dagi ijtimoiy ta'minot tizimi murakkab va ko‘p qirralidir. AQSh da ijtimoiy ta'minotning yagona markazlashgan milliy tizimi mavjud emas. U yo federal qonunchilik, yo shtat qonunchiligi, yoki federal va mahalliy organlarning birgalikdagi qonunlari bilan tartibga solingan dasturlar orqali shakllanadi.

Shuningdek mahalliy boshqaruv organlari alohida dasturlarni qabul qiladilar. AQSh da ijtimoiy ta'minotning davlat tizimi ikkita yo‘nalishga bo‘linadi:ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordm berish.Ular o‘rtasida daromad manbalari bo‘yicha farqlar mavjud. Ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha to‘lovlar sug‘urta fondlaridan

amalga oshirilib, u ishlovchilarning ijtimoiy sug‘urta soliqlaridan shakllanadi. Davlat ko‘magi quyidagi byudjet mablag‘laridan to‘lanadi: federal byudjet,shtatlar yoki mahalliy boshqaruv organlari byudjetlari.

Ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha birinchi qonun 1935-yil 14-avgustda qabul qilingan fuqarolik qonuni bo‘ldi. O‘tgan vaqt davomida bu qonunga ko‘mgina tuzitishlar, ijtimoiy sug‘urtaning yangi shakllari kiritilib, yangi qoidalar bilan to‘ldirildi. 1935-yildagi qonunda ijtimoiy sug‘urtaning ikkita shakli bor edi : yosh bo‘yicha (pensiya) va ishsizlik (nafaqa). Qonun bir qator nochor aholi toifalari, nogironlar va yetimlarga yordam berishning cheklangan tadbirlarini ham nazarda tutgan. Pensiyalar dastlab 1937-yilda to‘langan. 1939-yilda qonunga oilaning boquvchisini yo‘qotganligi sababli nafaqa to‘lash to‘g‘risida tuzatish kirtildi. Ijtimoiy sug‘urtaning davlat tizimini kengaytirish bo‘yicha katta qadam 1956-yildagi tuzatish bo‘lib, unda ishlab chiqarishdagi jarohatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan mexnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lash nazarda tutilgan edi. Ishlab chiqarish jarohatlari va kasalliklari natijasidagi nogironlik bo‘yicha sug‘urtalash mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, shtatlarda katta qiziqish uyg‘otdi. 1965-yildagi tuzatish ham katta hodisa bo‘lib, 65 va undan kattalarga tibbiy sug‘urtalash huquqini taqdim etdi. («Mediker» dasturi).

1935-yildagi qonun va unga kiritilgan tuzatishlar xususiy sektordagi ishchi va xizmatchilar uchun qo‘llanilib, temir yo‘lchilar uchun o‘zlarining ijtimoiy sug‘urtalash tizimi mavjud bo‘lgan. Shuningdek federal fuqaroviy xizmatchilar. Urush faxriylari va harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy sug‘urtalashning dasturlari mavjud edi. Qishloq xo‘jaligi ishchilari, kichik korxonalar xodimlari, ijtimoiy sug‘urtaning davlat dasturlari bilan qamrab olinmagandi.

1935-yildagi qonun va unga kiritilgan tuzatishlarda nazarda tutilgan ijtimoiy sug‘urtaning barcha shakllari “Umumiy federal dastur “ (UFD) nomi ostida birlashgan.

Ijtimoiy sug‘urtalash dasturi- bunda nafaqa (pensiya) oluvchi maxsus soliq, o‘zi yoki ish beruvchining badali shaklida omonat qo‘yadi. Bu nafaqalar imtiyozga nisbatan huquq bo‘ladi. Sug‘urtaga ishonch shaxsning tanlash erkinligiga ishonch

bo‘lib, har bir fuqaroga favqulodda holatlardan o‘zini eng yaxshi usulda himoyalashni aks ettiradi[29]. Ijtimoiy sug‘urta dasturlariga quyidagilar kiradi: yosh bo‘yicha sug‘urta (pensiya), boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha sug‘urta, ishsizlik bo‘yicha sug‘urta, mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha sug‘urta, tibbiy sug‘urta.

Yosh bo‘yicha davlat pensiyasi 65 yoshga to‘lgan (erkak va ayollar uchun bir xil) shaxslarga to‘liq hajmda to‘lanadi. To‘liq pensiya olish uchun zarur bo‘lgan ish staji 35 yil. Agar staj kam bo‘lsa pensiya ham kamayadi. 62 yoshda ham pensiyalarni to‘lash nazarda tutilgan bo‘lib, bunda pensiya 20% ga kamayadi.

Pensionerlar ishlash huquqiga ega bo‘lib, ammo ish haqining ma'lum miqdoridan boshlab har bir ishlangan bir dollar uchun pensiya 50 sentga kamayadi. Amalda u daromad solig‘iga tortilishi natijasida har bir ishlangan dollarning taxminan 70 senti yo‘qotilishiga olib keladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa agar vafot etgan shaxs yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lsa uning oila a'zolariga tayinlanadi. (turmush o‘rtog‘i, bolalari, ota-onasi). Boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha pensiya olish huquqi va uning miqdori qaramog‘dagilarning yoshi va ularning mehnatga layoqatidan kelib chiqib belgilanadi. Pensiya hisoblash uchun miqdor vafot etgan shaxsning yosh bo‘yicha pensiyasi miqdori bo‘ladi.

Mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan kasallik yoki baxtsiz hodisalar natijasida nogiron bo‘lgan shaxslarga tayinlanadi. Nafaqa olish huquqi to‘langan badallar hajmi va umumiy federal dastur bo‘yicha sug‘urtalash qamrab olingan korxonada kamida besh yil ishlaganda mavjud bo‘ladi. (UFD). Mazkur nafaqani hisoblash sharti va miqdori yoshga doir pensiya hisoblash shartiga yaqin bo‘ladi. Pesiya yoshiga yetganda nogironlik bo‘yicha pensiya yoshga doir pensiyaga almashtiriladi.

UFD doirasidagi barcha nafaqalar ijtimoiy sug‘urta soliqlari hisobidan moliyalashtirilib, bu soliq ishchi va ish beruvchi tomonidan teng ulushlarda to‘lanadi. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha soliq stavkasi xodimlar uchun ish haqiga

[29]Моррис. Ижтимоийтаъминот:тенденцияларвасиёсатмуаммолари // Ижтимоийхизматэнциклопедияси. Т.3.

mutanosib ravishda, tadbirkorlar uchun ish haqi fondiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Progressiv xususiyatga ega daromad solig‘idan farqi ijtimoiy sug‘urta soliqlari regressiv sanaladi. U yagona soliq stavkasi bo‘yicha undirilib, birinchi ishlangan dollardan soliq bazasiga tortiladi. Bu bazaning yuqori miqdori shunday summa etib belgilanganki, bir qator ishchi va xizmatchilar ish haqidan yuqori bo‘ladi. Natijada ular o‘zlarining barcha daromadlarini soliqqa to‘laydilar, eng yaxshi holatdagi amerikaliklar imtiyozli holatdagilari bo‘lib, o‘z daromadlarining faqat ma'lum qismini soliqqa to‘laydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy sug‘urta solig‘i kam ta'minlanganlar uchun quyidagicha belgilangan: 25% kam daromad oluvchi amerikalilar uchun u eng og‘ir soliqqa aylangan.

Ijtimoiy sug‘urtaning davlat tizimining o‘ziga xos xususiyati ham iqtisodiy ham demografik sabablarga ko‘ra soliqlarning doimiy oshishidir. Iqtisodiy inqiroz ijtimoiy sug‘urta tizimida mazkur soliqni jiddiy ko‘tarishga majubr qiladi. Keyingi istiqbolda bu soliq axolining qarishi bilan yanada qiyin soliqqa aylanadi.

Ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalash federal-shtat asosida amalga oshiriladi. Federal qonunlar ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalashning umumiy tamoyillarini belgilaydi, keyinchalik har bir shtat qonunchilikni o‘zi uchun aniqlashtiradi. Shtatlar sug‘urtalashga tegishli shaxslar toifasini, ularning miqdori va to‘lash muddatlarini belgilaydi. Ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalash fondlari asosan tadbirkorlarning soliqlari hisobidan shakllanib, miqdori to‘langan ish haqidan foiz ko‘rinishida belgilanadi. Shtatlar boshqaruv organlari agar ishsiz shaxslar taklif qilingan ishni rad etishganda ishsizlik nafaqasini bekor qilishlari yoki uning miqdorini kamaytirishlari mumkin. Nafaqalarning qamrab olish darajasi iqtisodiyotning holatiga bog‘liq bo‘ladi. Inqiroz yillarida u yuqori va barqaror vaqtda u past bo‘ladi. Shtatlar qonunlari ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish uchun minimal zarur stajni belgilaydi (qoidaga ko‘ra kamida yarim yil). Nafaqa miqdori xodim eng ko‘p daromada olgan bazaviy davr (taxminan 12 oy) uchun o‘rtacha ish haqi bo‘ladi. Har bir shtatda nafaqalarning minimal va maksimal miqdorlari

belgilanadi. U o‘rtacha oylik ish haqining 25-30% ini tashkil qiladi. To‘lash muddati 26 hafta Fedaral qonunlarda ishsizlikning birdan o‘sishi kuzatilsa uni 65 haftaga uzaytirish nazarda tutilgan.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasb kasalliklarining yuqori darajasi natijasida AQSh da shtatlar darajasidagi sug‘urta dasturlari mavjud. Qonunchilik ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bo‘yicha tadbirkorlarning javobgarligini belgilab, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan shaxsning oila a'zosiga tovon to‘lash va vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to‘lash muddatlarini aniqlaydi. Tovon miqdori ish haqiga foiz bilan aniqlanadi va ish haqining uchdan ikki qismidan ko‘p bo‘lmaydi. Pul to‘lovlarining asosiy qismi ish beruvchilar bunday hodisalardan sug‘urta qilinganliklari sababli xususiy sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘lanadi. Bir qator shtatlarda ish beruvchilar soliqlari hisobidan maxsus sug‘urta fondlari yaratilgan bo‘lib, shtatlar hokimiyatlari ishlab chiqarishdagi jarohatlar bo‘yicha sug‘urtani to‘laydilar.

Amerika davlat ijtimoiy ta'minot tizimining boshqa qismi kambag‘allarga yordam berishdir. Bu tizim 60-yillardan boshlab ommaviy norozilik harakatlari vaqtida keng rivojlanib, bu qora tanli amerikaliklar tomonidan tashkil qilingan edi.

Ijtimoiy sug‘urtadan farqi bu tizimda yordam olish uchun maxsus oldindan badallar talab qilinmaydi. Yordamni taqdim etishning mezoni unga muhtojlikdir.

Kafolatlangan daromadni ta'minlash dasturi keksalar, doimiy nogironlar va ko‘zi ojizlarni qamrab olgan. Bu dastur bo‘yicha aholining ko‘rsatilgan toifalariga yashash minimumini ta'minlash uchun pul mablag‘lari to‘lanadi. Bu minimum qashshoqlik chegarasidagi daromad darajasi 60% bo‘lganlarga belgilangan.

Yordam berishning boshqa dasturi bolali muhtoj oilalarga pul mablag‘i beriladigan dasturdir. Qoidaga ko‘ra bu dastur bo‘yicha yordam kam daromadli ko‘p bolali oilalarga, ajrashgan yoki yolg‘iz onalarga beriladi. Ayrim shtatlarda mazkur dastur bo‘yicha nafaqalar kam miqdord oila boshlig‘i ishsiz bo‘lgan oilalarga beriladi.

Bolali oilalarga yordam dasturi federal-shtat miqyosida bo‘lsa-da bunda shtatlar hokimiyati asosiy o‘rinni egallaydi. Ular muhtojlik mezonlarini belgilaydilar, mijozlar, nafaqa miqdorini aniqlaydilar. Mazkur dastur bo‘yicha o‘rtacha nafaqa oyiga 390 dollarni tashkil qiladi. (AQSh dagi o‘rtacha ish haqi oyiga 2000 dollar). Ko‘pgina shtatlarda nafaqalar kambag‘allik darajasiga yetmaydi. Ular minimal-zarur xarajatlarning 50-70% ini qoplaydi. Bu dasturning boshqa dasturlardan farqi inflatsiya natijasida indeksatsiya qilinmaydi va shuning uchun nafaqalr narx o‘sishi bilan o‘z qadrini yo‘qotadi.

80-yillarda kongress ayollar bandligi holatini yaxshilash va nafaqalarga xarajatlarni qisqartirish maqsadida bu dastur bo‘yicha nafaqalarni olish talablarini shtatlarga joriy qilishga ruxsat berdi. Nafaqa oluvchi davlat yoki istalgan boshqa notijorat tashkilotda bepul ishlab berishi shart edi. Buni rad qilish nafaqa miqdorining qisqarishiga olib kelgan. Ishlab berish dasturi ta'lim va mehnat ko‘nikmalarini olish dasturi sifatida nomlandi. So‘nggi yillarda hukumat yolg‘iz onalarni ta'lim olishga, amaliy ko‘nikmalarni egallashga jalb qilish bo‘yicha ko‘pgina tadbirlarni o‘tkazdi, bu ularning bandligini oshirish, PFDS tizimidagi nafaqa oluvchilar miqdorini kamaytirish maqsadida amalga oshirildi.

Turar-joy subsidiyalari past daromadli oilalarga beriladi va o‘rtacha yiliga 2000 dollarga yetadi. Bu Amerikadagi turar-joy narxiga nisbatan kamdir. Uning pensiya, ishsizlik , kambag‘allik nafaqalridan farqi davlat ijtimoiy ta'minot organlari u yoki bu dastur bilan qamrab olingan shaxslarga taqdim qilishga majbur, turar-jyo subsidiyalari har bir aniq holatda bu organlar fikri bo‘yicha beriladi.

AQSh ijtimoiy dasturlari aholini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Ijtimoiy sug‘urta dasturlari yuqori darajadagi ijtimoiy salohiyatga ega bo‘lib, barcha fuqarolar ish haqidan muntazam ravishda mos fondlarga soliq to‘laydilar. Ishsizlik bo‘yicha nafaqa ham ishlangan daromad sifatida qaraladi. Uning bunday maqomga ega bo‘lmagan dasturlardan farqi yordam olish uchun maxsus soliqlarni to‘lamaganlarga berilmasligi va aholining kam qismiga taqdim qilinishidir.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Ijtimoiy ishning amerika modeli.
2. AQSh da ijtimoiy ta'minotning asosiy shakllari.
3. Moddiy yordam dasturi.
4. Ijtimoiy sug‘urtalash dasturi.

13-Mavzu. O‘zbekistonda ijtimoiy ish rivoji

1. Ijtimoiy ish ko‘rsatish va ijtimoiy ish kasbini rivojlantirishning ma'naviy va tarixiy sharoitlari

2. Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat

Turli mamlakat xalqlari azaldan yaqinlarga hamdardlik va saxiylik yordamlarini ko‘rsatib kelishgan. Bu O‘zbekiston xalqi uchun ham xosdir. Ular milliy qadriyatlar, an'ana va odatlar asosida namoyon bo‘lib, ularni saqlash va rivojlantirish zarur. Bu ayniqsa bugungi kunda insonlar, ayniqsa yoshlar ongida insonparvar va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan bog‘liq yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish davrida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlarining paydo bo‘lishi sharoitida davlatning ustuvor vazifasi jamiyatdagi har bir inson uchun munosib turmush tarzini ta'minlashdan iboratdir. So‘nggi o‘n yillarda paydo bo‘lgan yordamga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning amaliy zaruriyati jamiyatning ming yillar davomida to‘plagan ijtimoiy yordam usullariga borib taqaladi.

Ijtimoiy ish atamasi O‘zbekistonda boshqa sobiq sovet mamlakatlari kabi 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlaridan qo‘llanila boshlandi. Mazkur g‘arb atamasining mahalliy jamiyat hayotiga kirib kelishi yagona geopolitik chegaralarning buzilishi, shuningdek aholining turli qatlamlarini himoyalash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kasbiy ehtiyojning shakllanishi, uni tashkil etishning shakllarini belgilash bilan asoslanadi. Ijtimoiy xizmat hodisasiga e'tiborning muhim omili fikrlashning ma'lum turi shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Zamonaviy O‘zbekiston hududida muhtojlar to‘g‘risida qayg‘urish o‘zining tarixiy rivojlanishida saxovatddan ijtimoiy himoyaning davlat tizimini tashkil qilishgacha bo‘lgan turli shakllarini bosib o‘tdi.

Zamonaviy O‘zbekistonda yordam berish vazifalari mahallada nafaqat saqlanib qoldi, balki doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Buning uchun mustahkam huquqiy baza yaratilib, O‘zbekistonning milliy taraqqiyot modeli davlatning bir qator muhim vazifalarini mahalliy boshqaruv organlari, mahalla qo‘mitalariga topshirilmoqda.

Mahalla ijtimoiy ish rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘zbek xalqining ma'aviy va axloqiy an'analarini saqlab, qonun bo‘yicha fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmi sanaladi. 10000 dan ortiq mahallalar tarmog‘i mamlakatning butun hududini qamrab olgan hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda muhim bo‘g‘in sanaladi. O‘zbekistonning barcha aholisi ularni jamiyat hayotini tashkil qilishning samarali shakli sifatida ko‘radi.

Mahallaning ko‘mak berish vazifasi doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Jamiyat a'zolari yosh oilalarni mustahkamlash, nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf qilishda qatnashmoqdalar. Mahalla qo‘mitalari er-xotinlarni yarashtirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solib, keyinchalik sud organlariga ajrashish uchun murojaat etilmoqda.

Mahallaning muhim ahamiyati og‘ir kunlarda ma'naviy va moddiy qo‘llab-quvvatlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mahalla dafn marosimlarini tashkil etish, mahalla a'zolariga xabar qilishni amalga oshirib, mahalla raisi jarayonga shaxsan ishtirok etadi va rahbarlik qiladi. Agar bu kam ta'minlangan oila bo‘lsa, yuqorida keltirilgan ma'naviy ko‘makdan tashqari mahallaning ijtimoiy ko‘mak fondidan ma'lum miqdordagi moddiy yordam ko‘rsatiladi.

Aniqki, O‘zbekiston tarixiga qisqacha sayohat ijtimoiy yordam xayriya faoliyatining dunyoviy shakli ekanligini bildirmaydi. Haqiqatdan ham ijtimoiy xizmatning chuqur insonparvar ildizlarini qayd etgan holda, diniy xayriya bilan shug‘ullangan shaxslar va zamonaviy ijtimoiy xodimlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish kerak. Xayriya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi insonlar uchun

harakatlantiruvchi kuch axloqiy burch hissiyoti va yaxshilikning bo‘lishi, ko‘rsatilayotgan yordamning o‘zgaruvchan miqdori va uzoq muddatliligidir. Jamiyatning rivojlanishi xayriya tushunchasining mazmuni va talqiniga tuzatish kiritdi. Ular tarixan o‘zgarib, ammo inson qiyinchiliklarga doimo mustaqil qarshi tura olmaydi va davlat g‘amxo‘rligi har bir shaxsgacha yetib bora olmaydi. Shuning uchun yordam va ko‘mak ixtiyoriy asosda amalga oshirilib, bu nafaqat xayriya faoliyatining balki butun ijtimoiy ishning tarkibiy qismi sanaladi.

Xayriya va ijtimoiy xizmat tushunchalari bir-biriga yaqin, ammo bir xil emas, ularni ajratish kerak. Xayriya, shubhasiz kasbiy ijtimoiy xizmatdan farqlanib, boshqa tashkiliy asosga quriladi. Ijtimoiy xizmat me'yoriy-huquqiy asos, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, maxsus yaratilgan tashkilot va muassasalar bilan aniq belgilangan. Shu bilan birga, 19-asr oxirida aynan yetakchi xayriya tashkilotlari nochorlarga yordam ko‘rsatishga ixtisoslashagan xodimlar ma'lum tayyorgarlikka ega bo‘lishlari to‘g‘risida xulosaga keldilar. Ijtimoiy xodimlarni ular faoliyati bilan bog‘liq tayyorgarlikka xizmat qiluvchi birinchi kurslar ochildi. Xayriya tashkilotlari Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSh da ochilgan.

Bugungi kunda xayriya faoliyati turli jamoat tashkilotlari orqali muhtojlarga ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatuvchi kasbiy ijtimoiy ish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy ishning ijtimoiy dasturlarini moliyalashtirishning qo‘shimcha manbasi sanaladi. O‘zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanish jarayonida xayriya faoliyati jamiyatning yaxshi moslashmagan a'zolarining ijtimoiylashuvi uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlat tuzilmalarining faol ishtirokida muhtojlarga noprofessional yordam sifatida davom etmoqda.

Bugungi O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati madaniy-tarixiy merosni albatta hisobga olishni nazarda tutadi. Faqatgina tarixiylik va zamonaviylikning izchilligi asosida yangi darajadagi rivojlangan jamiyatga erishish ta'minlanadi, ijtimoiy xizmat faoliyat shakli sifatida uning muhim tarkibiy qismi bo‘ladi.

1. Ijtimoiy siyosat har qanday zamonaviy davlatning ustuvor yshnalishi bo‘lib, uning asoslari mavjud qonunchilikda aks etadi. Bu jamiyatdagi barcha

fuqarolarning manfaatlariga rioya qilish bo‘yicha davlat faoliyatidir.; ma'lum ijtimoiy guruh va nogironlar munosabatlarida ijtimoiy himoya ko‘rsatishdir.

Keng ma'noda ijtimoiy siyosat jamiyatd ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashga yo‘naltirilgan jamiyat hayotida hokimiyat tuzilmalarining ta'sir usullari va mexanizmlari majmui sifatida qaraladi. Tor ma'noda ijtimoiy siyosat bandlik va aholini ijtimoiy himoya qilish, ta'lim, sog‘liqni saqlash sohalarida davlat tomonidan amalga oshiriladigan institutsionallashgan tadbirlar majmuidir.

Ijtimoiy siyosat sohasiga shaxs va jamiyat faoliyatining turli jihatlari kirib, aholining nochor qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan boshlab jamiyatning barqaror rivojlanishi va ishlashini ta'minlashni oladi. Shunday qilib, tahlil qilinayotgan hodisaning turli jihatlari qo‘yilib, ammo ularning barchasi ijtimoiy siyosat shug‘ullanadigan masalalar doirasida bo‘ladi. Bu jamiyatdagi barcha fuqarolar manfaatlariga rioya qilish va ularning o‘z salohiyatlarini yanada to‘laqonli namoyon qilish uchun sharoit yaratish bo‘yicha davlat faoliyatidir; jamiyatning ijtimoiy sohalari rivojlanishi; ijtimoiy keskinlikni yaxshilash bo‘yicha amaliy tadbirlarni o‘tkazish; ma'lum guruh va individlar o‘rtasida ijtimoiy himoya ko‘rsatish.

Ijtimoiy siyosatning ob'ekti barcha huquq va erkinliklarga rioya qilish kafolatlangan va mos sharoitlar ta\minlangan ijtimoiy siyosat amalga oshiriladigan barcha fuqarolar yoki ijtimoiy yordam va ko‘makka muhtoj aholining ma'lum guruhlari.

Ijtimoiy siyosatning asosiy sub'ekti davlat bo‘ladi. Davlatning tashqari ijtimoiy siyosat sub'ektlari davlat idoralari va tashkilotlari, mahalliy boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlar (jamoat, xalqaro xayriya fondlari, jdiniy birlashmalar) tijorat tashkilotlari, ijtimoiy xodimlar va boshqa mutaxassislar, ko‘ngillilar, fuqarolar bo‘ladi.

Ko‘pgina davlatlarda amalga oshiriladigan ijtimoiy siyosat bir qator tamoyillarga asoslanib, ularning asosiylari ijtimoiy adolatlilik, individual ijtimoiy javobgarlik, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimiy kafolatlar va boshqa tamoyillardir. Shu yoki boshqa tamoyillar ma'lum davlatdagi ijtimoiy siyosatni

amalga oshirishdagi ustuvorliklarni belgilab, ammo ularning asosida doimo insonparvarlik va ijtimoiy adolatlilik qadriyatlari yotadi.

Har bir mamlakatdagi davlat ijtimoiy siyosati tizimi tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda tuzilib, hal qilinadigan masalalar o‘xshash va bir xilligiga qaramasdan yondashuvlar, uslublar va tashkiliy shakllarda farqlarga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston mustaqillikning qo‘lga kiritgan 1991-yildan so‘ng hukumat yagona jahon maydoniga mamlakatni kiritish va bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishni e'lon qildi. Bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy siyosatdagi davlatning asosiy strategik maqsadlari jng avvalo oilalar, har bir insonning hayot sifatini yaxshilash va farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Bu yo‘nalish kelgusida o‘tkaziladigan islohotlar, o‘tish davridagi ijtimoiy siyosat mohiyatini tasvirlaydi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan davlat aholining yordamga muhtoj qatlami- ko‘p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg‘iz keksalar, yetim bolalar, nogironlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga katta e'tibor berdi. Real iqtisodiy holat, mavjud resurs va imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi mexanizmi yaratildi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat mexanizmining eng muhim yo‘nalishlari quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida kafolatlangan fuqarolarning barcha huquqlariga rioya qilinishini ta'minlaydigan me'yoriy va institutsional bazani shakllantirish, aholining o‘ziniijtimoiy himoya salohiyatini faollashtirish uchun mexanizm va sharoitlarni yaratish; aholining alohida qatlami manzilli himoyasi uchun me'yoriy, institutsional va resurs asoslarini yaratish Bu siyosatni amalga oshirishda turli ijtimoiy tizimlar harakatda bo‘ladi: ijtimoiy sug‘urta, ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish, aholining ma'lum bir toifalari uchun imtiyozlar taqdim etish va boshqalar.

O‘zbekistonda yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish sharoitida aholining katta qismi murakkab ijtimoiy holatda qoldi. Bu holat mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning har bir bosqichi xususiyatlarini inobatga olib aholiga

ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirishga olib keldi. O‘tish davridagi islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy himoya bo‘lib, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam orqali (pul yoki moddiy) to‘lovlari shaklida amalga oshirildi.

O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati bozor islohotlarining barcha bosqichlarida yetarlicha keng doiradagi masalalarni o‘z ichiga olib, shu jumladan aholi daromadlarini tartibga solish, bandlikni ta'minlash va yangi ish joylarini shakllantirish, aholining alohida toifalari va guruhlarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash, jismoniy madaniyat va sport, ta'limni rivojlantirish. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida tjtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari narxlarni erkinlashtirish va inflyasiya darajasining o‘sishi natijasida aholi daromadlarini saqlash, respublika iste'mol bozorini himoyalash bo‘ldi.

Qabul qilingan barcha choralar aholi hayot darajasini keskin pasayishini oldini oldi. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tish ijtimoiy ko‘rsatkichlarning birdan pasayishi bilan kechmadi, bir qator yo‘nalishlarda o‘sish kuzatildi. Shok terapiyasi asosida aholining daromadlari darajasi bo‘yicha tabaqalarga ajratilishi kuzatilmay, O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar boylik va xizmatlarni teng taqsimlashni nazarda tutdi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish choarlari xalqning mentaliteti va hayot darajasini hisobga olgan holda aholining eng yordamga muhtoj qatlamini aniqlashni nazarda tutuvchi aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish mexanizmi shakllandi. Manzilli ijtimoiy himoya mexanizmida markaziy o‘rinni fuqarolarni sho‘ini-sho‘i boshqarishning an'anaviy tarixiy instituti bo‘lgan mahalla egallab, u orqali muhtoj shaxslarga yordam taqsimlanmoqda. Bunday yondashuv ko‘p asrlik ildizlarga ega bo‘lib, kam ta'minlangan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan mablag‘larni manzilli taqsimlashni ta'minlaydi. Bunda aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha resurslarni ta'minlash sohasida davlatning ahamiyati kamaymaydi.

Respublikadagi ijtimoiy siyosat qonunlar va rasmiy hujjatlarda tasdiqlangan bo‘lib, jamiyatning har bir a'zosi uchun mos sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan va bu bizning davlatimiz faoliyatidagi ustuvor yo‘nalish bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi faoliyatning asosiy me'yorlari va huquqlaridan iborat. Ular asosida ijtimoiy qonunchilik rivojlandi. 1991-yilda “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi” qonun (2008-yilda yangi tahrirda qabul qilindi). Imkoniyati cheklangan insonlarni davlat ijtimoiy ko‘magining milliy modelini shakllantirishga asos bo‘ldi. O‘zbekiston bolalarning huquq va erkinliklari, alohida ehtiyojga ega shaxslarning huquqlariga tegishli asosiy xalqaro shartnomalar, pakt, deklaratsiya, konvensiyalarga qo‘shilgan bo‘lib, shunga muvofqi o‘z siyosatini amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining eng ahamiyatli tendensiyalari ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini paydo bo‘lishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarga samarli ijtimoiy yordam ko‘rsatish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiya va uslublarni keng qo‘llash bo‘ldi. Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish imkoniyati mahalliy boshqaruv organlari-hokimiyatlarda hududiy ijtimoiy ish tarmog‘ini tashkil qilish va rivojlantirish, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy pedagogika va amaliy psixologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash bo‘ldi.

Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi alohida shaxslar, oila va guruhlarning moslashuvi, ijtimoiy sog‘lomlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-insonparvar faoliyatning ma'lum yo‘llari tizimini sifatida qatnashadi.

O‘zbekistondagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda muhtoj fuqarolarga zarur yordam va ko‘makni beruvchi yangi ijtimoiy muassasalar tarmog‘ini yaratishga katta e'tibor berildi. Keksalar, bolalar, nogironlar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik asosan Mexnat va ijtimoiy himoya vazirligi tizimi orqali amalga oshirilib, shuningdek bunda barcha vazirlik va idoralar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahalla) IIV tashkilotlari qatnashmoqda. Bunday muassasalar qatoriga fuqarolarga turli ijtimoiy ishni ko‘rsatuvchi markazlar, aholiga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish markazlari, voyaga yetmaganlar, ayollar uchun

ijtimoiy-sog‘lomlashtirish markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi hududiy markazlarni keltirish mumkin.

Faqatgina “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturiga muvofiq 26 ta qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida Sredi nix osobogo vnimaniya zaslujivayut zakonы «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi», «Xayriya faoliyati to‘g‘risidagi» va «Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risidagi», «Ishga qabul qilish uchun minimao yosh to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqidagi» (Jeneva, 26 iyun 1973 yil), «Bolalar mehnatining yomon shakllarini ta'qiqlash va bartaraf etish to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqidagi (Jeneva, 17 iyun 1999 yil) va boshqalarni keltirish mumkin.

Mamlakatda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilib, bolalar, boquvchisini yo‘qotganlar to‘g‘risida davlat e'tibori va g‘amxo‘rligi kuchaymoqda, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uylari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha choralar amalga oshirilib, kam ta'minlangan va aholining yordamga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda.

Alohida e'tibor va ehtiyojga ega bolalar uchun ta'lim olish muhim ahamiyatga ega. Olingan ta'lim darajasi uning ijtimoiy sog‘lomlashishi, jamiyatga moslashishi va qo‘shilishiga bog‘liq. So‘nggi yillarda o‘ziga xos ruhiy jismoniy rivojlanishga ega bolalarning inklyuziv ta'limiga katta e'tibor qaratilib, ham bolaga ham uning atrof-muhtiga ta'sir qiluvchi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishdagi dastlabki qadamlar qo‘yilib, umumiy ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirish siyosati amalga oshirilmoqda.

Albatta, inklyuziv ta'limni kelgusi rivojlanishi bir qator muammolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardir: me'yoriy-huquqiy asosni shakllantirish, integratsiya jarayonining ilmiy-tashkiliy ta'minoti; barcha ishtirokchilarning ruhiy tayyorgarligi; o‘qitishning milliy modelini yaratish va uning o‘quv-uslubiy ta'minoti.

Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va mamlakat fuqarolarini ijtimoiy himoyalashni amalga oshirishda nodavlat sohasi katta o‘ringa ega. U aholining ijtimoiy ehtiyojlariga eng moslashuvchan va tezkor harakat qiladi. So‘nggi yillarda mahalliy nohukumat tashkilotlar miqdori doimiy o‘sib boryapti.

Shubha yo‘qki, mamlakat aholisini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash kopleks dasturlarini tashkil etish zarurdir. Bu mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining yo‘nalishi sanaladi. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xizmat biri-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy xizmat –bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakli bo‘lib, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishni yo‘naltirish doirasidir. Huquqiy fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo‘lida bizning mamlakatimiz uchun yangi bo‘lgan mazkur faoliyat shaklini shakllantirish va rivojlantirish, professional ijtimoiy xodimlar tayyorlashni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatda so‘nggi yillarda bolalar himoyasi sohasidagi islohotlarda ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bolalar himoyasi sohasidagi asosiy hujjat 2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi” qonun sanaladi. Mazkur qonun bola huquqlari bo‘yicha BMT Deklaratsiyasidagi barcha huquqlarni ta'minlaydi. Kadrlar tayyorlashning zaruriyati to‘g‘risida 4-moddada keltirilgan bo‘lib, bola huquqlari sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, ta'lim, bandlik sohasidagi siyosat. O‘z navbatida ijtimoiy xizmat- aholi qatlamlari, guruhlari va alohida fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xizmat biri-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy xizmat –bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakli bo‘lib, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishni yo‘naltirish doirasidir. Ijtimoiy siyosatning yo‘nalishlari quyidagilar: ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, ta'lim, bandlik sohasidagi siyosat. O‘z navbatida ijtimoiy xizmat- aholi qatlamlari,

guruhlari va alohida fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishda katta ishlar amalga oshirilmoqda, har bir yil aholining u yoki bu qatlamini ijtimoiy himoya qilishga qaratilmoqda. Ijtimoiy himoya qilish sohasida mamlakat rahbariyatining har bir yil uchun maqsadli yo‘naltirilgan faoliyati ishlab chiqilmoqda. «Inson manfaatlari yili», «Oila yili», «Ayollar yili», «Sog‘lom avlod yili», «Onlar va bolar yili», «Qariyalarni qadrlash yili», «Ijtimoiy himoya yili», «Yoshlar yili», «Barkamol avlod yili», «Keksalarni e'zozlash yili».

O‘zining demografik xususiyati va ko‘p yillik an'analari natijasida O‘zbekiston bugungi kunda aholining 60% dan ortig‘ini bolalar va yoshlar tashkil etadigan mamlakat sanaladi. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko‘rsatuvchi vazirlik va idoralarning murakkab va tarmoq tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyatning asosiy tamoyili mamlakatdagi fuqarolarning bolalarining manfaatlarini eng yaxshi darajada ta'minlashdir. Shu sababli bolalarni himoya qilish tizimidagi ijtimoiy ishning rivojlanishi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda bu sohadagi professional mutaxassislarga bolalar huquqlarini aks ettirish uchun huquq va vakolatlar berilgan.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Bugungi kunda O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari.
2. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini o‘zgartirish nimaga asoslanadi.?
3. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ishning o‘zaro aloqasi nimadan iborat?
4. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy ish masalasining dolzarbligi nimadan iborat?

2-Bo‘lim

IJTIMOIY ISh NAZARIYaSI

1-Mavzu. Ijtimoiy xizmat kasbiy faoliyat shakli sifatida.

1. Ijtimoiy ishning mustaqil faoliyat shakli sifatida paydo bo‘lishi.
2. Ijtimoiy ish fan sifatida. Ijtimoiy ishning institutsionallashuvi.
3. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ishning vazifalari va funksiyalari..
4. Ijtimoiy xizmat o‘quv fani sifatida .

1. Ijtimoiy xizmat yoki sotsionomiya (lotincha «socio» – jamiyat va «nomos» – qonun), bir vaqtda jamiyat faoliyatining shakli, ijtimoiy amaliyot, ilmiy-nazariy bilimlar va o‘quv fani sintezi bo‘ladi. Sotsionomiyaning diqqat markazida ijtimoiy xodimning faoliyati turadi. U samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy xodim insoniy muammolarni muhokama qila olishi, slarni hal qilish texnologiyasini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ishning nazariy asoslarini o‘zlashtirib, uning predmet va ob'ekti, tamoyillari va uslublarini farqlay oladi.Uning maxsus kasbiy va axloqiy ma'naviy sifatlariga xayriya, rahmdillik, javobgarlik, tnsonparvarlik, fuqarolik va ijtimoiy adolatlilikni his qilish kiradi.

Kasbiy faoliyatning turli shakllari- iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, texnik yo‘nalishlari mavjud. Ijtimoiy xizmat faoliyatning an'anaviy shakllariga tegishli emas. Chunki u aholining turli qatlamlariga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy xizmat maxsus umumiy hodisa sifatida uch shaklda xarakterlanadi: kasb, ilm va o‘quv fani sifatida.

Kasb sifatida u alohida shaxs va guruhlarga yordam ko‘rsatish orqali shaxsiy va ijtimoiy muammolarni uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan.; ilm – shaxs, ma'lum ijtimoiy guruh yoki jamoaning bevosita munosabatiga ega ijtimoiy jarayon va ijtimoiy hodisalarni o‘rganadi.; o‘quv fani ko‘p darajali xususiyatga ega va turli o‘quv muassasalarida o‘rgatiladi.

Ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy yo‘nalganligi bo‘yicha shunga o‘xshash bo‘lgan shifokor, ruhshunos, pedagog va boshqalardan farq qiluvchi xususiyatlarga

ega. Uning asosiy farqli xususiyatlaridan biri ijtimoiy xodim va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro faoliyat xususiyatidir. Yordamchi kasblarning boshqa shakllaridan sub'ekt-ob'ekt munosabatlaridagi farqi ijtimoiy xizmatda ishonch asosida sub'ekt-sub'ekt munosabati ustunlik qilib, bunda mijoz qaror qabul qilishda o‘zining huquqi va ustunligini saqlaydi.

Ijtimoiy xizmatning eng umumiy tushunchasi- individ, guruh yoki jamiyat hayotida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha kasbiy faoliyatdir.

2002-yilda Jenevada bo‘lib o‘tgan Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasining yillik uchrashuvida quyidagi tushuncha qabul qilingan:

Ijtimoiy xizmat kasbi ijtimoiy o‘zgarishlar. Insonlar o‘rtasidagi muammolarni hal qilish, guruhlar va individ erkinligi va moslashuvchanligini ta'minlashga xosdir. Insoniy axloq va ijtimoiy tizim nazariyalarini qo‘llab ijtimoiy xizmat insonning uning atrofidagilar bilan munosabatlariga aralashadi. Ijtimoiy ish uchun asos bo‘lib inson huquqi va ijtimoiy adolatlilik tamoyillari bo‘ladi.

Ijtimoiy xizmat ko‘mak berish, himoyalash. Tuzatish va sog‘lomlashtirish vositasida bu qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Bu patronaj faoliyati, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'lim, huquqbuzarlarni tuzatish va ular ustidan nazorat, ijtimoiy yordamga muhtoj insonlarni nazorat qilish va sog‘lomlashtirish.

Ijtimoiy xizmat kasbiy faoliyat sifatida uchta sohani qamrab oladi:

- Shaxs va oila darajasidagi ijtimoiy terapiya;
- Turli tasnifga ega guruhlar bilan ijtimoiy xizmat (yoshi, jinsi, qiziqishlari bo‘yicha);
- Yashash joyi bo‘yicha jamoadagi ijtimoiy xizmat.

Individual xizmatlarning asosiy maqsadi individni ijtimoiy moslashtirish va sog‘lomlashtirish, uning atrofidagi ziddiyatli holatlarni bartaraf qilish.Masalan, oilada bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi ota-onalarning ijtimoiy madaniy va moddiy maqomi, ularning imkoniyatlari yoki imkonsizlariga bog‘liq bo‘lib, oilaning ta'lim resurslariga kira olishlari ham ta'sir qiladi. Barcha ko‘rsatilgan holatlarda bolalar va ularning ota-onalariga qonunlarda mustahkamlangan

huquqlardan foydalanish uchun malakali yordamchilar zarur bo‘ladi. Ijtimoiy xizmat amalga oshirilishi dolzarb bo‘lgan huquqlar bo‘ladi. Ijtimoiy xodim oila va individga yordam berishda qiyinchilik tug‘ilganda ijtimoiy resurslar manbalariga murojaat qiladi.

Ijtimoiy yordam va ko‘mak zarur bo‘lgan guruhlar yosh bo‘yicha (bolalar, yoshlar, kaksalar), jins bo‘yicha yoki muammoning o‘xshashligi bo‘yicha (konfessional, yolg‘iz ota-onalarni birlashtirish, sobiq alkogoliklar yoki giyohvandlar) tasniflanishi mumkin. Ijtimoiy xodim tez-tez asotsial yoki kriminal xususiyatli guruhlar bilan ham ishlashiga to‘g‘ri keladi. (bolalar yoki o‘smirlar jinoyatchiligi, sayoqlik, tashkiliy foxishalik, asotsial yo‘nalgan guruhlashtirish).

Ijtimoiy xodim faoliyatining muhim sohasi yashash joyi bo‘yicha yoki jamoadagi ishlardir. U ijtimoiy ish tarmog‘ini kengaytirish, jamoadagi aloqalarni mustahkamlash, insonlar birgalikda yashaydigan joylarda qulay ijtimoiy-ruhiy muhit yaratish, shuningdek, turli mahalliy tashabuslarni tashkillartirish, o‘zaro yordam guruhlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Bu sohada O‘zbekistonda o‘ziga xos jamoat tashkilot-mahallaning katta salohiyat va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Ijtimoiy xodimlar o‘zining ko‘plab shakllariga ega. Ular orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: boshqaruv xodimlari, oilalar bilan ishlash, bola tarbiyasi va rivojlanishi bo‘yicha mutaxassislar, individ va guruh bilan ishlaganda psixoterapevtik va psixologik uslublarga ixtisoslashgan ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy ish va agentliklar, internat va maxsus iylar xodimlari, tibbiy muassasalar tizimidagi ijtimoiy xodimlar, nogironlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar, bandlik, migratsiya xizmati xodimlari. Bu ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyat shakllarining to‘liq ro‘yxati emas va uni davom ettirish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy ishning ma'nosi individ. Guruh, oilalarga yordam ko‘rsatish, ularning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish, to‘laqonli ijtimoiy hayotga xalal beruvchi jismoniy, ruhiy, aqliy, ijtimoiy va boshqa kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha faoliyatdir.

Ijtimoiy ishning mazmunini insonlar hayotida ularning madaniy, ijtimoiy va moddiy darajasini ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat faoliyatni amalga oshirish, shaxs. oila va guruhlarga individual yordamni taqdim qilish sifatida belgilash mumkin.[30].

Turli mamlakatlarda bandlik sohasidagi ijtimoiy xodimlarga turlicha yondashuvlar mavjud. Bir qator mamlakatlar, masalan Shvetsiyada bu kasb ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlashga birlashtirgan sohaga kiritilgan. Irlandiyada ijtimoiy xodimlar sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli. Ular kasalxonalarda, turar joyi bo‘yicha sog‘lomlashtirish markazlarida ishlaydilar, insonlarga ruhiy ijtimoiy ko‘makni taxminlaydilar. Shuningdek ijtimoiy ta'minot sohasida insonlarga yordam beruvchi shaxslar ham ijtimoiy himoya tizimida mehnat qiladilar. Bundan tashqari Irlandiyada yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar mavjud. Barcha mutaxassislar bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ko‘ngillilar va turli nohukumat tashkilotlarni hamkorlikka jalb qiladilar. AQSh da ijtimoiy ish bo‘limidan tashqari ijtimoiy xodimlar tibbiy tashkilotlarda ham bandlar. Ularning vazifasi – bemorning ham davolash jarayonida, ham uni uyga qaytishga tayyorlash jarayonida yetarlicha tibbiy va ruhiy ko‘mak berishdan iborat. Rossiyada ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ta'minot, ta'lim, bandlik xizmati, armiyada mehnat qiladilar. O‘zbekistonda ijtimoiy xodimlarning bandlik sxemasi o‘xshashdir.

2.Ijtimoiy xizmat jamiyat, inson madaniyati va uning muammolari to‘g‘risidagi ilmiy bilishning umumiy sohasiga tegishlidir. U inson faoliyatining ijtimoiy sohasini qamrab olib, u to‘g‘risida ob'ektiv bilimni ishlab chiqadi.

Ijtimoiy xizmatning nazariya sifatidagi farqli belgisi u shakllanish bosqichida bo‘ladi.

Ijtimoiy ishda ilmiy bilish muhim tushuncha bo‘lib, uning asosiy qismini tashkil qiladi. Kelajak boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tushunchalaridan keng foydalanadi, ammo ijtimoiy xizmatning o‘z nuqtai nazari masalan «ijtimoiy munosabat», «ijtimoiy faoliyat», «ijtimoiylashuv», «ruhiy ijtimoiy xizmat », «ijtimoiy sog‘lomlashtirish», «oilaviy nizo» va boshqalar orqali.

[30] Словарь-справочник по социальной работе. – М.: Юристъ, 1997. – С. 324.

Shu bilan birga ijtimoiy xizmat o‘zining xususiy tushunchalariga ega bo‘lib bularga «ijtimoiy xodim», «ijtimoiy xizmat ko‘rsatish», «manzilli ijtimoiy yordam» va boshqalarni keltirish mumkin.

Ijtimoiy xizmat nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri ijtimoiy salomatlik tushunchasi bo‘lib, sub'ekti ijtimoiy guruh, sotsium, oila,individ bo‘ladi. Ijtimoiy salomatlik ijtimoiy maqom, farovonlik, qulaylik, xavfsizlik me'yorlari bilan bog‘liq. Ijtimoiy maqom o‘z ichiga ruhiy. Iqtisodiy, oilaviy, kasbiy va boshqa omillarni olib, ijtimoiy salomatlik ko‘p omilli tizim bo‘lib, uning tahlili fanlararo xususiyatga ega. Muqobil ijtimoiy salomatlikka sotsiopotologiya, ijtimoiy kasalliklar (nochorlik, ochlik, ishsizlik, sabrsizlik) tushunchalari kiradi.

Ijtimoiy ishning muhim elementi uning qonuniyligi bo‘ladi. Bugungi kunda fan sifatida ijtimoiy ishni yaratish va uning uslubining umumiy qabul qilingan me'yorlari mavjud emas, u shakllanish va ilmiy tushunchalarni rasmiylashtirish bosiqchidadir. Ammo hozirdanoq ijtimoiy ish hodisalari va jarayonlarini o‘rtasidagi aloqaga asoslangan takrorlanuvchi, qonuniyatlarni o‘rganish to‘g‘risida gapirish mumkin.

Maxsus adabiyotlarda ijtimoiy xizmatning qonuniyatlari uch guruhga bo‘linadi:

- Ijtimoiy xizmat- maxsus faoliyat shakli sifatida jamiyatdagi jarayonlar borishiga ta'sir qiluvchi, ma'lum sharoitni talab qilish, jamiyat munosabatlarini yangilash, ijtimoiy salomatlikni saqlash va ta'minlashga qaratilgan faoliyat.;
- Ijtimoiy dastur bo‘yicha individning shakllanishi- shaxsning o‘zining rivojlanishida ma'lum faollikda atrof muhitning ta'siri ostida.;
- Ijtimoiy ishni shakllantirish va iste'mol qilish manbalari jamiyat ehtiyojlari bilan asoslanib, uning rivojlanish tendensiyasida aks etadi. Asosiy qonuniyat sifatida davlat ijtimoiy siyosati va jamiyatdagi ijtimoiy ishning mazmuni o‘rtasidagi aloqa ko‘rsatiladi.
- Ijtimoiy xizmatning ilmiy fan sifatidagi o‘ziga xos muammolari quyidagilar: ijtimoiy ish tarkibidagi motivatsiya, deviatsiya, delikvensiya, deprivatsiya, notipik rivojlanish, xatar muammosi. Ziddiyat, ijtimoiy ish yo‘nalishi

va konsepsiyasi, o‘z joniga qasd qilish, jamoada ishlash, ijtimoiy ish uslubi va texnologiyalarining o‘zaro ta'siri, ijtimoiy xizmat etikasi, ijtimoiy tuzatish, xayriya, ijtimoiy terapiya.

- Ijtimoiy xizmat uslubiyoti predmet, ob'ektni o‘rganishni ko‘rsatib, bunda mijozdan tashqari ijtimoiy xodimning o‘zi ham bo‘ladi, bu ijtimoiy xodim va mijoz, ijtimoiy ish tarkibi, tarmoqning ishlash tamoyillari doirasida bo‘ladi.[31].

Ijtimoiy xizmat uslubiyotining maqsadi ijtimoiy salomatlikni tiklash, maqomni barqarorlashtirish, imkoniyatlar va resurslar namoyon bo‘lish shartlarini o‘zgartirish, mijozning o‘zini nazorat qilish darajasini oshirish, muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyati, o‘zini qadrini bilish va o‘zini hurmat qilish tuyg‘ularini tiklashdir.

Ijtimoiy ishning institutsionallashuvi deganda keng ma'noda jamiyatda yangi ijtimoiy institut shakllanish jarayonini tushunish kerak. Ijtimoiy ishning institutsionallashuvi jamiyatni isloh qilish, insoniy an'analarni saqlash, ma'naviylikni tiklashga asoslangan. Ijtimoiy ishning institutsionallashuvi – demokratik rivojlanish, uni qayta tuzish, jamiyat munosabatlarini insonparvarlashuvi, barcha aholining ijtimoiy salomatligini tiklashning zaruriy qismidir.

Ijtimoiy xizmat instituti ijtimoiy madaniy jihatdan ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lib, faoliyatning ikkita asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. Birinchi yo‘nalish ijtimoiy ta'minot, shu jumladan jamiyatning muhtoj a'zolariga moliyaviy va moddiy yordam berishga asoslangan.

Ikkinchi yo‘nalish – ijtimoiy madaniy xususiyatga ega yoki sog‘lik bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda muhtojlarga yordam ko‘rsatishdir. Har qanday holatda qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishning ijtimoiy samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy xodimning institutsional maqomiga bog‘liq bo‘ladi. U davlat, jamiyat yoki aralash bo‘lishi mumkin. Davlat maqomi jamiyatning yordamga muhtoj qismini aniqlash va resurslarni taqsimlashda davlatning markazlashgan nazoratini ko‘zda tutadi..

[31] Ижтимоий хизмат. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 2003. – С. 81-82.

Muhtojlarga yordam ko‘rsatuvchi jamoat tashkilotlari taqdim qilinayotgan ishning sifati nuqtai nazaridan ahamiyatga ega. Bu holatda faqatgina moliyaviy va moddiy yordam emas,balki muhtojlarning ijtimoiylashuvi, moslashtirish yo‘llarini izlash, ijtimoiy ishtirokni tashkil qilish amalga oshiriladi. Davlat tuzilmalari asosiy o‘rinni egallaydigan variantdan farqi bunda marginal guruhda joylashgan mahalliy jamiyatlarning bevosita nazorati amalga oshiriladi. Ammo ijtimoiy yordam va ko‘makning bunday nazorat shakli salbiy jihatlarga ega. Ishonchli nazoratsiz, jamoat tashkilotlari faoliyatini rag‘batlantirish doim ham amalga oshmaydi.

Mutaxassislar fikricha bugungi kunda ijtimoiy ishni tashkil qilishning aralash shakli eng yaxshi natijalarni beradi. Bunda asosiy tashkiliy turtki hokimiyat tuzilmalari va ularning faol ishtirokidan kelib chiqadi.[32].

Mamlakat Prezidenti I.Karimov aynan shu shaklni munosib turmush sharoitini yaratish, nogiron va yetimlar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘izlar va keksalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishda davlat va jamoat tuzilmalarining hamkorligiga olib keladi deb ko‘rsatadi. Bugungi O‘zbekiston davlat tuzilmasida jamiyatning yaxshi moslashmagan a'zolarini ijtimoiylashuvi uchun imkoniyatlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarida aholiga ijtimoiy ishni ko‘rsatish tizimining asosiy tamoyillari keltirilgan.

Ijtimoiy ish maqsadi nazariy asos va amaliy modellaridan qat'iy nazar mijoz shaxsini saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy xizmat vazifalari ijtimoiy amaliyot sohasi, mijozlar muammolarining xususiyati, mijozlarning ijtimoiy ruhiy xususiyatlari, ma'lum sotsium sharoitlariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Shuning uchun turli mamlakatlarda ijtimoiy ish vazifalari, ularni amalga oshirish vositalari turlicha bo‘lib, ijtimoiy madaniy an'analarni belgilaydi.

Agar oldin mijozlar ehtiyojini qanday qondirish maqsad bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ijtimoiy ishning asosiy maqsadi mijozning mustaqilligini oshirish, unda o‘z hayotini mustaqil qurish va paydo bo‘ladigan

[32] Ижтимоий хизмат. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 2003. – С. 195.

muammolarni mustaqil hal qila olish bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ijtimoiy xodimlar xalqaro assotsiatsiyasi ijtimoiy ishning quyidagi maqsadlarini belgilaydi:

- ularning qobiliyatlarini aniqlash va qo‘llashda insonlarning ko‘magi,
- individning mustaqilligi va o‘z hayoti uchun javobgarlik darajasini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish,
- boqimondalikni yo‘qotish,
- vakolatlilik va mijoz manfaatlarini himoya qilish predstavitelstvo,
- inqiroz holatlarida yordam,
- hayot faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratish.

Ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyasi Xolostova.ye.I tomonidan taklif qilingan maqsadlarni aks ettiradi[33]

.

- mijozning mustqallik darajasi, o‘z hayotini nazorat qilish va paydo bo‘ladigan muammolarni yanada samaraliroq hal qilishni oshirish;
- mijozga o‘z imkoniyatlarini maksimal tarzda namoyon qilish uchun sharoit yaratish va qonun bo‘yicha unga tegishli narsalarni berish;
- insonlarni jamiyatga moslashtirish va qayta moslashtirish;
- insonning jismoniy kamchiligi, ruhiy buzilish va hayotiy inqiroziga qaramasdan sharoit yaratish, atrofdagilar tomonidan o‘ziga hurmat qilishni saqlash;

Boshqalari ijtimoiy texnologiyalarni «o‘zaro bog‘liq amallar va operatsiyalar tadqiqot tizimida ajratish yo‘li bilan murakkab jarayonlarni amalga oshirish usuli...»[64] sifatida aniqlaydi.

Uchinchi guruh ularni «qo‘yilgan maqsadga erishish imkonini beruvchi ijtimoiy jarayonlarni tashkil etish usullari va vositalari to‘g‘risidagi bilimlar yig‘indisi» sifatida ko‘radi. V. Ivanov ijtimoiy texnologiyalar mohiyatini innovatsion tizim sifatida belgilab, eng kam boshqaruv xarajatlarida optimal ijtimoiy natijalar olish, ijtimoiy tizim yashirin salohiyatini aniqlash va foydalanish usullari tizimi sifatida aniqlaydi. «Ular shuningdek optimal ijobiy natija olish yo‘lidagi ijtimoiy ta'sir ko‘rsatish operatsiyalari, amallari yig‘indisi sifatida ko‘rilishi mumkin. (ijtimoiy tashkilotlarni mustahkamlash, inson hayot sharoitlarini yaxshilash, ziddiyatlarni oldini olish.). Ijtimoiy texnologiya-boshqaruv mexanizmining muhim qismidir.

Sotsiologik ensiklopediyalarda texnologiya tushunchasi olish, ishlash yoki qayta ishlash usul va yo‘llari yig‘indisi sifatida tushuntiriladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tavsiflash, joriy qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar, texnologik qoidalar, talablar, xaritalar, grafiklar.»[65].

2. Ijtimoiy texnologiyalarni ajratishning faoliyat sohasiga ko‘ra bo‘lish varianti keng tarqalgan: biznes sohasida, davlat boshqaruvida, uchinchi sektor (nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati) da foydalaniladigan ijtimoiy texnologiyalar.

Ijtimoiy texnologiyalarni predmeti va ob'ekti, olinadigan natijalari bo‘yicha ajratish keng tarqalgan: yangi axborotni olish texnologiyalari, madaniy qadriyat, alohida maishiy xizmatlar texnologiyalari va boshqalar.

[64]Дятченко Л.Я. Социальные технологии в управлении общественными процессами. – М. – Белгород, 2003.
[65] Социологическая энциклопедия. – М.: Инфра-М, Норма. 1998. – С. 290.

Yangiligi yoki an'naviyligiga ko‘ra innovatsion va an'anaviy ijtimoiy texnologiyalarga ajratiladi. Ijtimoiy texnologiyalarni rivojlanish xususiyati va jamiyatda ishlash belgilari bo‘yicha ajratish ham foydadan holi emas.

Ijtimoiy texnologiyalarni asosiy vazifasi ijtimoiy himoya muammosi, muhtojlarga yordam ko‘rsatish usullari bo‘yicha ajratish ayniqsa muhim va katta ahamiyatga ega. Bunda mohiyati bo‘yicha ijtimoiy yordamning butun amaliyoti muhtojlarga yordam ko‘rsatishning turli usullarini nazarda tutuvchi ijtimoiy xizmatning muhim modellari bo‘yicha tabaqalashtiriladi..

Ijtimoiy xizmatning turli nazariyalari ta'sirida shakllangan ijtimoiy texnologiyalarni ajratish eng avvalo ruhiy-sotsiologik yo‘naltirilgan, shuningdek kompleks bo‘ladi. Ijtimoiy ish konsepsiyasini bunday guruhlashtirish turli turdagi ijtimoiy texnologiyalarni rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy jarayonlarni texnologiyalashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

• Ichki o‘zaro bog‘liq bosqichlari, fazalari, operatsiyalarini ajratish, bo‘lish;

• Natijaga erishishga yo‘naltirilgan harakatlarni bosqichma-bosqich muvofiqlashtirish;

• Amallar va operatsiyalarni texnologiyada o‘z ichiga olgan bir ma'noli bajarish.

3. Ijtimoiy ishdagi ijtimoiy texnologiyalar darajasiga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi:

• oddiy (mutaxassis bo‘lmaganlar ham kiradigan);

•murakkab, ma'lum sohada ishlaydigan malakaga ega mutaxassislarni talab qiluvchi;

• majmuaviy, turli sohada ishlaydigan malakaga ega bir nechta mutaxassislarni talab qiluvchi Ijtimoiy ish sub'ektlari murakkabligini hisobga olib, ijtimoiy texnologiyalarni bu ko‘rsatkich bo‘yicha ham ajratish mumkin.

Ijtimoiy ishni mijoz bilan tashqi munosabati bo‘yicha turlarga ajratish: davlat aralashuvi, jamoat va boshqa tashkilotlar yordami, xususiy shaxslar. Ularning mazmuni asosan inson, guruhlarga ular o‘z muammolarini mustaqil hal

qila olishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. (masalan nogironlar uchun korxonalarda ish o‘rinlari yaratish).

Tashqi texnologiyalardan ijtimoiy texnologiyalar farqlanadi, bunda mijozning o‘zi faoliyatni amalga oshiradi. Bunday turdagi texnologiyalarga (o‘ziga va o‘zaro yordam) ijtimoiy xodim o‘zining mijozlari muammolarini hal qilishda foydalaniladigan usullar, harakatlarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy ishdagi texnologiyalarni mamlakatda yashaydigan insonlar yoki biror sabab bilan xorijga ketgan insonlarga ko‘rsatilishi bo‘yicha ham ajratish mumkin. (masalan, yaqin xorij davlatlarida yashaydigan o‘zbeklar).

Ijtimoiy texnologiyalarni MDH mamlakatlarida foydalaniladigan, xorijda qo‘llaniladigan ijtimoiy texnologiyalarni chegaralash muhim bo‘lib, bu hayot sharoiti, iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy an'analar va boshqa xususiyatga ko‘ra ajratiladi.

Ijtimoiy ishning umumiy texnologiyalarini quyidagi turli shakllarda ajratish mumkin:

- **Ijtimoiy ish texnologiyasidagi ijtimoiy diagnostika.** Bugungi kunda bu atama asosan ijtimoiy fanlar sohasida qo‘llaniladi; ijtimoiy kasalliklar yolg‘izlik, kambag‘allik, ochlik va boshqalar sanaladi. Tibbiy modeldan foydalanish natijasida texnologik yondashuv nisbatan ijtimoiy ish jarayonida ma'lum rivojlanish va o‘zgarishlarni kuzatiladi.
- **Ijtimoiy ekspertiza texnologiyasi** Ijtimoiy ekspertiza mutaxassislar o‘tkazadigan tadqiqot bo‘lib, ijtimoiy ob'ekt holati tashxisi, u va uning atrof muhiti to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligini belgilash, undagi o‘zgarishlar va boshqa ijtimoiy ob'ektlarga ta'sirini prognozlashtirish, shuningdek boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tadqiqot vazifasi qiyin sharoitda ijtimoiy loyihalashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu tushuncha ijtimoiy ekspertizaning to‘rtta vazifasiga mos keladi:
- Tashxislash vazifasi – tadqiqot vaqtida ijtimoiy ob'ekt holatini yoritish;

• Axborot-nazorat vazifasi – ijtimoiy ob'ekt va uning tashqi muhiti to‘g‘risidagi axborotni tadqiq qilish, uning ishonchligini belgilash va agar axborotda tafovut bo‘lsa unga mos tuzatish kiritish;

• Bashoratlash vazifasi– qisqa, o‘rat, uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy ob'ektning mumkin bo‘lgan holatini aniqlash va bu holatga erishish ssenariysini tuzish;

• Loyihalashtirish vazifasi – ijtimoiy loyihalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ijtimoiy ob'ektning ekspert tizimi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ijtimoiy ishdagi texnologiyalar turlari:

- **Oila bilan ijtimoiy ish texnologiyasi**. Oilaga nisbatan mijozlarni turli toifalari mavjud: nogironlar, pensionerlar, harbiy xizmatchilar, ko‘chib keluvchilar va boshqa ijtimoiy xizmatning turli texnologiyalaridan foydalanuvchilar.Ijtimoiy yordamning turi va shakllari, uning maqsadi- ijtimoiy institut sifatida oilalarni saqlashdir.

- **Ayollar bilanijtimoiy ish texnologiyasi Ayollar bilan** ijtimoiy muammolarning murakkabligi uning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularni hal qilish, ma'lum ijobiy natijalar olish uchun turli texnologiyalardan foydalanishga tizimli yondashuv zarur.

Eng avvalo o‘zini va o‘z oilasini ta'minlash uchun ularga ish topish imkoniyatini berish kerak. Tadqiqotlarga ko‘ra ayollarning ehtiyoji oiladan tashqarida uchta motivga ega: oilada ikkinchi daromadning zaruriyati, ish ayol uchun ijtimoiy sug‘urtaning muhim vositasi. Shuningdek uning oilasi uchun ham.

Keksalar bilan ijtimoiy ish.Keksalar bilan ijtimoiy ish erkinlik, faollik, kamchilik, ijtimoiy madaniyat, yosh hususiyatidan foydalanishni nazarda tutadi. Qarish jarayonida erkin bo‘lish nazariyasiga ko‘ra insonlar yoshlardan begonalashadi. Bu begonalashuv jarayoni va ijtimoiy holatlar qariyotgan shaxslarga tegishli bo‘ladi.

Yomon moslashgan bolalar va o‘smirlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi Ijtimoiy moslashuv o‘z hususiyati bo‘yicha psixologik mexanizmlar-–

identifikatsii, interiorizatsii, empatiya, o‘xshatish, teskari aloqa usulidan iboratdir.. Ijtimoiy moslashuv ob'ektlari qadriyat, talablar, tuzilmalar (oila, guruh, tashkilot, hududiy va milliy jamoalar), aloqa va o‘zaro munosabatlar, turli tizimlardagi axloq etikasi, shuniggdek predmet faoliyati bo‘ladi. Qiyin moslashuvchan bolalar bilan an'anaviy ishlar ularni oiladan ajratish va yopiq muassasalarda tarbiyalash o‘zining samarasizligini ko‘rsatdi, hattoki asab-ruhiy buzilishga ega bo‘lalar bilan ayanchli bo‘ldi.. Yangi texnologiyalar quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- Bolaning muhim oilaviy muammolari, o‘qitish, muomala, manfaatlari, ehtiyojlarini baholashga shaxsiy yo‘naltirilgan individual yondashuv;
- Ajratilgan yordam va ko‘mak dasturlari, tuzatish va sog‘lomlashtirish dasturlari, bolalar va o‘smirlarning adekvat individual-psixologi va yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- Tuzatish va sog‘lomlashtirish faoliyati ijtimoiy pedagogikada ular bilan ishlashni tashkil qilish ;
- Majmuaviy tartibda bolalar va o‘smirlarni ajratishni istisno qiladigan maqsadli yordam ko‘rsatish tizimini ishlab chiqish va yaratish.

Yoshlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi. Yoshlar bilan ijtimoiy ishning texnologiyasi- ijtimoiy xizmat ko‘rsatish texnologik omborining qismi bo‘lib, aholining ijtimoiy-demografik toifasining muammosi bo‘lmasdan, aynan yoshlar bizning mamlakatning kelgusi taqdirini belgilaydi. Ijtimoiy ishning paydo bo‘lishi birinchi navbatda yoshlar bilan ishlashda moddiy resurslarning cheklanganligi, ijtimoiy maishiy kuchli sferaning pasayishi, pionerlik va komsomol tashkilotlari faoliyatining tugatilishi sababli qiyinchilik tug‘dirdi, ammo ijobiy jihatlariga e'tibor bersak bolalar va o‘smirlarning bosh vaqtlari va dam olishini tashkil qilish, shuningdek ularning harbiy-vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyasining o‘sganini ko‘rish mumkin. Yoshlar bilan ijtimoiy ish O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati va aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi orqali amalga oshiriladi.

O‘zini tekshirish uchun savollar?

1. Ijtimoiy texnologiyalar deganda nima tushuniladi?
2. Ijtimoiy texnologiyalarning turlarini ayting va ularga tavsif bering .
3. Ijtimoiy ishda ijtimoiy texnologiyalarning o‘ziga xosligi nimadan iborat ?
4. Ijtimoiy ishdagi texnologiyalar turlarining ayting va ularning mazmunini aniqlang .
5. Yoshlar bilan ishlashning asosiy texnologiyalari. O‘zbekiston Respublikasidagi ish tajribasi.

8-Mavzu.Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotida kasbiy layoqatlilik

1. Ijtimoiy xodimlarning kasbiy ahamiyati
2. Ijtimoiy xodimning kasbiy vazifalari
3. Ijtimoiy xodimlarning majburiyatlari va huquqlari

1. Zamonaviy ijtimoiy ish xususiyati yuqori darajadagi professionallikni talab qilib, bu mazkur sohaning amaliy faoliyatida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash vositasida shakllanadi. Ma'lum ishchining professionalligi kasbiy shakllanishining uzoq jarayonida o‘zini namoyon qilishi natijasi bo‘lib, individual o‘ziga xosligi va sharoitlarning o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy soha bo‘yicha mutaxassisning kasbiy shakllanishi –bu maqsadli va uzluksiz rivojlanuvchi jarayon bo‘lib, ijtimoiy ish sohasida amaliy. Ta'lim va tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq, insonda kasbiy bilimlar, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar, kasbga malakaviy va axloqiy tamoyillarni shakllantirishga mo‘ljallangandir. Mazkur jarayon asosida ijtimoiy o‘zgarishlar nazariyasiga integral uslubiy yondashuv yotadi.

Mutaxassisning kasbiy shakllanishi professionallashuv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyat va shaxs vositasida kasb to‘g‘risidagi ma'lum tushunchalar shakllanadi.

Ijtimoiy ishdagi professionallashuv funksional ahamiyatga ega bo‘lgan ixtisoslashgan mashg‘ulotlar sifatida ijtimoiy ishga xos kasbning asosiy belgilarini bosqichma-bosqich shakllantirishni namoyon qiladi. Ular quyidagilar:

birinchidan, ijtimoiy xodimlar uchun yangi ish joylarini yaratuvchi yangi turdagi muassasalar va ularning faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlarni tasdiqlashda;

ikkinchidan mazkur mutaxassislarni tayyorlashni amalga oshiruvchi o‘quv muassasalari tarmog‘ini yaratishda;

Uchinchidan, ijtimoiy ish sohasida amaliy faoliyatni nazariy asoslovchi fan tarmoqlarining paydo bo‘lishida.

Kasbiy tayyorlash tizimi shakllanib, assotsiatsiya, bosma nashrlar ta'sis etilib. Axloq kodeksi yaratilgandan so‘ng jamiyatda faoliyat shakli sifatida kasb paydo bo‘lgani to‘g‘risida gapirish mumkin.

Rossiya jamiyatida ijtimoiy ishning professionallashuvi uning institutsionallashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, G‘arbiy yevropa va AQSh ga qaraganda qariyb yuz yildan so‘ng paydo bo‘ldi.

Moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan xayriya faoliyati muhtojlarga ixtiyoriy va beg‘araz mulk, pul, ishni ko‘rsatishda aks etadi. Insonda xayriya faoliyatini takomillashtiruvchi asosiy motiv faqatgina diniy emas balki manaviy asoslarga ega bo‘ladi. Qayd etish kerakki bu tashqi majburlov natijasi emas, balki ixtiyoriy va aqliy faoliyat bo‘ladi.

Ijtimoiy ishda institutsionallashuv O‘zbekistonda tartibli xarakterga ega va kasbning tarkibini tashkil etuvchi ham xalqaro standartlarga va o‘zining aholini ijtimoiy himoya qilishning tarixan shaklangan turlariga asoslanadi.

2. Kasbiy lug‘atlarda ijtimoiy xizmat bo‘yicha mutaxassisning lavozim majburiyatlariga quyidagilar kirishi ko‘rsatilgan: yordamga muhtoj insonlarni aniqlash, muammoni hal qilishga yordam berish va ijtimoiy himoyani ta'minlash, ijtimoiy; oilaviy tarbiyada yordam berish va voyaga yetmagan bolalari bor ayollar, nogiron va nafaqaxo‘rlarning uy mehnati bo‘yicha mehnat shartnomalarini tuzish,

oila va nikoh bo‘yicha psixologik va pedagogik maslahatlar o‘tkazish, asotsial ahloqli voyaga yetmagan bolalar bilan tarbiyalash ishlari.

Bundan tashqari mutaxassis ixtisoslashgan o‘quv-tarbiya muassasalari va ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslarni ijtimoiy moslashuvi va sog‘lomlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi, oila, yoshlar, o‘smirlar va bolalar markazlari, klub va assotsiatsiyalarni yaratish bo‘yicha faoliyatda ishtirok etadi.

Yordamni tashkil etish va amalga oshirish bilan bir qatorda mutaxassis mijozning o‘z kuchini rivojlantirishni rag‘batlantirib, turli tashkilotlarda uning manfaatlarini aks ettiradi, ijtimoiy muammolar mavjudligi to‘g‘risida hokimiyat organlari va boshqarmalariga xabar beradi, ularning hal qilish uchun yordam ko‘rsatadi.

Mutaxassisning kasbiy majburiyatlari uning ahamiyatiga asoslanib, u ijtimoiy advokat, vositachi, ijtimoiy pedagog, maslahatchi, mijoz mobilizatori, ijtimoiy xizmat faoliyatining tashkilotchisi, ekspert sifatida qatnashadi. Mijoz o‘z vazifalarini ijtimoiy ish muassasalari, korxona va tashkilotlar, ta'lim, madaniyat va tibbiyot muassasalari, uy va kichik tumanlarda ishlab bajaradi, shuningdek xususiy amaliyot bilan shug‘ullanadi. Mutaxassis faoliyati uning kasbiy faoliyatida professional vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma'lum operatsiyalar yig‘indisini aks ettiradi. Uning faoliyati mazmuni bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

- Vositachilik vazifasi **(**yordamni ta'minlash vaboshqaruv organlari, boshqa ijtimoiy muassasalarda muammolarni hal qilishda qatnashish),
- Huquqiy himoya vazifasi (mijoz huquqini himoya qilish va unga yordam ko‘rsatish uchun qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlardan foydalanish),
- Axborot vazifasi (ijtimoiy ishto‘g‘risida axborotlar bilan ijtimoiy yordamga muhtojlarni ta'minlash),
- Ruhiy. Pedagogik, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-maiishiy vazifa (aholining turli toifalariga yordam zarurligini aniqlash va mos yordamni ko‘rsatish)

Texnologiyalar foydalanilishiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

• Tashxislash vazifasi (ijtimoiy tashxisni qo‘yish, guruh yoki individning muammolari mazmunini aniqlash),

• Bashoratlash vazifasi (ijtimoiy jarayonlar rivojlanishini bashorat qilish va ijtimoiy axloqning modellarini ishlab chiqish),

• Profilaktik vazifa (salbiy ijtimoiy hodisalarning oldini olish mexanizmini harakatga keltirish),

• Sog‘lomlashtirish vazifasi (ijtimoiy moslashtirish va sog‘lomlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish

• 4-jadval

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy faoliyati tarkibi

Nomi	Mazmuni
Kasbiy majburiyatlar	Yordamga muhtoj shaxsni aniqlash, qiyinchiliklarni bartaraf qilishda mijozga yordam berish, ijtimoiy ish faoliyatini tashkil qilish, ijtimoiy muammolar to‘g‘risida boshqaruv organlariga xabar berish
Kasbiy ahamiyat	Ijtimoiy advokat, vositachi, ijtimoiy pedagog, maslahatchi, ekspert, ma'mur
Kasbiy vazifa	a) texnologiyalardan foydalanishiga ko‘ra: tashxislovchi, profilaktik, bashorat ,., b) faoliyat mazmuniga ko‘ra: huquqni muhofaza qilish, tashkiliy, axborot
Kasbiy yo‘naltirilgan shaxsiy sifatlar	a) intellektual: ijtimoiy intellekt, eruditsiya, intellektual moslashuvchanlik.;

	b) axloqiy: ziyraklik, xayriya, hurmatga sazovorlik v) ruhiy: vazminlik, tirishqoqlik, stressga chidamlilik.

3. Ijtimoiy xodimning majburiyatlari va huquqlari.

Ijtimoiy xodim maxsus oliy ma'lumotli mutaxassis bo‘lib. uning faoliyati alohida shaxs. oila, guruhlarning hayot faoliyatini saqlab turishga, shuningdek jamoa va jamiyatda uning a'zolarining ehtiyojlariga mos keltirishga yo‘naltirilgan. Uning mijozlariayotda qiyinchilikka uchragan shaxslar bo‘lib, ularning muammolari ishsizlik, turar-joyning yo‘qligi, iqtisodiy qiyinchiliklar, jiddiy kasalliklar, jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar, saldbiy munosabat, xavfli axloq va boshqa ijtimoiy xatarlar bo‘ladi. Ijtimoiy xodim maslahat beradi, shuningdek ma'lum yordamni ko‘rsatadi. Maslahat berish orqali u mijozga o‘z holatini tushunish, qaror qabul qilish va muhim resurs topishga yordam beradi. U mijozga jamiyatdagi uning huquq va imkoniyatlari to‘g‘risida axborot beradi. Ijtimoiy nafaqalar, xizmatlar, yordam olishda vositachilik qiladi va ularni olishni tashkil etadi. Ijtimoiy xodimning vazifalari shuningdek mijozga yordam qilish uchun uning yaqinlarini jalyu qilish va ular o‘rtasida muloqtni ta'minlashdir.

Ijtimoiy xodimning vazifasiga loyihaga rahbarlik qilish, qaydni qiritish, idoralararo axborotni almashish, ijtimoiy ishni taklif qilish va ijtimoiy nafaqalarni rasmiylashtirish kiradi.

Ijtimoiy xodim o‘z ishida inson huquqlari va kasb etikasidan kelib chiqib ish yuritadi. Uning maqsadi jamiyatning barcha a'zolarini ularning xususiyatidan qat'iy nazar teng munosabatda bo‘lishni ta'minlashdir. Agar mijozning huquqi himoyalanmagan yoki jamiyatda uning ehtiyojlari hisobga olinmagan bo‘lsa, ijtimoiy xodim mijoz vakili sifatida harakat qiladi.

Har kuni vasiysiz qolgan bolalar. Ishsizlar, qariyalar, muammoli oilalar (alkogolizm, zo‘ravonlik) qiyinchiliklarini hal qiladi. Ijtimoiy xodim matkb vazifalarini bajarishda muammoga ega bolalar xonadonlariga tashrif buyuradi,

yosh jinoyatchilar uchun mo‘ljallangan qamoqxona va maxsus internatlarda bo‘ladi. Ishsizlar muammosi bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy xodimlar qo‘shimcha o‘qitishni tashkil qilish va ish joylari topishga yordam beradilar.

Ijtimoiy xodimlar[66]:

- Ijtimoiy muammolarni oldini olish maqsadida qonunchilikni o‘zgartirish va ijtimoiy resurslarni qayta taqsimlash bo‘yicha takliflar kiritadilar;
- Alohida shaxs yoki oilalarga shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradilar.;
- Mijozlarning ehtiyojlari to‘g‘risida axborotlarni to‘plash bilan shug‘ullanadilar va ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradilar;
- Mijoz holatini tahlil qiladilar va muammoni yechish uchun muqobil yo‘llarni taklif qiladilar;
- Sud yoki boshqa yuridik jarayonlar uchun zarur bo‘lgan materiallar va xabarnomalar tayyorlaydilar;
- Vasiylik xizmatlarini baholaydilar, rejalashtiradilar, ishlab chiqadilar va rivojlantiradilar;
- Jismoniy va ruhiy kamchilikka ega insonlarga ularning jamiyat hayotiga qatnashish qobiliyatini yaxshilash uchun zarur tibbiy yordam va vasiylikni topishga yordam beradilar.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash turli darajadagi ma'lumot beruvchi uch turdagi muassasalarda amalga oshiriladi:

- Boshlang‘ich kasbiy ta'lim muassasalari (litsey, maktab va boshqalar);
- O‘rta kasbiy ta'lim (o‘quv yurti, kollej);
- Oliy kasbiy ta'lim (institut, universitet).

Bugungi kunda oliy kasbiy ta'lim bo‘yicha davlat ta'lim standartlari qabul qilinib, alohida kurslarning o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. Ammo bu kasb bo‘yicha adabiyotlar hajmi va maxsus tayyorlangan o‘qituvchi kadrlar miqdori yetarli emas.

[66] Ижтимоий ходимнинг касбий стандарти– www.kutsekoda.ee

Ijtimoiy xizmat mutaxassisining kasbiy bilimlari o‘z ichiga eng avvalo qonunchilikni va ijtimoiy pedagogik faoliyat asoslarini bilish zaruriyatini oladi.

Ammo oliy kasbiy ta'lim yakuni bo‘yicha Lyaщenko A.I.[67], fikricha bu soha mutaxassisi quyidagi muhim shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

E'tibor berish, boshqalarning holatini tushunish;

Xayrixoxlik, kirishimlilik;

yetakchi bo‘la olish qobiliyati;

Xushmuomalalilik, samimiylik;

Maqsadlarni boshqarish, ko‘rsatmalar berish;

Hayotni sevish;

Bag‘rikenglik, tirishqoqlik;

Javobgarlikni his qilish;

To‘liq turli shakldagi ishni bajarishga qodirlik;

Mehnat faoliyatija entuanizm, altruizm;

Mutaxassislar bilan o‘zaro munosabatlarga qodirlik;

Harakatlarni sinyaiklab o‘rganish;

Ishda tartiblilik va izchillik;

O‘z kelajagini rejalashtirishga qodirlik;

Og‘zaki tushuntirishga qobiliyat;

Yaxshi xotira, boshqa narsalarni o‘rganish qobiliyati;

Boshqalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

Yangi g‘oyalarni amalga oshirish, mustaqil muhokama qilish.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis kasbi qachon kiritildi ?
2. Ijtimoiy xodimlarning lavozim majburiyatlarini ayting.
3. Ijtimoiy hizmatlar bo‘yicha mutaxassis qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?

[67] Ижтимоий ходимнинг касбий муҳим сифатлари. ref-24217.zip.

4. Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning kasbiy layoqati mezonlarini aniqlang.

9-Mavzu . Ijtimoiy ishning axloqiy-insonparvar manbalari. Ijtimoiy xodimga ma'naviy-axloqiy talablar

1. Insonparvarlik tarixiy o‘zgaruvchi qarashlar tizimi

2. Ijtimoiy ish nazariyasida insonning hayotiy makoni va vaqti

Insonparvarlik 14-16-asrlarda adabiy-falsafiy va madaniy harakat sifatida.Insonparvarlik tamoyillari va axloq me'yorlarining o‘zaro aloqasi. Insonparvarlik tarixiy o‘zgaruvchi qarashlar tizimi sifatida insonning shaxsi, uning huquqi erkinligi, baxti, rivoji va o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishi sifatida o‘z qadrini tan olinishidir. Ijtimoiy adolatlilik tamoyillari va tengsizlik muammosi, jamiyatning tabaqalanishi. Insonparvar g‘oyalar tashuvchisi sifatida ijtimoiy xodimning ahamiyati.

Ijtimoiy ishning axloqiy asoslari va davlat tomonidan belgilangan inson huquqlarini amalga oshirish chegarasi. Axloqiy boshqarishning asosiy tamoyillari. Xudbinlik va altruizm – hayotiy yo‘nalish tamoyillari. Burch muammosi ijtimoiy xodim kasbiy faoliyatini harakatlantiruvchi mexanizm sifatida. Ijtimoiy xodimning shaxsiy sifatlari, uning o‘z qadrini bilishi, o‘zini nazorat qilish qobiliyati

Inson ijtimoiy ish ob'ekti va sub'ekti sifatida. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti uchun prinsipial ahamiyatga ega organik yagona biogen, psixogen va sotsiogen element sifatida inson muammolarini maqsadli tushunish. Ijtimoiy xizmat insonning tabiatga munosabatisiz va dunyoqarashisiz o‘z vazifalarini samarali hal qila olmaydi.

Inson dunyoni anglashda hayot maqsadlari va o‘ylari to‘g‘risidagi tasavvurlar, uning qarashlari katta o‘rinni egallaydi. Hayot qadri shaxs va jamiyatning mos kelishi, shaxs va jamiyatning hayotiy maqsadlari mosligiga bog‘liq bo‘lib, jamiyat tuzilishi xususiyati va shaxsning individual xususiyatlari ba'zan qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Ammo shaxsni jamiyatning qarama-

qarshisiga qo‘yish doimo o‘zini oqlamaydi. Shaxs va jamiyat ajralmasdir, – qad etadi V.Solovyov, –ular bir-birini talab qiladi.

Ijtimoiy xizmat strategiyasi inson, uning maqsadi, universalligi va individualligini o‘rganishdan iborat. Amaliyotda ijtimoiy xizmatning ko‘pgina modellari yordam ko‘rsatishning texnologik jihatlariga asoslanadi. Ijtimoiy ishning samaradorligi insonning hayot faoliyati maqsadlari, uning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida o‘zgarishiga bog‘liq. Inson dunyosini shakllantirish-murakkab bilash jarayoni, dunyoqarashlarni ijodiy o‘zlashtirish, ijtimoiy sifatlar, jamiyat tomonidan yaratilgan bilim va ko‘nkmalarni egallashdir.

Insonning faol, ijodiy tabiati turlicha o‘zgaradi va ijtimoiy xizmatning nazariyasining turli modellarida va amaliy tashkil etishda hisobga olinadi. Insonni shaxs sifatida tushunish insonparvar psixologiya rivojlanishiga sabab bo‘ldi. (K.Rodjers, A.Maslou, V.Frankl .). Anglashning barcha yo‘llari ijtimoiy madaniy fenomen eng avvalo insonni turli tomondan o‘rganishda foydalanilgan.

Insonparvarlik hayotiy faoliyat shakli va ijtimoiy ish asosidir. Insonparvarlik inson turmushi va dunyosining ontologik shakllaridan biridir. Insonparvarlik insonlarni sevish, inson qadriga hurmat sifatida ko‘rib chiqilib, inson imkoniyatlarining fundamental asosidir.

Insonparvarlik dunyoqarash tizimi va qarashlar yig‘indisi sifatida uning turli tariflari asosida yotadi. Fundamental ontologiya nuqtai nazaridan insonparvarlik nimagadir nisbatan birinchi bo‘lmasligi mumkin.

Insonparvarlik g‘oyalarining rivojlanishida o‘rta asr sharq mutafakkirlarining ilmiy ishlari katta o‘rin tutadi.

O‘rta asr yaqin va o‘rta sharq olimlari xudo va inson, inson va tabiat munosabatlari muammosini ishlab chiqishga katta ulush qo‘shishgan.

«Inson, – deydi Beruniy, – bilim. Tajribasiz, haqiqatni yolg‘ondan ajratishni o‘rganmasdan nimagadir e'tiqod qila olmaydi.»[68].

Yirik o‘rta sharq olimi Abu Ali Ibn Sino bunga katta ulush qo‘shgan. U o‘zining “ko‘rsatmalar va o‘gitlar” asarida shunday yozadi: individuum, o‘zini

[68] Абу Райхан Беруний Танланган асарлар. 1-5. – Ташкент. 1971-1975.

inson deb hisoblashga nisbatan yuqori bo‘lishi kerak.Odatda inson to‘g‘risida o‘ylanganda uning tanasi, tashqi organlari ko‘z oldiga keladi. Ammo olim aytadiki insonning mohiyatini kuzatishlar asosida belgilaydi. [69].

Forobiy o‘z asarlarida inson va uning tarbiyasi muammosiga turlicha yondashgan. Aynan bu muammolar uning falsafiy tizimi tarkibini tashkil etadi. Podobno tomu, kak logika doljna ob'yasnyat prinsipы chelovecheskogo poznaniya, govoril on, etika doljna ukazыvat osnovnыe pravila povedeniya cheloveka. Velikiy ensiklopedist utverjdal, chto tolko chelovecheskiy razum reshaet, chto xorosho i chto ploxo[70].

Forobiy fikricha tarbiya jarayoni tajribali o‘qituvchi tomonidan boshqariladi. Yo‘naltiriladi.U shunday yozadi : «Individning turli xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir inson baxt va moddiyatni o‘zicha tushunadi. Buning uchun o‘qituvchi va murabbiy talab qilinadi.».

Ibn Sina yoshlarni tarbiyalash va o‘qitishda o‘qituvchining ahamiyatiga katta e'tibor beradi. U o‘qituvchi shaxsiga bir qator talablarni shakllantiradi: 1. o‘qituvchi bolalar bilan muloqotda me'yorga rioya qilishi kerak; 2. o‘qituvchi o‘quvchining hayotiga katta e'tibor berishi kerak; 3. o‘qitish jarayonida o‘qituvchi bolalar bilan ishlashning turli usullari va shakllarini qo‘llashi kerak; 4. o‘qituvchi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi va o‘z ishidan qoniqishi kerak.

Olim o‘qituvchidan uning fikrlari barcha uchun tegishli bo‘lishini talab qiladi. Har bir so‘z mimika va harakat bilan ifodalanishi kerakki, bolalarda hissiy jalb qila olish kerak. Insonparvar pedagogik madaniyat g‘oyalarining paydo bo‘lishi yirik sharq ma'rifatparvari Alisher Navoiy ijodi va ilmiy faoliyati bilan bog‘liqdir. Uning mahalliy madaniyat sohasidagi faoliyati turlicha: o‘zbek adabiyotining asoschisi, mutafakkir, olim, rassom, bastakor, davlat arbobi.

Navoiy g‘oyalari yuqori insonparvarligi bilan ajralib turadiyu U insonni jahondagi oliy mavjudot deb atab, bola oilaga xursandchilik olib keladi deb

[69] Ф. Сулаймонова Шарк ва Гарб. – Тошкент. 1997.
[70] Абу Наср Фароби Фозил одамлар шаҳри. Ташкент: Ибн Сино. 1997.

hisoblaydi. U qayd etadiki, bolani yaxshi yoki yomon deb ajratish mumkin emas, shuning uchun bunda o‘qituvchining ahamiyati kattadir. O‘qituvchi faqatgina bilimini takomillashtirmasdan balki barchaga namuna bo‘lishi kerak.[71].

Navoiy insonning muhim sifatlaridan biri deb mehnatsevarlikni biladi. Mehnat insonni yuksaltiradi va mexnat orqali inson ma'lum darajaga erishadi.

Insonparvarlik hayot faoliyati shakli sifatida insonparvarlik va noinsoniylik, yaxshilik va yomonlik. Erkinlik va zo‘ravonlik, munosabatlarining yig‘indisida kuzatiladi. Insoniylik, g‘amxo‘rlik. Sevgi, hurmat, mas'uliyatlilik, axloqiy qonun, burch tushunchalarida namoyon bo‘ladi.

Anglash tizimi sifatida insonparvarlikning falsafiy asoslaridan biri qadr-qimmat tushunchasidir.

Insoniy bilishning gumanistik xususiyati jamiyatni demokratik tashkil etish tuzilmalarida namoyon bo‘lib, faqatgina sharoitni bartaraf etishga tayyorlik emas,balki kasallikka olib keluvchi sabablarni tugatishni aks ettiradi.

Shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda insonparvarlik darajasi tarixan yuksaldi. Insonparvarlikning ijtimoiy sharoitidan tashqari ma'lum sotsio biologik va shaxsiy asoslar to‘g‘risida ham gapirish mumkin bo‘lib, insonparvar dunyoqarashni qabul qilish yoki qabul qilmaslikda ko‘rinadi. Bunda gap altruzim va xudbinlik to‘g‘risida boradi. Altruizm- insonning hayotiy yo‘nalganlik tamoyili bo‘lib, insonning boshqa insonlar farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishiga asoslangan bo‘lib, altruist uchun o‘z manfaatidan boshqalarniki ustun turadi. Xudbinlik – insonning o‘zi to‘g‘risida qayg‘urishiga asoslangan hayotiy yo‘nalganlik tamoyilidir, bunda xudbin boshqalarning manfaat va ehtiyojlarini buzgan holda o‘z ehtiyojlarini qondirish to‘g‘risida o‘ylaydi.

Ijtimoiy ishning insonparvar asoslari. Ijtimoiy xizmat boshqa kasblarga qaraganda axloqiy tanlov va etik axloq doirasida joylashadi. Shuning uchun bunday omillar inson axloqini jamiyat axloqi kabi tartibga solish, individual axloqiy nazorat ijtimoiy ishning axloqiy tartibga soluvchisi bo‘ladi. Jamiyat

[71] А. Навоий Хайрат ул – Аброр. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2009.

axloqiga yagona talabdan tashqari ijtimoiy xizmat maxfiylik va bag‘rikenglik kabi kasbiy etika tamoyillari bilan ham tartibga solinadi.

1. Insonparvarlikka va axloqqa asoslanib ijtimoiy xizmat o‘zining butun tarixi davomida o‘zgina o‘zgarishlar bilan saqlanuvchi inson xotirjamligi, ijtimoiy adolatlilik, o‘z qadrini bilish kabi muhim elementlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ijtiomiy xodimning kundalik bunday axloqiy muammolari katta o‘zgarishlarga uchragan. (masalan kompyuterlashtirish sharoitida maxfiylik axloqiy muammosi). Bunday muammolarni bir necha darajalarga bo‘lish mumkin a) missiya , maqsad va vazifalaridan kelib chiquvchi ijtimoiy xizmatning qadr bazasiga bog‘liq; b) kasbning axloq standartlarini ishlab chiqish; v) ijtimoiy xodimning kasbiy majburiyat axloqiy dilemmalari.

Ijtimoiy xizmatning ahamiyatlilik muammosi bevosita uning insonparvar mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy ishda har bir shaxs muhim qadriyat sifatida ko‘riladi. Bu shuni anglatadiki, har bir individ hayotiga oliy qadriyat sifatida yondashish bu holat tushunchasini to‘ldiradi, insonning o‘z hayoti o‘ziga munosib bo‘lishi kerak. Ijtimoiy xizmat sub'ekti tomonidan yordamga huquq kim unga murojaat qilsa qandaydir asosga ko‘ra ajratmasdan amalga oshadi. Insonparvar yo‘naltirilganlik ijtimoiy xizmat sub'ektini mijoz bilan o‘zaro munosabatiga ta'sir qilib, ularning hamkorligini kengaytiradi.

Kasbning axloqiy standarti axloqiy qoidalar tamoyillari va standartlarini birlashtirib, unda dasturiy maqsadlar va ijtimoiy xizmatning uzoq vaqtdagi qadriyatlari, ruhsat beruvchi va ta'qiqlovchi tamoyillar, muhim qoidalar, ijtimoiy xodim javobgarligini va majburiyatlarini belgilovchi qoilalarni birlashtiradi. Kasbiy etikani ko‘rsatuvchi axloq va faoliyat tarzi ijtimoiy xodimning shaxsiy manfaatlari va uning majburiyatlari balansida asoslanadi. Mazkur muvozanat asosida- javobgarliking umum falsafiy konsepsiyasi yotadi. Axloq standartida javobgarlik ijtimoiy xizmatning tamoyili sifatida mijoz oldidagi (uning manfaatlari ustuvor), jamoa oldidagi (hamkorlik, to‘g‘rilik), ish beruvchi oldidagi (ijtimoiy himoya organlari oldidagi majburiyatlarni bajarish), kasb oldidagi (ijtimoiy

xizmatning asosiy qadriyatlari va yo‘nalishini saqlash) davobgarlik darajasida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xodim amaliyotida mijoz, jamoa. Kasb, jamiyat oldidagi majburiyatlar natijasida turli axloqiy muammolar va dilemmalar bilan to‘qnashadi. Mazkur muammoli soha va axloqiy dilemmalar turli mamlakatlar uchun umumiy emas, ammo bir guruh dilemmalar ijtimoiy yordamning har qanday modeli uchun xosdir.:

Mustaqillik va manipulyasiya;

paternalizm va o‘zini aniqlash;

rozilikni xabar qilish tamoyili;

haqiqatni gapirish zaruriyati;

maxfiylik va xabarlarning xususiyligi;

chaqimchilik;

qonunlar va mijoz xotirjamligi;

shaxsiy va kasbiy qadriyatlar.

Ijtimoiy xodimlar axloq kodeksidan doimo o‘zlarining so‘rovi bo‘yicha qoniqarli javob olmasliklari mumkin, bu birinchidan kodeks umumiy atamalarda va yuqori darajadagi mavhumlik bilan tuziladi, ikkinchidan tamoyillar bir qator holatlarda ziddiyatli bo‘ladi va o‘zida axloqiy dilemmalarni aks ettiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy xizmatning kasbiy tamoyillari asosida insonparvar asos yotib, bu barcha kasbiy faoliyat, ilmiy tadqiqot sohasi, ijtimoiy xizmatning umumiy hodisalari uchun asos bo‘ladi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Xudbinlik va altruizm –hayotiy yo‘nalganlik tamoyillari.

2. Ijtimoiy xodimning shaxsiy sifatlari.

3. Ijtimoiy xizmatning asosiy qadriyat va tamoyillari: inson qadri va qadriyati, ijtimoiy adolatlilik, insonparvarlik, maqsadlilik, layoqatlilik ;.

4. O‘zbekiston ijtimoiy xodimi kasbiy-axloq kodeksining shakllanishi.

5. Ijtimoiy ish amaliyotida qadriyatlar : o‘zini aniqlash, tushkunlik va hurmat qilish, ajratish.

10-Mavzu. Ijtimoiy ishda sog‘lom turmush tarzi

1. Salomatlik tushunchasi, uning mohiyati va tarkibi.

2. Inson sog‘ligini belgilovchi omillar.

3. Turmush tarzi va sog‘lik .

1. Inson uchun eng katta boylik bu sog‘likdir. Buyuk tarixchi Gerodot o‘zining 9 tomlik “Tarix” asarida shunday yozgan[72]– «Sening sog‘liging- toza havo, suv va ovqatdir. Ertalab xursandchilik bilan uyg‘on, uxlaganda tabassum bilan yot. Seng xursandsan, tabassum qilyapsan-demak sen sog‘lomsan. Kasallikni davolama, o‘z hayotiningni davola, tabiat qonunlari bo‘yicha yasha. Kasal bo‘lganingda boyliging va kuching befoyda bo‘ladi.». «Sog‘lik-hamma narcha emas, ammo barcha narsa sog‘liksiz hyech nima.», - deydi qadimgi grek faylasufi Suqrot. Faylasuf bu mavzuda ko‘p muhokama qilgan. U aytadiki, tana sog‘lom bo‘lmas ekan, ruh sog‘lom bo‘lmaydi.

Butun jahon sog‘likni saqlash tashkiloti (JSST) ustavida ko‘rsatilgan: «Sohlik bu- kasalllik va nuqsonlar bo‘lmaganda to‘liq jismoniy. Ruhiy va ijtimoiy bardamlikdir.»Eng yuqori darajadagi sog‘likka ega bo‘lish insonning irqi, dini, siyosiy kelib chiqishi, iqtisodiy va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar asosiy huquqlaridan biridir.[73].

Sog‘lom turmush tarzi sog‘likka boylik kabi qarash bo‘lib, shaxsiy va jamiyat sog‘ligini mustahkamlash va takomillashtirishga asoslanib. O‘z ichiga shaxsning sog‘lomlashtirish faoliyatini oladi.

Inson hayotining qiymati mutloq boylik bo‘lib, hayot- insonning boshqa boyliklari mavjud bo‘lishi uchun yagona shart va mezondir.

Hayot qadrini ko‘rib chiqish doirasida tarixan ikkita tushuncha shakllandi:

1.Hayot qadri jamiyat tomonidan belgilangan bo‘lib, inson va uning hayoti jamiyat boyligining ma'lum qismini tashkil qiladi.;

---

[72]Геродот Галикарнасс тарихи 9 том .

[73] Устав (Конституция) принят Международной конференцией здравоохранения, проходившей в Нью-Йорке с 19 июня по 22 июля 1946 г., подписан 22 июля 1946 г. представителями 61 страны (Off. Rec. Wld Hlth Org., 2, 100) и вступил в силу 7 апреля 1948 года.

2.Hayot qadri so‘zsiz hyech kimga va hyech nimaga bog‘lik emas. Hayot qadrini turli nuqtai nazardan tahlil qilinganda turli adabiyotlarda ularning quyidagicha guruhlashtirish mumkinligi keltiriladi :

•Hayot qadri jamiyat uchun yashashdan iborat bo‘lib, uning qadr darajasi individ hayot faoliyatining jamiyatning rivojlanish manfaatlariga mosligi bilan belgilanadi. O‘zing uchun emas. Jamiyat uchun yasha..

• Individual hayot instinktiv qiymat sifatida hayoti to‘g‘risida o‘zining tushunchasining anglatadi. Boshqacha aytganda hayot qadri ob'ektiv, undagi maqsadlar sub'ektiv bo‘ladi..

•Hayot qadri hayotiy maqsadlar bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda hayot qadri unda maqsad bo‘lganda mavjud. Maqsad bo‘lmaganda yo‘q bo‘ladi. O‘zining hal qil...

• Inson, insoniyat va inson hayoti oliy qadriyat bo‘lib, ular evolyusiyaning eng yuksak darajasini aks ettiradi. Hayt bu o‘z mohiyati bo‘yicha piramidaning cho‘qqisidir.

• Hayot qadri o‘z ahamiyatini o‘lim vositasida ko‘rsatadi, u insonga hayotini baholash va maqsad qo‘yishni taqozo qiladi.

Tibbiy-biologik adabiyotlarda sog‘likning turli tariflari keltiriladi. Ularning har biri organizmning bu holatini kompleks xususiyatida u yoki bu jihati muhimligini qayd etadi. Sog‘lik tushunchasining tariflaridan ko‘rinib turibdiki, u tashqi muhit sharotiga organizmning moslashish sifatini namoyon qiladi va inson va tashqi muhit o‘zaro faoliyati jarayonini yakunini ko‘rsatadi. Sog‘lik holati ekzogen (tabiiy va ijtimoiy) va endogen (irsiyat, konstitutsiya, yosh, jins) omillari o‘zaro harakatining natijasiga bog‘liq.

Sog‘lik tushnchasining eng to‘liq xususiyati salomatlik fani asoschilaridan biri V.P. Petlenko tomonidan shunday keltiriladi: «Sog‘lik o‘zida insonning

me'yoriy psixosomatik holati, tana va ruhiy kuchi o‘z salohiyatini namoyon qila olish, moddiy, axloqiy va ijtimoiy ehtiyojlarini optimal qondirishni aks ettiradi.»[74].

Sog‘likko‘ptarkiblitushuncha.

Sog‘likningquyidagiqismlariniajratishmumkin.

Somatik sog‘lik – inson organizmi organlari va organlar tizimining joriy holati.Asosiy somatik sog‘lik bu insonning individual rivojlanishi biologik dasturidir. Bu dastur ontogenezning turli bosqichlarida asosiy ehtiyojlar vositasida tuziladi. Bazaviy ehtiyojlar bir tomondan inson rivojlanishining o‘tkazuvchi mexanizmi bo‘lib xizmat qilsa (uning somatik sog‘ligini shakllantirish), boshqa tomonda individuallashuvni ta'minlaydi.

Jismoniy sog‘lik– inson sog‘ligi holatining murakka tuzilishida muhim komponent bo‘ladi. U murakkab biologik tizim kabi organizm xususiyatiga asoslanadi. Organizm biologik tizim kabi integral xususiyatlarga ega bo‘lib, uning alohida tarkibiy elementlari bo‘lmaydi. Bu elementlar o‘zidan tashqarida individual mavjudlikni saqlab tura olmasligi mumkin.

Bundan tashqari organizm o‘zini tashkil qilish hisobidan individual mavjudlikni saqlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘zini tashkil etish ko‘rinishlariga o‘zini yangilash, o‘zini boshqarish va o‘zini tiklash qobiliyatlari kiradi.

O‘zini yangilash tashqi muhit narsalari, energiya va axborot bilan organizmning doimiy o‘zaro almashuvi bilan bog‘liq. O‘zini yangilash jarayonida organizm o‘z tartibini saqlaydi va buzilishining oldini oladi..

Jismoniy sog‘lik o‘zini boshqarishga organizmning qobiliyatidir. Bracha vazifalarning takomillashgan kordinatsiyasi- tirik organizmning o‘zini boshqarish tizimini aks ettiradi. O‘zini boshqarish rivojlanish, hayotning biologik shakli mohiyatidan iborat. Biologik tizimning bu umumiy xususiyati fiziologik-biokimyoviy yoki boshqa ko‘rsatkichlar, masalan tana harroratining doimiyligi, arterial bosmi darajasi, qondagi glyukoza miqdorini ma'lum va doimiy darajada belgilash va saqlash imkonini beradi. Tartiblilik darajasini saqlab turish organizmning ichki muhit- gomeostazisning tegishli dinamik doimiysida namoyon

[74]В.П. Петленко. Валеология асослари. 1-китоб. – СПб. 1998.- С.10.

bo‘ladi. (homeostasis*; grech.* Homoios – *o‘xshash* + *grech.* Stasis – qo‘zg‘almaslik).

Biologik tizimning o‘zini tashkil qilish shakli o‘zini tiklash qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat eng avvalo regeneratsiyada, shuningdek uning tashkil etishning barcha darajalarida ko‘pgina parallel regulyator ta'sir mavjudligi bilan asoslanadi. Bu parallellar hisobidan yetishmagan funksiyalarni qoplash buzilish sharoitida organizmning yashashiga imkoni berib, bunda hayot qobiliyati darajasi- uning jismoniy sog‘ligini aks ettiradi.

Amaliy jismoniy sog‘lik- turli tashqi muhit omillariga moslashish imkonini xarakterlaydigan inson organizmining holati, jismoniy rivojlanish darajasi, jismoniy yuklamalarni bajarishga organizmning jismoniy va funksional tayyorgarligidir.

Insonning jismoniy sog‘ligiga tegishli asosiy omillar quyidagilar:

- Jismoniy rivojlanganlik darajasi;
- Jismoniy tayyorgarlik darajasi;
- Jismoniy yuklamlarni bajarishga organizmning funksional tayyorgarligi darajasi;
- Organizmning turli tashqi muhit omillariga moslashishini ta'minlaydigan organizmning moslashuv zaxirasi darajasi va qobiliyati.

Ruhiy sog‘liq– insonning ruhiy holati. Ruhiy sog‘lik asosini axloqni adekvat tartibga solishni ta'minlaydigan umumiy ruhiy qulaylik holati tashkil qiladi.

Jinsiy sog‘lik – insonning jinsiy borlig‘ining somatik, hissiy, intellektual va ijtimoiy jihatlari majmuasi, insonlar bilan muloqot qila olish va ularni sevishni oshiruvchi ijobiy holat.

Reproduktiv salomatlik –organizmning reproduktiv vazifalarini belgilaydigan sog‘lik komponenti .

Axloqiy salomatlik – inson hayot faoliyatining rag‘batlantirish va axborot ehtiyoji xususiyatlari majmuasi. Insonning axloqiy salomatligi asosini ijtimoiy muhitda individning qadri, axloq motivlari belgilaydi.

Kasbiy sog‘lik–insonning kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi holat.

Ko‘rinib turibdiki, atrof muhit bilan o‘zaro ta'sir natijasida inson sog‘ligi darajasi doimiy o‘zgarib turadi, sog‘lik-bu inson hayotining dinamik atributidir, inson kasal bo‘lganda sog‘lik darajasi pasayadi va tuzalganda ko‘tariladi.

Amaliy tibbiyot insonning uchta asosiy holatini ajratadi.:

1.**Salomatlik**– organizmning eng yaxshi barqarorlik holati (moslashish qoniqarli);

2.**Kasallikdan oldingi**– organizmda patologik jarayonlar rivojlanishi va moslashish zaxirasi kamayishi bilan bog‘liq holat;

3. **Kasallik**– inson organizmida klinik o‘zgarishlar shaklida namoyon bo‘ladigan jarayon (moslashish buzilishi).

Sog‘lik inson faoliyatining bioijtimoiy salohiyati sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Uning quyidagi komponentlari ajratilgan.

Aql salohiyati (salomatlikning intellektual jihati) – intellektni rivojlantirish va undan foydalanish qobiliyati

Harakat salohiyati (sog‘likning shaxsiy jihati) – o‘zini namoyon qilishga insonning qobiliyati, maqsad qo‘yil va ularga erishish ko‘nikmasi, adekvat vositalarni tanlash.

Tuyg‘u salohiyati (sog‘likning hissiy jihati) – insonning o‘z tuyg‘ularini namoyon qilish, boshqalarni tuyg‘ularini tushunish va qabul qilish qobiliyati.

Tana salohiyati (sog‘likning jismoniy jihati) – sog‘likning jismoniy holatini rivojlantirish qobiliyati,.

Jamiyat salohiyati (sog‘likning ijtimoiy jihati) – insonning ijtimoiy sharoitlarga optimal moslashish qobiliyati, kommunikativ layoqatlilik darajasini doimiy oshirib borish, barcha insoniyatga tegishli tuyg‘ularni yaratish.

Yaratuvchilik salohiyati (sog‘likning ijodkorlik jihati) – insonning cheklangan bilimlari doirasidan chiqib, hayot faoliyatida ijodkorlikni aks ettirishi,

Axloqiy salohiyat (sog‘likning axloqiy jihati) –insonning axloqiy tabiatini rivojlantirish qobiliyati .

Salomatlikning mohiyati– bu individning hayotiy qobiliyati bo‘lib, hayot qobiliyati darajasini miqdorini belgilaydi. Bunday miqdoriy bahoning zaruriyati mashhur jarroh akademik. N.M.Asomov tomonidan ko‘rsatilgan. Uning fikricha sog‘lik miqdorini asosiy funksional tizim zaxira quvvati miqdori kabi aniqlanadi. Bu zaxira quvvati zaxira koeffitsienti ham deb nomlanib, o‘zida funksiyaning maksimal darajasining me'yoriy miqdoriga nisbatini aks ettiradi.

2.Sog‘likni belgilovchi omillar sog‘liqni mustahkamlovchi (salomatlik omillari) va uning yomonlashtiruvchi (xatar omillari) ga bo‘linadi.

Barcha omillarning ta'sir ko‘rsatish sohasiga ko‘ra ular to‘rtta asosiy guruhga birlashtirilgan: 1) turmush tarzi omillarifaktorы obraza jizni (umumiy ta'sirning 50%); 2) tashqi muhit omillari (umumiy ta'sirning 20%); 3) biologik omillar(irsiyat) (umumiy ta'sirning 20%); 4) tibbiy xizmat ko‘rsatish omillari (umumiy ta'sirning 10%).

Sog‘liqni mustahkamlovchi turmush tarzining asosiy omillariga quyidagilar kiradi: yomon odatlarning yo‘qligi; ratsional ovqatlanish; adekvat jismoniy yuklamalar ; sog‘lom ruhiy muhit; o‘z sog‘ligiga e'tiborli bo‘lish; oila qurish va farzand ko‘rishga yo‘naltirilgan jinsiy axloq .

Sog‘likni yomonlashtiradigan turmush tarzining asosiy omillari quyidagilar: chekish, alkogol, giyohvandlik, toksikomaniya, dori vositalaridan noto‘g‘ri foydalanish, ovqatlanishda miqdor va sifat munosabatlarining buzilishi, gipodinamiya, giperdinamiya; stress holatlari; tibbiy faoliyatning yetishmasligi; jinsiy kasalliklar va rejalashtirilmagan homiladorlikka olib keluvchi jinsiy axloq.

Sog‘likni belgilovchi asosiy tashqi muhit omillari: ta'lim va mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish omillari, moddiy-maishiy sharoit, iqlim va tabiiy sharoit, atrof muhitning tozalik darajasi. Asosiy biologik omillar irsiyat, organizmning yosh, jins va konstitutsional xususiyatlaridir. Tibbiy yordam omillari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati bilan belgilanadi.

3. Turmush tarzi- bu inson hayot faoliyatining ma'lum shaklidir. Turmush tarzi uning mehnat faoliyati, bo‘sh vaqtdan faoydalanish shakllari, moddiy va manaviy ehtiyojlarni qondirish, jamiyat hayotiga qatnashish, axloq me'yor va

qoidalarini qamrab olgan insonning kundalik hayot xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Turmush tarzini tahlil qilganda faoliyatning turli shakllari ko‘rib chiqiladi : kasbiy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, maishiy va boshqa. Ijtimoiy, mehnat va jismoniy faoliyat asosan o‘rganiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning katta darajasida turmush tarzi ma'lum insonning faoliyat motivlari, uning ruhiyati xususiyatlari, sog‘ligining holati va organizmning funksional imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu ayniqsa turli insonlarning turmush tarzi ko‘p qirrali ekanligi bilan tushuntiriladi.

Inson turmush tarzini belgilovchi asosiy omillar quyidagilar: insonning umumiy madaniyat darajasi, ta'lim darajasi, hayotining moddiy sharoiti, yosh va jins xususiyatlari, inson konstitutsiyasi, sog‘lik holati, ekologik muhit, ish, kasbining xususiyati, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya xususiyatlari, inson odatlari, biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari

Hayot tarzi va inson salomatligi o‘zaro aloqasi sog‘lom turmush tarzi tushunchasi sanaladi.

Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligi va rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarda kasbiy, ijtimoiy va maishiy vazifalarni bajarishga xos bo‘lgan narsalarni birlashtiradi.

Sog‘lom turmush tarzi sog‘likni mustahkamlash va rivojlantirishga mo‘ljallangan inson faoliyatining belgilangan yo‘nalishini aks ettiradi. Bu shaklda sog‘lom turmush tarzi uchun turli kasalliklar paydo bo‘lishini oldini olish uchun kuchlarni birlashtirish muhimdir: ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik bilan kurash, noto‘g‘ri ovqatlanish, ziddiyatli munosabatlar, sog‘lom turmush tarzi shakllanishi va inson hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi ko‘p qirrali tendensiyalarni ajratish va rivojlantirish muhim.

So‘nggi yillarda sog‘lik hayot sifati bilan yanada ko‘proq bog‘lanmoqda. Hayot sifati deganda individning hayotiy muhim tomonlari va ehtiyojlarini qondirish, biologik va ijtimoiy hayotda faolliga imkoni beruvchi sharoitlar mavjudligi tushuniladi. Bu tushuncha hayot sifati tushnchasining sub'ektivligini qayd etib, o‘z ichiga hayotning ham ijobiy ham salbiy jihatlarini oladi. Hayot sifatining asosiy parametrlari quyidagilar:

- Jismoniy va ruhiy harakat qilish, moddiy hayot (daromad, uy).
- Ijtimoiy munosabatlar, manaviy hayot (kelajakka mo‘ljallangan, diniy, individual e'tiqod)
- Atrof muhit mustaqilligi darajasi

Hayot sifatini pasaytiruvchi turmush tarzi va sharoiti omillari bevosita biologik va stress ta'sirni ko‘rsatadi. Stress kuchi individning o‘z taqdirini belgilashda imkoniyatlari kamligi va cheklanganligi sharoitida katta bo‘ladi. Bu bir qator sabablar bilan bog‘liq: yaqin insonini yo‘qotish, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik, o‘zining yoki yaqinlarining og‘ir kasalligi, ish joyini yo‘qotish xavfi va ishsizlik. Ishlab chiqarishdagi va oilaviy nizolar. Tabiiy va texnogen ofatlar.

Inson salomatligi uchun xavf tug‘diruvchi biologik omillarga ortiqcha tana massasi, gipodinamiya. Noto‘g‘ri ovqatlanish, ruhiy yoki jismoniy zo‘riqishlar, alkogol, tamaki iste'moli kiradi. Sog‘liq uchun yuqori xavf tug‘diruvchi insonlar gurug‘iga quyidagilar kiradi:

- Yaqin insonidan ayrilgan, oilasi buzilgan shaxs;
- Notinch oilalarning bolalari.
- Jismoniy, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlik qurbonlari;
- Davriy somatik va og‘ir ruhiy kasalga chalingan insonlarning yaqinlari ye;
- Uysizlar, ishsizlar va qashshoqlar;
- Yopiq turdagi muassasalardagi shaxslar (internat, qamoqxona.).

Millat sog‘ligini baholash uchun umumiy salomatlik tushnuchasidan foydalaniladi. Umumiy salomatlik aholining sog‘lomlik darjasi, kasalliklar.

Ayniqsa ijtimoiy kasalliklarning tarqalganligini, o‘z joniga qasd qilishni xarakterlaydi (yuqumli, ruhiy, alkogolizm va narkomaniya,).

Aholi salomatligi ham alohida individ, ham butun jamiyat va davlat uchun eng katta boylik sanaladi. Davlatning millat sog‘ligiga munosabatining asosiy ko‘rsatkichlari orasida ekologik holat, ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha xalqaro standartlarga rioya qilish, fuqarolar sog‘ligi masalasida qonunchilikka rioya qilish, tibbiy va ijtimoiy-sog‘lomlashtirish yordamidan foydalanish va uning sifati mavjud.

Sog‘lom turmush tarzining ilmiy asoslari valeologiyaning asosiy qoidalaridan iborat. Valeologiya (lotincha sog‘lomlashtirish) o‘zida sog‘likni saqlash va mustahkamlashda ilmiy bilimlar yig‘indisini aks ettiradi. Bu nisbatan yangi ilmiy-pedagogik yo‘nalish bo‘lib, aholi ayniqsa yoshlarni sog‘lomlashtirish zaruriyati bilan paydo bo‘ldi. Bugungi kunda valeologik bilim jismoniy madniyat o‘quv fanlari dasturiga kiritilgan.

Valeologiyaning asosiy qoidalariga muvofiq insonning turmush tarzi uning qanday yashashnini belgilovchi hayot usulini aks ettiradi.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy ijtimoiy tamoyillari quyidagilar: turmush tarzi estetik bo‘lishi kerak, turmush tarzi axloqiy bo‘lishi kerak, turmush tarzi irodali bo‘lishi kerak.

Turmush tarzining asosiy biologik tamoyillari quyidagilar: turmush tarzi yosh bo‘yicha bo‘lishi kerak, turmush tarzi harakatchanlikni ta'minlashi kerak, turmush tarzi mustahkam bo‘lishi kerak, turmush tarzi uyg‘un bo‘lishi kerak.

Sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy va biologik tamoyillari mohiyatini tahlil qilib, ko‘rish mumkinki. Ularning ko‘pchiligiga rioya qilish insonning jismoniy madaniyatini shakllantirish uchun shart sanaladi.

Talaba yoshlar turmush tarzi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib. yosh xususiyati, o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligi, maishiy, dam olish va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Talabalar sog‘lom turmush tarzining asosiy elementlari

quyidagilar; mehnat, dam olish, ovaqtlanish, uxlash tartibini belgilash, sanitar-gigienik talablarga javob breuvchi toza havoda bo‘lish, harakat faolligining individual maqsadli tartibini tashkil etish yo‘li bilan jismoniy mukammalikka erishish;shaxs sifatida rivojlnishga ta'sir ko‘rsatuvchi mazmunli bo‘sh vaqt, o‘zini buzuvchi axloqiy hayotdan voz kechish (kashandalik, alkogol, giyog‘vandlik, gipodinamiya), jinsiy axloq madaniyati, shaxslararo munosabat va jamaodagi axloq, o‘zini boshqarish va o‘zini tashkil qilish. Hayotda manaviy, ruhiy uyg‘unlikka erishish, organizmni chiniqtirish va uni tozalash.

Optimal harakat faolligi muhim ahamiyatga ega. Sog‘lik va faol harakat bu bugungi kundagi yaqin tushunchalardir. Zamonaviy jamiyatda, ayniqsa katta shaharlarda jismoniy madaniyatdan tashqari harakat faolligini sun'iy oshirish va sog‘liqni mustahkamlash uchun deyarli boshqa vosita qolmadi. Jismniy mashqlar jismoniy mehnatda, zamonaviy insonning harakat faolligidagi kamchiliklarni to‘ldirishi kerak. Ko‘pgina odamlar jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga xoxishlar yo‘q bo‘lib. ular buni vaqt yetishmasligi bilan izohlaydilar. Shu o‘rinda quyidagi hikmatli so‘zni keltirib o‘tish zarur: «Sport bilan shug‘ullanishga qancha kam vaqt sarflasang, davolanishga shuncha ko‘p vaqt talab etiladi».

20-asr insonlarga elektr, radio, televideniya, zamonaviy transport va boshqa ko‘plab boyliklarni berdi. Tibbiyot insonni yuqumli kasalliklardan xalos qilib, ko‘pgina kasalliklarni davolash uchun vosita va usullarni berdi. Shu bilan birga joriy asr harakat faolligining kamayishi, asabiy-ruhiy va boshqa stresslarning ko‘payishi, atrof muhitning kimyoviy ifloslanishi va boshqa salbiy hodisalarga olib keldi. Hayotning o‘zida sezilarga o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

Yana bugungi kun bilan taqqoslaganda inson oldin hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha narsani zi tayyorlagan (yoqilg‘i, ovqat zaxiralari).). Iste'mol og‘ir jismoniy mehnat va tabiiy kuchlar bilan kurash asosida bo‘lib, inson o‘zini tiklash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilgan. Bugungi kunda inson o‘z sog‘ligi to‘g‘risida doim ham qayg‘urayotgani yo‘q. Inson o‘z sog‘lining faqat iste'molchisi bo‘lmoqda, yaratuvchisi emas.

O‘zining ishlab chiqarish faoliyatida ekologik muammolar paydo bo‘lib. inson tabiatning bir qismi ekanligini unutdi va endi bor kuchini uni saqlashga yo‘naltiradi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Sog‘lik hayotning asosiy boyligi sifatida.
2. Sog‘lom turmush tarzi nima?
3. Insonning jismoniy holatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar.
4. Sog‘likning asosiy tarkibiy qismlarini ayting.
5. Irsiyat va uning salomatlik va kasallanishga ta'siri
6. Atrof muhitning sog‘likka ta'siri. Sog‘likka shaxsning madniy rivojlanishining ta'siri.

11-Mavzu . Deviant axloq va ijtimoiy xizmat

1. Deviant (farqli) axloq. Delikvent axloq. Deviant axloqning ijtimoiy nazariyadari va tipologik konsepsiyasi. R. Mertona deviatsiyasi tipologiyasi .

2. Ularni bartaraf etishning deviatsiyaviy sabablari. Deviant xulq turlari

1. Jamiyat doimo inson axloqining nomaqbul shakllarini yo‘qotishga urinadi. Nomaqbul axloq sifatida daholik va qotillik, dangasalik va mehnatsevarlik, kambag‘allik va boylik deyarli teng darajada ko‘riladi. O‘rtacha me'yorlardan ham ijobiy ham salbiy farqlar jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Deviant, me'yorlardan farqlik, axloq insoniy harakatning keng doirasini qamrab oladi. Chetlanish darajasi, shuningdek me'yorlarning buzilish xususiyatiga ko‘ra ularni uchta darajaga ajratish mumkin:

- Axloq va etiketdan katta bo‘lmagan darajada chetga chiqish, shaxsiy deviant.
- Xuquqiy me'yorlarning buzilishi, jinoiy javobgarlik uchun yetarli miqdorda bo‘lmasa sotsiologiyada delikvent axloq deb yuritiladi.
- Jinoyat yoki kriminal xulq deb ataluvchi jinoiy huquq me'yorlarining jiddiy buzilishi.

Shunday qilib, jamiyat fikricha ma'qullanmaydigan axloq deviant axloq deyiladi. Deviant axloqning asosiy shakllariga Ya.I. Gilinskiy va V.S. Afanasev fikricha quiydagilar kiradi:

- Ichkilikbozlik va alkogolizm;
- giyohvandlik;
- jinoyatchilik;
- O‘z joniga qasd qilish;
- fohishalik;
- Gomoseksualizm [75] .

Ba'zan bularga qimor o‘yinlari, ruhiy buzilishlar. Shuningdek jinoiy ishlar kiradi. Farq qiluvchi axloqning barcha ko‘p shakllarini uchta guruhga bo‘lish mumkin: xususiy **deviant, delinkvent va kriminal (jinoiy).**

Bugungi kunda tadqiqotlar orasida deviant axloq muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tafovutlarni ilmiy o‘rganish kriminologiya, psixopatologiya, sotsiologiya, ijtimoiy xizmat, pedagogikada amalga oshirilmoqda.[76]. Tafovutlarni o‘rganish o‘zining tarixiga ega. Platon ham inson axloqidagi turli ko‘rinishlarni tushuntirib o‘tadi.

Rossiyada deviant axloqni madniy jihatini asoschisi Ya.I.Gilinskiy muomalag deviant axloq tushunchasini kiritdi, bugungi kunda u farq qiluvchi axloq atamasi bilan teng qo‘llanilmoqda.

Xorijiy tadqiqoqchilar , E.Dyurkgeym, Klages, R.Merton, N.Smelzer, Shibutani, Shuessler va boshqalar deviantlikning kutilayotgan ijtimoiy me'yorlarga mosligi yoki mos emasligini aniqladilar. Deviant shunday axloqki mazkur jamiyatning ijtimoiy kutadigan talablarini qondira olmaydi.

Deviant axloq deganda quyidagilar tushuniladi (*lat. Deviatio – uklonenie)*

---

[75] Гилинский Я.И., Афанасьев В.С. Девиант ахлоқ социологияси: Ўқув қўлланма. - СПб: Филиал института социогии РАН, 1993.

[76] Ланцова Л.А., Шурупова М.Ф. Девиант ахлоқнинг социологик // ижтимоий-сиёсий журнал.- М., 1993. – № 4.

1. mazkur jamiyat me'yorlarida rasmiy belgilangan va amal qilinadigan me'yorlarga mos bo‘lmagan insonning faoliyati, bu ruhiy sog‘lik, huquq, madaniyat yoki axloq bo‘lishi mumkin.».

2. mazkur jamiyat me'yorlarida rasmiy belgilangan va amal qilinadigan me'yorlarga mos bo‘lmagan inson faoliyatining ommaviy shakllarida aks etuvchi ijtimoiy hodisa (standart, shablon).

Deviant axloqning birinchi mazmunida umumiy va yosh psixologiyasi, pedagogika, psixiatriya predmetlari aks etadi. Ikkinchisida esa sotsiologiya va sotsial psixologiya predmeti bo‘ladi.

Deviant axloq ko‘pgina salbiy ko‘rinishlar. Diniy dunyoqarashdagi yovuzlik timsollari, tibbiy nuqati nazardan esa kasallik belgisi bo‘lib, huquqiy me'yorlarga muvofiq noqonuniy, hattoki me'yoriy bo‘lmagan xulqni aks ettiradi.

Ijtimoiy tizimning buzilmasdan ishlashi inson hayot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy o‘zgarishlar deviant axloq, tabiiy va zarur xulqdagi chetlanishlar orqali amalga oshadi. Ular shaxsiy tajriba kengayishiga xizmat qiladi. Insonning psixofizik. Ijtimoiy madaniy, manaviy-axloqiy holatida paydo bo‘luvchi ularning axloqi jamiyatni takomillashtirish, ijtimoiy rivojlanishni amalga oshirishning shartidir.[77].

Deviantlikni bilim me'yorlariga asoslanmasdan aniqlash mumkin emas. Tibbiy me'yorda –bu mutlaqo sog‘lom inson, pedagogikada- barcha fanlardan muvaffaqiyatga erishuvchi shaxs, ijtimoiy hayotda jinoyatchilikning yo‘qligi. Ruhiy me'yorlarni belgilash ko‘pchilik insonlar uchun axloq etaloni bo‘lgan ijobiy xususiyatlar yig‘indisidir.

Shunday qilib, funksional me'yor individning yagonaligiga e'tiborni qabul qilib, ammo ko‘pchilik insonlar uchun etalon bo‘lgan ijobiy xususiyatlarni aks ettirmaydi.[78]

.

[77]Иванов В.Н. Девиант ахлоқ: сабаблари ва кўлами // Ижтимоий-сиёсий журнал. – М., 1995. - № 2.
[78]Гофман А.Б. Социология тарихи бўйича етти маъруза. – М., 1995.

Ijtimoiy me'yor – bu majburiy bo‘lmagan real axloq, me'yoriy axloq esa- oddiy bo‘lmagan eng ko‘p uchraydigan namunadir. Bu tushunchaga asosan ijtimoiy kutishga to‘g‘ri yoki tegishli axloq, qandaydir qonuniyatga ega me'yorlar, o‘ziga rozilik va ko‘rsatma berish, shu jumladan nimanidir talab qilish yoki qandaydir harakatni ta'qiqlash

Bunday zarur cheklov. Me'yor va deviatsiyalar quyidagicha aks ettiriladi

1. nimaningdir o‘rtachasi, massadan ajratilmagan holatdagi;

2.nimaningdir atrof muhitga eng yaxshi moslashishi .

Ijtimoiy me'yor ma'lum jamiyatdagi chegaralar, tadbirlar, axloqning mumkin bo‘lgan intervali, insonlar faoliyati, ijtimoiy guruh, ijtimoiy tashkilotlardagi tarixiy murakkablikni belgilaydi. Tabiiy me'yorlardan farqi ijtimoiy me'yorlar jamiyat ishlashining ob'ektiv qonuniyatlarini inson harakati va anglashida aks ettirish natijasi bo‘ladi.

Delinkvent axloq tushunchasi xuquqiy va ijtimoiy me'yorlarning keng ko‘lamda buzilishini qamrab oladi. Delinkvent axloq- jinoyat kodesi nuqtai nazaridan huquqbuzarlik, mayda bezorilik, magazindagi mahsulotlarni kichik miqdorda o‘zlashtirish, transport yoki bozorlardagi kichik o‘g‘rilik. Og‘ir jarog‘at yetkazish, aldash va boshqalar bo‘ladi. Kriminologiyada ular yoshlar huquqbuzarligi kabi belgilanib, sud yoki ma'muriy huquqbuzarliklarning 12 va 20 yosh oralig‘idagi yoshlar tomonidan amalga oshirilishidir.

BMT ma'lumotlariga ko‘ra barcha yoshlarning 30% i qandaydir qonunga qarshi harakatlarni amalga oshiradilar, 5% iijiddiy qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yadilar.[79].

A.I.Kravchenko deviant va delikvent axloq o‘rtasidagi chegarani shunday ko‘rsatadi: **Deviantlik va delinkvetlik** – me'yoriy axloqdan chiqishning ikkita shaklidir. Birinchi shakl nisbatan kam ahamiyatga ega, ikkinchisi esa katta ahamiyat kasb etadi.

[79] Добреньков в.И. , Кравченко А.И. социология: В 3 т. Т.3: Ижтимоий институтлар ва жараёнлар. – М.: ИНФРА-М, 2000 г. – С. 462.

Bunda gap bezori o‘smirlarning ko‘cha guruhlari to‘g‘risida borib, deviatsiya sifatidagi navbatdagi harakatga o‘z a'zolaridan birini ishtirok etmasligidir. Bu harakatlar deviant axloq kabi militsiya va bu ko‘chada turuvchilarning ko‘pchiligi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Qayd etish kerakki, Kravchenko delinkvent harakatlarga yozilgan me'yorlar va qonunlarga zid bo‘lgan harakatlarni kiritib, biz bu yerda jinoyat deb ataymiz.

Delinkvent axloq qonunlarga qarshi bo‘lgan keng turdagi harakatlarni qamrab oladi. Axloqning ko‘plab turli shakllari ijtimoiy muhokama qilinishi kerak. Deviant axloq narkotiklar iste'mol qilishdan tortib futbol firibgarligacha va hattoki jodugarlik va sehr bilan shug‘ullanishni qamrab oladi. Deviatsyai sotsiologiyasi an'anaviy kriminologiyaga nisbatan ko‘p jinsli axloq toifalarini o‘rganish ob'ekti sifatida turadi.

Ingliz sotsiologlari fikricha jamiyatdagi yoshlar tomonidan qilinadigan odatiy qoidabuzarliklarga o‘g‘irlik, begona uyni buzish va sindirish kirib 17 yoshdan kattalar o‘rtasida kuch ishlatish bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Yoshlar jinoyatchiligining ko‘plab sotsiologik nazariyalari bu jinoyatlarni shahardagi o‘g‘rilarni o‘rganish natijalaridan foydalanib, kriminal jamiyat va ularning imkoniyatlari qamrovini bilib tushuntiradi.

Jinoyatchilikka umumiy qarashlardan biri bu jinoyatchi-shunchaki yomon odam, u bilan muloqot qilishnig yagona usuli unga jazo berishdir.

Saudiya Arabistoni va bosh musulmon mamlakatlarida bugungi kunda ham o‘g‘rilik uchun qo‘l kesilib, ko‘pgina boshqa jinoyatlarga o‘lim jazosi beriladi. Bu ommaviy tarzda ijro etiladi, ammo bazan barcha jamoaning bo‘lishi talab qilinadi.

Deviant axloq ikkita guruhga bo‘linadi:

1. ruhiy sog‘lik me'yorlaridan farq qiluvchi axloq
2. insoniyatning manaviy-axloqiy me'yorlaridan farq qiluvchi axloq.[80].

Deviant axloq namoyon bo‘lishining asosiy shakllari quyidagilar ichkilikbozlik va alkogolizm; Foxishalik; suitsidal axloq; jinsiy kasalliklar

[80] П.Д. Павленок. Ижтимоий хизматлар асоси: дарслик. – М: Инфра-М, 1997. – С. 265.

asosidagi deviant axloq; huquqbuzarlik va narkomaniya. Bu tushunchalar o‘rtasida farqlar mavjud. Ularga batafsil to‘xtalamiz

Alkogolizm –sprili ichimliklarga patologik qaramlik va shaxsning ijtimoiy-axloqiy zavol topishi Ichkilikbozlik – bu muntazam alkogol iste'mol qilish, ijtimoiy moslashuvning buzilishidir. Rus sotsiologlari o‘tkazgan tadqiqotga ko‘ra yirik sanoat korxonalarida 99% erkak va 97% ayollar alkogol iste'mol qiladi. Ichkilikning motivlari quyidagilar: ko‘ngil ochish, yaqin atrofning ta'siri, ichkilik an'analariga rioya qilish, muhim kunlarni nishonlash, ishdagi ko‘ngilsizliklar.[81].

Alkogolga qaramlik bosqichma-bosqich shakllanadi va murakkab o‘lchovlar bilan belgilanadi. Sprili ichimlikka havas inson axloqida quyidagilarni namoyon qiladi: ichishga tayyorlanishda behalovatlikning oshishi, qo‘l urishtirish, ruhiy ko‘tarinkilik. Qancha ko‘p vaqt alkogol ichilsa ichishdan shuncha kam quvonch tuyiladi..

Alkogolizmning shakllanishida bir qator omillar ta'sir qiladi: irsiy omillar, xarakter, shaxsiy individual xususiyatlari va atrof muhit ta'siri. Shunindek moddiy holat va ta'limning kamligi ham buning omiliga kiradi. **Foxishalik** (ot lat. slova prostitution – bulg‘amoq, nomusiga tegmoq,). Olimlar fohishalikda quyidagi belgilarni ajratadilar.:

- Bandlik turi – mijozning jinsiy ehtiyojlarini qondirish;
- Bandlik xususiyati –turli shaxslar bilan jinsiy aloqa qilish shakli, mijozning jinsiy ehtiyojlarini istalgan shaklda qondirish ;
- Bandlik motivi – oldindan pul yoki moddiy qiymatlikni olish, fohishaning yashashining asosiy va qo‘shimcha manbasi bo‘ladi.
- Uning sabablari ijtimoiy iqtisodiy va manaviy-axloqiy omillar bo‘ladi. Ammo o‘ziga xos sabablari ham bor. Bunday ayollar kuchli va ehtiyojlarni o‘rtachadan yuqori qondiradilar. Boshqa sabab muhitdir.
- Foxishalik – bu jinoyatchilik. Alkogolizm va deviant axloqning boshqa shakllari kabi ijtimoiy muammodir..

[81] Ижтимоий тафовут – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрид. лит. 1989, - С. 65.

Foxishalik xavflimi? Albatta birinchidan, Foxishalik – ijtimoiy parazitizmning shaklidir. Foxishalik venerik kasalliklar va OITS tarqalishiga sabab bo‘ladi. Agar bu ayollar o‘z sog‘ligini yo‘qotsa sog‘lom farzand ko‘ra olmaydi. Ular ruhan tushkunlikka tushib o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotadilar.

Uni kamaytirish omillari aholi hayot darajasini ko‘tarish, jinsiy tarbiya dasturlarini amalga oshirish, bu faoliyat uchun jinoiy javobgarlikni kiritish

Suitsid axloq. Suitsid – bu o‘z hayotidan ongli voz kechish va o‘zini o‘ldirishga urinishdir.

Bunday axloq o‘smirlar o‘rtasida tez-tez uchrab, bunga sabab hayotiy tajribaning yo‘qligi va hayotiy yo‘nalishni to‘g‘ri belgilamaslikdir. Bundan tashqari muhim sabablari ham mavjud. Ular quyidagilar:

- Atrofidagi yaqinlari orasidan eng sevimli insonini yo‘qotish;
- O‘z qadridan xafa bo‘lish;
- To‘satdan qattiq charchash;
- Alkogol, psixotrop moddalar iste'mol qilish natijasida shaxsiy himoya mexanizmlarining buzilishi;
- toksikomaniya va narkomaniya;
- nufuzli odam bilan o‘zini tenglashtirish;

inson o‘z xulqi ustidan nazoratni yo‘qotgan vaqtdagi o‘tkir agressiya holati.[82].

Jinsiy kasalliklar asosisdagi deviant axloq..Zamonaviy seksopatoloiya shaxsiy jinsiy axloqida patologik va boshqa tafovutlarni ajratadi. Patologik deviatsiya jinsiy buzilish shaklida tibbiyot va psixiatriyaning tadqiqot predmeti bo‘ladi. Nopatologik deviant me'yor doirasidagi tafovut bo‘lib, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning predmeti bo‘ladi.

Jinsiy deviatsiya quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

- jinsiy qoniqish ob'ektiga munosabatdagi tafovut (zoofiliya);
- jinsiy ehtirosni amalga oshirish usulidagi tafovut (sadizm, mazoxizm i.);

[82] П.Д. Павленок. Ижтимоий хизмат асослари. – М.,1998. – С. 274.

- o‘z jinsidagi shaxslarga yoki yaqinlarga jinsiy ehtiros shaklidagi tafovut (gomoseksualizm, lezbilik, yaqin qarindoshlarning jinsiy yaqinligi);
- jinsiy o‘zini anglashning buzilishi bilan bog‘liq tafovut (transeksualizm);
- jinsiy axloq stereotiplari o‘zgarishi bilan bog‘liq tafovut (maskulinlik).

Narkomaniya – bu narkotiklarga jismoniy va ruhiy qaramlikda aks etadigan kasallik bo‘lib, bosqichma-bosqich organizmning jismoniy va ruhiy buzilishiga olib keladi.

Narkomaniya ijtimoiy oqibatlarga ega. Jinoiy elementlar uchun bu pul topishning oson yo‘lidir. Narkotiklar iste'moli o‘limning ko‘payishiga, ayniqsa yoshlar orasida somatik va ruhiy kasalliklar ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Narkomaniya asosida jinoyat turib, narkoman uni olish uchun har qanday jinoyatga tayyor bo‘ladi. Narkotiklar xarid qilish bir qator jinoyatlar o‘g‘rilik, firibgarlikning o‘sishiga olib keladi. Narkotiklar avlodlarga ta'sir qiladi. Bolalar jiddiy jismoniy va ruhiy kasallkilar bilan tug‘ilib, oilalar buzilishiga sabab bo‘ladi.

Narkomaniya sabablari etnologiyasida narkoman shaxsi katta o‘rinni egallaydi. U demografik, yosh va ijtimoiy-tibbiy jihatlarga ega. Narkomanlar orasida erkaklar ko‘proq. Narkotiklarning asosiy iste'molchilari 12-15 oralig‘idagi yoshlardir.[83]

.

Narkomaniya – yoshlar kasalligi. U insonni jamiyatdagi me'yoriy hayotdan chetga chiqaradi. Aynan shu narsa mamlakat kelajagiga xavf tug‘diradi. Butun dunyoda 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar narkotik iste'molchilaring katta qismini tashkil qiladi. Bu yoshda narkomaniya o‘sib boryapti. Narkotiklarning qo‘shilishning o‘rtacha yoshi 13 ni tashkil qilyapti.

Narkomaniyaning turli shakldaligi toksikomaniya deb yuritiladi. Ken tarqalgan narkotik moddalarga quyidagilar kiradi:

- Morfiy geroin – alkoloyd opium;
- Uyqu dorilar ,;
- Gashish (anasha, marixuana);

[83] Маркова Н.Е. Культуринтервенция// /http://www.narkotiki.ru/research_5375.html

- Asab tizimiga ta'sir qiluvchi moddalar.
- Kokain – koka o‘simligi alkoloydi.
- Narkomaniya va toksikomaniyaning motivlari quyidagilar:
- Narkotik modda ta'sirida hayotdan rohatlanish;
- Ma'lum guruhga kirish maqsadida sinab ko‘rish;
- Atrofdagilar bilan munosabatlarda dushmanlarcha kayfiyat;
- To‘liq zaiflashish tuyg‘usiga erishish;.

Narkomaniya uchun sinov asosi mikro muhit sanaladi. Oila va ko‘cha muhiti katta ahamiyatga ega. Maktab, Ko‘cha,ishda hyech bo‘lmaganda bitta narkoman paydo bo‘lsa u atrofdagilarga salbiy ta'sir qiladi. Dastlab narkotiklar bepul, keyinchalik qarzga va pulga beriladi.

Shunday qilib har bir jamiyatda ijtimoiy tafovutlarning u yoki bu shakllari mavjud. Bugungi kundagi eng dolzarb muammolar har bir mamlakat xavfsizligi uchun jiddiy xavf bo‘lgan narkotiklar ishlab chiqarish, sotish va tarqatishdir.

Narkomaniya o‘tkair ijtimoiy oqibatlarga ega bo‘lib, huquqbuzarlkilar miqdori oshishi, insonlar ayniqsa yoshlarning jismoniy va axloqiy sog‘ligiga ta'sir ko‘rsatadi. Ayanan voyaga yetmaganlar, bolalar va o‘smirlar yuqorida keltirilgan salbiy ta'sirlarga tez tuzib qoladilar.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Me'yor va tafovut tushunchalarini ayting ya.

2.Ijtimoiy solidarlik salohiyatini qanday saqlash va rivojlantirish mumkin ?

3. Anomiya tushunchasini ayting. Anomiya nimada aks etadi. An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o‘tish murakkabliklarini ko‘rsating.

4. Bugungi O‘zbekiston Jamiyatida anomiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang

5. E. Dyurkgeymning «o‘zini o‘ldirish» ishini tahlil qiling. Anomim jamiyatni va o‘zini o‘ldirish sabablarini bartaraf etishning dyurgeym dasturiga o‘z munosabatingizni ko‘rsating.

6. R.Mertining anomiya nazariyasi va uning deviant axloq nazariyasining asosiy qoidalarini ko‘rsating. Merton fikricha nomuvofiq axloq kuchi nimaga bog‘liq.?

7Iqtisodiy va siyosiy institutlar bilan anomiya aloqasi to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz.?.

12-Mavzu. Zamonaviy oila va uning ijtimoiy himoyasining zaruriyati

1. Zamonaviy oila: tipologiya, funksiyalari, vazifalari.
2. Oila ijtimoiy xizmat ob'ekti sifatida: nazariy modellari va tamoyillari.
3. Oilaviy ziddiyatlar va oilada kuch ishlatish muammolari. Ijtimoiy xodimning oilani mustahkamlashdagi o‘rni va ahamiyati

1. Zamonaviy jamiyatda ko‘pgina ijtimoiy guruxlar faoliyat yuritadi. Ulardan ba'zilari mamlakatdagi ko‘pgina fuqarolarni birlashtiradi, masalan davlat. Boshqalari o‘z tarkibiga ma'lum miqdordagi insonlarni olib, faoliyatning aniq turi maslalan, sohliqni saqlash, militsiya va boshqlara bilan shug‘ullanadi. Ammo har qanday jamiyatda shunday ijtimoiy sin borki, har qanday insonning hayoti bilan bog‘liq bo‘lib bu- ijtimoiy tashkilotning eng keng tarqalgan shakli oiladir.

Oila – bu qarindoshlik, nikoh yoki farzandlikka olish va axloqiy majburiyat va o‘zaro yordam asosida insonlarni birlashtirishga asoslangan shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy tizimdir.

Bu tizimning muhim o‘ziga xosliklaridan biri oila bir vaqtda ijtimoiy institut va kichik ijtimoiy guruh xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Oilaviy munosabatlarni tahlil qilib, tarkibiy xususiyatlari va dinamikasi nuqtai nazaridan ularni ko‘rib chiqish mumkin. Bunday yondashuv sotsiologlar A. I. Antonov, V. M. Medkov tomonidan taklif etilgan (rasm. 1)[84].

[84] Антонов А.И., Медков В.М.Оила социологияси – М.: МГУ: Бизнес ва бошқарув халқаро университети ("Братья Карич"), 1996.



Rasm. 1. Tarkibiy va dinamik koordinatalar birligida oilaning sotsiologik tahlili

Oila ijtimoiy tarkibi bo‘yicha boshqa ijtimoiy institutlar va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshiruvchi ijtimoiy institut, jamiyat tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarkibiy yondashuv institutlar pog‘onasida oilaning o‘rnini belgilaydi, oilaning jamiyatda uni anglash uchun muhim bo‘lgan vazifalarini aniqlaydi. Bir vaqtda oila ijtimoiy tegishlilik manbasi sifatida ko‘riladi.

Gorizontal yondashuv oiladagi o‘zgarishlar, ijtimoiy madaniy dinamikasiga e'tiborni belgilaydi. Dinamik jihatdan tahlil qilish avlodlar almashuvi jarayonida oilaviy hayotdagi o‘zgarishlar bilan shaxslaaro o‘zgarishlarni taqqoslash imkonini beradi.

Mazkur sxema oila sotsiologiyasidagi oilani o‘rganish bo‘yicha uchta yondashuvlarni birlashtirishda ko‘rinadi : ijtimoiy-tarkibiy; madaniy; ijtimoiy-psixologik.

1. Jinsiy tartibga solish vazifasi. Oila insonning tabiiy jinsiy ehtiyojlarini tartibga solish, yo‘naltirish va boshqarishni amalga oshiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga har bir jamiyat jinsiy ehtiyojlarni qondirishda muqobil yo‘llarga ega. Bunga qaramasdan er-xotin sadoqatining ma'lum me'yorlari bo‘lib,

ko‘pgina jamiyatlar bu me'yorlarning buzilishini oson o‘tkazadilar. Bunda ideal madaniyatdan real madniyatning tafovuti kelib chiqadi. Ammo tez-tez lilaviy me'yorlar buzilsa er-xotinning oiladan tashqarida jinsiy aloqaga kirishishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa jinsiy axloq me'yorlarining turlichaligi yosh oilalarning nikohgacha bo‘lgan jinsiy tajribasida namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina zamonaviy jamiyatlarda nikohga kirish be'mani va aqlsizlik sanalib, nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqa- nikog‘ga tayyorlashga xizmat qiladi. Boshqa tomondan patriarxal oilada nikohgacha jinsiy aloqa qattiq taqiqlanadi. (ayollar munosabatida).

2. Reproduktiv vazifa. Har qanday jamiyatning asosiy vazifalaridan biri- uning a'zolarining yangi avlod yaratishidir. Bu bolalar jismoniy va ruhiy sog‘lomligi va natijada o‘qish va ijtimoiylashuv qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan muhimdir. Shu bilan birga jamiyatning mavjudlik sharti tug‘ilishni tartibga solish, demografik pasayish yoki aksincha katta miqdorda o‘sishni oldini olishdir. Oila jamiyatga yangi a'zolarni yetishtirib beruvchi asosiy institutdir. Boshqacha yo‘l samarasiz va ijtimoiy jihatdan qabul qilinmaydi. Shuning uchun bolaning oiladan tashqarida paydo bo‘lishi afsuslanishlar, achinish, ayblashga olib keladi.

3. Ijtimoiylashuv vazifasi. Shaxsning ijtimoiylashuvida qatnashuvchi institutlar ko‘pligiga qaramasdan bunday jarayonda markaziy o‘rinni so‘zsiz oila egallaydi. Bu eng avvalo, individning dastlabki ijtimoiylashuvi oilada amalga oshishi, shaxs sifatida shakllanish uchun asoslarni egallashi bilan tushuntiriladi. Platondan boshlab ko‘pgina mutafakkirlar bolani tarbiyalashda umumiylashuv to‘g‘risida gapirishgan, ammo oiladan tashqaridagi ijtimoiylashuvga barcha urinishlar muvaffaqiyatsiz bo‘lgan.

Bugungi kunda bizning jamiyatda bolalarni samarali ijtimoiylashuvi uchun ta'lim muassasalari va oilaning kuchlarini taqqoslab ko‘rilib, individ ijtimoiylashuvida oila birinchi o‘rinda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bola uchun oila uning shaxs sifatida rivojlanishi boshlalanadigan dastlabki guruhdir. Boshqa dastlabki guruhlar keyinchalik paydo bo‘lishiga qaramasdan shaxsda doimo bolaligida olgan axloqiy namunalari saqlanib qoladi. Oilaviy ijtimoiylashuvning asosiy usuli oilaning katta a'zolari axloq modellarini bolalarga o‘tkazishdir. Agar

bola ota-onasining notoʻgʻri axloq namunalarini olsa, boshqa oilani koʻrganda qarama-qarshilik vujudga kelib, ijtimoiylashuvda qiyinchilik tugʻdiradi. Bunda tez-tez ota yoki ona harakatlaridan qoniqmaslik paydo boʻladi, bola axloq modellarini qabul qiladigan boshqa shaxslarni izlaydi.

4. Hissiy qanoatlanish vazifasi. Insonning koʻpgina ehtiyojlariga shu jumladan intim munosabatlar kiradi. Psixiatrlar fikricha jamiyatdagi hissiy va axloqiy murakkabliklar, hattoki jismoniy kasalliklarning sababi muhabbat, mehr va toʻlaqonli intim munosabatlarning dastlabki guruh va eng avvalo oilada yoʻqligidir. Katta miqdordagi ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, jiddiy jinoyatlar va boshqa salbiy holatlar bolaligida oilada gʻamxoʻrlik koʻrmagan, ota va ona mehrisiz bolalar uylarida tarbiyalangan shaxslarda kuzatilib, ular katta miqdorda kasallikka, ruhiy buzilishga. yuqori oʻlim darajasiga, nomuvofiq axloqqa ega boʻladilar. Fakt shuki kimda yaqinlari bilan ishonchlik munosabat. Intimlik, tuygʻularini hissiy aks ettirish mavjud boʻlsa, oʻshanda hayot uchun zarur elementlar mavjud boʻladi. Oʻz tarkibi va xususiyatiga koʻra oila hissiy ehtiyojlarni eng muhim manbasi boʻladi. Ota-ona va er-xotin munosabatlari insonlarga bunday imkoniyatni taqdim qiladi.

5. Maqom vazifasi. Oilada tarbiyalangan har bir inson uning oila a'zolariga tegishli bir qator darajalarni oladi. Bu eng avvalo, sha'siy, millat sifatidagi, shahar yoki qishloq madaniyatidagi oʻrni uchun muhimdir. Sinfiy jamiyatdagi ma'lum ijtimoiy qatlamga tegishli oila bolaga bu qatlam uchun xos boʻlgan imkoniyat va ragʻbatlarni taqdim etadi, bu koʻpgina holatlarda uning kelgusi hayotini belgilaydi. Albatta chinfiy maqom inson va qulay holatlar natijasida oʻzgarishi mumkin, ammo kelajakni qurishda bu shaxs uchun oiladagini izlash muhim boʻladi. Oila ularning manfaatlari, ahamiyati va turmush tarziga mos keluchi ota-ona va yaqinlarning darajasiga mos qilib bolani tayyorlashni amalga oshirishga majburdir.

6. Himoyaviy vazifa. Barcha jamiyatlarda oila instituti turli darajada oʻz a'zolarini jismoniy, iqtisodiy va ruhiy himoyasini amalga oshiradi. Biz shunga odatlanganmizki, ltdamiz va uning a'zolarini manfaatlari va xavfsizligini himoya

qilamiz. Ko‘pgina holatlarda inson uchun uning oilasidagi a'zolarning ajratilishi uyat yoki or sanaladi.

7. Iqtisodiy vazifa. Oila a'zolari bir xo‘jalikka kirib, bir jamoa bo‘lib mehnat qilganlarida ular o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar shakllanadi. Aytish mumkinki, oila eamiyatning eng mustahkam iqtisodiy bo‘lagidir. Oilaviy hayotdagi me'yorlar har bir oila a'zosi uchun iqtisodiy qiyinchilik vujudga kelsa majburiy yordam va ko‘makdan iborat.

Oila muammosini ilmiy tahlil qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. uning barcha tarkibiy qismlari ijtimoiy maqomining holatini bahosi; 2. beqarorlik sharoitida oila ijtimoiy sog‘ligining dinamik modeli; 3. inqiroz holatlarini bartaraf etish maqsadida ijtimoiy yordamning ustuvorliklarini tanlash; 4.oilani qo‘llab-quvvatlashning samarli tizimi, aniq tadbirlari va tavsiyalarini yaratish ; 5. mintaqaviy dasturlar va ijtimoiy ish natijalarini tahlil qilish.

2.Keng ma'nodaoilaviy siyosat –bu oia uchun davlatning nima qilish, unga qanday ta'sir ko‘rsatishidir. Oilaviy siyosat sog‘liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya, atrof-muhit muhofazasida aks etadi. Tor ma'noda –bu bolali oilalarni saqlash bo‘yicha oila qonunchiligida nazarda tutilgan ma'lum tadbirlardir.

O‘zbekiston an'anaviy qariyatlariga muvofiq bola tarbiyasi uchun javobgarlik, inqiroz holatida keksalarga qarash oilaga yuklatilgan. Oilalarni mustahkamlash bo‘yicha bir qator ma'rifiy va ta'qiq xususiyatiga ega tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan 3-yoshgacha bolasi bor oilalar ajrimiga ta'qiq, bu masalaning mahalla qo‘mitasida majburiy ko‘rib chiqilishining murakkab amaliyotlari, ajrashganda davlat bojining yuqoriligi shular jumlasidandir. O‘rta maxsus ta'lim muassasalarida yoshlarni oilaga tayyorlashda “oila va nikoh” kursi kiritildi. Faqatgina tug‘ruq ta'tili uchun emas, balki bolani ikki yoshgacha tarbiyalash bo‘yicha nafaqalar to‘lanadi. Davlat tug‘ilish yuqoriligicha qolayotgan qishloq joylarida uni pasaytirish bo‘yicha siyosatni amalga oshirib, bu joylarda onalar va bolalarning sog‘ligi pasayishi kuzatilmoqda (40-70% homilador ayollar noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida kamqonlikka chalingan). Nikoh oldidan majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish kiritildi.

Oilani ijtimoiy himoya qilish.

Asosiy vazifalari:

- Belgilangan qonuniy huquqlar, ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish
- O‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ijtimoiy himoya tizimining moslashuvi
- Turli aholi guruhlari va oila turlariga differensial yondashuv, yakuniy ijtimoiy texnologiyalarni shakllantirish
- Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning faol shakllaridan keng foydalanish (aholini ijtimoiy va puhiy sog‘lomlashtirish hamda moslashtirish, o‘zini namoyon qilish va o‘zini ta'minlash, kasbiy yo‘naltirish.).

Ijtimoiy yordam:

- Sanitariya, oziq-ovqat, dori va parvarishlash vositalari bepul beriladigan shakldagi moddiy yordam. Masalan barcha birinchi sinf o‘quvchilariga maktb anjomlari bilan birga sumkalar berish yoki maktab orqali muhtoj oilalarga oyoq kiym va ust-bosh berish.
- Oilaning pul to‘lovlari: bola tug‘ilganligi munosabati bilan eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida bir martalik nafaqa, bolani 2 yoshgacha parvarishlash bo‘yicha nafaqalar, boshqa to‘lovlar va pensiyalar.
- Bolali oilalarga mehnat, soliq, uy-joy, tibbiy imtiyozlar, manzilli yordam, qachonki oila o‘zini minimum ta'minlay olmasa.
- Ijtimoiy ko‘mak – oila faoliyatini rag‘batlantiruvchi faoliyat shakllari, kreditlar, sug‘urta, qo‘shimcha o‘qitish, qayta tayyorlash, ishga joylashtirish (masalana O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun mikrokreditlar xayriya fondlari orqali taqdim etiladi).
- Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish (ma'lum tibbiy, psixologik, pedagogik yordam, maslahat va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish).

Oila ijtimoiy xizmati. **Vazirlar** Mahkamasida oila, onalik, bolalikni ijtimoiy himoyalash masalalari bo‘yicha kotibiyat tuzilgan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, kasallik bo‘yicha to‘lovlar, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, bolani parvarishlash bo‘yicha

nafaqalar, nogiron va yolg‘iz keksalarga moddiy yordam ko‘rsatishni nazorat qiladi, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish uchun mas'ul bo‘ladi. Xalq ta'limi vazirligi bolalar bog‘chalari va yaslilar, ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron va rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun internatlar ta'lim tizimini nazorat qiladi. Sog‘liqni saqlash vazirligi onalar va bolalar sog‘ligi uchun javobgar bo‘lib, homilador ayollarni majburiy ro‘yxatga olish va maslahat berishni o‘tkazadii, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar patronaji, bolalar maslahatxonalari tizimi orqali kasal bolalarni emlash va davolashni amalga oshiradi, muntazam tibbiy ko‘riklar orqali bolalar bog‘chasi va maktablardagi bolalarning sog‘ligini nazorat qiladi. Ichki ishlar boshqarmalari hokimiyat bilan birgalikda huquqbuzarliklar profilaktikasi va nazoratini amalga oshirib, shu jumladan bolalar va o‘smirlar huquqbuzarligini oldini oladi. Mahalla qo‘mitalari davlat byudjetidan olingan mablag‘larni kam ta'minlanganlarga taqsimlaydi. Bu maqsadlar uchun shuningdek byudjetdan tashqari fondlar va xayriya tashkilotlarini jalb qiladi.

3. Er-xotin munosabatlari bir necha darajaga ajratilib, bir qator ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkin.

Psixofiziologik –jinsiy hayot buzilishida namoyon bo‘ladigan nomuvofiqlik.

Bu tez-tez uchraydigan muammo, ammo ajrashishga sabab bo‘ladigan eng muhim sabablardan emas.

Psixologik – oilada nosog‘lom muhitning yaratilishi, bolalarga salbiy ta'sir qiluvchi doimiy nizolar, kelishmovchiliklarda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ahamiyatli –yuu daraja barqarorligining buzilishi belgilari- oiaviy-maishiy yuklamalarning noto‘g‘ri, noteng taqsimlanishi.

Ijtimoiy madaniy (axloqiy) – er-xotinning bir birini tushunmasligi oqibatidagi nizolar, hurmat qilmaslik, o‘zaro qiziqishning yo‘qligi, muloqotdan qoniqmaslik, hayotiy maqsad, ideallari mos kelmasligi.

U yoki bu darajadagi ziddiyatga olib keluvchi sabablar turlicha bo‘lishi mumkin. Ammo ularni vaqt bo‘yicha paydo bo‘lishini ikkita yirik guruhga ajratish mumkin. Bu sababalar bevosita nikoh vaqtida, birgalikda yashash va umumiy ro‘zg‘or asosida paydo bo‘ladi va oila qurguncha ular ob'ektiv mavjud bo‘ladi.

Oila qurgunga qalar mavjud bo‘ladigan ob'ektiv sabablar guruhi xatar omillari deb nomlanib, ular nikohgacha tanishuv vaqtida ma'lum bo‘lib, kelgusida ajrashish xavfini keltirib chiqaradi.

Xatar omillari inson shaxsi, uning tarbiyasi va nikoh sharoitlari bilan bog‘liqdir. Xatar omillariga quyidagilar kiradi:

- Er-xotin o‘rtasidagi ta'limdagi va yoshdagi katta tafovut (ayniqsa agar ayol ancha katta bo‘lsa).
- Er-xotindan birining ichkilikka moyilligi;
- Nikohga, umuman oilaga yengil qarash;
- Nikohga juda kech yoshda kirishish;
- Tez farzand ko‘rish ehtimoli;
- Juda kam muddat tanishganlik;
- Nikoh tuzishga ota-onalarning qarshiligi;
- O‘zaro roziliksiz, majburiy nikoh.

Bu omillar birgalikdagi hayotning dastlabki yillarida ko‘rinib, barcha ajrimlarning uchdan bir qismi birgalikda bir yildan uch yilgacha yashagan oilalarda kuzatiladi.

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. Oila: turlari, vazifalari, funksiyasi.
2. Zamonaviy oiladagi asosiy muammolar va ijtimoiy xizmatning vazifalari.
3. Bevaqt ijtimoiy yolg‘izlikning oldini olish.

13- Mavzu . Nogiron shasxlar bilan ijtimoiy ishning xususiyatlari

1. Nogironlik» tushunchasini aniqlash.

2. Nogiron shaxslarni sog‘lomlashtirish.

3. Nogironlikka olib keluvchi sabablar

1. Nogironlik jismoniy, ruhiy, sezgi, ijtimoiy, madaniy, qonunchilik va boshqa to‘siqlar bilan imkoniyatlarning cheklanganligi bo‘lib, nogiron insonga

jamiyatning boshqa a'zolari kabi jamiyatga integratsiyalash hamda oila va jamiyat hayotiga qatnishish imkonini bermaydi. Jamiyat nogiron shaxslarning muhim ehtiyojlariga o‘z standartlarini moslashtirishi shart bo‘lib, bu ularning mustaqil hayot kechirishini ta'minlash uchun zarurdir.

Nogironlik jismoniy, ruhiy, sezgi, ijtimoiy, madaniy, qonunchilik va boshqa to‘siqlar bilan imkoniyatlarning cheklanganligi bo‘lib, nogiron insonga jamiyatning boshqa a'zolari kabi jamiyatga integratsiyalash hamda oila va jamiyat hayotiga qatnishish imkonini bermaydi. Jamiyat nogiron shaxslarning muhim ehtiyojlariga o‘z standartlarini moslashtirishi shart bo‘lib, bu ularning mustaqil hayot kechirishini ta'minlash uchun zarurdir[85].

Nogiron atamasi lotincha asosga ega (valid- haqiqiy, to‘liq baholangan, qodir) va so‘zma-so‘z tarjima qilinganda layoqatsiz, to‘la bo‘lmagan degan ma'noni bildiradi.

Nogironlar to‘g‘risidagi deklaratsiyaga binoan nogiron- kamchiligi natijasida shaxsiy yoki ijtimoiy hayotidagi ehtiyojlarni to‘liq yoki qisman mustaqil ta'minlay olmaydigan shaxs deb keltirilgan.[86].

O‘zbekiston Respublikasi Nogironlar to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra nogironlar jismoniy yoki aqliy kamchiligi sababli hayotiy faoliyatlari cheklangan, ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxsdir»[87]

. Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasida ularning boshqa fuqarolar bilan tengligini ta'minlash maqsadidagi, huquq va erkinliklarni amalga oshirish bo‘yicha, ularning hayot faoliyatlaridagi cheklovlarni bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirish, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek o‘z fuqarolik majburiyatlarini bajarishni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilaydi.

---

[85]Замский, Х. С. Ақлий қолоқ болалар. Қадимги даврдан 20-аср ўртасигача ўқитиш ва тарбиялаш тарихи История /Х. С. Замский. -М: НПО «Образование», 1995

[86]Ногиронларнинг ҳуқуқлари тўғрисида декларация. БМТ, от 9 дек. 1975. [Электронный ресурс]. - Электрон, журн,-РООИ Родник жизни.- Режим доступа к журн. www.rodnikzhizni.ru

[87] Закон Республики Узбекистан о социальной защищенности инвалидов в Республике Узбекистан. (ведомости верховного совета республики узбекистан, 1992 г., № 2, ст. 78; ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1998 г., № 5-6, ст. 102; 2001 г., № 5, ст. 89; собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 37, ст. 408, № 51, ст. 514; 2005 г., № 21, ст. 148)

Shaxsning hayot faoliyatining cheklanishi o‘ziga xizmat ko‘rsatish, harakatlanish, o‘zini nazorat qilish, muomalada bo‘lish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishni amalga oshirishda qobiliyat va imkoniyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishda aks etadi.

Shaxsning hayot faoliyatining cheklanishi o‘ziga xizmat ko‘rsatish, harakatlanish, o‘zini nazorat qilish, muomalada bo‘lish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishni amalga oshirishda qobiliyat va imkoniyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishda aks etadi.

Bugungi kunda nogironlikka ikkita asosiy yondashuv mavjud: nogironlikning tibbiy modeli (an'anaviy) va nogironlikning ijtimoiy modeli.

Nogironlikning tibbiy modelida nogironlik tibbiy hodisa sifatida qaraladi. («bemor inson», «og‘ir jismoniy shikastlanishga ega inson», «etarlicha intellektual rivojlanmagan inson».). Bu modeldan kelib chiqib nogironlik xastalik, dard, patologiya sifatida qaraladi. Tibbiy model paternalistik xususiyatga ega nogironlar bilan ishlashning uslubini aniqlaydi va davolash, mehnat muolajalar, shaxsga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy ish yaratishni taklif qiladi. (masalan, internat turidagi muassasalarda ta'lim olish yoki nogironlar uzoq vaqt bo‘ladigan tibbiy muassasalar). Ta'lim olish, iqtisodiy hayotda ishtirok etish, dam olish nogironlikka ega shaxslar uchun yopiq bo‘ladi. Ixtisoslashgan o‘quv muassasalari, ixtisoslashgan korxona va sanatoriyalar nogironlarni jamiyatdan ajratadi va ularni kamchilik qilib qo‘yadi.[88]. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar nogironlarning jamiyatga qo‘shilishini ta'minlaydi va ularning mustaqil hayot kechirishi uchun zamin yaratadi.

Yangi dunyoqarashning diqqat-markazida nogironlikning ijtimoiy modeli turib, nogironlik muammolari ularning muhim ehtiyojlariga jamiyat munosabatining natijasi sifatida qaraladi. Ijtimoiy modelga ko‘ra nogironlik ijtimoiy masala sanaladi. Bunda imkoniyatlarning cheklanganligi insonning aybi

[88]Садхана Атван. Идеи независимой жизни инвалидов и социально-педагогическая поддержка ребенка с ограниченными возможностями // Новое в педагогических исследованиях, выпуск 1 / - Санкт-Петербург, 2004.

sanalmaydi. Shuningdek nogironlikning ijtimoiy modelida ularning sog‘ligi darajasiga katta e'tibor beriladi.[89].

Ijtimoiy model muallifligi (ba'zan interaktiv model yoki o‘zaro munosabatlar modeli) aynan imkoniyati cheklangan shaxslarga tegishlidir. Nogironlikning ijtimoiy modeli britaniyalik nogiron Pol Xant tomonidan yozilgan esse asosidanomlandi. Bu esse “kritik sharoitlar” deb nomlanib, 1966-yilda nashr etildi.

Xant, o‘z asarida nuqsonga ega insonlar to‘g‘risida xulosalar kelirib, bu odatiy g‘arb qadriyatlariga tegishli bo‘lib, ular o‘zini baxtsiz, foydasiz, qo‘lganlrga o‘xshamagan, ruhiy siqilgan va kasal his qilishlari bilan tushuntiradi.»[90]. Xantning mazkur tahlili ajratish va siqilishda aks etadigan nogironlar to‘g‘risidagi oldindan bilmay turib bildirilgan xulosaga olib keldi.».U nogironlar va eqtisodiy hamda madaniy munosabatlarni belgilab berdi, bu g‘arb jamiyatida nuqsonga ega va nogiron shuxslarni tushunishning muhim qismi bo‘ldi.

Ijtimoiy model nogironlikka insonning xususiyati deb emas, balki, ijtimoiy muammo sifatida qaraydi. Ijtimoiy modelga muvofiq nogironlik siyosiy aralashuvni talab qilib, bundan muammo atrof muhitning moslashmaganligi uchun paydo bo‘ladi. Ijtimoiy modelga o‘tish jahon hamjamiyatining insonparvarlashuviga asoslanadi. Ijtimoiy modelning muhimligi nogironlarni odatiy bo‘lmagan insonlar sifatida ko‘rmaydi, qobiliyatsizlikni mos bo‘lmagan muhit, takomillashmagan qonunlarda deb biladi.

Mazkur modelning mazmuni nogironlik muammolarini hal qilishga quyidagi yondashuvlarni belgilaydi: nogironlarning jamiyat hayotining barcha jabhalarida qatnashishining teng huquqlari qonunchilik bilan mustahkamlangan bo‘lishi kerak, inson faoliyatining barcha sohalaridagi qonun va qoidalar stanrtlar orqali amalga oshadi, ijtimoiy tuzilmani yaratuvchi teng imkoniyatlar ta'minlangan bo‘lishi kerak. Nihoyat imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga integratsiyasi bolalarning bu toifasiga ijobiy munosabatni shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

---

[89]Ярская-Смирнова Е.Р. Социокультурный анализ нетипичности. - Саратов: СГТУ, 1997.
[90]Холл Дж., Тинклин Т. Студенты-инвалиды и высшее образование / Пер.с англ.// Журнал исследований социальной политики. Т.2. № 1. 2004. С.115-126.

Ijtimoiy model mualliflari nogiron insonlarning o‘zlari bo‘lib yoki ular bilan suhbatlashib nogironlik muammosini faqatgina patologiya va jismoniy kamchiliklar nuqtai nazaridan emas, balki ularning atrof va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarida ko‘radilar. Shu nuqtai nazardan cheklangan imkoniyatlar kasallik bilan bog‘liq bo‘lmasdan, nogironlarni ajratish va to‘liq huquqli a'zo sifatida qabul qilishga ruhiy tayyor emaslik bilan, shuningdek atrofda mavjud to‘siqlar bilan bog‘liqdir.

Nogironlik konsepsiyasi atrofdagi omillarni hisobga olganda quyidagicha bo‘ladi:

- Nogironlik+to‘siq=cheklangan inson faoliyati
- Nogironlik +rag‘bat=teng imkoniyatlar.

Inson organizmi tuzilishi va atrof muhit vazifalari o‘rtasidagi aloqani hisobga oluvchi nogironlik konsepsiyasi nogironlarni moslashishidan jamiyat hayotiga o‘zini o‘zgartirish me'yoriga e'tibor qaratdi Shunday qilib, imkoniyati cheklangan insonlarni sog‘lomlashtirish va ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishi nuqson va kamchiliklarni aniqlash va tuzatishda emas, balki, atrofdagi to‘siqlarni bartaraf etish va rag‘batlantirish mehanizmini ishlab chiqishda, shuningdek jamiyat hayotida qarorlar qabul qilishda nogironlarning ehtiyojlarini maksimal hisobga olishda deb biladi.

2. Nogironlarni sog‘lomlashtirish hayot faoliyatidagi cheklovlarni bartaraf qilish uchun nogironlarga sharoit yaratish tizimining muhim elementi bo‘lib, ularning jamiyat hayotiga qatnashishida teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Nogironlarni sog‘lomlashtirish –nogironlarni maishiy, jamiyat va kasbiy faoliyatga qobiliyatlarini to‘liq yoki qisman tiklash qobiliyati tizimi va jarayonidir. Nogironlarni sog‘lomlashtirish hayot faoliyatidagi to‘siqlarni bartaraf etish yoki yanada to‘liq qoplashga yo‘naltirilgan bo‘lib, nogironlarning ijtimoiy moslashuvi, ularning moddiy mustaqillikka erishishi va jamiyatga integratsiyalashuvi maqsadlarida amalga oshiriladi.

Xorijdagi rivojlangan mamlakatlarda nogiron insonlar bilan ishlashning ma'lum standartlari, shakllari va uslublari ishlab chiqilgan. Tabiiyki har bir mamlakatda bu toifadagi aholiga yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, milliy o‘ziga xoslik, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ruhiy-pedagogik an'analar, ma'lum ilmiy yondashuvlar bilan asoslangan bo‘ladi.

Bugungi kunda bolalar ehtiyojlariga individual yondashuvlar. Kompleks yordam ko‘rsatish bo‘yicha an'analarni hisobga olgan holda turli innovatsion dasturlar yaratilmoqda, ishlab chiqilmoqda. Bunday dasturlardan biri BMT tomonidan taklif qilingan bevosita muhit asosidagi sog‘lomlashtirishdir. (BMAS) . U imkoniyatlarni tenglashtirish va barcha nogironlarning ijtimoiy integratsiyasi maqsadida o‘tkaziladigan jamiyatning rivojlanish strategiyasi qanday bo‘lishini belgilaydi. Uning maqsadi: bu sohadagi ishlar holatini o‘zgartirish, hukumat va jamiyatlarni jalb qilgan holda o‘qitishni amalga oshirish; barcha muhtoj nogironlarga mos yordam ko‘rsatish tizimini ishlab chiqish”[91]

. BMAS mohiyati oila va muhitni, bir qator asosiy sog‘lomlashtirish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni, nogironning o‘zini mustaqil sog‘lomlashtirishni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz ularga yordam va ko‘mak sog‘liqni saqlash, ta'lim. bandlik va ijtimoiy himoya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi.

Nogironlarni sog‘lomlashtirish hayot faoliyatidagi cheklovlarni bartaraf qilish uchun nogironlarga sharoit yaratish tizimining muhim elementi bo‘lib, ularning jamiyat hayotiga qatnashishida teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Nogironlarni sog‘lomlashtirish –nogironlarni maishiy, jamiyat va kasbiy faoliyatga qobiliyatlarini to‘liq yoki qisman tiklash qobiliyati tizimi va jarayonidir. Nogironlarni sog‘lomlashtirish hayot faoliyatidagi to‘siqlarni bartaraf etish yoki yanada to‘liq qoplashga yo‘naltirilgan bo‘lib, nogironlarning ijtimoiy moslashuvi, ularning moddiy mustaqillikka erishishi va jamiyatga integratsiyalashuvi maqsadlarida amalga oshiriladi.

---

[91]Медицинская, социальная, профессиональная реабилитация больных и инвалидов: Материалы международной научно-практической конференции 29 – 31 октября 1996 г. Под редакцией Э.И. Збровского – М., 1998. – С.113.

1989-yilda BMT tomonidan qabul qilingan bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada rivojlanishida muammosi bor bolalarning huquqiy himoyasi, ularning qadri, o‘z kuchiga ishonchini saqlashga va jamiyat hayotiga faol qatnashishini imkonini beruvchi bolalarning huquqlari mustahkamlangan. (st. 23); sog‘lom bo‘lmagan bolalarning alohida e'tibor va yordam huquqi ota-onalar yoki boshqa shaxslarning moliyaviy resurslarini hisobga olgan holda bepul taqdim etilishi kerak. Bu yordam va g‘amxo‘rlik ta'lim, kasbga tayyorlash, tibbiy xizmat, sog‘liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorlash, dam olish imkonityalaridan foydalanish bo‘yicha xizmatlardan samarali foydalanishni ta'minlashi kerak. Bolani ijtimoiy hayotga to‘la jalb qilib, uning shaxs sifatida shu jumladan madaniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlashi kerak.

Qayd etish kerakki, nogiron bolalar bunday yordamga juda muhtoj bo‘lib. U jamiyatdagi to‘laqonli hayotga rag‘batlantirish va faollashtirish uchun zarurdir. Ma'lumki nogironlarning to‘laqonli, faol hayoti ularni umumiy-foydali faoliyatga jalb qilish, atrof, jamoat tashkilotlari bilan nogironlarning aloqasini rivojlantirish va saqlash bilan bog‘liqdir. Mohiyatiga ko‘ra nogironlarning ijtimoiy integratsiyasi ularni sog‘lomlashtirishning yakuniy maqsadidir.

Nogiron bolalarni sog‘lomlashtirishning individual dasturi ba'zan 18 yoshgacha bo‘lga davrn qamrab oladi va sog‘lomlashtirishning yosh darajasiga bog‘liq holda qolgan kompleks yondashuvlarda turlicha yo‘nalishlar paydo bo‘ladi.

Bolalardagi nogironlik sezilarli hayot faoliyatidagi cheklovlarni anglatib, u ijtimoiy moslasha olmaslikka xos bo‘lib, rivojlanishdagi muammolar, o‘ziga xizmat ko‘rsatish, muomala, ta'lim, kelajakda kasbiy malakaga ega bo‘lishdagi qiyinchiliklar bilan asoslanadi. Nogiron bolalarda ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish mavjud jamiyat munosabatlari tizimida jamiyatdan ma'lum qo‘shimcha tadbir, vosita va kuchlarni talab qiladi: bu maxsus dasturlar. sog‘lomlashtirish markazlari. maxsus o‘quv muassasalari bo‘lishi mumkin. Ammo bu tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy sog‘lomlashtirish jarayoni qonuniyatlari, vazifalari, mohiyati bilan asoslanadi. .

Sog‘lomlashtirish jarayonida davlat hokimiyati organlari, mahalliy boshqaruv organlari, shuningdek tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik tuzilishidan qat'iy nazar tibbiy, kasbiy va ijtimoiy sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar qatnashadi.

Konvensiya nogiron bolalarni sog‘lomlashtirish sohasida ishtirokchi davlatlarning xalqaro majburiyatlarini belgilaydi. U maksimal mustaqillikka erishi va uni saqlash, jismoniy, aqliy, ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlarini amalga oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida to‘liq ishtirok etish va jalb qilish uchun nogironlarga taqdim etiladigan tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Nogiron insonlarni sog‘lomlashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Ijtimoiy sog‘lomlashtirish** (ijtimoiy muhit, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy ma'naviy sog‘lomlashtirish, ijtimoiy-maishiy moslashuv, jismoniy madaniyat va sport vositasida sog‘lomlashtirish);
- **Psixologik yo‘nalishlar: mijozning shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatini aniqlash va tahlil qilish**, uning xulqi va atrofdagi insonlar bilan o‘zaro munosabatlariga ta'sir qiluvchi sharoitlarni o‘rganish, bu tafovutlarni to‘g‘rilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va prognoz tuzish,yangi sharoitlarga moslashtirish uchun shaxsiy zaminni shakllantirish .
- **Psixologik-pedagogik sog‘lomlashtirish** (maktabgacha tarbiya va ta'lim. umumiy ta'lim, psixologik-pedagogik sog‘lomlashtirish ishlari);
- **Axborot xizmatlari:** – bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida aholining layoqatini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish (OAV yrdamida, internet resurslari orqali, ilmiy-ommabop va amaliy qo‘llanmalar chiqarish yo‘li bilan); nogiron bolalar hayot faoliyati uchun zarur muhitni- nogiron bolalar uchun axborotga kirishning zarur sharoitini yaratish;
- **Huquqiy yo‘nalishlar:** –yuridik va jismoniy shaxslarga bolalar huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha maslahat xizmatini ko‘rsatish;
- **-** bolalarni ijtimoiy himoya qilish tashkilot va muassasalarida konsultativ seminarlarni tashkil qilish va o‘tkazish.

- **Kasbiy sog‘lomlashtirish** (kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘qitish va ta'lim olish, ishga joylashtirish, ishlab chiqarishga moslashtirish.);
- **Logoped-defektologik sog‘lomlashtirish**:rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga yordam tashkil qilish, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o‘z vaqtida aniqlash, o‘qitish, ijtimoiy moslashtirish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilish.
- **Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash:** –ilmiy-uslubiy va ta'lim yo‘nalishlari masalalarini amalga oshirish, mahalliy va xorij ish tajribasi bilan tanishish uchun mutaxassislar (shu jumladan xorijiy) jalb qilgan holda konferensiya, seminar, trening, tashkil qilish va o‘tkazish; mutaxassislar uchun dastur va treninglarni o‘rgatuvchi ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

Umumiy kasallik, jarohat yoki shikastlanish natijasida nogiron bo‘lgan bola bilan sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazuvchi ijtimoiy xodim nogironning shaxsiy va ijtimoiy maqomini tiklashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidan foydalanishi kerak.

Funksiyalarning buzilish darajasiga bog‘lqi holda (bolaning ijtimoiy moslashuv imkoniyatiga uning ta'sirini hisobga olib) nogiron insonlarda sog‘lik buzilishning darajasi belgilanadi.

Sog‘liqni yo‘qotishning birinchi darajasi yo‘riqnomaga binoan vazifalarning yengil va o‘rtacha buzilish bo‘lib, bolada nogironlikni belgilashning ko‘rsatkichi bo‘ladi, ammo 18 yoshdan kattalarda bunga zaruriyat tug‘ilmaydi**.**

Sog‘liqni yo‘qotishning ikkinchi darajasi o‘tkazilgan davolashga qaramasdan organlar va tizimlar faoliyatining buzilishi, bolaning ijtimoiy moslashuvchanligining cheklanishida aks etadi. (kattalarda 3-guruh nogironlik);

Sog‘liqni yo‘qotishning uchinchi darajasi kattalarda 2-guruh nogironligiga mos bo‘ladi. ;

Sog‘liqni yo‘qotishning to‘rtinchi darajasi organlar va tizimlar vazifalarining birdan buzilishida belgilanib, davolash va sog‘lomlashtirish

tadbirlarining samarasizligi va bolaning ijtimoiy moslasha olmasligiga olib keladi. (kattalarda nogironlikning 1-gurug‘iga xos)[92].

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish aholini ijtimoiy himoya qilish organlari qarori bo‘yicha shartnomalar asosida amalga oshirilib, ijtimoiy himoya organlari bilan boshqacha mulkchilik shakliga ega ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida tuziladi.

Keksa yoki nogiron fuqarolar ijtimoiy xizmatlar olishda quyidagi huquqlarga ega:

• ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari tomonidan hurmat va insoniy munosabat;

• o‘z huquqlari, burchlari va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartlari to‘g‘risida axborot olish;

• ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga rozilik berish;

• ijtimoiy xizmat ko‘rsatishdan voz kechish;

• ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy muassasa xodimiga ma'lum bo‘lgan shaxsiy xususiyatga ega axborotning maxfiyligini ta'minlash;

▪ O‘z huquqlarini himoya qilish, shu jumladan sud tartibida.

Qo‘llash vazifalariga ko‘ra quyidagi texnologiyalar ajratiladi:

• psixologik (ruhiy jarayon, holatlarga ta'sir qiluvchi);

• ijtimoiy-ruhiy (inson-guruh tizimidagi jarayonlarni o‘zgartiruvchi);

• tibbiy-ijtimoiy (jismoniy holatga ta'sir qiluvchi va insonning ijtimoiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan);

• moliyaviy-iqtisodiy (ehtiyojlarni ta'minlash imkonini beruvchi nafaqa, imtiyoz va boshqa moddiy resurslar).

Qo‘llanish sohasiga ko‘ra quyidagi texnologiyalarga bo‘linadi:

tashxis (ijtimoiy muammoni aniqlash, sabablari va uni hal qilish usullarini belgilash, axborot to‘plash):

---

[92]Аргун Л.Е., Капустина И.В. Спортивно-реабилитационная игра “Ринго – Надежда”. // Вестник психосоциальной и коррекционно-реабилитационной работы. – М., 1997. – №2. – С.1.

- korreksiya (mizozning ijtimoiy maqomi, iqtisodiy, madaniy darajasini o‘zgartirish);
- sog‘lomlashtirish (mijoz resurslari va hayotiy quvvatini tiklash bo‘yicha yordam);
- profilaktika (ijtimoiy va individual xatarlarning oldini olish);
- moslashish (individning notanish jamiyat va madaniy tizimga kirishini yengillashtirish).

1. Nogironlikning sabablari va dinamikasi. **Ijtimoiy sharoit** insonning shaxs sifatida rivojlanishi, shakllanishini belgilaydi, uning jismoniy va ruhiy sog‘ligini saqlashga yoki unga patogen ta'sir ko‘rsatishga sabab bo‘ladi.

Inson sog‘ligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillarga quyidagilar kiradi:

– iqtisodiy (insonning hayot darajasi, bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o‘tish);

– siyosiy (davlat siyosatining yo‘nalishlari, boshqaruv tizimi tarkibidagi o‘zgarishlar, xalqaro munosabatlar);

– demografik (aholi sonining o‘zgarishi, ehtimoliy hayot ko‘rish davomiyligi, aholining ma'lum yosh, jins va milliy guruhlar bo‘yicha ajralishi);

– ilmiy-texnik (ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablik darajasi va samaradorligining o‘zgarishi, kadrlarni tayyorlash darajasidagi o‘zgarishlar, kommunikativ jarayonlar, ishsizlik darajasi.);

– ta'lim (ta'lim olish ko‘lami va muddatlarining o‘zgarishi)

Aholi sog‘ligi holatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri –nogironlikdir**. Nogironlikni** baholashda umumiy aholi orasida nogironlar soni va shu yilda birinchi marta nogironlik belgilangan bemorlar soni to‘g‘risidagi statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

Nogironlik miqdori juda ko‘p omillarga bog‘liq:

– millat sog‘ligi holati (shu jumladan genofond sog‘ligi);

– jarohatlanishning yuqoriligi (maishiy, transport, ishlab chiqarish) va jarohat oqibatlaridan noodatiy chiqish;

– aholining bevaqt biologik qarishi;

– sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanganligi;

– hayot sifatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot;

– ekologiya holati, tarixiy ahvol;

– jamiyatning ijtimoiy agressivligining kuchayishi, siyosiy sabablar, shu jumladan mamlakatdagi urush va nizoli holatlar.

Nogironlikning statistik ko‘rsatkichi faqatgina millat sog‘ligi va ko‘pgina ijtimoiy omillarga emas, balki axborotni to‘plash usullari, nogironlikni rasmiylashtirish uchun me-yoriy-huquqiy asosga ham bog‘liq. Statistik hisobotlardagi tafovutlarga qaramasdan epidemiologik va statistik ma'lumotlar sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishidagi davlat siyosatini aniqlash uchun xizmat qiladi, bu faqatgina tibbiy xizmatni emas, balki ijtimoiy yordamning barcha shakllarini qamrab oladi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat uchun keksa yoshdagi xodimlar ishlaydigan tashkilot va muasasalar,shu jumladan nodavlat tashkilotlar takomillashtirish va rivojlantirish, mavjud tuzilmalar faoliyat yo‘nalishlari va usullarini takomillashtirish dolzarb masala sanaladi.

Jamiyat o‘zining butun tarixi davomida nogironlar bilan hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar bilan to‘qnashgan. Insoniyatning ijtimoiy-axloqiy o‘sishi natijasida mazkur munosabatlardagi umumiy yondashuv va kayfiyatlar o‘zgardi, bu nogironlar ijtimoiy hayotda qanday o‘ringa ega bo‘lishlari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini qanday qurishlari masalalariga tegishlidir. Jamiyat axloqi va tushunchalari tarixining taxlili shuni tasdiqlash imkonini beradiki, bu yondashuv quyidagi shaklda o‘zgardi.

Bugungi jamiyatda nogironlikning asosiy sabablari va omillari quyidagilardir:

- nochorlik;

- sog‘liqni saqlashning past darajada rivojlanganligi;

- noqulay va xavfli mehnat sharoitlari;

- muvaffaqiyatsiz ijtimoiylashuv jarayoni;

-qarama-qarshi me'yorlar va qadriyatlar hamda boshqalar.

O‘zbekiston zamonaviy ijtimoiy siyosatining yo‘nalishlaridan biri nogironlarni ijtimoiy himoyalash, ularni sog‘lomlashtirish sanaladi. Sog‘lomlashtirish markazlarining muhim vazifalari qatoriga nogiron bolalarga ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish, ularning huquqiy, tibbiy, ruhiy-pedagogik, ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlash, kelgusida o‘z hayotlarini barpo etishlari uchun yordam berish kiradi.

Nogironlik jismoniy, ruhiy, sezgi, ijtimoiy, madaniy, qonunchilik va boshqa to‘siqlar bilan imkoniyatlarning cheklanganligi bo‘lib, nogiron insonga jamiyatning boshqa a'zolari kabi jamiyatga integratsiyalash hamda oila va jamiyat hayotiga qatnishish imkonini bermaydi. Jamiyat nogiron shaxslarning muhim ehtiyojlariga o‘z standartlarini moslashtirishi shart bo‘lib, bu ularning mustaqil hayot kechirishini ta'minlash uchun zarurdir

Nogiron insonlar bilan qanday to‘g‘ri munosabat o‘rnatish mumkin?

Shaxsi yoki tanasi o‘zgargan shaxs bilan munosabatda:

- sabrli bo‘lish va uning taklifini oxirigcha eshitish;
- yordam va ko‘mak taklif qilish, ammo qabul qilmaguncha yordam bermaslik;
- takabburona ibora va ishoralarsiz yordam ko‘rsatish;
- tabassum qilish va ko‘ziga qarash.

Ruhiy kasallikka ega shaxs bilan muloqotda:

- insonga masalani tushunish va javob berishga vaqt bering;
- Xotirjam bo‘ling, shovqin chiqarishdan tiyiling;
- Agar kerak bo‘lsa tushunarli va bir necha marta ayting;
- Kattalar bilan bolalarga gapirganday muomalada bo‘lmang;
- Tushunarli gapiring va aqlli so‘zlardan foydalanmang;
- Doimo insonning o‘ziga gapiring.

Eshitish qobiliyatida muammo bo‘lgan shaxs bilan muloqot qilishda :

- Inson qanday aloqa vositalaridan foydalanishini doimo aniqlang.
- Insonga qarama-qarshi turing va unga murojaat qiling (agar tarjimon bo‘lsa unga emas).
- Esda tuting, shovqin solish befoyda.
- Insongi gapirganda qo‘lingizni, sigareta yoki ovqatni ushlamang .
- Insonning diqqatini jalb qilish uchun yelkasidan ushlang.
- Guruhli muhokamada u qatnashishi va o‘zini begona sezmasligi uchun mavzu to‘g‘risida ayting.
- Eshitish apparatlari barcha ovozlarni kuchaytirib beradi, shuning uchun ortiqcha shovqin solmang.

Ko‘rish qobiliyatida muammo bor shaxs bilan muloqotda:

- O‘zingizni aniq ayting va barcha belgilarni tasvirlang.
- Unga qo‘lingizni berib yordam taklif qiling .
- Insonni yo‘naltirib, aniq ko‘rsatma bering (masalan bu baland zinapoya)
- O‘tirishni taklif qilib, kreslo yoki stulga joylashtiring.
- Guruhli muloqotda ismi bo‘yicha insonga murojaat qiling.
- Suhbatni to‘xtatmoqchi yoki ketmoqchi bo‘lsangiz xabar bering.
- Shunday inson bilan xonaga kirganda uni tasvirlab bering.
- Uning yo‘l boshlovchisiga emas insonning o‘ziga murojaat qiling.
- Eshik to‘liq ochilishi yoki to‘liq yopilishi kerak.

Nogironlar aravachasidagi inson bilan muloqotda:

- Uning roziligisiz aravachani va boshqa yordamchi vositalarni harakatga keltirmang.
- U bilan doim bir darajada bo‘ling. Egilmang.
- Uni itarish uchun aravachani mahkam ushlamang.
- Agar siz peshtaxta va baland stol orasida bo‘lsangiz ularni aylanib o‘ting .

- Inson bilan suhbatlashishdan ko‘ra unga zarur sharoitlar mavjudligini tekshiring (pandus, lift, mos hojatxona)[93]
- .

O‘zini tekshirish uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasida nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi xususiyatlarini ko‘rsating? Nogironlarga qanday xizmatlar va qanday asoslarda taqdim etiladi?
2. Nogironlik ijtimoiy o‘ziga xoslik sifatida.
3. Nogiron insonlar duch keladigan muammolar va ularning sabablari?
4. Nogironlik tushunchasining turli ta'riflari.
5. Stereotiplar va ularning nogironlar va ularning oila a'zolari turmush tarzini shakllantirishdagi ta'siri, bu jarayonda OAV ning roli.
6. Nogironlarning o‘zini ko‘rsatishiga qiyinchilik tug‘diruvchi sabablar nima?
7. Nogiron insonlar bilan munosabatlarda umumiy stereotiplar qanday ahamiyatga ega.?
8. Nogiron insonlar hayotini me'yorlashtirish uchun qanday ijtimoiy ish va kafolatlardan foydalanish mumkin?

14-Mavzu . Jamiyatda bandlik muammolari va ishsizlarga ijtimoiy yordam

1.Ijtimoiy ishda ishsizlik tushunchasi.

2. Ishsizlik shakllari.

3. Ishsizlar bilan ijtimoiy munosabatlar

[93]Я. ЧечеринаСоциальная работа с детьми с инвалидностью методическое пособие. – Ташкент. 2011.- С. 16.

1.Ishsizlik deganda mehnat taklifi talabdan ortiq bo‘lganda mehnat bozoridagi ham miqdor ham sifat jihatdan nomuvofiqlik tushuniladi. Ishsizlik uni xarakterlovchi turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqilishi kerak. Bunda uni o‘rganish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ishsizlik maqomi; ishsizlik darajasi;

Ishsizlikning tarqalishi va harakati

ishsizlar; ishsizlikning davom etishi;

Ishsizlik turlari.

Xalqaro mexnat tashkiloti (XMT) metodologiyasi bo‘yicha ishsiz deb bugungi kunda ishga ega bo‘lmagan, ammo unga kirishga tayyor, iz izlayotgan, ish haqidan boshqa daromad manbasiga ega bo‘lmagan shaxs tushuniladi.

Qonunga ko‘ra ishsiz deb mos ishni izlash, unga kirishga tayyor bo‘lgan, bandlik xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tgan, ishga va ish haqiga ega bo‘lmagan mehnatga layoqatli shaxs tan olinadi. Qayd etish kerakki, bizning mamlakatimizdagi ishsizlikni hisobga olishning qabul qilingan tizimi rossiya mehnat bozoridagi haqiqiy holatni aks ettirmaydi, ko‘pgina ishsiz fuqarolar mehnat birjalarida ro‘yxatdan o‘tmasdan mustaqil ravishda ish qidiradilar va nodavlat vositachilik tuzilmalariga murojaat qiladilar.

Zamonaviy fanlar ishsizlikning tabiiy darajasi tushunchasidan foydalanadi. Turli mamlakatlarda ishsizlik darajasi sezilarli ravishda farqlanib, u tabiiy ishsizlik darajasiga, mamlakatdagi iqtisodiy sikl fazasiga, bandlik sohasidagi davlat siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.

2. Bugungi kun iqtisodchilari ishsizlikni bozor iqtisodiyotining tabiiy va ajralmas qismi sifatida keltiradilar. Shu sababli ishsizlik turlari tahliliga katta e'tibor beriladi. Uning asosiy turlari quyidagilar: friksion, tarkibiy va davriy, shuningdek ishsizlikning maxsus –yashirin turi ham bor.

Friksion ishsizlik mehnat taklifining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Insonga faoliyat turi va ish joyini erkin tanlash huquqi berilgan, u mazkur huquqdan foydalanadi. Ayrimlar ixtiyoriy ravishda ish joyini almashtiradi, ba'zilar ishdan

ketgandan so‘ng yangi ish izlaydi, boshqalar vaqtinchalik, mavsumiy ishlarni yo‘qotadi, ma'lum bir toifa (yoshlar) birinchi marat ish izlaydi. Bu toifadagi shaxslarning bir qismi ishga kiradi, ba'zilari ish izlashda davom etadi. Shu vaqtda yuqorida keltirilgan sabablarga ko‘ra yangi ishchilarning bo‘shatilishi sodir bo‘ladi. Mehnat bozori ishchilar soni va ish o‘rinlari mos kelmasligi natijasida qiyinchilik bilan ishlaydi.

Friksion ishsizlik albatta yuz beradigan va ixtiyoriy ishsizlik sanalib, insonning o‘zining xoxishi bilan ishdan ketishi natijasida yuz beradi va ko‘pgina xodimlar kam haq to‘lanadigan va mazmunsiz ishdan ko‘p haq to‘lanadigan va sermazmun ishga o‘tadilar. Tuzilmaviy ishsizlik ba'zan tarkibiy ishsizlik deb nomlanadi. Uning mohiyati shundan iboratki iste'mol talabi va texnologiyalar tarkibidagi o‘zgarish bo‘lganda mehnatga umumiy talab ham o‘zgaradi. Mehnat taklifi kelgusida insonning psixologik tarzi barqarorligi natijasida mehnat bozorining harakatsiz qismi bo‘lib, o‘zgarayotgan mehnat talabining sifat ko‘rsatkichlariga mos kelmaydi. Oldin band bo‘lgan ishchilarni qayta tayyorlash va yangi xodimlarni tezkorlik bilan tayyorlash imkonining yo‘qligi sababli turli sohalardagi mehnat taklifi va talabida muvozanat buziladi. Tarkibiy ishsizlik uzoq va xoxishsiz davom etadi.

Davriy ishsizlik –ishlab chiqarishning pasayishi, iqtisodiyotga investitsiyalarning qisqarishi bilan bog‘liq ishsizlik. Tovar va ishga yalpi talab tushgan paytda bandlik qisqaradi, ishsizlik o‘sadi. Yashirin ishsizlik bizning fikrimizcha rasmiy va norasmiyga bo‘linadi. Rasmiy yashirin ishsizlikka ma'muriyat xoxishi bilan ma'muriy ta'tilda bo‘lgan, shuningdek to‘liq bo‘lmagan ish vaqti sharoitida ishlaydigan shaxslar kiradi. Norasmiy yashirin ishsizlikka ortiqcha ichki ishlab chiqarish xodimlari soni va bandlik xizmatiga murojaat qilmasdan mustaqil ish izlayotgan shaxslar kiradi. Ishsizlikning mazkur turining miqdori va shakli maxsus tanlama tekshiruvlar orqali aniqlanadi. Yashirin norasmiy ishsizlikning o‘ziga xos belgilari ish vaqtidan noto‘liq va samarasiz foydalanish, malakali va kasbiy qobiliyatga ega xodimlardan yetarlicha foydalanmaslik bo‘ladi.

Ishsizlik shakllarini mantiqan tahlil qilganda quyidagi belgilar bo‘yicha uning tarkibini ko‘ramiz:

Jinsi, ijtimoiy munosabatlarda eng kam ximoyalanish;

Ishsiz ayollar;

Yosh bo‘yicha, yosh ishsizlar va pensiya yoshidan oldingi ishsizlar;

Ijtimoiy guruhlar (ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, texnik ijrochilar);

Ta'lim darajasi;

Kasbiy va staj darajasi;

Daromad va ta'minlanganlik darajasi;

Ishdan ketish sabablari;

O‘ziga xos guruhlar.

Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari eng muhim global va milliy muammolardan kambag‘allik va ijtimoiy beqarorlik bilan birga ko‘rib chiqiladi. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari.

Salbiy.

1. Jinoiy holatlarning kuchayishi.
2. Ijtimoiy tanglikning oshishi.
3. Jismoniy va ruhiy kasalliklar miqdorining oshishi.
4. Ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi.
5. Mehnat faolligining pasayishi.

Ijobiy.

1. Ish joyining ijtimoiy qadrining ko‘tarilishi.
2. Bo‘sh vaqtning ko‘payishi.
3. Ish joyini tanlash tanlash erkinligining oshishi.
4. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va qadrining oshishi.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari.

Salbiy.

1.O‘qitish natijalarini qadrini tushirishi.

2.Ishlab chiqarishni qisqarishi.

3.Ishsizlarga yordam xarajatlari.

4.Malakaning yo‘qolishi.

5.Hayot darajasining pasayishi.

6. Milliy daromadni yaratmaslik.

7. Soliq tushumlarining kamayishi.

Ijobiy

1.Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish uchun ishchi kuchi zaxirasini yaratish.

2.Mehnat qobiliyatini rivojlantirishga rag‘bat sifatida xodimlar o‘rtasidagi raqobat.

3. Qayta o‘qitish va ta'lim darajasini oshirish uchun bandlikdagi tanaffus.

4.Mehnatning intensivligi va samaradorligini oshirishni rag‘batlantirish .

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) № 168 «Bandlikka ko‘maklashish va ishsizlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyasida» ishsizlikdan ijtimoiy himoyalash tizimining prinsipial asoslari ishlab chiqilgan va shakllantirilgan. Bu tizimning asosiy maqsadi ishsizlik bo‘yicha nafaqalar taqdim qilish, tadbirkorlar tomonidan samarali bandlikni taklif etish, ishchilar uchun shunday bandlikni izlash xususiyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

3.Ishsizlik- bizning jamiyatimizdagi eng o‘tkir muammolardan biridir. Uning salbiy oqibatlari jamiyatning barcha a'zolariga ta'sir qilib, kasalliklar darajasining oshishi, alkogolizm, giyohvandlik, ajralishlar, oiladagi zo‘ravonliklar kabi boshqa muammolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Inqiroz holatidan insonni olib chiqish, jamiyatda munosib hayotni ta'minlash ijtimoiy ish asosini tashkil qiladi, shuning uchun yangi va murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini kamaytirgan ishsizlarga ijtimoiy xodimlar ko‘mak beradilar. U fuqarolik va insoniy huquqlarining himoyachisi sifatida davlat o‘rtasida vositachi sifatida qatnashadi.

Bunday vositachilikning zaruriyati shu bilan asoslanadiki, davlat doimo huquqlarni himoya qilish va uning mavjud usullarini kafolatlashda qatnasha olmaydi. Insonning teskari reaksiyasi ish joyida yetarli kafolatlarni olmaganda begonalashuv, asotsial ahloq, ruhiy inqiroz bo‘ladi. Bunday munosabatlardan ikkila tomon: davlat va fuqaro ham qiynaladi. Ijtimoiy qonuniyatlar va ularni

amalga oshirishning turli shakllarini bilish asosida ijtimoiy xodim davlat va shaxs manfaatlarini moslashtiradi. Ijtimoiy xodimning yordami bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin: ishsizlar huquqlari va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan bevosita yorda ularning hayot darajasini yaxshilash, noxush ruhiy holatlarni bartaraf etish sanaladi.

Bilvosita yordam ishsizning atrofidagilari orqali (oila, do‘stlar, yaqinlar) turli davlat fondlari va tashkilotlar orqali taqdim etiladi.

Ijtimoiy xodimlar ko‘rsatadigan kasbiy yordamlar turlicha bo‘ladi. Ijtimoiy maslahatchi xodim bo‘sh o‘rinlar mavjud korxonalar qaerda mavjudligi, qayta o‘qitish imkoniyatlari to‘g‘risida maslahat beradi. Shuningdek kasbiy maslahatlarni o‘tkazadi. Bu bosqichda mijoz ruhiy yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Shaxsiy ruhiy maslahat faolligi pasaygan, pessimistik kayfiyatdagi va o‘zini yomon his qilayotgan, depressiya holatida bo‘lgan ishsizlarga juda zarurdir. Bunday odamlar yaqinlar va ish beruvchilar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladilar.

Bunda ruhshunosga murojaat qilishni tushuntirishga qaratilgan ijtimoiy xodimning ma'rifiy faoliyati zarurdir. Stress holatlarini bartaraf etishdagi birinchi yordam ishsizni ishga joylashtirish sanaladi. Ijtimoiy xodim yordamining keyingi yo‘nalishi o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalari bo‘yicha ishsizni o‘qitish, ish izlashda maqsadlar tartibini belgilash orqali o‘zini ishga joylashtirishni rejalashtirish sanaladi. Bundagi bosqichlar: rezyume tuzish, gazetaga e'lon berish, ishsizlarga muloqot qilishni o‘rgatish, ruhiy holatni ko‘tarish.

Ijtimoiy xodim shuningdek ishsizlar bilan ularning kommunikativ qobiliyatlarini tiklashga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazishi mumkin. Buning uchun guruhli trening mashg‘ulotlari qo‘llanilib, ishsiz fuqarolarni jamiyatga moslashish dasturlari doirasida klub shaklida mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Klubning bosh maqsadi

ishsizlarni mehnat bozori to‘g‘risidagi axborot bilan ta'minlash, ish izlash ko‘nikmalarini o‘rgatish, mos ishni topish muddatini qisqartirish uchun olingan ko‘nikmalarni amalda qo‘llashga yordam ko‘rsatish.

Ishchizlik muhim ijtimoiy institut bo‘lgan oilaga juda katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu uning hayotiy darajasining pasayishiga, davlat tomonidan belgilangan o‘z vazifalarini qiman bajarilmasligiga, shuningdek uning buzilishiga olib keladi. Ishsiz oilalarda bolalar bilan muloqotda qattiqqo‘l bo‘lish, ularning asab tizimiga ta'sir qiladi.

Ishsizlar va ularning oilalarini inqirozdan chiqarish uchun ijtimoiy xodim yordamning turli shakllarini qo‘llaydi. Avvalo u ishsiz oilaning holatini o‘rganadi.

Asosiy muammolarni aniqlab (asotsial xulq mavjudiligi, hayot sharoitining yomonligi, bolalarning o‘zlashtirmasligi) ijtimoiy xodim ma'lum yo‘nalishdagi yordamni ko‘rsatadi. Bunda boshqa tashkilotlarni ham jalb qilish mumkin. Bu yuridik yordam ham bo‘lishi mumkin. Asossiz ishdan bo‘shatish, nafaqalarni noto‘g‘ri to‘lash holatlarida) . Shuningdek ijtimoiy xodim stress holatlarida faqatgina ishsizni emas, balki uning oila a'zolarini ham ruhiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirishi mumkin.

Ijtimoiy xodim ishsizga ish izlash va ishga joylashtirishga ko‘maklashishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor insonning kasbiy salohiyatini namoyon qilishga, oldingi ish joyida qaysi vaqtda va qanday ish haqi bilan ishlaganiga qaratiladi.

Ijtimoiy xodim ishsizga ularning assotsiatsiyalarini yaratishga ko‘maklashishi mumkin. Birlashga ishsiz shaxslar xususiy korxona ochishlari mumkin. Ijtimoiy xodimning vazifasi mavjud guruhlar to‘g‘risida axborot to‘plash va mijozlarni yo‘naltirishga maslahat berishdan iboratdir.

Ijtimoiy xodim faoliyatining zarur jihati ishsizlikni qisqartirishga xos bo‘lgan tadbirlarni o‘tkazishdir. Bunday tadbirlardan biri maktablarda ijtimoiy xodimning ma'rifiy faoliyatidir.

Ishsizlarni mehnat faoliyatiga samarali qo‘shish uchun makro darajadagi mexanizm zarur bo‘lib, u o‘z ichiga meyoriy hujjatlarda mustahkamlangan davlat bandlik xizmatining faol siyosatini o‘tkazishni oladi. Mikro darajadagi ijtimoiy

xodimning faoliyati ishsizning o‘z kuchiga ishonchini tiklashga, uni faol mehnat faoliyatiga qaytishga, odamlar bilan samarali muloqot va jamiyatda o‘zini to‘laqonli namoyon qilishga yordam beruvchi aniq tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Nazorat uchun savollar

1. Ishsizlik muammosi , uning asosiy shakllari (qo‘nimsiz, yashirin, uzluksiz).
2. Ishsizlik sohasida ijtimoiy xodimning vazifalari.
3. Ishsizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bandlik xizmatlari faoliyati. Bandlik xizmatida ro‘yxatga olish tizimi.
4. Aholi bandligini ta'minlash bo‘yicha davlat dasturlarining zarurligi.

Referatlar mavzulari

1. Tashkiliy yordam va settlment
2. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlash maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
3. AQSh dagi ijtimoiy sohada dastlabki ilmiy maktablar
4. 1945-1970 yillarda ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi.
5. Ijtimoiy ishning zamonaviy nazariy modellari
6. Ijtimoiy xodimlar kasbi: zamonaviy talablar
7. Xorijda ijtimoiy xodimlarni o‘qitish tizimi
8. Ijtimoiy xodimlar faoliyat sohasi va bandligi.
9. Ijtimoiy ishda etik tamoyillar va dilemmalar
10. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: tushunchasi, paydo bo‘lishi, rivojlanishi
11. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: tushunchasi, maqsad va vazifalari
12. Umumiy farovon davlat konsepsiyasi
13. AQShda xususiy ijtimoiy sug‘urtalash
14. AQSh da aholini ijtimoiy muhofaza qilishning davlat tashkilotlari
15. AQSh da xususiy ijtimoiy tashkilotlar
16. AQSh da ko‘ngilli tashkilotlar
17. Xalqaro xayriya tashkilotlari
18. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida jamoadagi ijtimoiy ish
19. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida sog‘liqni saqlash muassasalarida ijtimoiy ish
20. G‘arbiy yevropa mamlakatlarida huquqni muhofaza qilish organlari tizimida ijtimoiy ish
21. G‘arbiy yevropa mamlakatlari ta'lim muassasalarida ijtimoiy ish
22. yevropa mamlakatlarida bolalar bilan ijtimoiy ish
23. yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ish tizimida oila: o‘zaro munosabatlar muammolari

24. yevropa mamlakatlarida bolalarni tarbiyalash va parvarishlashda oilaga ko‘mak beruvchi tashkilotlar

25. O‘zbekistonda ijtimoiy ish amaliyoti va oilani qo‘llab-quvvatlash xizmati rivojlanishi

26. Nogiron bolalar bilan ishlashda nodavlat tashkilotlar ahamiyati

27. Ijtimoiy siyosat asoslari va zamoanviy bosqichda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni tashkil etish.

28. Oila va bolalar bilan ijtimoiy ishni tashkil etish: yangi yondashuvlar, texnologiyalar, istiqbollar

29. Nogiron bolalar bilan ishlashda nodavlat tashkilotlar ahamiyati

30. Nogiron bolalar bilan munosabatlarda O‘zbekiston ijtimoiy siyosati tahlili

31. 2004-2010-yillarda ijtimoiy ish sohasida mutaxassislar tayyorlash.

32. O‘zbekistonda ijtimoiy ishni rivojlantirish istiqbollari.

33. Oila va bolalar bilan ijtimoiy ishni tashkil etish: yangi yondashuvlar, texnologiyalar, istiqbollar

34. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy himoyasi va reabilitatsiyasi

35. Turli shaklda aloqador bo‘lgan o‘smirlar bilan ijtimoiy ish

36. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan chiqqan fuqarolar bilan ijtimoiy ish

37. Deviant axloqli qarovsiz bolalar va voyaga yetmaganlar ijtimoiy reabilitatsiyasi

38. Bolalar va yoshlar bilan ishlashning psixosotsial texnologiyalari.

39. Ijtimoiy ishda maslahat berish va vositachilik texnologiyalari

40. Oila bilan ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis

41. Ta'lim olishda alohida ehtiyojga ega bolalar huquqlarini amalga oshirishda ijtimoiy xodimlar ahamiyati va vazifalari

42. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvida oilaning ahamiyati

43. Imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatga integratsiyalashuvi maqsadida ijtimoiylashuvni takomillashtirish

44. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

45. Ijtimoiy tashkilot mijozlari bilan ziddiyatlarni oldini olish bo‘yicha xodimlar ishlari shakllari va usullari

46. Band bo‘lmaganlar bilan ishlash texnologiyasini baholash va uning samaradorligini oshirish asoslari

47. Mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va ijtimoiy tashkilot xodimlarini moddiy rag‘batlantirish

48. Byudjet tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ichki hayotiy omillar hisobi

49. Ijtimoiy sohadagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini takomillashtirish: referativ tahlil

50. Band bo‘lmaganlar bilan axborot ishlari shakllari va usullari

51. Nodavlat pensiya fondlari faoliyatini tashkil etish

52. Ijtimoiy tashkilotlar hayotida homiylikning o‘rni va ahamiyati

53. Muhtojlarga yordam beruvchi shaxslar bilan ishlashni tashkil qilish usullari (jismoniy va yuridik shasxlar)

54. Jamiyat fikri shakllari va ijtimoiy tashkilotlarni boshqarishda uning o‘rni

55. Ijtimoiy ishning qonuniy-huquqiy asoslarini shakllantirish.

56. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish tamoyillari, ularning ijtimoiy qonunchilikda aks etishi.

57. Ijtimoiy ishning xalqaro tajribasi: xalqaro me'yorlar, standartlar va milliy xususiyatlar.

58. Ijtimoiy ish nazariyasida mehnat faoliyati muammolari.

59. Mijozlar muammolari ijtimoiy ish faoliyat ob'ekti sifatida.

60. Yolg‘izlik ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida.

61. Nogiron bolalali oila ijtimoiy ish ob'ekti sifatida.

62. Ayol-onalar manfaatlarini himoyasi ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida.

63. yetim bolalar ijtimoiy himoyasi ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida.

64. Ijtimoiy-faol individ ijtimoiy xizmat ob'ekti va sub'ekti sifatida.

65. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida keksalar hayot darajasi va turmush tarzi.

66. Uysizlik masalasi ijtimoiy ish nazariyasida ijtimoiy deprivatsiya shakli sifatida.

67. Bolaning ijtimoiylashuvi ijtimoiy ish ob'ekti sifatida.

68. Ijtimoiy g‘amxo‘rlik va vasiylik sotsial soha sifatida. Ijtimoiy ish o‘zaro harakat sohasi nazariyasi va texnologiyasi.

69. Ijtimoiy ishni o‘qitish ijtimoiy ta'lim elementi sifatida.

70. Ijtimoiy sog‘liqni ta'minlash ijtimoiy ish amaliyoti muammasi sifatida.

71. Diniy tashkilotlar ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash sub'ekti sifatida.

72. Jamoat tashkilotlari ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlash sub'ekti sifatida.

73. Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida.

74. Oilaviy nizolarni ko‘rib chiqish ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida

75. Yordam berish nokasbiy ijtimoiy ish sohasi sifatida.

76. Kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash ijtimoiy ish amaliyoti muammasi sifatida. Ijtimoiy ish tizimida ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro bog‘liqligi .

77. Zamonaviy Rossiya davlati ijtimoiy siyosatining rivojlanish yo‘nalishlari.

78. Fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish darajasining ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

79. Majburiy ko‘chirish ijtimoiy ish ob'ekti sifatida.

80. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementi sifatida

81. Ijtimoiy ta'minot aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementi sifatida

82. Ijtimoiy sug‘urta aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining elementi sifatida.

83. Ijtimoiy farqlar va ijtimoiy ijodkorlik ijtimoiy ish nazariyasining muammosi sifatida.

84. Bolalar ijtimoiy himoyasi ijtimoiy ish amaliyotining muammosi sifatida.

85. Munitsipal darajada ijtimoiy ishni boshqarish xususiyatlari.

86. Mijozga manzilli yondashuv ijtimoiy ish nazariyasining muammosi sifatida.

87. Ijtimoiy soha ob'ekti sifatida aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlari.

88. Talabalarning ijtimoiy muhofazasi ijtimoiy ish amaliyoti muammosi sifatida

Asosiy atamalar lug‘ati

Altruizm – insonning boshqa shaxslar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishiga asoslangan hayotiy tamoyillari bo‘lib, u o‘z manfaatlaridan boshqalarning manfaatlarini ustun qo‘yganda sodir bo‘ladi.

Anomiya –eski ijtimoiy me'yorlar amalda bo‘lishdan to‘xtab, yangilari axloq regulyatori sifatida hali tasdiqlanmagan paytdagi jamiyat holati (E.Dyurkgeym); jamiyatning madaniy maqsadlari o‘rtasidagi kelishuv va ularga erishishning ijtimoiy qabul qilingan vositalari (R.Merton).

Ta'sir qilish (ijtimoiy ish nazariyasida) – muammolarni hal qilish maqsadida amalga oshiriladigan turli ijtimoiy soha tizimlaridagi mutaxassis va mijozning ikki tomonlama o‘zaro munosabat jarayoni.

Fuqarolik jamiyati– siyosiy hokimiyatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi jamoat institutlari va munosabatlari tizimi, xususiy va guruhiy manfaatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan davlat siyosatini ishlab chiqishga xos munosabatlar tizimi.

«Xatar guruhlari» – ijtimoiy umumiylik, barqarorlik mavjud bo‘lmagan holat, kimda katta imkoniyatlar bo‘lsa hayotiy murakkab vaziyatlarda o‘sha jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy degradatsiyaga yetakchilik qiladi.

Insonparvarlik – dunyoqarash tamoyili,insonni shaxs sifatida o‘z qadrini bilishi, o‘z huquqlarini erkin namoyon qilishi va o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishdagi g‘oyalar va tasavvurlar yig‘indisi..

Deviatsiya – insonga yoki vaziyatga munosabatga ega bo‘lgan, umumiy me'yorlar va qalriyatlarga mos kelmaydigan axloq.

Diskurs – shaxsiy erkinlikning tanqidiy refleksiya elementi (Yu.Xabermas).

Hayotiy holatlar – inson uchun ahamiyatli bo‘lgan va uning ehtiyojlari, qadri va tushunchalari bilan bog‘liq, uning xulqi hamda dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi hayotning ma'lum davridagi hodisalar yig‘indisi.

Hayotiy dunyo (fenomenologiyada) **–** inson sub'ektining o‘z dunyosi, turli odatiy qoida va me'yorlar asosida harakat qiluvchi ijtimoiy amaliyot..

Sog‘lom turmush tarzi – jamiyatda inson hayot faoliyati tizimini o‘ngli tashkil etish bo‘yicha tadbirlar majmuasi.

Invariant (tizim nazariyasida) – barcha ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘z tizimining tengligini ta'minlaydigan tuzilmaning barqaror qismi.

Interaksiya – boshqa shaxslar va o‘zini o‘zgartiruvchi ramzlar, g‘oyalar va muhim ahamiyatli narsalarni o‘zgarishi, hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlarga mo‘ljallangan dinamik izchillik. (Ch.Kuli, D.Mid).

Intervensiya ijtimoiy ish nazariyasida) – kasbiy faoliyat doirasidagi o‘zgarishlar va ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayonida mutaxassislarning aralashuvi.

Ijtimoiy ish mutaxassislari – ijtimoiy ish organlari va tashkilotlarida lavozim vazifalarini bajaruvchi, mos huquq. Vakolat va javobgarlikka ega insonlar.

Ijtimoiy ish mijozi – ijtimoiy ishga turli ijtimoiy muammolarni hal qilish bo‘yicha yordam so‘rab murojaat qilgan va bu yordamni oladigan individ yoki ijtimoiy guruh.

Muomala layoqati – insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarni samarali o‘rnatish va rivojlantirishga imkon beruvchi shaxsiy va kasbiy sifatlar majmuasi..

Amaliy faoliyat uslubi – maqsadga erishishning qisqa yo‘li, ijtimoiy faoliyatni o‘zgartirish usuli.

Nazariy faoliyat uslubi – bilishning ma'lum yo‘lini tashkil qilish shakli yoki ma'lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, tahlil qilish usuli.

Motiv – uning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq u yoki bu faoliyatga insonning ichki qo‘zg‘alishi.

Me'yorlar – maqsadga erishish uchun foydalaniladigan harakat usuli, vositalari, ijtimoiy qoidalar. (P.Shtompka).

Ijtimoiy xizmat ob'ekti – ijtimoiy muammoni hal qilish, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatning bevosita ko‘magiga muhtoj shaxs, ijtimoiy guruh yoki boshqa jamoa.

Paradigma – atrofga munosabatda bir qator ilmiy jamiyatlarning tadqiqot o‘rni.

Doimiylik (fenomenologiyada) –insonni hayotga tayanchga ega bo‘lishi uchun zarur ahamiyatli narsalar yig‘indisi .

Ijtimoiy ishning huquqiy maydoni – ijtimoiy ish sub'ekti va ob'ekti o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik vositalar tizimi.

Samarali munosabat – ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan hamkorlik munosabatlarini belgilash va kuchlarni birlashtirish yo‘li bilan uning ishtirokchilariga imkon beruvchi ijtimoiy aloqa shakli.

Ijtimoiy ish makoni – inson va uning tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatining o‘zgaruvchi maydon, shaxs faoliyatini optimallashtirishning jismoniy va ijtimoiy omillari yig‘indisi.

Professionalizm – kasbiy faoliyatda samaradorlikka erishish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakaning barqaror darajasi.

Kasbiy faoliyat – xizmat majburiyatlarining doimiy doirasi, inson ta'lim jarayonida olgan bilim, ko‘nikma va malakaning yig‘indisi asosida bajarish.

Kasbiy layoqat – kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorlik, kasbiy tayyorlanish va o‘zini rivojlantirish jarayonida egallangan va chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmaga asoslanadi.

Mutaxassisning kasbiy shakllanishi –shaxs amaliy, ta'lim va tadqiqot faoliyatining maqsadli va uzluksiz jarayoni, insonda bilim, malaka va shaxsiy sifatlar, kasbga malakaviy talablar shakllanishiga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Ijtimoiy ish resurslari –ijtimoiy muammolarni hal qilish va mijozlar ehtiyojlarini qondirishning moliyaviy manbalari va imkoniyatlari.

Refleksiya – o‘zini anglash faoliyati, o‘z shaxsiy holatini aks jettiruvchi ruhiy xususiyat

Xatar – muvaffaqiyat va omadsizlik ehtimoli mavjud bo‘lganda muqarrar tanlash holatida noaniqlikni bartaraf etish bilan bog‘liq inson faoliyati.

Ijtimoiylashuv – jamiyat madaniyatini o‘zlashtirish va qabul qilish jarayonida butun hayoti davomida insonni rivojlanishi va o‘zini namoyon qilishi.

Ijtimoiy faoliyat – boshqa shaxs yoki tabiat bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshiruvchi shaxsiy yoki ijtimoiy jamiyatdagi maqsadli o‘zgarish va yangilanishlar.

Ijtimoiy hayot – ijtimoiy sohaning dinamik jihati, uning sub'ektlarini yaratish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish sohasi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish – hayotning yaxshi sharoitlarini ta'minlash, ehtiyojlarni qondirish, shaxs va ijtimoiy guruhlarning hayot ta'minoti va faoliyat yuritishini saqlab turish bo‘yicha davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlari yig‘indisi, shuningdek fuqarolar hayotiga xavf tug‘diruvchi vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar yig‘indisi**.**

Ijtimoiy infratuzilma – insonning ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratuvchi ijtimoiy faoliyatning tarmoqlari va shakllari yig‘indisi.

Ijtimoiy aloqa – jamiyatdagi axborot almashishining ikki tomonlama jarayoni va jamiyatdagi harakat usuli.

Ijtimoiy ko‘mak – ayotiy qiyin holatlarda vaqtinchalik ko‘rsatiluvchi mehnatga layoqatli, aholining faol guruhlarini ijtimoiy himoyalash shakli.

Ijtimoiy siyosat – barcha ijtimoiy guruhlar hayot darajasini oshirish maqsadida uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va ijtimoiy sohani rivojlanishini boshqarish bo‘yicha davlat va jamiyatning faoliyati.

Ijtimoiy yordam – o‘z hayotiy qiyinchiliklarini mustaqil bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kam daromadga ega, mehnatga layoqatsiz aholi guruhlarini ijtimoiy himoyalash shakli.

Ijtimoiy muammo – mazkur faoliyat va uning natijalari o‘rtasidagi nomuvofiqlik uchun sub'ekt faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan qarama-qarshilik..

Ijtimoiy xizmat – insonparvar faoliyat shakli bo‘lib, o‘z ichiga uning sub'ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni, inson faoliyatining ijtimoiy o‘zgarishlari uchun ijobiy bo‘lgan maqsad va natijalarni oladi.

Ijtimoiy sinergiya – birgalikdagi faoliyat natijasida insonlarning o‘zlarini tashkil etish makoni, bunda o‘zini tartibga solish va o‘zini rivojlantirish namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy adolatlilik – ijtimoiy sohadagi tenglik va notenglikni aniqlovchi baholovchi tushuncha.

Ijtimoiy soha – ijtimoiy o‘zaro munosabatlar makoni, bunda insonlarning hayotiy ta'minoti va ishlab chiqarishi amalga oshadi hamda ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar qondiriladi.

Ijtimoiy eksklyuziya – jamiyatda qonun bilan kafolatlnagan ijtimoiy huquqlardan individ va ijtimoiy guruhlarning begonalashuv holati.

Ijtimoiy davlat – yuqori darajada rivojlangan davlat turi bo‘lib, inson faoliyatining ijtimoiy va iqtisodiy sohalarini boshqarish, unda ijtimoiy adolat va birdamlikni belgilash bo‘yicha faoliyat vositasida barcha fuqarolarning yuqori darajad ijtimoiy himoyalanganligi bilan xosdir.

Ijtimoiy harakat – umumiy ahamiyatga ega shaxsning axloqi, maqsadlari, insoniy harakatlari.

Ijtimoiy o‘zgarish – u yoki bu ijtimoiy tizim holati o‘rtasidagi tafovutlar (P.Shtompka).

Ijtimoiy tengsizlik – ijtimoiy ahamiyatli boyliklardan fuqarolarning bir xilda foydalana olmasligi, ularning ehtiyojlari, ahamiyati va ularni amalga oshirish shakllari turli xilligida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ta'minot – birinchi navbatda mehnatga layoqatsiz fuqarolarning pul daromadlarini saqlab turishga qaratilgan ijtimoiy xatarlar oqibatlaridan aholini saqlash tizimi.

Ijtimoiy ta'lim – ijtimoiy sohaning rivojlanish qonuniyatlarini anglashga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimi.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish – hayotiy qiyin vaziyatlarda bo‘lgan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakli, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘mak. Ijtimoiy-maishiy. Ruhiy-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-sog‘lomlashtirish, axborot va boshqa ijtimoiy ishni ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy hamkorlik – umumiy ijtimoiy muammolarni kelishib hal qilish uchun ijtiomiy guruh va individlarning samarali o‘zaro munosabatini tashkil qilish.

Ijtimoiy sug‘urtalash – yoshi, kasalligi, ishlab chiqarishdagi jarohatlari sababli, vaqtinchalik yoki doimiy ish joyining yo‘qotilishi bilan bog‘liq moddiy yo‘qotishlarni qoplashga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Ijtimoiy o‘zaro ta'sir – o‘zaro asoslangan harakatlarning dinamik izchilligi.

Ijtimoiy munosabat – jamiyatda ma'lum o‘ringa ega bo‘lgan sub'ektlarning o‘zaro ijtimoiy munosabatining me'yoriy namunasi.

Ijtimoiy jarayon – ma'lum maqsadlarga erishishga va bu vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat va o‘zaro ta'sirning izchiz seriyasi.

Ijtimoiy ish sub'ekti – ijtimoiy yordamga va ijtimoiy xizmat tizimi ko‘magiga muhtoj shaxslarning ijtimoiy muammolarini hal qiluvchi shaxs, ijtimoiy jamiyat, boshqa guruh.

Ijtimoiy ish nazariyasi – insonparvar ijtimoiy faoliyat-ijtimoiy xizmat rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, ularni yaxshilash to‘g‘risidagi fan.

Ikkiga ajralish nuqtasi (sinergetikada) – tizim rivojlanishning burilish vaqti, uning evolyusiyasidagi yo‘llarni ajralish nuqtasi.

Qiyin hayotiy vaziyat – insonning uning atrofi va me'yoriy hayot faoliyatini ijtimoiy aloqasini ob'ektiv buzuvchi holat, ijtimoiy ish ko‘magi va yordamiga ehtiyoj sezuvchi murakkab vaziyat.

Fluktuatsiya (sinergetikada) –lahzalik miqdorning uning o‘rtacha miqdoridan favqulodda chetlanishi.

Ahamiyatlilik – predmetning harakat maqsadi bo‘lgan ijtimoiy qoidalar (P.Shtompka).

Ijtimoiy ish samaradorligi – aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy ish va ularning elementi tizimining xususiyati.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Asarlar T.1-20. – T., Uzbekiston, 1992-2015.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: Uzbekiston. 2011.

3. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsetssiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.. Toshkent – «O‘zbekiston». 2009.

5. Ганиева М.Х. XIXаср – ижтимоий ходимлар асри // Ж. BolavaZamon. 2005, №1. – С. 24-25.

6. Ганиева М.Х. Ижтимоий иш асослари. – Тошкент: CHASHMA PRINT, 2009. – 112 с.

7. Ганиева М.Х. Ижтимоий ишга кириш. – Тошкент: CHASHMA PRINT, 2010. – 92 б.

8. Ганиева М.Х Ўзбекистонда ёшлар саломатлиги ҳамда соғлом турмуш тарзи. / «Саломатлик ва соғлом турмуш тарзи- баркамол авлод асоси. Халқаро Форум материаллари- Тошкент: РЦСАД, 2010. – С.243-247.

9. Ganieva, M. & Kim, L. The Development of Social Work in Uzbekistan: Characteristics, Challenges & Successes// Social Work Education in the Asian Hemisphere, Editor: Selwyn Stanley, Faculty of Health & Social Work, Univ. of Plymouth, UK, Publisher: Nova Publishers, USA.

10.ГаниеваМ.Х. XIX аср – ижтимоий ходимлар асри // Ж. Bola va Zamon. 2005, №1. – С. 24-25.

11.Ганиева М.Х. «Ўқитиш, ташхис , даволаш». Ижтимоий ишнинг фаолият тури сифатида ривожланиш тарихи // Бола ва замон. 2007, №1 (6) – 34-36 с.

12.Ганиева М.Х., Карамян М.Х. Болаларни ижтимоий муҳофаза қилиш тизими учун ижтимоий ходимлар тайёрлашда профессиограмма //Халқаро

Форум матариаллари «болаликдан балоғатгача: ижтимоий ҳимоя, ижтимоий иш, ижтимоий интеграция», 26-27 ноябр 2009 й. Тошкент, 2009. – С. 90-95.

13.Ижтимоий иш назарияси. – М.: Юристъ, 1998.

14.Бекмурадов М.Б. Олий маълуХМТли ижтимоий ходимлар тайёрлашда таълим муассасаларининг аҳамияти // «Инклюзив таълим ва болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш шаклларини ривожлантиришда замонавий тенденциялар» халқаро форум материаллари. 28-29 октябр 2008 й. – Тошкент: Республика болалар ижтимоий мослашув маркази, 2008– С. 125-126.

15.Ким Л. Болаларни ижтимоий муҳофаза қилиш тизимида кадарлар маслаларини ҳал қилиш йўллари: Ўзбекистонда ижтимоий соҳа бўйича қайта тайёрлаш курсларини ташкил қилиш // «Инклюзив таълим ва болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш шаклларини ривожлантиришда замонавий тенденциялар» халқаро форум материаллари. 28-29 октябр 2008 й. – Тошкент: Республика болалар ижтимоий мослашув маркази, 2008. – С. 139.

16.Ижтимоий хизмат. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 2003. – С. 81-82.

17.Григорьев С.И., Гуслякова Л.Г. ва бошқалар. Ижтимоий иш назарияси ва услубиёти. ОЎЮ учун ўқув қўлланма Ин-т "Очиқ жамият". – М.: Фан, 1994. – 185 с.

18.Ижтимоий иш асослари / П. Д. Павленок таҳрири остида. – М., 1999.

19.Ижтимоий ишлар бўйича луғат-маълуХМТнома / профессор Холостова Е. И. таҳрири остида– М., 2000.

20.Ижтимоий иш асослари: Дарслик./ П.Д. Павленок таҳрири остида. – М.: ИНФРА-М, 1997.

21.Ижтимоий иш асослари: Дарслик./ П.Д. Павленок таҳрири остида. – М.: ИНФРА-М, 1997.

22.Энциклопедик луғат / Г.В. Осипова таҳрири остида– М. 1995.

23.Каган М.С. Тизимли ёндашув ва гуманитар билим. – Л.: ЛГУ наўриёти 1991.

24.Романычев, И.С.Ижтимоий иш тадқиқот фаолиятига сифат ёндашуви / И.С.Романычев // Ижтимоий иш маҳаллий журнали. – 2006. – №3. – С.27; Ижтимоий иш назарияси: дарслик /. Е.И. Холостова таҳрири остида. – М.: Юрист, 1998.

25.Бэрон Р., Бирн Д., Джонсон Б. Ижтимоий психология: Муҳим ғоялар – СПб: Питер, 2003.

26.Хьелл Л., Зиглер Д. Шахс назарияси – СПб: Питер, 2000 . – С.358.

27.Е.Ярская-Смирнова Ижтимоий иш тушунчалари. Профессионализм. Ижтимоий иш назарияси.

28.Ижтимоий ходимлар касбий стандарти– www.kutsekoda.ee

29.Исмаилова Р. Касбий лаёқатлилик ва ҳаётий шиорлар тўғрисида //Бола ва замон, Тошкент, 2009, № 1

30.Исмаилова Р. Ижтимоий ишларда бошқарув: талаблар ва таклифлар //Бола ва замон. № 4.2009.(17)

31.Карамян М.Х. (М.Ганиева, Л.Ким билан биргаликда, А.Шубина иштирокида) Ижтимоий ходимлар профессиограммаси // Bola va Zamon, 2009/ № 4 (17). – С.22-25.

32.Карамян М. Ижтимоий ишда саломатлик // «Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда социология ривожланишининг долзарб масалалари» республика илмий-амалий конференцияси материаллари 27 май 2010 й. 2-Китоб. – Тошкент, 2010. – С. 159-163

33.Ижтимоий иштарихи. – М., 2002.

34.Ижтимоий ишасослари. – М., 1999.

35.Ижтимоий иш. Луғат-маълумотнома. – М., 1999.

36.Ижтимоий иш: назария ва амалиёт. – М.: Инфра, 2002.

37.Ижтимоий иш: Ўқув қўлланма. – 2-изд., – Ростов н/Д: Феникс, 2003

38. «Ижтимоий ишга кириш» машғулотларига хрестоматия. «Ўзбекистонда академик даражада ижтимоий ишнинг ривожланиши» лойиҳаси – Тошкент, 2006

39.Павленок П.Д. Ижтимоий иш назарияси, тарихи ва услубиёти: ўқув қўлланма. М.: «Дашков ва К”нашриёт-савдо корпорацияси 2003. 428 с.

40.Ижтимоий иш: назария ва амалиёт: ўқув қўлланма / маъс мухт.ф.д., проф. Е.И. Холостов, т.ф.д., проф., А.С. Сорвин. – М.,:ИНФРА – М, 2003 – 427 с.

41.Ижтимоий иш назарияси ва услубиёти / С.И. Григорьев тағрири остида – М. – 2004.

42.Ижтимоий иш назарияси ва услубиёти: Қисқа курс /. В.И. Жуков таҳрири остида. – М.: Союз. 2002.

43.Ижтимоий иш назарияси /маъс муҳ Е.И. Холостова. – М.: Юрист, 2005.

44.Тетерский С.В. Ижтимоий ишга кириш: Ўқув қўлланма. – М.: Академиу лойиҳа, 2000. – 496 с.